O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95-yilligiga bag‘ishlanadi

R.J. KURBANOVA, M.E. ERDONOV,
M.A. ABDIVOXIDOV

DEMOGRAFIYA ASOSLARI

O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND-2026

UO‘K: 314.3:314.5(075)(575.1)
K 94
KBK: 60.7ya73(5O’z)

R.J.Kurbanova, M.E.Erdonov, M.A.Abdivoxidov.
DEMOGRAFIYA ASOSLARI *[Matn]:* ***O‘quv qo‘llanma /*** *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 - 306 bet.*

O‘quv qo‘llanmada demografiya fanining nazariy asoslari, aholi soni va tarkibining shakillanishi, tu‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migratsiya, urbanizatsiya hamda aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini izchil yoritishga qaratilgan. Qo‘llanmada demografik hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ularni baholashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar, demografik tahlil usullari va aholi rivojlanish tendensiyasiyalarining amaliy ahamiyati ilmiy uslubiy yondashuv asosida bayon etiladi.

O‘quv qo‘llanma “Inson resurslarini boshqarish” bakalavriatura ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

B.S.Boltayev – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi dotsenti

Z.S.Artikov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Real iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2026-yil 02-iyundagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (10-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 376-02/06).

ISBN: 978-9910-5306-8-5

© R.J.Kurbanova va b., SamISI. 2026 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2026 y.

KIRISH

Demografiya jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u aholining soni, hududiy joylashuvi, tarkibi va harakatini o‘rganadi. Aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, iste’molchi omili va ijtimoiy munosabatlarning markaziy subyekti hisoblanganligi sababli demografik jarayonlarni chuqur anglash iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy rivojlanish masalalarini ilmiy asosda hal etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois demografiya asoslari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma nafaqat nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, balki real hayotda uchraydigan aholi muammolarini tahlil qilish uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida kuzatilayotgan demografik o‘zgarishlar mazkur fan ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Tug‘ilish darajasining pasayishi yoki yuqoriligi, aholining qarishi, xalqaro va ichki migratsiya oqimlarining kengayishi, urbanizatsiya sur’atlarining tezlashuvi hamda oilaviy tarkibning o‘zgarishi ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan uzviy bog‘liqdir. Mehnat resurslari hajmi, iste’mol bozori sig‘imi, uy-joyga bo‘lgan ehtiyoj, sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlari hajmi, ijtimoiy himoya yuklamasi kabi omillar demografik vaziyat ta’sirida shakllanadi. Demak, aholi bilan bog‘liq har qanday o‘zgarish davlat boshqaruvi va strategik rejalashtirishda albatta inobatga olinishi kerak. O‘zbekiston sharoitida ham demografik jarayonlar strategik ahamiyatga ega. Mamlakatda yoshlar ulushining nisbatan yuqoriligi, ayrim hududlarda aholi zichligining ortib borishi, ichki migratsiya oqimlarining faollashuvi, tashqi mehnat migratsiyasining turli ko‘rinishlari, shahar va qishloq aholisining nisbatidagi o‘zgarishlar jamiyat rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning asosiy maqsadi talabalarda demografik jarayonlarning mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish qonuniyatlari haqida tizimli tasavvur hosil qilishdan iborat. Qo‘llanmada demografiyaning predmeti, obyekti, vazifalari va usullari, aholi soni va tabiiy harakati, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya, yosh-jins tarkibi, oilaviy-

demografik hodisalar hamda demografik siyosat masalalari izchil bayon etiladi. Shuningdek, demografik koʻrsatkichlarni hisoblash, ularni tahlil qilish va amaliy xulosalar chiqarish boʻyicha zarur tushunchalar ham yoritiladi. Oʻquv qoʻllanmaning tuzilishi mavzularni oddiydan murakkabga tamoyili asosida oʻzlashtirishga xizmat qiladi. Dastlab demografiya fanining shakllanishi, uning boshqa fanlar tizimidagi oʻrni va asosiy kategoriyalari izohlanadi. Keyingi boʻlimlarda tugʻilish, oʻlim, tabiiy oʻsish, nikoh va ajralish kabi demografik hodisalarning mohiyati ochib beriladi. Soʻngra migratsiya, urbanizatsiya, hududiy joylashuv, yosh tarkibi va jins tarkibi singari koʻrsatkichlarning mazmuni tahlil qilinadi. Yakuniy mavzularda esa demografik prognoz, aholi siyosati va demografik rivojlanishning istiqbollari haqida umumlashgan qarashlar beriladi. Demografiya fanining oʻziga xos xususiyati shundaki, u statistika, iqtisodiyot, sotsiologiya, geografiya, ekologiya, tibbiyot va davlat boshqaruvi bilan chambarchas bogʻliq. Shu sababli demografik hodisalarni oʻrganishda faqat son koʻrsatkichlari emas, balki ularning ortida turgan ijtimoiy omillar ham muhimdir. Masalan, tugʻilish darajasining oʻzgarishi oilaviy qadriyatlar, ayollar bandligi, daromadlar darajasi va uy-joy sharoiti bilan bogʻliq boʻlsa, oʻlim koʻrsatkichlari tibbiy xizmat sifati, ekologik muhit, ovqatlanish madaniyati va turmush tarzi bilan bevosita aloqador. Shu jihatdan demografik tahlil har doim kompleks yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, demografiya asoslari boʻyicha oʻquv qoʻllanma aholi bilan bogʻliq jarayonlarni ilmiy tahlil qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy mazmunini anglash hamda amaliy qarorlar bilan bogʻlashda muhim manba hisoblanadi. U nazariy bilim, tushunchaviy aniqlik va amaliy yoʻnaltirilganlikni birlashtirgan holda, talabalarning demografiya fanini puxta oʻzlashtirishiga xizmat qiladi. Demografik rivojlanish tendensiyalarini chuqur tushunish esa jamiyatning barqaror, muvozanatli va uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlashda zarur ilmiy asoslardan biri boʻlib qoladi.

I BOB. DEMOGRAFIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA USULLARI

1.1.“Demografiya” fanining premeti va tadqiqot usullari.

1.2. Aholi soni va ularning tuzilmasini o‘rganish.

1.3.Iqtisodiy rivojlanish va aholi takror ishlab chiqarilishining o‘zaro bog‘liqligi.

Tayanch so‘zlar: demografiya, aholi, aholi soni, aholi tarkibi, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, migratsiya, demografik jarayonlar, statistik usul, tahlil, prognoz.

1.1. “Demografiya” fanining premeti va tadqiqot usullari.

Demografiya (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, demos - xalq va grafo – yozaman) - aholining soni, hududiy joylashuvi va tarkibi, ularning o‘zgarishi, ushbu o‘zgarish sabalarini va oqibatlari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va aholidagi o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadigan fan. Demografiyaning predmeti bir vaqtning o‘zida ma’lum bir hududda yashovchi odamlar to‘plami - aholi, shuning uchun demografiyani qisqacha aholi haqidagi fan sifatida belgilash mumkin. Demografiyaning predmeti aholi reproduksiyadir. “Aholi” atamasi aholining ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlarini, uning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari hisobga olgan ishlatilganda qo‘llaniladi.

Aholining ko‘payishi - bu aholining doimiy yangilanishining murakkab jarayoni, avlodlarning uzluksiz yangilanishib tabiiy (tug‘ilish, o‘lim) va mexanik (migratsiya – aholinig tarqalish tabiati va zichligini belgilaydigan aholinning hududiy harakati) natijasida bir vatqning o‘zida biron bir hudduda yashovchi odamlar to‘plami, aholinnig harakatiga aytiladi.

Demografik hodisalar va odamlar hayotidagi hodisalarning ajralmas koordinalari yosh va jinsidir. Yoshi va jinsini hisobga olmaganda, odamlarning oilaviy holatidagi o‘zgarishlari, oilalarning yaratilishi va tuzilishini, tug‘ilish va o‘lim jarayonlarini, odamlarning bir holatdan boshqasiga o‘tishini tahlil qilish mumkin emas. Shuning uchun demografiyada aholinnig yosh jinsiy tuzilishi va uning

o‘rganilayotgan barcha jarayonlarga ta’sirini o‘rganishga alohida ahamiyat beriladi.

Aholi ishlab chiqarishning va barcha boshqa ijtimoiy jarayonlar hamda hodisalarning sub’ekti hisoblanadi. Jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo‘lgan inson butun ijtimoiy boyliklarning yaratuvchisi hisoblanadi. Shu sababli, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining muayyan darajasida odamlar soni, ayniqsa malakaga ega bo‘lgan mehnatkash aholinnig soni keyingi iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Demak, ijtimoiy sharoitlarning hal qiluvchi ta’siri ostida rivojlanadigan aholi holati o‘z navbatida jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib, uning rivojlanishini sekinlashtirshi yoki tezlashtirishi mumkin.

Demografiya fanining amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Deografik jarayonlar tendensiyalarini o‘rganish (tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migratsiya);
2. Jamiyatning demografik rivojlanishiga istiqbolda ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;
3. Demografik prognozlarni ishlab chiqish;
4. Samarali demografik siyosat choralarini ishlab chiqish.

Demografik rivojlanish omillarining rolini o‘rganishda sivilizatsiyaning ilk bosqichlaridayoq e’tibor qaratilgan. Qadimgi dunyo mutafakkirlarini resurslar bilan aholi soni o‘rtasidagi optimal nisbat g‘oyasi qiziqtirgan. Ma’lumotlarda ko‘rsatilgandek, antik davrning mashhur faylasuflari - Platon va Aristotel - aholi masalasi haqidagi qarashlarida uning sonini cheklash muammosiga katta e’tibor berib, aholi o‘sish va harakatini tartibga solish vazifasini aynan davlat zimmasiga yuklaganar.

Aholi zichligi va uning sonidagi o‘zgarishlarning jamiyat hayotiga ta’sirin anglashga bo‘lgan intilish Sharqda miloddan avvalgi 6-7 asrlardayoq ijtimoiy tafakkurga xos bo‘lgan. Jumladan, Qadimgi Xitoyda Konfutsiy “aholi optimumi” g‘oyasini ilgari surib, aholi soni bilan yer maydoni o‘rtasidagi “ideal mutanosiblik”ning buzilishi muayyayan qiyinchiliklarga olib keladi, deb hisoblagan. Aholisi zich joylashagn kam aholi yashaydigan hududlarga ko‘chirishini u aholi soni

va joylashuvini maqsadli tartibga solish sohasidagi samarli davlat chorasi deb bilishgan. Feodal oʻrta asrlar davrida demografik tafakkur yanada rivojlandi. Kech feodalizm mafkurachilari aholi sonining oʻsishi jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib keladi, degan xulosaga kelganlar. Ayrim mualliflar aholinnig koʻpayishi surʼati yashash vositalarinnig miqdoriy koʻosatkichlaridan ancha yuqori boʻlib, bu holat ijtimiy adolatsizlik va qashshoqlikka olib kelishini taʼkidlaganlar.

18 asrda Fransiyada maʼrifatparvar faylasuflar (J.J.Russo, Sh.Monteskiy va D.Didro) aholi sonining koʻpayishini qoʻllab - quvvatlashganlar va uning kamayishini salbiy hodisa deb hisoblaganlar. 18-asrning oxiriga kelib, Gʻariy Yevropada aholi masalasiga oid yangi taʼlimot paydo boʻldi:aholi sonining oʻsishi yashash vositalari oʻsishidan ustun boʻlgani sababli ocharchilik va qashshoqlikka olib keladi. Ingliz olimi T.R.Maltus “Aholi qonuni haqida tajriba va uning jamiyat farovonligini yaxshilashga taʼsiri”nomli asarida aholi sonining koʻpayishini ijtimoiy nomutanosiblik - qashshoqlik va pauperizmning asosiy sababi deb taʼkidlagan. Uning fikricha, aholi geometrik boʻyicha oʻsadi, yashash vositalari esa arifmetik progressiya boʻyicha ortadi.

Metodologik jihatdan multuschilikni tanqid qilish 19 asrda ilgʻor rus ijtimoiy tafakkuri vakillari – V.A.Milyutin va N.G.Chernyashevskiy tomonidan dolzarb deb topilgan. Ular oʻz asarlarida aholi muammolarini keng koʻlami ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va aholining keng qatlamlari turmush sharoitlarini yaxshilash doirasida hal etish zarurligini taʼkidlaganlar[1].

20 asrning birinchi yarmida aholi masalalarini oʻoganish asta sekin mustaqil fan sohasida aylandi, uning predmeti aholi takror ishlab chiqarish qonuniyatlarini va ular bilan bogʻliq masalalaridan iborat boʻldi.

Demografiya aholi takror ishlab chiqarish qonuniyatlarini tadqiq etishda turli usullardan foydalanadi.

Aholi muammolarini tahlil qilishning dialektik usuli har bir alohida holatda demografik jarayonlarning oʻzgarishini belgilovchi oʻzaro

[1] Farhat Yusuf, Jo. M. Martins, David A. Swanson. Methods of Demographic Analysis. Springer Netherlands. 2014. 330.

bog‘liq ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, madaniy,huquqiy,diniy, shuningdek, tabiiy (qurg‘oqchilik, suv toshqinlari,zilzilalar va boshqalar) hodisalarni har tomonlama ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

Demografik jarayonlarni o‘rganish usullari demografik jarayonlar, tuzilmalar hamda aholining umumiy takror ishlab chiqarilishini o‘rganishga xizmat qiluvchi maxsus usullar majmuasidan iborat.

Demografik tahlilning quyidagi asosiy usullar guruhlari ajratiladi:

1. Matematik usullar ayrim demografik jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini, aholining umumiy takror ishlab chiqarishini, oilaning rivojlanishini tahlil qilishda, shuningdek, demografi jarayondarning iqtisodiyot rivoji, atrof - muhit –olati va boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligini (korrelyatsiyasini) aniqlashda qo‘llaniladi;
2. Statistik usullar, ya’ni demografik statistika, statistik tahlil usullaridan foydalanishga xizmat qiladi:nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlar, indekslar, demografik tendensiya va hodisalarning intensivligini ifodalovchi turli tavsiflar;
3. Grafoanalitik usullar va aholini kartografiyalash demografik ma’lumotlarini turli xil grafiklar, sxemalar (yosh-jins piramidalari) chizmalalar, aholi zichligi xaritalari va boshqalar ko‘rinishida taqdim etish uchun qo‘llaniladi;kartografik tahlil demografik jarayonlar dinamikasidagi hududiy farqlarini yaqqol ko‘rsatib beradi;
4. Sotsiologik usullar aholining turli demografik muammolarga bo‘lgan munosabatini o‘rganishda qo‘llaniladi:har bir oila, har bir inson yashash sharoitlari, ijtimoiy muhit, hayotiy tajriba, ota-onalar namunasi va boshqa omillarni hisobga olgan holda tug‘ilish, nikoh,ajralish va migratsiyaga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantiradi.

“Insonlarning demografik hatti harakatlarini” o‘rganayotganda olimlar amaldagi ijtimoiy-psixologik normalarni aniqlaydilar vva odamlarning ushbu masalalardagi fikrlari ularning harakatlariga ta’sir qilishini hisobga oldilar. Shu sababli demografik tahlil olib borishda faqat oilaning hohlovchi bolalar soni emas, balki u nima uchun shunday xoxlashini yoki hohlamasligini, masalan, nega aynan ikki bolani hoxlashini, ko‘proq emasligini aniqlash zarur. Demografik siyosat choralarini ishlab chiqish uchun odamlarning demografik qadriyatlar

bilan bohliq munosabatini shakllanish mexanizmini aniqlash muhimdir. Aholining tug‘ilish muammolariga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun turli usullar qo‘llaniladi, ammo eng ko‘r ishlatiladigan usul – maxsus tayyorlangan savollar asosida oiladagi “kutilayotgan” va “ideal” bolalar soniga bo‘lgan munosabatini aniqlashdir.

“Kutilayotgan bolalar soni” deb shaxsning o‘z oilasida bo‘lishini istagan bollar miqdori tushuniladi, bunda u haqiqiy yashash sharoitlari va ayni hayotiy vaziyatni – biografiyasi, moddiy holati va er-xotinlarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi.

“Ideal bolalar soni” esa shaxsning o‘z oilasida bo‘lishini istagan bolalar miqdorini anglatadi, bunda ayni hayotiy vaziyat va shaxsiy imkoniyatlar hisobga olinmaydi.

Aholining demografik muammolariga bo‘lgan munosabat shakllanish mexanizmini ochib berish uchun psixologik testlar va metodikalardan ham foydalaniladi, ular aholi hissiy munosabatini,hatto har doim ongli bo‘lm gaan jihatlarini ham chuqurroq tushunishga imkon beradi. Misol tariqasida shunday usullardan biri – semantik differensial metodidir. Uning mohiyati shundan iboratki, aholi ma’lum bir demografik tushuncha bilan bog‘liq hissiy munosabatini aniqlaydi. Bunda tushuncha inson nuqtai nazaridan “yaxshi-yomon” tarzida baholanadi, lekin ushbu tushunchalarning mazmuni keng qamrovli sifat tavsiflari orqali beriladi. Masalan, “oila ichidagi bola” tushunchasi “sovuq, iliq, juda issiq”, “mehribon, nozik, yoqimsiz” kabi bir qator tushunchalar bilan bog‘lanadi. Taklif qilingan variatlardan ma’lum bir tanlash orqali shaxs ichki munosabatini namoyon qiladi.

Hodisalarning qonuniyatlari faqat ularning majmui yetarlicha katta o‘lchamga yetganda namoyon bo‘ladi. Shu sababli demografik masalalarni hal qilishda ommaviy ijtimoiy hodisalarni o‘rganadigan fan – statistika – katta ahamiyatga ega bo‘lib, demografiya yordamida o‘rganilayotgan jarayonlarning miqdoriy o‘lchovlarini aniqlash mumkin.

Aholining tabiiy takror ishlab chiqarilishini tadqiq qilishda demografiya, masalan, statistikada ishlab chiqarilgan korrelyatsion va

faktorli tahlil usullari, o‘rtacha ko‘rsatkichlar, indeks, jadvallar va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Statistika tomonidan taqdim etilgan aholi ma’lumotlari tasodifiy o‘tkinchi holatlarni emas, balki demografik jarayonlarning qonuniyatlarini aks ettirilishi uchun, muhokama qilinayotgan aholi yetarlicha katta mujmui tashkil etishi kerak. Shu sababli demografiyaning ob’ekti odatda butun mamlakat aholisi, uning bir qismi yoki yirik shahar aholisi hisoblanadi.

Demografiyada matematik usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Matematika bir qator muhim nisbatlarini aniqlash, demografik hodisalarni to‘g‘ri o‘lchash, ularning o‘zaro qator muhim nisbatlarini aniqlash, demografik hodisalarni to‘g‘ri o‘lchash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish va prognoz xarakteriga ega demografik hisob – kitoblarni bajarishga imkon beradi.

Demografik tadqiqotlar rivojlanishi bilan demografiya boshqa fanlar bilan hamkorlik qiladi, masalan, tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, aholi geografiyasi va boshqalar. Tarixiy demografiya, tarix va demografiya bilan chegaradosh soha sifatida paydo bo‘lib, aholining takror ishlab chiqarilishini inson avlodlarining tarixiy almashuvi jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi. Bu insoniyat tarixining evolyusiyasi va demografik dinamikasi yuz-yillar davomida qanday o‘zgarishini tushunishga yordam beradi.

Iqtisodiy omillar, ya’ni aholining yashash sharoitlarini tashkil etuvchi iqtisodiy holatlar, asosiy demografik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, migratsiya va boshqa ko‘rsatkichlarning o‘sish yoki kamayish sur’atlarini belgilaydi. Iqtisodiy demografiya aholining takror ishlab chiqarilishida iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Masalan, iqtisodiy demografiya metodlari ma’lum bir aholi sonini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kapital sarmoyalar hajmini aniqlash imkonini beradi.

Sotsiologik demografiya jarayonlarga odamlarning sub’ektiv harakatlariga ijtimoiy va ijtimoiy - psixologik omillarnig ta’sirini o‘rganadi. Insonlarning demografik hatti - harakatlarini o‘rganishda demografiya ijtimoiy psixologiya bilan ularning sog‘lig‘i holatini

tadqiq etishda esa ijtimoiy gigiena bilan tutashadi. Demografik jarayonlar odatda ma’lum hududlar, tizimlar va yashash punktlari turlarida o‘rganiladi: odamlarning hududiy ko‘chishini aholining takror ishlab chiqarilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun demografiya aholi geografiyasi bilan hamkorlik iqladi. Jamiyatdagi insonlarning hatti – harakatlari huquqiy normalar bilan tartibga solinganligi sababli demografiya huquqo‘unoslik bilan ham o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Demografiyaning umumiy amaliy vazifasi, aholini o‘rganadigan boshqa fanlar bilan birga, butun jamiyat miqyosida aholi rivojlanishini tartibga solish maqsadida ilmiy asoslangan demografik siyosat choralarini ishlab chiqishdir.

Demografiya demokratik fanlar tizimiga aylanadi.Demografiyada biz tegishli faktlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilishning ilmiy usullari, jemografik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqlikdagi xarakteristikalar tizimi, demografik hodisalarning o‘zaro ta’siri va ularning iqtisodiy hamda boshqa omillarga bog‘liqligini o‘rganish bilan shug‘ullanamiz. Shu asosda aholi rivojlanishi prognoz qilish va axoli siyosatining maqsadalri hamda vositalarini belgilash amalga oshiriladi. Bularning barchasi aholi haqida mustaqil fan sifatida bilim tizimini tashkil etadi.

Demografik jarayonlarning ketma – ket rivojlanishini va uzoq muddatli tendensiyalarini tushuntiruvchi eng keng tarqalgan tushuncha – “demografik o‘tish konsepsiyasi”. Demografik o‘tishning birinchi konsepsiyasini fransuz demoografi A.Landri ishlab chiqqan bo‘lib, unga ko‘ra barcha mamlakatlar bir xil rivojlanish bosqichlaridan o‘tadi va har bir bosqich aholining ma’lum reproduktiv turiga mos keladi. Umumiy demografik ko‘rsatkichlar dinamikasiga asoslanib, demografik o‘tishining tshrtta bosqich ajratiladi. Ko‘pchilik mutahassislar ularni asosan quyidagicha tushuniladi:

Birinchi bosqichda o‘lim darajasi tug‘ilish darajasiga qaraganda tezroq va ko‘proq kamayadi, natijada odatda aholi tabiiy o‘sishi nisbatan kam bo‘ladi. Sanoat rivojlangan mamlakatlarda bu bosqich 20 asr o‘rtalariga kelib yakunlangan.

Ikkinchi bosqich o‘lim va tug‘ilish darajalari kamayishda davom etadi, lekin o‘lim darajasi sekinroq, tug‘ilish darajasi esa tezroq kamayadi va natijada aholi o‘sish sur’ati pasayadi.

Uchinchi bosqichda aholi qarishiga bog‘liq ravishda o‘lim darajasi oshadi, tug‘ilish darajasi esa asta - sekin kamayishda davom etadi va natijada aholi takror ishlab chiqarilish rejimiga o‘tadi.

To‘rtichi bosqichda o‘lim darajasi oshadi va uning intensivligi tug‘ilish darajasi bilan yaqinlashadi, shu tariqa demografik barqarorlik holati yuzaga keladi.

Ba’zi olimlarning fikricha, sanoat rivojlangan mamlakatlarda demografik o‘tishninng uchinchi bosqichi asosan yakunlangan, rivojlanayotgan mamlakatlr esa asosan birinchi yoki ikkinchi bosqichning yuoshida. Ular o‘lim darajasini kamaytirgan, lekin tug‘ilish darajasi juda sekin pasyishiga davom etmoqda va xanuz yukori bo‘lib qolmoqda.

Demografiya va aholining rivojlanishini o‘rganadigan boshqa fanlarning umumiy amaliy vazifasi – butun jamiyat miqyosida aholi rivojlanishini tartibga solish maqsadida ilmiy asoslangan demografik siyosat choralarini ishlab chiqishdir.

1.2. Aholi soni va ularning tuzilmasini o‘rganish.

Aholining takror ishlab chiqarilishi aholi sonining o‘zgarishi, avlodlar almashuvi, yosh - jins tarkibi va nikoh tuzilmasininng doimiy yangilanishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Demografik o‘zgarishlarni iqtisodiy va jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq holda ilmiy prognoz qilish, zamonaviy demografik vaziyatni va uning oqibatlarini o‘rganish tarixiy demografik jarayonlarni tadqiq qilish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayoni uning ijtimoiy – tarixiy shartlarga bog‘liq holdagi aholi soni va takror ishlab chiqarilishi dinamikasidagi o‘zgarishlarini aks ettiradi.

Hozirgi turdagi inson demografik tarixining dastlabki davrlari, taxminan 50 ming-yil oldin shakllangan, tarixiy materialning

yetishmasligi sababli yetarlicha o‘rganilmagan. Taxmin qilinadiki, dastlabki odamlar, hozirgi barcha yashashga yaroqli materiklarda tarqalib, neolit davri boshida (miloddan avvalgi 7 ming-yil) taxminan 10 million kishi bo‘lgan. O‘sha davrga xos past aholi o‘sish sur’ati esa aholining juda yuqori o‘lim darajasi bilan izohlanadi.

Insoniyat rivojlanishining dastlabki davrlarda odamlar ocharchilik va kasalliklardan vafot etgan, qabilalararo to‘qnashuvlarda halok bo‘lgan. Ayniqsa, bolalar o‘limi yuqori bo‘lgan. O‘rtacha umr davomida 20-yilni tashkil etmagan. Insonlarning yo‘qolib ketishlari ularni yuqori tug‘ilish darajasi saqlab turgan, bu o‘lim darajasidan biroz yuqori bo‘lgan. Bunday tug‘ilish darajasi asosan erta nikohlar va ko‘p bolali an’analar (hosildorlik kultlari) ta’minlangan.

Keyinchalik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishi barqaror mahsulot ishlab chiqarish imkonini yaratgan, ocharchilikdan kelib chiqadigan o‘lim darajasini pasaytirish sharoiti yuzaga keldi. Erta sinfli ijtimoiy shakllanishlarda o‘rtacha umr davomiyligi dastlabki davrga nisbatan biroz oshgan. Foydali sharoitlarga ega bo‘lgan qabilalar o‘lim darajasi kamayish natijasida ko‘payishni boshlagan va ular yangi qabilalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Qadimgi buyuk sivilizatsiyalarda, sug‘oriladigan dehqonchilikka asoslangan yirik va ko‘p aholili markazlar (Misr, Mesopotamiya, Hindiston,Xitoy va boshqalar) shakllanishi demografik rivojlanishning ijobiy sharti va natijasi bo‘lgan. Butun dunyo aholisi miloddan avvalgi 5 ming-yilga kelib taxminan 30 million kishidan milodiy eramiz boshida 200-250 million kishiga yetgan, keyin urushlar va epidemiyalar natijasida 15 asrga kelib 400-500 million kishiga yetgan.

19-asrda Yevropaning chet el mamlakatlarida aholi o‘sish sur’ati pasayishi boshladi. Tug‘ilish darajasining pasayishi jarayoni birinchi marta 19 asr oxirida Fransiyada boshlangan v keyinchalik G‘arbiy, so‘ngra Shimoliy va Sharqiy Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqalgan. Tug‘ilish darajasining kamayishi jahon urushlari natijasida yanada kuchaygan.

16-18 asrlarda chet el Osiyo mamlakatlarida ham aholining umumiy soni Yevropa mamlakatlaridagi kabi sur’at bilan o‘sgan. Vaqt – vaqti bilan ocharchilik va epidemiyalar aholi kamayishiga olib kelgan. Shunga qaramay, 19 asr boshiga kelib chet el Osiyo aholisi butun dunyo aholisining deyarli 2.3 qismini tashkil qilgan, shundan taxminan yarmi Xitoyga, uchdan biri Hindistonga to‘g‘ri kelgan.

Afrikada o‘lim darajasining pasayishi va ko‘p bolali an’analar saqlanib qolishi natijasida 19 asr oxirida boshlangan aholi o‘sish sur’atining asta – sekin oshishi davom etgan.

17-18 asrlarda amerikalik va yevropalik qullar savdogarlari Afrikadan taxminan 15 million odamni qullikka olib ketgan, asosan Shimoliy Amerikaga, shundan 10 millioni erkaklar bo‘lgan. Bundan tashqari, yo‘l davomida kamida 5 million afrikalik haloq bo‘lgan. Umuman olganda, har bir olib ketilgan qullikdan so‘ng yana 5 kishi o‘ldirilgan, yaralangan, kasallangan yoki vafot etilgan, ya’ni jami 75 million kishi halok bo‘lgan yoki zarar ko‘rgan. Eng qiziq tomni shundaki, inglizlar barcha boshqa mamlakatlar vakilaridan to‘rt barobar qo‘proq qullarni olib ketgan.

Amerika aholisining soni kolonizatsiya va mahalliy hindularni yo‘q qilish natijasida uch barobar kamaygan. 19 asr o‘rtalaridan boshlab AQSh Yevropadan keng ko‘lamli immigratsiya oqimi boshlanib, shundan so‘ng aholi soni keskin oshgan - 1800-yilda 5,3 million kishidan 1900-yilda 76 million kishiga yetgan. Shu davrda kelib mahalliy aholi - hindlar soni taxminan 1,5 million bo‘lgan.

Lotin Amerikasida 16-17 asrlarda asosan ispanlar tomonidan ko‘plab maxalliy hindlar yo‘q qilingan. Keyinchalik, 19 asrga kelib, bu mintaqadagi ko‘pgina davlatlarning aholisi asosan tabiiy o‘sish hisobidan ko‘paygan.

Yer shari aholisining dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan[2]:

Aholining takror barpo qilinishining ushbu tipi iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi. Bunda ko‘p

[2] Қаюмов А. А., Якубов Ў.Ш., Райимжонов З.Ҳ. “Аҳоли географияси ва демография асослари” Ўқув қўлланма Тошкент-2008

bolali oilani tashkil qilishga nitilish,ayniqsa, xo‘jalik ishlarida otaga ko‘mak beruvchi o‘g‘il bolalarning mavjudligiga va sonining ko‘p bo‘lishiga katta e’tibor qaratadilar. Ota - ona oilada 3 - 4 farzandga ega bo‘lmoqchi bo‘lishsa, unda ayol mazkur miqdordagi 2 - 3 marta ko‘p bola tug‘ish lozim edi, chunki o‘lim, ayniqsa, go‘daklar va bolalar o‘limining nihoyatda yuqoriligi tug‘ilgan bolalarning yarmidan ko‘pini yo‘qotishga sabab bo‘lar edi.

1.1-jadval

Yer shari aholisining dinamikasi.

Yilnoma	**Davr**	**Davrning davom etishi**	**Davr boshida aholi soni (mln kishi)**	**Aholi soni o‘rtacha-yillik o‘sishi**
Eramizdan 7000-yil avval	Neolit	5000	10	-
	Antik davr	7000	50	0.03
(Yangi era)	Yangi eraning boshlanishi o‘rt asrlarni dastlabki-yillari	2000	230	0.1
1000-yil	O‘rta asrlar	1000	305	0.02
1500-yil	O‘rta asrning yakuniy davri	500	440	0.1
1650-yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0.3
1800-yil	Yangi zamon	150	952	0.5
1900-yil	Yangi zamon yakuniy davri	100	1656	0.8
1950-yil	Eng yangi zamon	50	2527	1.0
1980-yil	Yaqin o‘tgan davr	30	4430	1.9
2000-yil	Hozirgi davr	20	6024	1.5

BMTning aholishunoslik sohachidagi faoliyat fondining-yillik hisobotida qayd etilishicha, 2050-yilga borib Yer sayyorasida

yashovchilar soni 7,9 milliarddan 11,9 mililard kishigacha yetish mumkin. Shu bilan birga, ayrim mutaxassislar hatto “attigi” yetti milliardga yaqin aholining o‘zi ham Yer resurslariga kuchli bosim o‘tkazayotgani, natijada tabiiy resurslar ttez sur’atlarda kamayib va degradatsiyaga uchrayotganidan xavotir bildirmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 50-yil davomida sayyorada 2 mililard gektardan ortiq yer maydonlari yemirilgan, 180 million gektar o‘rmonlar yo‘q qilingan. Hozirgi vaqtda Afrika qit’asida ko‘plab mamlakatlar aholi sonining juda tez o‘sishi sharoitida oziq – ovqat tansiqligiga duch kelmoqda; yer yuzila 1,3 milliard kishi tozalanmagan ichimlik suvidan foydalanadi va qashshoqlik chegarasida yashaydi, taxminan 2 milliard odam esa eng zarur sanitariya sharoitlaridan mahrum.

Aholi soni aholining umumiy miqdoriy ko‘rsatkichi hisoblanadi. 2014-yilda Rossiya Federatsiyasining doimiy aholisi 143,7 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib u 2,6 million kishiga oshib, 146,3 million nafarga yetgan. Aholi soni jihatidan Rossiya dunyodagi eng yirik davlatlar qatoriga kiradi.

Shahar va qishloq aholisi soni o‘rtasidagi nisbat mamlakatning urbanizatsiya darajasini ko‘rsatadi. Shaharlar aholisi soni tez sur’atlar bilan ortib bormoqda. Hozirgi kunda Rossiyada aholisi bir milliondan ortiq bo‘dgan shahar mavjud. Millioner-shaharlar jumlasiga quyidagilar kiradi: Moskva (12,2 mln), Sankt-Peterburg (5,2 mln), Novosibirsk (1,6 mln), Yekaterinburg (1,4 mln), Nijniy Novgorod (1,3 mln), Omsk (1,2 mln), Samara (1,2 mln), Qozon (1,2 mln), Chelyabinsk (1,1 mln), Rostov-Don (1,1 mln), Ufa (1,1 mln), Volgograd (1,02 mln), Krasnoyarsk (1,0 mln), Perm (1,0 mln) va Voronej (1,0 mln).

Demografik jihatdan muhim ko‘rsatkichlardan yana biri aholi zichligidir. U ma’lum hududda yashovchi aholi soninning ushbu hudud maydonida nisbati bilan aniqlanadi va 1 kvadart kilometrga to‘g‘ri keladigan aholi soni bilan ifodalanadi. Rossif fed aholi zichligi o‘rtacha 1 kv kilometrga taxminang 8,7 kishini tashkil etadi.

Inson yoshi ham demografiyada muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Aholining yosh va jins tarkibi haqidagi ma’lumotlar yosh - jinsiy

tuzilmani shakllanishi imkonini beradi. Turli yosh-jins guruhlar aholining takror ishlab chiqarilishida, uning iqtisodiy faolligida, ehtiyojlarning shakllanishida va boshqa jarayonlarda turlicha rol o‘ynaydi.

Demografik jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda aks ettirish uchun turli grafik usullar qo‘llaniladi. Shulardan biri - aholining yosh – jinsiy tuzilmaini tavsiflovchi yosh – jinsiy piramidadir. U koordinatalar tizimida qurilgan diagramma ko‘rinishida bo‘ladi. Piramidani tuzishda vertikal o‘q bo‘ylab yosh ko‘rsatkichlarni joylashtiriladi, chap tomonda erkaklar aholisi yoshi bo‘yicha, o‘ng tomonda esa ayollar aholisi yosh bo‘yicha tasvirlanadi. O‘dchov birligi sifatida, odatda 5-yillik yosh oralig‘i olinadi. Har bir pog‘onaning uzunligi ma’lum yosh guruhiga to‘g‘ri keladigan aholi mos keladi.



1.1-rasm. Germaniya va Braziliya Aholisinining yosh – jinsiy tuzilmasini tavsiflovchi yosh – jinsiy piramidasi.

Demografik tahlil ikki muhim o‘lchov – vaqt va makon doirasida amalga oshiriladi. Demografik tadqiqotni boshlashdan avval tadqiqotning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish zarur.

Keyingi bosqichda mavjud axborot bazasi, uning to‘lig‘iga hamda ishonchligi baholanadi. Demografik tahlil jarayonidagi muhim jihatlaridan biri –ma’lumotlar qaysi oralig‘ini qamrab olishini aniqlash va asoslashdir.

Yakuniy hamda eng asosiy, shu bilan birga eng mehnat talab qiluvchi bosqich esa bevosita tahlilning o‘zidir. Bu bosqichda turli demografik ko‘rsatkichlar tizimi yoramida o‘rganilayotan jarayonlarning qonuniyatlari aniqlanadi va ularga ta’sir etuvchi omillar tag‘lil qilinadi.

1.3.Iqtisodiy rivojlanish va aholi takror ishlab chiqarilishining o‘zaro bog‘liqligi.

Demografik va iqtisodiy jaaryonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ko‘p qirrali va murakkab xususiyatga ega. Xususan, aholi sonining to‘liq takror ishlab chiqarilmasligi, ya’ni qisqarib borishi (demografiyada bu holat aholining siqilgan takror ishlab chiqarilishi deb ataladi) iqtisodiyot uchun ham, davlatning milliy xavfsizligi uchun ham jiddiy xatar tug‘diradi. Bu eng avvalo mehnat resurslarining kamayishi bilan bog‘liq.

Aholining qarishi jarayoni ham muayyan ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Bunda keksa aholining mehnatga layoqatli aholi zimmasiga tushadigan ijtimoiy yuki ortibb oradi. Shu bilan birga, mehnat resurslarining sifati pasayadi, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligi cheklanadi, yosh kadrlar hisobiga mehnat resurslarini to‘ldirish imkoniyatlari esa qisqaradi.

Shuningdek, agar immigratsiya jarayonlari nazoratsiz, tartibsiz va qonunga zid shaklda kechsa, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan davlatlardan kelayotgan, asosan yosh va yetarli malakaga ega bo‘lmagan migrantlar oqimi mamlakat iqtisodiyotining barqaror

rivojlanishiga hamda hududiy yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Demografik inqirozning kelib chiqish sabablaridan biri ko‘p hollarda davlat tomonidan oila instiutiga – jamityaning asosiy bo‘g‘iniga – yetarli e’tibor berilmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan oila muhitiga kelajak avlod dunyoga keladi va ijtimoiylashuv jarayonini boshidan kechiradi.

O‘lim darajasining yuqoriligini kamaytirish uchun aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning o‘rtacha oila uchun iqtisodiy jihatdan quly bo‘lishi ko‘pincha davlat tomonidan muayyan moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Aks holda, aholi o‘rtasida kasallanish darajasi oshib, davlat bemorlar va nogironlarni ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash bilan bog‘liq qo‘shicha xarajatlarga duch kelishi mumkin.

Tug‘ilish ko‘rsatkichining o‘sishiga ma’lum darajada mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshishi, iqtisodiy faol aholining to‘liq bandligini ta’minlash, bolalar nafaqasi miqdorini ko‘paytirish hamda davlat darajasija samarali demografik va oilaviy siyosatni amalga oshirish xizmat qiladi. Bunday sharoitda oila bolalarining kelajagiga ishonch bilan qarab, davlat tomonidan sezilarli moliyaviy ko‘mak olishga umid qila oladi.

Demografik jarayonlarni tartibga solish aholining uzoq muddatli istiqbolda barqaror sonini ta’minlashga qaratilgan shart – sharoitlarni yaratish uchun tegishli huquqiy – me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Demografik va oilaviy siyosat sohasidagi tavsiyalar, umuman olganda, quyidagi asosiy yo‘nalishdar bo‘yicha shakllantirilishi mumkin:

- An’anaviy oilani mustahkamlash va tug‘ilish darajasini oshirish;
- Aholi salomatligini yaxshilash;
- Noqonuniy mehnat migratsiyasini qisqartirish;

- Uzoq muddatli istiqbolda aholi takror ishlab chiqarilishining maqbul turini shakllantirishga qaratilgan kompleks davlat lemografik siyosatini ishab chiqish.

Shu tariqa, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti bilan aholining takror ishlab chiqarilishi o‘rtasida uzviy va o‘zaro bog‘liq munosabat mavjud. Iqtisodiy rivojlanish va demografik tkror ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari qadim zamonlardanoq olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Insoniyat taraqqiyotining butun tarixi aholi sonining o‘zgarishi, uning tabiiy takror ishlab chiqarilishi hamda migratsiya jaryonlari dinamikasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Aholining atrof – muhitga ta’sir ko‘rsatishi, tabiatni o‘zgartirishi qadim zamonlardan boshlab inson faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan. Ushbu jarayonda odamlar barcha ishlab chiqarish asboblarini tobora takomillashtirib borgan. Primitiv aholi takror ishlab chiqarish turi, yuqori zlim darajasi va kam umrlik bilan xarakterlansa, inosn tzliq atrof – muhthitga bog‘liq bo‘lgan. Yuqori tug‘ilish darajasi, u asrlar davomida shakllangan an’ana va din orqali mustahkamlanib, iqtisodiy jihtdan maqbul hisoblangan. Erta zamonlarda ko‘p bolali oila nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali faoliyat yuritgan – bu ishchi qo‘llar va kelajakdagi aloqalar manbai bo‘lgan. Bolalarning ijtimoiylashuvi va an’anaviy ishlab chiqarish tajribasini uzatish to‘g‘ridan – to‘g‘ri oila dirsida amalga oshirilgan.

Sanoatning rivojlanishi bilan oilaning funksiyalari o‘zgargan, u ishlab chiqarish yachnykasi bo‘lib qolmay, ishlab chiqarish va ta’lim faoliyati oiladan tashqariga ko‘chgan. Jamiyat taaqqiyoti bilan birga demografik jarayonlar dinamikasida ham sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan.

Aholi takror ishlab chiqarilishi xususiyati, uning intensivligi, vaqt bzyicha taqsimlanishi va strukturaviy o‘zgarishlarga ijtimoiy – iqtisodiy omillarining mrakaab to‘plami ta’sir qiladi. Masalan, aholi o‘lim darajasiga hayot sifati, mehnat sharoitlari, tibbiyot rivojlanishi darajasi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Tug‘ilish kursatkichiga esa ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Ularning orasida iqtisodiyot rivojlanishi, jamiyatda ish o‘rinlarining mavjudiligi, oila a’zolarining bandligi, ayollarning jamiyat

ishlab chiqarishiga jalb qilinganligi, maktabgacha va maktab muassasalariga mavjudligi, bolalarni tarbiyalash, ta’lim va tibbiyot xarajatlari, aholi migratsiyasi va b1.oshqlar muhim ahamiyatga ega.

Aholi soni, ayniqsa, mehnatga layoqatli aholi va uning malakasi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari darajasida, mamlakatning keyingi iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Tabiiy a mexanik harakatlardagi tendensiyalar – aholi migratsiyasi iqtisodiy o‘sishga turli yo‘llar bilan ta’sir qiladi. Iqtisodiy – demografik hisob – kitoblar uchun asosiy vazifa shundaki, bundy bog‘liqlikning xarakterini aniqlash bilan irga, muayyan iqtisodiy ko‘rstatkich o‘zgarganda demografik parametrlarda qanday o‘zgarish yuz berishi hajmini ham aniqlash zarur. Har qanday jamiyat uchun muhim masala – aholi takror ishlab chiqarilishini va iqtisodiy jarayonlarnnig optimal uyg‘unligini ta’minlash rejimini yaratish.

Aholi omilining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri avaalo mehnat resurslari holati orqali namoyon bo‘ladi. Mehnat resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanish va taqsimlash demografik parametralar bilanzich bog‘liq:ag‘oli soni, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, yosh va jins tarkibi, migratsiya hamda demografik holatning boshqa xususiyatlari.

O‘lim, tug‘ilish va migratsiya jarayonlarining intensivligidagi o‘zgarishlar mehnatga layoqatli va layoqatsiz yoshdagilar soni nisbatidagi farqlarni shakllantiradi. Layoqatsiz yoo‘dagilarning meg‘natga layoqatli yoshdagilarga nisbati fqanchalik yuqori bo‘lsa, mehnatga layoqatli aholining mehnati shunchalik samarali bo‘lishi kerak. Agar layoqatsiz aholi qatorida yoshlar, ya’ni kelajakda ishchi bo‘ladiganlar ko‘paya boshlasa, bu keyinchalik bir nafar mehnatga layoqatli shaxsga tushadigan demografik yukni kamaytiradi, aksincha keksa yshdagi aholi ulushi ko‘paysa, bir nafar mehnatga layoqatli shahsga tushadigan yuk oshadi.

Tug‘ilish darajasining pasayishi maktabdan oliygohgacha bo‘lgan ta’lim tizimidagi muammolarni (maktab binolari, o‘qituvchilar soni va boshqalar) yanada kuchaytiradi, shunigdek, ishsizlar orasida kasbiy va

jinsiy takrib masalalarini murakkablashtiradi va bu ayollar ulushining ortishiga olib keladi. Sog‘liqni saqlash va maktab ta’limi sohasidagi ishchi kuchi asosan ayollardan iborat bo‘lib, tug‘ilish darajasi pasaygan sharoitda ularga bo‘lgan talab kamayadi. Shu bilan birga, mehnat bozoriga bir bolali ayollar va farzadsiz ayollar ham ko‘p kirib kelmoqda. Demak, tug‘ilishning pasayishi ayol mehnat quvvatiga bo‘lgan talabni kamaytiradi va bir vaqtda uning taklifini oshiradi.

Boshqa tomonadn, ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, ayollarni jamiyat ishlab chiqarishiga jalb etish natijasida rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish darajasi pasayadi va bu keyinchalik meg‘nat quvvati hajmiga ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqori tug‘ilish, o‘lim darajasining pasayishi va shu bilan bog‘liq ravishda aholi sonining o‘sishi mehnat resurslari hajmini oshishiga va ishlab chiqrish hajmini kengayishigaolib kelishi mumkin. Aholi tuzilishida yoshlar ulushining ortgani mamlakat mehnat resurslarining sifatini va raqobatbardoshligini yaxshilashga yordam beradi. Aholining o‘sgan soniga turmush darajasi iqtisodiy investitsiyalarini kengaytirish orqali ta’minlanadi.

Aholi faqat soni bo‘yicha emas, balki yosh va jins tuzilishi ham o‘zgarib, turli yoshdagi va jinsdagi odamlarning parvarishiga ketadigan xarajatlar ham o‘zgarib boradi. Yoshlar uchun sarflanadigan xarajatlar katta yoshdagi layoqatlilik, ishlab chiqarish, talab, daroad va iste’molga, shunigdek, aholining turmush darajasi va sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat resurslarining yetishmasligi mehnat samaradorligini oshirish, korxonalar va sohalarning ichki rersurslaridan smaraliroq foydalanish, ilmiy - texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish va aholi o‘sishini rag‘batlantirishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqish uchun stimul vazifasini bajarishi mumkin. Zamonaviy iqtisodiyot rivojlanshning muvaffaqyatli bo‘lishi uchun yetarli sonda yoshlar bo‘lishi zarur, ular fan va texnika yutuqlarini tez o‘zlashtirib, amada tatbiq qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu ayniqsa, ilmiy texnik progress sur’atlarini zamonaviy bosqichda ortgani holatida alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga faqat yosh tarkibi emas, balki aholinnig jins tarkibi ham ta’sir ko‘rsatadi. Erkak va ayol seg‘nati qo‘llanilishida muayyan farqlar mavjud. Masalan, qazib oluvchi sanoatda erkak mehnati ko‘proq talab etiladi, biroq ba’zi ishlab chiqarish sohalarida - aniqlik va doimiy e’tibor talab etiladigan (elektrotexnika, soatsozlik, xizmat ko‘rsatish sohalari) – ayol mehnati schamaraliroq bo‘ladi. Shunigdek, ayollarning ishlab chiqarishdagi ishtirokini ularning onalik majburiyatlarini ham cheklaydi.

Mamlakat iqtisodiyoti uchun migratsiyaning oqibatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, ijtimoiy nuqtai nazardan oqilsiz yo‘nalishlar va ko‘lamdagi ko‘chishlar hamda yangi aholi punktlarida past moslashuv darajasi nazarda tutilganda. Boshqa tomondan, migratsiya, ayniqsa ichki migratsiya, mehnat resurslarini rivojlantirish va qayta taqsimlash, yangi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda samarali omil hisoblanadi. Norozi bo‘lgan xorijiy mehnat muhojirlarining noqonuniy krishi esa milliy iqtisodiyotga katta zarar keltiradi. Umuman olganda, deografik parametralar va mehnat resurslarini shakllantirish, taqsimlash va qo‘llashnig ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir - birini to‘ldirib turadi.

Agar demografik vaziyat aholiga nisbatan siqilgan (cheklangan) ko‘paytirish rejmini ko‘rsatsa, demak, kelajakda mamlakatning meg‘nat resurslari soni jihatidan kamayishi mumkin. Bu ayniqsa, iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lgan yoshdagi ishchi kuchining qisqarishi va aholida pensiya yoshiga yetganlar ulushining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Odatda aholi soni o‘sishining iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholash uchun aholi o‘sish sur’atlari va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanadi. So‘nggi o‘n-yililklar bo‘yicha ma’lumotlar, ayrim istisnolarni inobatga olmaganda, ichtisodiy rivojlanish darajasining oshishi ko‘p hollarda aholining takror barpo etilish koeffitsientining pastligi hamda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining yuqoriligi bilan bog‘liq ekanini

koʻrsatmoqda. Qisqa muddatli davrda bir qator mamlakatlarda aholi sonining oʻsishi ijtimoiy – iqtisodiy ahqolning yomonlashishi bilan bir vaqtda toʻgʻri kelgan holatlar ham kuzatilgan. Bundan tashqari, qisqa muddatda ijtimoiy – iqtisodiy holat urbanizatsiya jarayoni kabi boshqa omillar taʼsirida ham ogʻirlashishi mumkin. Shu bilan birga "agar aholi soni shunchalik tez oʻsmaganida, iqtisodiy rivojlanish darajasi yanada yuqoriroq boʻlar edi" degan soddalashtirilgan xulosa chiqarish toʻgʻri emas. Chunki bunda aholi oʻsishining yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarilishiga qoʻshadigan hissasi inobatga olinmaydi. Aholi sonining ortishi investitsiyalarni ragʻbatlantiradi, texnik yangilanishlarga turtki beradi, tabiiy resurslarni oʻzlashtirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Dunyo global miqyosda qaralganda, aholi zsishi va jahon yalpi mahsuloti oʻrtasida sezilarli darajadagi toʻgʻridan – toʻgʻri bogʻliqlik kuzatilmaydi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar alohida tahlil qilinganida, ayniqsa, oʻtgan asrning 70 – 80-yillarida, aholi oʻsishi bilan iqtisodiy koʻrsatkichlar oʻrtasida salbiy bogʻliqlik nisbatan yaqqolroq namoyon boʻlgan.

Iqtisodiy oʻsish va aholi soni oʻsishi oʻrtasidagi korrelyatsiyaga koʻplab omillar, jumladan, umumiy iqtisodiy vaziyat ham taʼsir koʻrsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qarz inqirozi global iqtisodiy tizim rivojlanishiga aholi oʻsishiga nisbatan jiddiyroq taʼsir koʻrsatgan boʻlishi mumkin. U iqtisodiy oʻsishni sekinlashtirgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi oʻsishi bilan bogʻliq chaqiriqlarga samarali javob berish imkoiyatlarini cheklagan.

Dunyo aholisi tez oʻsmoqda, biroq jahon yalpi mahsuloti undan ham tezroq ortib bormoqda va bu jahon jamiyatining ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish qobiliyatini namoyon etmoqda. Agar iqtisodiy va ijtimoiy oʻzgarishlar yetarli darajada tez amalga oshirilsa hamda zarur texnologik taraqqiyot taʼminlansa, aholi oʻsishi jiddiy muammo hisoblanmaydi.

Biroq soʻnggi oʻn-yilliklarda aholi sonining jadal zsishi tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishni qiyinlashtirilmoqda, bu holatning asosiy sabablaridan biri qashshoqlikdir. Shu bois, hukumatlar va

xalqaro hamjamiyat tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlaish darajasini oshirish, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi beqarorlikka olib keluvchi tafovutlarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli siyosat yuritish zarur hisoblanadi.

Demografik jarayonlar to‘g‘ridan - to‘g‘ri va muhim darajada iqtisodiy, siyosiy va boshqa ijtimoiy jarayonlar rivojlanishiga ta’sir qiladi hamda jamiyatning keyingi rivojlanishini belgilaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demografiya fanining predmeti nimadan iborat?
2. Demografiya fanining asosiy o‘rganish obyekti nima hisoblanadi?
3. Aholi soni va tarkibini o‘rganishda demografiyaning o‘rni qanday?
4. Demografiya fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Demografik jarayonlar deganda nimalar tushuniladi?
6. Demografik tahlilning asosiy usullari qaysilar?
7. Statistik usul demografiyada qanday qo‘llaniladi?
8. Demografik prognozlashning mazmuni nimadan iborat?
9. Demografiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi qanday?
10. Aholi tarkibini o‘rganishda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?

II BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNI O'RGANISH UCHUN STATISTIK VA SOTSIOLOGIK MA'LUMOTLAR.

2.1. Aholini ro‘yxatga olish tarixi haqida.

2.2. Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlarning ta’rifi, konsepsiyalari va qo‘llanilishi.

Tayanch so‘zlar: statistik ma’lumotlar, sotsiologik, aholini ruyxatga olish, tanlanma kuzatuv, so‘rov usuli, intervyu usuli, kuzatuv usuli, ma’lumotlar bazasi, demografik ko‘rsatkichlar, axborot texnolagiyalari.

2.1.Aholini ro‘yxatga olish tarixi haqida.

Aholi to‘g‘risida to‘planadigan ma’lumotlarning aniq mazmuni qabul qilingan kuzatuv va tahlil dasturlariga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim holarda bu ma’lumotlar jahon yoki mintaqaviy darajadgai xalqaro kelishuvlar bilan tartibga solinadi. Bunda faqatgina ma’lumotlar tarkibi emas, balki axborotni yig‘ish davriyligi, asosiy tushunchalar, toifalar va qo‘llaniladigan usullar ham belgilanadi. Bu esa turli mamlakatlar o‘rtasida xalqaro solishtirishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyo mamlakatlaning aksariyatida aholiga oid ma’lumotlar maxsus davlat statistika xizmatlari tomonidan yig‘iladi. Bu jarayon aholini ro‘yxatga olish, aholi harakatining joriy hisobi hamda boshqa ma’lumot manbalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlat muassasalari va nodavlat tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan aholi so‘rovnomalari ham muhim ma’lumot manbai hisoblanadi.

Qadimgi xalqlarda davlatchilikning rivojlanishida muhim bosqichlaridan biri miloddan avvalgi 3 ming-yillik chegarasida aholini hisobga olish tizimining shakllanishi bo‘ldi. Bu tizim zamonaviy aholini ro‘yxatga olishning dastlabki shakli sifatida namoyon bo‘ldi. Mavjud manblarga ko‘ra, aholining mavjud sonini hisobga olish ishlari qadimgi Misrda (taxminan miloddan avvalgi 2800-2250-yillarda, Mesopotamiyada, Hindistonda hamda Xitoyda (miloddan avvalgi 2238-

yilda) amalga oshirilgan. Ushbu hisob - kitob natijalari asosan harbiy ehtiyojlar va soliq yig‘imlarini tashkil etish maqsadlarida qo‘llanilgan.

Vaqt o‘tishi bilan aholini hisobga olish metodologiyasi tobora murakkablashib bordi. Dastlabki davrlarda aholini hisoblash yozuvlar orqali amalg oshirilib, ko‘proq ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, skiflarda jangchilar soni o‘q uchlari soniga qarab beliglangan bo‘lsa, Amir Temur davrida esa harbiy kuch qo‘yilgan toshlar miqdori bilan ifodalangan.

Keyinchalik, ayniqsa Qadimgi Rim miloddan avvalgi 435-yildan boshlab, aholini muntzam ravishda hisobga olish amaliyoti joriy etildi. Bu jarayon “senz” deb atalgan bo‘lib, uning davomida har bir Rim fuqarosi qasamyod asosida o‘z ismi, yoshi, oila a’zolarining ismlari va yoshlari, shuningdek, mulkiy holati to‘g‘risida ma’lumot berishga majbur bo‘lgan.

O‘rta asrlar davomida aholini hisobga olish tizimi yanada tub o‘zgarishlarga uchradi.Bu davrlarda e’tibor alohida shaxslar yoki oilalarga emas, balki soliq solish ob’ekti sifatida qaralagan xo‘jalik birliklariga – uy,xonadon yoki oila o‘chog‘iga qaratildi. Ana shunday usul asosida 1086-yilda Angliyaning 34 grafligida yer va aholini hisobga olish ishlari amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqot tarixga “Qiyomat kitobi” nomi bilan kirgan bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy va demografik ma’lumotlarni, balki o‘sha davr aholisining o‘tkazilgan ro‘yxatga bzlgan munosabatini ham aks ettirgan.Jumladan, ishtirrok etuvchilardan hech narsani yashirmaslik talab qilingan bo‘lib, bu holat Qiyomat kunida hisob berish g‘oyasi bilan qiyoslangan[3].

18 asrga kelib, bir qator mamlakatlarda aholinnig tarkibini kompleks tarzda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Jumladan, Avstriya, Bavariya, Gollandiya, Daniya, Ispaniya, Yaponiya va Amerikada aholini hisobga olishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Biroq, mazkur hisob-kitoblar hali mukammal emas edi:ular ko‘p-yilar davom etar, barcha aholini to‘liq qamrab olmas yoki faqat katta yoshdagi erkaklar to‘g‘risidagi ma’dumotlar bilancheklanar edi.

3

Mamlakat hududida aholini hisobga olishda muhim manba sifatida kitoblar xizmat qilgan. Ushbu hujjatlar yer maydonlari, xo‘jalik yuitish ob’ektlari hamda aholining hovlilar bo‘yicha sonini aks ettiruvchi umumlashtirilgan tavsiflardan iborat bo‘lgan. 16 asr oxiri – 17 asr boshlariga kelib, yozuv kitoblari aholi punktlari kesimida yuritila boshladi:shaharlar (ularnnig musta’kam inshootlari, cherovlari,do‘konlari,hovlilari), uezdlar, stanlar va volostlar alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, bunday hisoblar aholinnig soni va tarkibi haqida to‘liq tasavvur bermagan, chunki ular asosan hovli egalariga taalluqli bo‘lib, aholining boshqa qatlamlari – yuvori tabaqa vakillari, savdo – sotiq bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hisobga olinmagan. Faqat 17 asrdan boshlab, hovli egalaridan tashqari, ularning oila tarkibidagi katta yoshdagi erkaklar ham ro‘yxatga olina boshlandi. Shunga qaramasdan, ayrim baholashlarga ko‘ra, hisobga olinishi lozim bo‘lgan aholining taxminan 25 foizi qayd etilmay qolgan.

1719-yildan boshlab, aholi ro‘yxatlar o‘rnini “reviziyalar” deb atalagn aholini podush hisoblash tizimi egalladi. Ushbu hisob - kitoblar Rossiya aholisining katta qismini qamrab olagn bo‘lib, jami o‘n marta o‘tkzilgan:birinchi reviziya 1719-1727-yillarda, oxirgisi esa 1857-1860-yillarda amlaga oshirilgan.Reviziyalardan tashqari, aholi cherkov hisoboti orqali ham qayd etilgan:pravoslav aholi 1737-yildan, boshqa konqessiya vakillari esa 19 asrniing 20-30-yilalridan boshlab ro‘yxatga oina boshlagan. Shuningdek, politsiya organlari tomonidan olib borilgan turli hisob – kitoblar – kameral tavsiflar, kibitka ro‘yxatlari va boshqa usullar ham qo‘llanilgan. Ana shu yo‘l bilan, jumladan, Polsha, Finlyandiya, Kavkaz va Qozog‘iston aholisi haqida ma’lumotlar to‘plagan.

Shu tariqa, aholini zxmonaviy ma’noda oo‘yxatda olish davri boshlanishiga yelib (bu davr odatda AQShdagi 1790-yilgi, Shvesiya va Finlyandiyadagi 1800-yilgi, Angliya, Daniya, Norvegiya va Fransiyadagi 1801-yilgi aholi ro‘yxatlari bilan bog‘lanadi), Rossiyada aholini hisobga olishning metodologik jihatdan ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o‘tgan yaxlit tizim shakllangan edi. Aholini umumiy ro‘yxatga olishga bo‘lgan ehtiyoj davlatlar tomonidan holinnig

soni, hududiy joylashuvi va tarkibi haqida shuningdek, davlat va jamiyat rivojining muayyan tarixiy bosqichi uchun muhim bo‘lgan demografik xususiyatlar to‘g‘risida muntazam va batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish zarurati bilan izohlanadi.

19-20 asrlarda aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribani hisobgaolgan holda, ularning taraqqiyotida uchta asosiy bosqichni ajratib ko‘rsatish qabul qilingan.

1 bosqich (18 asr oxiri - 19 asrning birinchi yarmi). Ushbu davrda aholini ro‘yxatga olishni tashkil etishning asosiy tamoyillari shakllandi va ularning dasturlari ishlab chqildi. Mazkur bosqichda AQSh va Angliyada aholini ro‘yxatga olish muntazam ravishda (har 10-yilda), Fransiya va Shvesiyada (har 5-yilda), Avstriyada esa (har 3-4-yilda) amalga oshirila boshladi. Shu bilan birga Daniya, Islandiya, Norvegiya hamda ayrim koloniyalarda, asosan Amerika qit’asida, aholini ro‘yxatga olish tadbirlari nomuntazam ravishda o‘tkazilgan.Bu davrda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlari cheklangan miqdordagi ko‘rsaktichlarni qamrab olgn, aholining barcha qatlamlarini to‘liq hisobga olmagan hamda yig‘ilgan ma’lumotlarni qayta ishlash ko‘p-yilarni talab etgan. Masalan, AQShda o‘tkazilgan birinchi aholi ro‘yxatida (1790-yil) faqat xo‘jalik boshlig‘ining ismi, erkin aholi soni, oq tanli ayollar soni va qullar soni qayd etilgan. Fransiyadagi 1801-yilgi ro‘yxatda faqat jins va nikoh holati hisobgaolingan bo‘lsa, Angliyada shu-yili O‘tkazilgan ro‘yxatda xo‘jalik boshlig‘ining jinsi va unig asosiy mashg‘uloti (qishloq xo‘jaligi, savdo yoki sanoat) ko‘rsatilgan.

2 bosqich (19 asrning ikkinchi yarmi - 20 asrning birinchi yarmi). Bu davr aholini ro‘yxatga olish ishlarinnig Yevropa va Amerika mmlakatlarida, shunigdek, Osiyo va Afrikaning ayrim davlatlarida keng qo‘llanilishi, aholi ro‘yxatlari nazariyasining rivojlanishi va ularni o‘tkazish amaliyotining takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda ro‘yxatda olish dasturlari kengaytirilib, yangi demografik va ijtimoiy – iqtisodiy belgilar joriy etildi.Aholini ro‘yxatga olishning zamonaviy tushunchasga o‘tishda muhim burilish nuqtasi sifatida Belgiyada 1846-yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati e’tirof etiladi, chunki unda yuirinchi marta faqat aniq (mavjud) axoli hisobga olingan.

Keyingi davrda oo‘yxatga olish vositalari yanada takomillashtirilib, maxsus anketa varaqalari va yo‘riqnomalari ishlab chiqildi, o‘z – o‘zini hisobga olish usuli qo‘llanila boshladi. Shunigdek, qayd etiladigan ko‘rsatkichlar mazmuni aniqlashtirilib, aniysv yosh va mashg‘ulotga oid m’lumotlar takomillashtirildi:avval aniq yosh, keyinchalik esa tug‘ilgan kun, oy va-yil hisobga olina boshlandi. Aholi ro‘yxatlari dasturlariga yangi belgilarnnig kiritilishi aholinnig demografik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganshi, savodxonlik va ta’lim darajasi, migratsiya jarayonlari (aygiqsa, AQShda), tug‘ilish va zlim ko‘rsatkichlari hamda ijtimoiy - iqtisodiy tavsiflar - mashg‘ulot turi, ish joyi, mehnatdagi maqomi va ishsizlik holatini hisobga olish zarurati bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga, mavjud aholini hisobga olishdan doimiy aholini hisobga olishga o‘tish yoki har ikkala toifani bir vaqtning o‘zida ro‘yxatga olish hamda ijtimoiy - iqtisodiy tarkib bo‘yicha ma’lumotlarni asosan doimiy aholi asosida tahlil qilish tendensiyasi shakllandi.

3 bosqich (20 asrning o‘rtaalridan hozirgi davrgacha) – ushbu bosqich aholi to‘g‘risidagi axborotga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borishi bilan tvsiflanadi. Osiyo va Afrika mamlakatlarining ko‘pchiligi mustaqillikka erishganian so‘ng qisqa muddat ichida aholini ro‘yxatga olish tadbirlarini amalga oshirdilar. 20 asr oxiriga kelb, deyarli butun jahon aholisi aholini ro‘yxatga olish orqali qamrab olindi. 20 asrning ikkinchi yarmida aholini hisobga olish metodologiyasini bir xillashtirishga “jahon aholini ro‘yxatga olish” konsepsiyasinining joriy etilishi katta turtki bo‘ldi. Ushbu konsepsiya dunyo mamakatlari va hududlarida yedyarli bir vaqtda va yagona tamoyillar asosida o‘tkaziladigan alohida milliy aholi rzyxatlarinnig majmuasini ifodalaydi.

XIX asrda xalqaro statistik kongresslar sessiyalarida ishlab chiqilgan mazkur g‘oyani amalga oshirish faqat BMT tashkil etilgandan so‘ng imkoniyatga ega bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti mamlakatlarga aholini ro‘yxatga olishni oxiri “0” bilan tugaydigan-yillarda yoki unga yaqin davrda o‘tkazishni tavsiya etdi. Har bir o‘n-yillik boshida BMT aholini ro‘yxatga olishga oid umumiy qoidalar va

tavsiyalarni o‘z ichiga olgan maxsus hujjatni nashr etadi. Unda ro‘yxatlarni rejalashtirish, tashkil etish, o‘tkazish hamda olingan ma’lumotlardan foydalanish masalalari yoritiladi.

XX asrning 1980 - 1990-yillari chegarasida rivojlangan mamlakatlarda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlarida yanada batafsil ma’lumotlar yig‘ila boshlandi. Jumladan, tug‘ilgan joyi, kelib chiqishi, til bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy maqomi, ish staji, daromad darajasi va bandlik sohasi haqidagi ma’lumotlar qamrab olindi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq aholining ayrim guruhlari - bolalar, yoshlar, keksa yoshdagilar va muhojirlar holati alohida va chuqur o‘rganila boshlandi.

Bunday yondashuv aholining qit’alar bo‘yicha soni, tarkibi va hududiy joylashuvini aniqroq belgilash, mamlakatlar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazish, aholi soni va tarkibini prognoz qilish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlarni shakllantirish hamda ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda aholi ro‘yhatga olish tarixini o‘rganish jarayonida shuni qayd etish lozimki, 1897-yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati Rossiya imperiyasida aholini umumiy hisobga olishni tashkil etish bo‘yicha birinchi va yagona tadbir hisobalangan. Hozirgi O‘zbekiston hududi esa 1860 – 1870-yillardagi harbiy yurishlar davomida bosqichma – bosqich Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan. Jumladan, 1865-yilda Toshkent shahrining egallanishi 1867-yilda Turkiston negeral – gubernatorligining takshil etilishi, 1873-yilda Xiva xonligi ustidan protektorat o‘rnatilishi hamda 1876-yilda Qo‘qon xonligining tugshatilish mazkur jarayonining muhim bosqichlari hisoblanadi. Shundan so‘ng Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya nazorati ostida vassal davlatlar maqomini olgan.

Birinchi umumiy aholi ro‘yxati natijalari 89 ta jild (119ta kitob) shaklida “1897-yildagi Rossiya imperiyasining birinchi umumiy aholi ro‘yxati” nomi ostida nashr etilgan. Aholi ro‘yxati natijalariga ko‘ra Rossiya imperiyasi aholisi 125 680 682 nafarni tashkil etgan[4].

[4] Положение о Первой всеобщей переписи населения Российской Империи / Под ред. Н.А. Тройницкого. СПб.: Тип. МВД, 1896.



2.1-rasm. 1926–1989-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni dinamikasi

1917-yilda fevral inqilobidan keyin Rossiya imperiyasi o‘z faoltyaini to‘xtatdi. 1922-yilda SSSR takshil etilganligi sababli, 1920-yilda o‘tkazilgan umumiy aholi ro‘yxati Sovet Rossiyasi chegaralarida amalga oshirilgan bo‘lib, unga O‘zbekiston hududi ham kirgan. Shu munosabat bilan 1926-yilda SSSRda barcha aholini qamrab olgan umumiy aholi ro‘yxati o‘tkazilgan. Keyingi umumittifoq aholi ro‘yxati esa 1937-yil 6 yanvarda o‘tkazilgan. Mazkur ro‘yxat SSSR va hozirgi Rossiya tarizida bir kunlik formatda o‘tkazilgan yagona aholi ro‘yxati hisobalanadi. Aholi ro‘yxati natijalariga ko‘ra, olingan dastlabki ma’lumotlar avval e’lon qilingan joriy hisob - kitoblarga nisbatan sezilarli farq qilgan. Davlat rahbariyatiga mamlakat aholisining umumiy soni 162 003 225 nafar ekani haqida ma’lum qilingan.

Davlat rahbariyatiga mamlakat aholisining umumiy soni 162 003 225 nafar ekani haqida ma’lum qilingan. 1937-yilda o‘tkazilgan umumittifoq aholi ro‘yxati aholi sanog‘i tarixida yagona shunday ro‘yxat bo‘lib, uning dastlabki natijalari deyarli ldarhol (10 kun ichida) “zararli” deb e’lon qilingan. Mazkur ro‘yxatni amalga oshirgan mas’ul xodimlar esa repressiyaga usratilgan. Natijada aholi ro‘yxatiga oid asosiy asosiy statistik materiallar uzoq vaqt arxivlarda saqlanib, faqat 1990-yilda nashr etilga. Keyingi umumittifoq aholi ro‘yxati 1939-yil yanvar oyida o‘tkazilgan. Ushbu ro‘yxat ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat aholisi 170,6 million kishini tashkil

etgan bo‘lib, ularning 56,1 millioni (33%) shahar aholisi hisoblangan. Qisqacha statistik ma’lumotlar 1939 – 1940-yillarda e’lon qilingan, biroq hozirgi kunga qadar ushbu ro‘yxatning asosiy ro‘yxatga olish materiallarining katta qismi nashr etilmagan holda saqlanib qolmoqda[5].

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng unda ishtirok etgan barcha mamlakatlar aholi ro‘yxatini o‘tkazdi. Faqat Sovet Ittifoqi bundan mustasno, unda aholi ro‘yxati 1959-yilda amalga oshirildi. Keyingi aholi ro‘yxati SSSRda 1970-yilda o‘tkazildi. Ushub ro‘yxat tashkiliy va metodologik jihatdan 1939 va 1959-yillardagi oldingi ro‘yxatlarga mos ravishda tashkil etilgan. Biroq 1970-yilgi aholi ro‘yxatida 18 ta savol kiritlgani sababli ancha keng qamrovli ma’lumotlar olindi. !859-yilgi ro‘yxatdan farqli o‘laroq, 1970-yilgi aholi ro‘yxatida aholi migratsiyasi masalasiga katta e’tibor qaratildi. Mazkur ro‘yxat materiallari yetti jildda nashr etildi. Shu bilan birga “Xizmat foydalanish uchun” deb nomlangan 10 ta jilddagi aholi ro‘yxati natijalari ham chop etildi[6].1979-yilda o‘tkazilgan umumittifoq aholi ro‘yxati materiallarini tashkil etish va qayta ishlash jarayonlari oldingi ro‘yxatlardan sezilarli darajada farq qilgan. Aholi ro‘yxati so‘rovnomasida muhim texnik yangilik joriy etilgan. Jami 16 ta savoldan 12 tasiga berilgan javoblar avvalgi ro‘yxatdagi kabi so‘zlar bilan emas, balki maxsus tayyorlangan qalam yordamida belgilar ko‘rinishida qayd etilgan.Keyinchalik mazkur so‘rovnomalar elektron o‘qish qurilmalari orqali avtomatik ravishda qayta ishlangan.

Mustaqil O‘zbekistonda yaqin vaqtlarga qadar aholi ro‘yxatlari o‘tkazilmagan. 2019-yillarda mamlakatda birinchi milliy aholi ro‘yxatini o‘tkazish konsepsiyasi tasdiqlandi. 2020 – 2023-yillarda esa turli omillar, jumlardan KOVID -19 pandemiyasi sababli, ro‘yxatga olish jarayoni bir necha bor kechiktirildi va belgilangan muddatlarda amalga oshirilmadi. Mustaqillik-yillaridagi ilk demografik aholi ro‘yxati 20216-yilga rejalashtirilgan bo‘lib, uni o‘tkazish taxminan 15 iyuldan 21 avgustgacha bo‘lgan davrni qamrab olishi kutilmoqda. Shu

[5] [5] Всесоюзная перепись населения 1939 года : основные итоги / Рос. акад. наук, Науч. совет по ист. демографии и ист. географии [и др. ; сост. Ю. А. Поляков и др. ; редкол.: чл.-кор. РАН Ю. А. Поляков и др.]. - Москва : Наука, 1992. - 254

[6] Мотревич В.П. Историческая демография: учебное пособие. Екатеринбург, 2020. 37-39 стр.

tariqa, O‘zbekiston demografik hisob yuritish bo‘yicha boy tarixiy tajribaga ega bo‘lib, ayni paytda mustaqillikdank yeyingi ilk milliy aholi ro‘yxatini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

2.2.Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlarning ta’rifi, konsepsiyalari va qo‘llanilishi

Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlar jismoniy shahslar hayoti davomida yuz beradigan tabiiy demografik voqealar haqidagi ma’lumotlar majmuasidan iborat bzlib, ushbu voqealarning xususiyatlari hamda ular taalluqli bo‘lgan shaxs yoki shaxslar haqidagi tavsiflarni qamrab oladi. Mazkur ma’lumotlar aholinnig holati va rivojlanish tendensiyalarini baholashda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Statistik maqsadlarda aholinnig tabiiy harakati voqealari deganda jismoniy shaxslarning hayoti va o‘limi, shunigdek ularning oilaviy va fuqarolik holati bilan bog‘liq hodisalar tushuniladi. Tabiiy harkat voqealari, avvalo, hayot va o‘lim bilan bog‘liq bo‘lib, tirik tug‘ilishlar, o‘lim holatlari hamda bachadon ichidagi o‘limlarni o‘z ichiga oladi.

Ikki shaxs hayotida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan va har bir shaxs uchun avvalgi holati o‘zgarmasdan takrorlanishi mumkin bo‘lmagan voqealar ikki tomonlama voqealar hisoblanadi. Bularga nikoh, ro‘yxatdan o‘tkazilgan sheriklik, ajralish, nikohni bekor qilish, ro‘yxatdan o‘tkazilgan sheriklik yuridik tugatish va nikohni haqiqiy emas deb topish kiradi.

Vertikal oilaviy voqealar esa avlodga taalluqli bo‘lib, bolani farzandlikka olish, uni vonuniylashtirish hamda otalkni (yoki onalikni) tan olish kabi holatlarni qamrab oladi.

Mamlakat aholisining soni va asosiy xususiyatlari haqida o‘z vaqtida va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Aholinnig tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlar, ularni tahlil qilish va talqin etish ijtimoiy - iqtisodiy rejalarda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarni aniqlash va ularnnig bajarilishi darajasini baholashda muhim

ahamiyatga ega. Bu jumladan, sog‘liqni saqlash va aholishunoslik sohasidagi dasturlarni amalga oshirishni nazorat qilish, shuningdek, tug‘ilgan kutiladigan umr davomiyligi, chaqaloqlar va bolalar o‘limi koeffitsientlari kabi aholi turmush darajasi va hayot sifatiga oid muhim demografik ko‘rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlar turli sohalardagi dasturlarni rejalashtirish, monitoring qilish va baholashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, birlamchi tibbiy – sanitariya yordami, ijtimoiy ta’minot, oilani rejalashtirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, ovqatlanish, ta’lim, ijtimoiy uy - joy siyos–ti kabi yo‘nalishlarda bu ma’lumotlar beqiyos ahamiyatga ega. Demografik nuqtai nazaridan aholinnig tabiiy harakati statistikasi aholi soninni baholash va prognoz qilish, o‘lim, tug‘ilish va nikoh jarayonlarini o‘rganish, shunigdek, avlodlar bo‘yicha hayot jadvallarini tuzishda qo‘llaniladi.

Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlar turli manbalar orqali shakllantiriladi. Ularga fuqarolik holatini qayd etish tizimidagi rasmiy ro‘yxatlar, aholini ro‘yxatga olish va uy xo‘jaliklarini tanlanma kuzatishlarda kiritilgan tug‘ilish va o‘limga maxsus savollar, tanlanma ro‘yxatga olish ma’lumotlari hamda tibbiy hujjatlar kiradi. Shu sababli turli manbalardaa qo‘llaniladigan tushunchalar va tabiiy hujjatlar kiradi. Shu sababli turli manbalarda qo‘llaniladigan tushunchalar va tabiiy harakat voqealarining ta’riflari bir xil bo‘lishi muhim, bu esa milliy va xalqaro darajada ma’lumotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlaydi.

Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlarni olishdaemng maqbul manba sifatida fuqarolik holatini qayd etish tizimi e’tirof etiladi, chunki u tabiiy harakat voqealari haqida aniq, to‘liq, o‘z vaqtida va uzluksiz ma’lumot berish imkonini yaratadi. Shunigdek, mazkur tizim (aholi reestrlari bilan birga) ma’muriy – hududiy bo‘linmaning eng kichik darajasida ham-yillik oqimlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni olish imkonini beradi, bunday ma’lumotlarni boshqa ma’lumot to‘plash tizimlari olish deyarli mumkin emas.

Fuqarolik holatini holatini qayd etish materiallari mavjud bo‘lmagan yoki cheklangan mamlakatlardagi aholini ro‘yxatga olish va o‘y xo‘jaliklarini tanlama kuzatishlar o‘tkazilib, tug‘ilish, o‘lim va nikohga oid retrospektiv savollar orqali zarur statistik ko‘rsatkichlar baholanadi. Shuningdek, ayrim davlatlarda tabiiy harakat bo‘yicha ma’lumotlar tanlanma ro‘yxatga olish hududlari tashkil etish yo‘li bilan ham olinadi va rejalashtirish maqsadlarida bilvosita demografik baholash usullari qo‘llaniladi.

Aholi soni va uning o‘sishini baholashda qo‘llanilishi quyidagilarni talab etadi:

1.Tug‘ilish va o‘limga oid statistik ma’lumotlar mamlakatlar miqyosida, shuningdek, mamlakat ichidagi turli darajadagi hududlar kesimida aholi sonini baholash va prognoz qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.Aholi soni tirik tug‘ilishlar hisobiga ortadi, o‘limlar natijasida esa kamayadi. Shu bilan birga u migratsiya jarayonlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli aholi orasida sodir bo‘lgan tug‘ilish va o‘limlar soni haqidagi ma’lumotlar aholini tabiiy o‘sishi yoki kamayishini, shuningdek, aholi soni tarkibidagi-yillik o‘zgarishlarni aniqlashda asosiy manba hisoblanadi. Aholi soni va uning o‘sishi haqidagi axborot milliy va hududiy rejalashtirish, resurslarini taqsimlash uchun zarur shart hisoblanadi. Shunigdek, aholi bo‘yicha-yillik baholash ma’lumotlari demografik ko‘rsatkichlarining aksariyatini hisoblash uchun talab etiladi.

2. fuqaroik holatini ro‘yxatga olish tizimi orqali olinadigan aholnnig tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlarning muhim afzalliklaridjan biri - ularnig keng hududiy qamrovi hamda aholinnig kichik guruhlarini ham qamrab olish imkoniyatidir. Milliy darajada yuqori qamrovga ega bo‘lgan ishonchli ro‘yxatga olish ma’lumotlari hududlar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot kabi sohalarda tegishli ma’muriy darajada hududiy rejalashtirish va resruslarni oqilona taqsimlash uchun qimmatli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Aholi soni va tarkibi vaqt o‘tishi bilan uzluksiz o‘zgarib turadi:odamlar tug‘iladi, vafot etadi, yashash joyini almashtiradi, nikoh

qiladi yoki uni tugatadi, maktab va universitetlarni tamomlaydi, yangi kasblar egallaydi. Demografik hodisalarning rivojlansh qonunlari faqat aholiga oid keng qirrali, batafsil va ishonchli ma’lumotlar asosida o‘rganilishi mumkin.

Hozirgi kunda demografiyada aholi haqida to‘rt turdagi o‘zaro to‘ldiruvchi ma’lumot manbalari qo‘llaniladi:

1.Aholini ro‘yxatga olish;

2.Hozirgi demografik hodis alarni statistik hisobotlar orqali kuzatish;

3. Reestrlar va turli aholi ro‘yxatlari;

4.Tanlovli va maxsus so‘rov - tahlillar.

Bu ma’lumotlar orqali demografik jarayonlar tahlili va aholi rivoji qonunlarini aniqlash imkoni yaratiladi.

Aholi haqidagi ma’lumotlar manbalari orasida eng mashhuri – aholini ruyxatg olish, chunki uni amalga oshirishdan oldin va jarayonida aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlari olib boriladi. Bu jarayonda statistika idoralari xodimlari bilanbirga yuz minglab odamlar ham ishtirok etadi. Aholini ro‘yxatga olish- bu ijtimoiy va ilmiy talablarga muvofiq o‘tkaziladigan tadbir bo‘lib, aholinnig soni va tarkibi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash maqsadini ko‘zlaydi. Zamonaviy aholini ro‘yxatga olish belgilangan davrlikda va ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha o‘tkaziladi. Ularning o‘tkzilishining asosiy prinsiplari quyidagilar:

1.Umumiy qamrov: aholi sanashi butun mamlakat hududi aholisining qamrab olishi kerak. Ma’lum bir hududning yoki aholining faqat bir qismi sanab o‘tilmaydi. Bu prinsipni bajarish eng murakkab masala hisoblanadi.

2.Мунтазамлик: aholini ro‘yxatga olish odatda har 10-yilda bir marta o‘tkaziladi:Bunday vaqt intervallari sanash ma’lumotlarini solishtirish imkonini beradi.

3.Birdek dastur tuzish: aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha yagona dastur mamlakat miqyosida tuzilishi shart. Aholini sanash dasturlari mazmuni bo‘yicha xalqaro tavsiyalar mavjud bo‘lib, ular natijalarini turli mamlakatlar bilan solishtirish imkonini beradi.

4. Ma’lumotlarni bevosita aholidan olish: sanash x’odimlari barcha ma’lumotlarni aholidan to‘g‘ridan – to‘g‘ri oladi, ya’ni javoblar aholining o‘zi bilgan va aytib bergan ma’lumotlarga tayanadi, hech qanday hujjat talab qilinmaydi.

5. Statistik sir saqlash: aholidan olingan barcha ma’lumotlar faqat statistik ma’lumot to‘plash maqsadida qo‘llanilishi lozim. Bu ma’lumotlar individual aholiga tegishli emas, faqat umumiy xususiyatlar shaklida tahlil qilinadi.

6. Bir vaqtda o‘tkazish (momentallik): aholi sanashi muayyan bir vaqtda aholining soni va tarkibini aniq ko‘rsatishi kerak. Bu vaq sanashning tanlov vaqti deb ataladi. Odatda, aholi harkatchanligi eng kam bo‘lgan davr – yanvar oyining o‘rtalari hisoblanadi. Birv aqtda o‘tkazish aholi sanashining muhim prinsiplaridan biridir.

7.Markazlashtirilgan tayyorgarlik va amalga oshirish: aholini ro‘yxatga olish tayyorgarligi va uni amalga oshirish jarayoni qat’iyan markazlashtirilgan tartibda bo‘lishi kerak.

O‘tmishdagi aholini ro‘yxatga olishlarida kuzatuv birligi sifatida oila xizmat qilgan;sanash varaqlarida har bir oila a’zolari – birga yashovchi, qonuniy yoki turmush munosabatalari bilan bog‘langan va umumiy byudjetgsha ega bo‘lgan shaxslar to‘plami bo‘yicha ma’lumotlar qatorma – qator qayd etilgan. 2002-yildan boshlab aholini ro‘yxatga olishda kuzatuv birligi sifatida oila emas, balki xo‘jalik tanlanadi. “Xo‘jalik” tushunchasi – birga yashovchi va umumiy xo‘jalikni yurituvchi shaxslar to‘plami. Bu tushuncha oiladan tubdan farq qilib, unga albatta yaqin qarindoshlar kirishi shart emas (bu xo‘jalik byudjetiga to‘liq yoki qisman hissa qo‘shuvchi shaxslar bo‘lishi mumkin) yoki hatto bir shaxsdan iborat bo‘lishi mumkin, u o‘zini moddiy jihatdan ta’minlaydi.

Aholini ro‘yxatga olish turli xil ma’lumotlarni tqdim etadi. Ma’lumotlar doirasi va mazmuni sanash dasturini tashkil qiladi. Dastur aholiga berilgan savollar orqali ifoda etiladi va savollar mamlakat oldida turgan dolzarb vazifalarga muvofiq belgilanadi.

Aholini roʻyxatga olish varaqasi, odatda, manzil qismi bilan boshlanadi. Demografiyada aholi doimiy va mavjud (hozirgi) aholiga ajratiladi.

Mavjud aholi deb roʻyxatga olish vaqtida aynan shu aholi punktida jisman boʻlgan shaxslar tushuniladi, yaʼni sanash ularni qaerda uchratgan boʻlsa, oʻsha joyda hisobga olinadi. Shu bilan birga vaqtincha yoʻq boʻlgan shaxslar ham alohida alohida toifa sifatida ajratib koʻrsatiladi.

Agar mavjud aholi soni (N), vaqtincha yoʻqlar (VO) va vaqtincha yashab turganlar (VP) haqida maʼlumotlar mavjud boʻlsa, ushbu koʻrsatkichlar asosida doimiy aholi sonini aniqlash mumkin:

$$P= N – VP + VO$$

Aholini roʻyxatga olish varaqasida maxsus savollar guruhi demografik belgilarga bagʻishlanadi, yaʼni jins, yosh va oilaviy holatni qamrab oladi. Yoshni noaniq koʻrsatish yosh boʻyicha toʻplanish (akkumulyatsiya)ga va aholining yosh tarkibi haqidagi maʼlumotlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, faqat yosh emas, balki tugʻilgan sana ham koʻrsatiladi.

Shundan keyin etnik xususiyatlarga oid savollar beriladi: ona tili va milliy mansublik haqida maʼlumotlar aniqlanadi. Savollarning yana bir qismi aholining ijtimoiy – iqtisodiy tavsiflariga bagʻishlanadi. Bularga taʼlim darajasi, yashash manbalari, ish joyi va mehnat faoliyati turi haqidagi maʼlumotlar kiradi. Ayrim hollarda qoʻshimcha savollar ham kiritiladi, ularning tarkibi muayyan davrdagi ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlar va vazifalar bilan belgilanadi.

BMT tavsiyalariga muvofiq, aholini roʻyxatga olish tadbirlarda, odatda, oʻn-yillikning oxiriga yaqin boʻlgan-yillarda oʻtkaziladi.Roʻyxatga olish jarayonida juda koʻp insonlar asosiy ish faoliyatidan jalb etiladi va katta moliyaviy xarajatlar talab etiladi. Shu sababli, bunday tadbirlarni har-yili oʻtkazish amalda juda qiyin hisoblanadi.

Mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni samarali boshqarishning asosida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish yotadi. Buning uchun dolzarb, aniq va oʻz vaqtidagi statitstik maʼlumotlarni

shakllantirish nihoyatda muhim hisoblnadi.Ayniqsa, aholining kichik guruhlari kesimida detallashtirilgan statistik ma’lumotlar tayyorlash ushbu jarayonning asosini takshil etadi. Aholi ro‘yxatning asosiy vazifasi – aholi soni, tarkibi, xususiyatlari, shuningde, uning tashkiliy tuzilishi (oila va uy xo‘jaliklari)ga oid batafsil ma’lumolarni yoig‘ish, qayta ishlash va keng jamoatchilikka taqdim etishdan iborat. Jahonning aksariyat mamlakatlarida aholi ro‘yxatlari davriy ravishda, odatda har 10-yilda bir marta o‘tkaziladi. Mazkur tamoyillar aholi ro‘yxatini muayyan vaqtda mamlakat yoki uning aniq belgilangan hududda yashovchi barcha shaxslar bo‘yicha eng kichik geografik birliklar kesimida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma’lumotlarni rejalashtirish, yig‘ish, qayta ishlash, baholash, tarqatish hamda tahlil qilish jarayonlarining yaxlit tizimi sifatida tavsiflaydi.O‘zyuekiston Respublikasining 2020-yil 16 martida qabul qilingan “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-611)ning 6 – moddasi – “Aholining ro‘yxatga olishning asosiy tamoyillari”ga muvofiq, mamlakatda aholi ro‘yxatini o‘tkazish quyidagi asosiy tamoyoillarga asoslanadi:

1.Davriylik tamoyili – aholi ro‘yxati kamida har o‘n-yilda birm arta o‘tkaziladi. Aholi ro‘yxatini o‘tkazish to‘g‘risida qaror, uning sanasi va muddatini ko‘rsatgan holda Sho‘bekiston respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi. Aholi ro‘yxatini o‘tkazish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan, odatda, ro‘yxat o‘tkazishning mo‘ljallangan sanasidan kamida uch-yil oldin kiritiladi.

2.Umumiylik va bir vaqtlilik tamoyili – aholi ro‘yxatida barcha respondentlardan shaxsiy ma’lumotlar yagona belgilangan sanada, O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida yoki uning aniq belgilangan qismida bir vaqtning o‘zida yig‘iladi.

3.Individual ro‘yxatga olish tamoyili – shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida har bir respondent uchun alohida ravishda ro‘yxatga olish varaqasi to‘ldiriladi.

4.Shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi tamoyili – aholi ro‘yxatida olingan shaxsiy ma’lumotlar maxfiy hisoblanadi va respodent roziligisiz oshkor etilmaydi,hamda tarqatilmaydi.

5.Markazlashtirilgan boshqaruv tamoyili – aholi ro‘yxatini tayyorlash va o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi yagona boshqaruv tizimi asosida markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Aholi ro‘yxatini o‘tkazish usullari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. So‘rov (intervyu) usuli – ushbu usulda ro‘yxatga olish varaqasi ro‘yxatga oluvi (hisobchi, ro‘yxatga oluvchi xodim) tomonidan shaxs bilan yuzma – yuz muloqot jarayonida to‘ldiriladi. Mazkur usul Rossiya va SSSRda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlarida qo‘llanilgan.
2. O‘z – o‘zini hisoblash usuli – bu hoda respondentlar ro‘yxatiga olish varaqasini mustaqil ravishda to‘ldiriladi, ro‘yxatga oluvchi esa uning to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshiradi va kamchiliklar yoki noaniq ma’lumotlarni aniqlashtiradi. Ushbu usul ayrim Yevropa mamlakatlarida qo‘llaniladi.
3. Aralash (anketa) usuli - mazkur usul xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQShda keng qo‘llaniladi. Bunda anketa shakllari respondentlarga yuboriladi, ular tomonidan to‘ldirilib, aholi ro‘yxati byurosi yoki statistikasi organlariga qaytariladi. To‘ldirilgan anketalar yig‘ib olingandan so‘ng statistika organlari ularni tekshiradi va anketa qaytarilmagan manzillariga ro‘yxatga oluvchilarni yuborib, qo‘shimcha so‘rov o‘tkazadi. Odatda, ushbu usulda moliyaviy xarajatlar nisbatan kam bo‘ladi, biroq anketalarni qaytarish darajasi past (taxminan 15-20 foiz) bo‘lib qolmoqda, hatto keng ko‘lamli targ‘ibot ishlariga qarmasdan.

Zamonaviy aholi ro‘yxatlari asosan ikki usulda – so‘rov (intervyu) yoki o‘z – o‘zini hisoblash usuli orqali o‘tkaziladi. Ularning o‘zaro farqi shundaki, birinchi holda ro‘yxatga olish varaqasi hisobchi (ro‘yxatga oluvchi) tomonidan respondent bilan shaxsiy muloqot jarayonida to‘ldiriladi, ikkinchi holda esa respondentlar anketani mustaqil ravishda to‘ldiriladi. Shundan so‘ng ro‘yxatga oluvchi xodim uning to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshiradi hamda yetishmayotgan yoki noaniq ma’lumotlarni aniqlashtiradi. Agar aholi ro‘yxatini o‘tkazish

usulini tanlash, avvalo, aholining tayyorgarlik darajasi va umumiy madaniy saviyasiga, shuningdek, minimal xarajatlar bilan imkoni boricha aniq ma’lumotlar olish maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. O‘z – o‘zini hisoblash usuli moddiy resurslar va vaqtni tejash imkonini beradi. Biroq bu usul ayniqsa, aholining maddaniy darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda, noaniq va tzliq bo‘lmagan ma’lumotlar olish xavfini oshiradi. Chunki maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan ko‘plab respondentlarning anketa to‘ldirish jarayonida ishtirok etishi savollarni aniq va bir xil tushunishni ta’minlash uchun ularning ifodalanishiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi.

So‘rov usuli orqali nisbatan aniqroq ma’lumotlar olish mumkin, biroq bu usul katta moliyaviy va tashkiliy xarajatlar bilan bog‘liq. Shu bois, so‘rov va o‘z – o‘zini hisoblash usullarining afzallik va kamchiliklarini inobatga olgan holda, zamonaviy sharoitda ularni uyg‘unlashtirib qo‘llash amaliyoti ham mavjud. Masalan, qishloq joylarda so‘rov usuli, shaharlarda esa o‘z – o‘zini hisoblash usulidan foydalanish mumkin.Tarixiy jihatdan qaraganda 1897 va 1920-yillardagi aholi ro‘yxatlarida aynan shunday yondashuv qo‘llanilgan:shaharlarda (1920-yilda asosan yirik shaharlarda) o‘z – o‘zini hisoblash usuli, qishloq hududlarda esa so‘rov usulidan foydalanilgan. Keyingi aholi ro‘yxatlarining aksariyatida esa asosan so‘rov usuli ustuvor bo‘lgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demografik statistik ma’lumotlar qanday manbalardan olinadi?
2. Aholini ro‘yxatga olish nima va uning vazifasi nimadan iborat?
3. Joriy demografik hisob qanday amalga oshiriladi?
4. Statistik ma’lumotlar bilan sotsiologik ma’lumotlar o‘rtasidagi farq nimada?
5. Sotsiologik tadqiqotlar demografik jarayonlarni o‘rganishda qanday rol o‘ynaydi?
6. So‘rov usuli demografik tadqiqotlarda qanday qo‘llaniladi?
7. Tanlanma kuzatuv nima va u qanday qulayliklarga ega?

8. Demografik ma’lumotlarning ishonchliligini qanday baholash mumkin?

9. Strategik ma’lumotlarni qayta ishlashning asosiy bosqichlari qaysilar?

10. Demografik tadqiqotlarda sifat va miqdoriy usullar qanday uyg‘unlashadi?

III BOB. DEMOGRAFIK VAZIYATNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

3.1. Demografik jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan statistik usullar.

3.2. Tabiiy tug‘ilishning gipotetik minimal darajasi indeksi.

3.3. Demografik koeffitsientlarni standartlashtirish usullari.

Tayanch so‘zlar: demografik vaziyat, aholi soni, tug‘ilish darajasi, o‘lim darajasi, tabiiy o‘sish, migratsiya, demografik ko‘rsatkichlar, aholi tarkibi, yosh-jins tarkibi, urbanizatsiya, demografik siyosat, aholi zichligi, statistik tahlil.

3.1.Demografik jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan statistik usullar

Taqqoslanayotgan aholi guruhlarida yosh tarkibidagi farqlar umumiy demografik ko‘rsatkichlarga ta’sir ko‘rsatmasligi uchun maxsus statistik va demografik usullar qo‘llaniladi. Amaliyotda eng ko‘p foydalaniladigan usullar qatoriga indeks usuli xamda koeffitsientlarni standartlashtirish usullari kiradi.

Tahlilchi ixtiyorida mavjud bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlarning xususiyatlariga qarab, yo indeks usulidan, yoki demografik ko‘rsatikchlarni standartlashtirishning uchta turidan biri qo‘llaniladi. Bu usullar quyidagilar iborat:

- to‘g‘ridan – to‘g‘ri standaritalshtirish;
- teskari standartlashtirish;
- bilvosita standartlashtirish;

Ushbu bobda indeks usuli, shuningdek, koeffitsientlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita standartlashtrish usullari ko‘rib chiqiladi.

Demografik jarayonlarni statistik tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan asosiy usullar quyidagilar hisoblanadi:

- guruhlash usuli;
- Taqsimot qatorlarini tuzish;
- O‘rtacha qiymatlarini hisoblash;
- Dispersion tahlil;

- Koʻrsatkichlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganishga oid statistik usullar va boshqalar.

Indeks usuli. Avval ta’kidlab oʻtilgandek, demografiya sohasidagi maxsus koeffitsientlarni (tugʻilish, oʻlim, nikohlash va boshqalar) hisoblash hamda tahlil qilishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu kabi koʻrsatkichlarni aniqlash uchun aholini ma’lum tuzilma asosida guruhlash zarur hisoblanadi.Bunda guruhlashning asosiy mezoni sifatida oʻrganilayotgan aholi toʻplamining yosh guruhlari olinadi. Yosh boʻyicha tuzilgan bunday guruhlash demografik koeffitsientlarni toʻgʻri hisoblash va ularni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Bunday guruhlashni tuzish zarurati shu bilan izohlanadiki, demografik jarayonlar qaysi yosh guruhida yuz berayotganiga qarab bir biridan farq qiladi. Shuning uchun ularni tavsiflovchi koʻrsatkichlar ham turlicha boʻladi. Bu holat ayniqsa, aholining oʻlim va tugʻilish jarayonlarini oʻrganishda yaqqol namoyon boʻladi.

Aholi statistikasida bir hil nomdagi ikki koʻrsatkichni taqqoslash natijasida indekslar hisoblanadi. Indekslar – bir vatqt yoki hududlar kesimida murakkab demografik koʻrsatkichlar darajasidagi oʻzgarishlarni ifodalovchi nisbiy koʻrsatkichlardir.

Indeks tahlilni amalga oshirishda koʻpincha oʻrtacha qiymatlarni taqqoslash usulidan foydalaniladi (masalan, mamlakat miqyosida tugʻilish yoki oʻlimning umumiy darajasi). Bunda oʻrganilayotgan hodisa yoki jarayonning oʻrtacha qiymatiga bir vaqtning oʻzida ikki omil ta’sir koʻrsatadi:birinchisi – oʻrtacha hisoblanayotgan sifat koʻrsatikchning qiymati, ikkinchisi esa ushbu hodisaning tuzilmasi, ya’ni miqdoriy tarkibi.

Indeks usulidan tugʻilish darajasi dinamikasini tahlil qilish hamda mamlakat ichidagi huddulararo farqlarni baholashda foydalanish turli xil tuhilish kzrsatkichlari (koeffitsientlari) tizimini qoʻllashini nazarda tutadi.

Eng koʻp qoʻllaniladigan koʻrsatkichlar quiydagilardan iborat:

- -yil davomida tugʻilgan bolalar sonining aholining oʻrtacha-yillik soniga nisbatan (har 1000 kishiga) hisoblangan umumiy tugʻilish koeffitsenti (v);

- yil davomida tug‘ilgan bolalar sonining 15-49 yoshdagi ayollarning o‘rtacha-yillik soniga nisbatan (har 1000 kishiga) hisoblangan maxsus tug‘ilish koeffitsienti (f);
- yil davomida tug‘ilgan bolalar sonining ma’lum yoshdagi (ch yosh) ayollarning o‘rtacha-yillik soniga nisbatan (har 1000 kishiga) hisoblangan yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlari(Fx). Ushbu ko‘rsatkichlar odatda reproduktiv yoshdagi (15-49 yosh) ayollarning besh-yillik yosh guruhlari kesimida hisoblab chiqiladi.



3.1-rasm. O‘zbekistonda jami tug‘ilish koeffitsienti

O‘rtacha ko‘rsaktichlarni tahlil qilishda maxsus indekslar tizmidan foydalaniladi, u quyidagi indekslar majmuasini o‘z ichiga oladi:

$$I_{\text{o‘zgaruvchan tarkib indeksi}} = I_{\text{doimiy tarkib indeksi}} \times I_{\text{Tarkibiy siljishlar indeksi}}$$

Shunga qaramasdan o‘quv adabiyotlarda tug‘ilishni tahlil qilishning indeks usuli batafsil yoritilgan bo‘lsada, aynan shu usulga asoslangan tadqiqotlar soni nisbatan kam. Bunda ko‘p hollarda umumiy tug‘ilish koeffitsienti (V)ning maxsus tug‘ilish koeffitsienti (F) va aholi umumiy sonida reproduktiv yoshdagi ayollar ulushi (D)ga bog‘liqligi tahlil qilinadi.

$$B = F \times d \qquad (1)$$

Jumladan, E.K.Vasileva, I.I.Eliseeva va O.N. Nikiforova tug‘ilishni indeks usulida tahlil qilishni aynan ushbu bog‘liqlikni o‘rganishdan boshlaydilar. Shundan so‘ng, ular maxsus tug‘ilish koeffitsienti (F) o‘zgarishlarini tavsiflovchi indekslar tizimini ko‘rib chiqadilar. Bu tizimda omil sifatida reproduktiv yoshdagi ayollar uchun har bir yosh guruhi bo‘yicha tug‘ilish koeffitsientlari (Fx) kiritiladi. Bunda hisobot davridagi ayollar yosh tarkibi o‘zgarmas, deb qabul qilinadi yoki aksincha, bazis davridagi yoshga oid tug‘ilish darajalari saqlangan holda yosh tarkibinnig o‘zgarishi tahlil qilinadi.Ushbu yondashuv doirasida uch turdagi indekslar farqlanadi:birinchi – o‘zgaruvchan tarkib indeksi, ikkinchi – doimiy tarkib indek, uchinchi tarkibiy siljishlar indeksi. Shu bilan birga demografik vaziyatni baholash uchun turil mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan integral indekslar ham mavjud bo‘lib, ularnnig qiyosiy tahlili 3.1- jadvalda kellirilgan.

3.1-jadval

Demografik vaziyatni baholash uchun integral indekslar

№	Indeksni nomlanishi	Hisoblash uchun ko‘rsatkichlar tizim	Hisoblash uchun formulasi	Mohiyati
1	L.L.Ribakovskiyning demografik noqulaylik indeksi.	1.Standartlashtirilgan tug‘ilish koeffitsienti 2.Standartlashtirilgan o‘lim koeffitsienti 3.Aholi soni. 4.demografik o‘sish (yoki kamayish). 5.Faktik (amaldagi) aholi soni.	$ИДН = \frac{СКР}{СКС} \times \frac{ЧН -/+ ДП(У)}{ЧН_{факт}},$ bu yerda: IDN – demografik noqulaylik indeksi, SKR – standartlashtirilgan tug‘ilish koeffitsienti, SKS – standartlashtirilgan o‘lim koeffitsienti, ChN – aholi soni, DP (U) – demografik o‘sish (yoki kamayish), ChN fakt. – amaldagi (faktik) aholi soni.	Olingan ko‘rsatkich birdan qanchalik kichik bo‘lsa, demografik vaziyat shunchalik barqaror va qulay hisoblanadi. Aksincha, koeffitsient birdan qanchalik katta bo‘lsa, demografik holat shunchalik noqulay va salbiy ekanligini anglatadi.
2	V.A.Rubsov, N.K.Gabdraxmanova va M.V.Rojkoning demografik vaziyat indeksi.	1.Umumiy tug‘ilish koeffisienti2.Umumiy o‘lim koeffitsenti. 3.Chaqaloqlar o‘lim koeffitsienti. 4.Demografik	$I_{ДС} = \frac{K_{рожд}}{K_{смертн} + K_{млад.\ смертн} + K_{ДН}} \times K_{ОПЖ},$ bu yerda: Krojd – tug‘ilish koeffitsienti, Ksmertn – o‘lim koeffitsienti,	Indeks qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, hududdagi demografik vaziyat shunchalik yaxshi hisoblanadi,

		yuklama koeffitsenti. 5.Tug‘ilishda kutilgan o‘rtacha umr davomiyligi.	Kmlad.smertn. – chaqaloqlar o‘lim koeffitsienti, KDN – demografik yuklama koeffitsienti, Kopj – tug‘ilishda kutilgan o‘rtacha umr davomiyligi (OPJ).	aksincha, indeks qiymati past bo‘lsa, demografik holat shunchalik noqulay ekanligini anglatadi.
3	S.V.Soboleva, O.V.Chudaeva va N.E.Smirnovaning demografik xavfsizlik indeksi.	1.Aholining tabiiy o‘sishi.2.Jami tug‘ilish koeffitsientining aholining oddiy qayta ko‘payishini ta’minlovchi tug‘ilish darajasiga nisbati.3.Kutilgan o‘rtacha umr davomiyligi.4.100ta tug‘ilishga to‘g‘ri keladigan homiladorlikni to‘xtatish (abortlar) soni.5.Demografik yuklama koeffitsienti (1000ta mehnatga layoqatli aholiga to‘g‘ri keladigan bolalar hamda mehnatga layoqatli katta yoshdagi aholi soni).6.Almashinuv koeffitsienti (1000ta mehnatga layoqatli katta yoshdagi aholiga to‘g‘ri keladigan bolalar soni).	$Z_{j,t} = \left[\sum a_{i,j,t} \times \left(u_{i,j,t}\right)^2\right]^{0,5}$, bu yerda: Zj,t – t vaqt oralig‘ida j-hududning demografik xavfsizlik yoki xavf darajasini ifodalovchi integral ko‘rsatkich, i – ko‘rsatkich turlari indeksi, j – ko‘rib chiqilayotgan hududlar indeksi, t – vaqt oraliqlari indeksi. $u_{i,j,t} = \left(X_{i,j} - x_{i,j,t}\right)/\left(X_{i,j} - x_{i,j}\right)$, bu yerda: xi,j,t – t vaqt oralig‘ida j-hudud uchun i-ko‘rsatkichning qiymati. Xi,j orqali har bir ko‘rib chiqilayotgan j-hudud uchun i-ko‘rsatkichning barcha t = 1,2…T davrlar bo‘yicha eng yaxshi qiymatlari, xi,j orqali esa eng yomon qiymatlari belgilangan. ai,j,t – ko‘rsatkichning ahamiyat darajasini ifodalovchi vazn koeffitsientlari.	Ko‘rsatkich birlik ulushlarida o‘lchanadi, uning nazariy jihatdan eng yaxshi qiymati esa nolga teng hisoblanadi.

4	A.V.Popov va O.N.Kalpachikovaning demografik xavfsizlik indeksi	1.Aholining hududiy konsentratsiya darajasi (o‘lchovi).2.Tug‘ilishda kutilgan o‘rtacha umr davomiyligi.3.Chaqaloqlar o‘lim koeffitsienti.4.Netto ko‘payish koeffitsienti.5.Jami tug‘ilish koeffitsienti.6.Migratsion o‘sish koeffitsienti.7.Tabiiy o‘sish koeffitsienti.8.Mehnatga layoqatli aholiga demografik yuklama.9.Aholining qarish koeffiitsenti.	$I_j = \sum d_{ij},$ Formulani yezish kerak Bu yerda:Ij – j hududda deomgrafik xavfsizlika bo‘lgan umumiy tahdidlar indeksi; dij – demografik xavfsizlikka oid xususiy (alohida) taxdid indekslari	Indeks qiymati 0dan (xavf – xatar mavjud emas (9 gacha (xavf – xatarning eng yuqori darajasi) oralig‘ida bo‘ladi.
5	A.A.Kuklin, A.F.Shorikov, V.A.Tyulkin, A.V.Cherepanov, Ye.V.Vasileva va Ye.V.Nekrasova tomonidan taklif etilgan ijtimoiy-demografik xavfsizlik indekslari.	1.Aholining qayta ko‘payish bloki (5ta ko‘rsatkich).2.Aholi salomatligi holati bloki (8ta ko‘rsatkich).3.Aholi moddiy farovonligi bloki (6ta ko‘rsatkich).4.Ijtimoiy muhit sifati bloki (6ta ko‘rsatkich).5.Migratsiya oqimlari bloki (4ta ko‘rsatkich).6.Jinsiy-yosh va nikoh-oila tuzilmasi ko‘rsatkichlari bloki (7ta ko‘rsatkich).	$C_{kj} = \frac{\sum_{i=1}^{N_{kj}} b_{ji} \times X_{ji}^{H}}{\sum_{i=1}^{N_{kj}} b_{ji}},$ Buni formulaga kiriting Bu yerda: XN-indikator bo‘yicha normallashtirilgan baholash;Bjj – holatning balli bahosi.	Vaziyat me’yoriy (indikativ) ko‘rsatkichlar asosida normallashtirilgan baholar orqali (chegaraviy darajalar bilan taqqoslash yo‘li bilan) baholanadi.

O‘rtacha indekslarini hisoblashni shahar aholisi o‘lim ko‘rsatkichlari misolida ko‘rib chiqamiz. Mazkur holatda o‘zgaruvchan tarkib indeks joriy davrdagi o‘lim koeffitsientining bazaviy davrdagi o‘lim koeffitsientiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$I_{K_{o'}} = \frac{K_{o'_1}}{K_{o'_0}} = \frac{\sum K_{o'j_1} u_{j_1}}{\sum K_{o'j_0} u_{j_0}} \qquad (2)$$

Ushbu ko‘rsatkich o‘lim koeffitsienti qiymatining o‘zgarishini bir vaqtning o‘zida ikki omil ta’sirida ifodalaydi: yoshga xos o‘lim darajalarinnig o‘zgarishi hamda shahar aholisinnig *x* yoshdagi tarkibiy tuzilishida yuz bergan o‘zgarishlar hisobiga. Doimiy tarkib indeksini hisoblash uchun quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$I_{\text{doimiy tarkib indeksi}} = \frac{\sum K_{o'j_1} u_{j_1}}{\sum K_{o'j_0} u_{j_1}} \qquad (3)$$

Ushbu ko‘rsatkich o‘lim koeffitsientini qiymatining o‘zgarishini yoshga xos o‘lim darajalari o‘zgarishi hisobiga baholaydi, bu vaqtda shahar aholisining tarkibiy tuzilshi o‘zgarmaydi. Tarkibiy siljishlar indeksi esa aholi to‘plamining tarkibi o‘zgarishi hisobiga o‘lim koeffitsientini qiymatining o‘zgarishini baholaydi, bu vaqtda yoshga xos o‘lim ko‘rsatkichlari o‘zgarmaydi.

$$I_{\text{tarkibiy siljishlar indeksi}} = \frac{\sum K_{o'j_0} u_{j_1}}{\sum K_{o'j_0} u_{j_0}} \qquad (4)$$

Quyidagi 3.2– jadvalda 2015-2025-yillarda O‘zbekistonda shahar aholisi o‘limining aniq tahlilini misolarda ko‘rib chiqamiz:

3.2-jadval

2015-2025-yillarda O‘zbekistonda shahar aholisi o‘limining tahlili

Yosh guruhi, yosh	2015		2025		Hisoblar		
	yoshga xos o‘lim darajasi, $K_{o'Mo}$ %	aholi soni, ulush u_0	yoshga xos o‘lim darajasi, $K_{o'M1}$ %	aholi soni, ulush u_{01}			
A	1	2	3	4	5= 1 gurux x 2 gurux	6=1 gurux x 4 gurux	5=3 gurux x 4 gurux
0-4	2,300	0,065	1,800	0,072	0,149	0,166	0,130
5-9	0,400	0,056	0,300	0,062	0,022	0,025	0,019
10-14	0,400	0,051	0,300	0,055	0,020	0,022	0,016

20-24	2,500	0,89	1,900	0,63	0,223	0,159	0,121
25-29	4,500	0,094	3,100	0,093	0,421	0,417	0,287
30-34	6,800	0,083	5,100	0,090	0,567	0,611	0,458
35-39	7,900	0,077	7,300	0,080	0,605	0,634	0,585
45-49	13,400	0,072	10,800	0,065	0,960	0,866	0,698
50-54	18,600	0,080	15,000	0,070	1,491	1,309	1,056
60-64	37,100	0,052	31,600	0,057	1,941	2,124	1,810
70-va undan yuqori	95,200	0,064	91,900	0,056	6,123	5,331	5,146
Jami	-	1,000	-	1,000	16,149	16,393	14,258

Shu tariqa, erkak aholining o‘rtacha o‘lim darajasining pasayishiga, avvalo, yoshlar bo‘yicha o‘lim jadalliginnig kamayishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi (yosh tarkibi o‘zgarmas deb olinganda u 13,0 foizga pasaygan. Shu bilan birga, aholining qarish jarayoni turli yoshlardagi o‘lim darajasi bir xil deb qaralganda, erkaklar o‘limi umumiy ko‘rsatkichning 1,5 foizga oshishiga olib keldi.

Misol tariqasida 2-jadvalda tug‘ilish ko‘rsatkichlari misolida o‘rtacha darajannig indekslarini hisoblab chiqamiz. Bizning holatda o‘zgaruvchan tarkib indeksi sifatida joriy va bazaviy davrlardagi maxsus tug‘ilish koeffitsientlarining o‘zaro nisbati qabul qilinadi:

$$I_{K_{t^{15-49}}} = \frac{K_{t_1}^{15-49}}{K_{t_0}^{15-49}} = \frac{\sum K_{tj\theta_1} u_{x_1}}{\sum K_{tj\theta_0} u_{x_0}} \qquad (5)$$

Ushbu ko‘rsatkich maxsus tug‘ilish koeffitsientini qiymatinnig o‘zgarishini bir vaqtning o‘zida ikki omil ifodalaydi: yoshlar bo‘yicha tug‘ilish darajalarinnig o‘zgarishi hamda *x* yoshdagi ayollar tarkibining o‘zgarishi hisobiga. Doimiy tarkib indeksini hisoblash uchun quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$I_{\text{doimiy tarkib indeksi}} = \frac{\sum K_{t\theta_1} u_{x_1}}{\sum K_{t\theta_0} u_{x_1}} \qquad (6)$$

Ushub ko‘rsatkich *x* yoshdagi ayllar tarkibi o‘zgarmas holda qolgan sharoitda, yoshlar kesimidagi tug‘ilish darajalarining o‘zgarishi hisobiga maxsus tug‘ilish koeffitsienti qiymati qanday o‘zgarganini tavsiflaydi.

Tarkibiy siljishlar indeksi esa reproduktiv yoshdagi ayollar jami tarkibining o‘zgarishi natijasida, yoshlar bo‘yicha tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘zgarmas deb qralaganda, maxsus tug‘ilish koeffitsientida yuz bergan o‘zgarishni baholaydi.

$$I_{\text{tarkibiy siljishlar indeksi}} = \frac{\sum K_{t\theta_1} u_{x_1}}{\sum K_{t\theta_0} u_{x_0}} \qquad (7)$$

Quyidagi misollar sifatida ko‘rib chiqamiz.

Uzstat ma’lumotlariga ko‘ra 2015-2025-yillarda tug‘ilishning yosh bo‘yicha koeffitsiyentlari hamda reproduktiv yoshdagi ayollarning yosh tarkibi (3.3-jadval) quyidagicha bo‘lgan.

Olingan hisob-kitoblarni formulaga qo’yib, quyidagilarni olamiz:

O‘zgaruvchan tarkibi indeksi = 54,2599 : 371741 = 1,4596;

Doimiy tarkibi indeksi = 54,2599 : 37,5095 = 1,4466;

Tarkibiy siljishlar indeksi = 37,5095 : 37,1741 = 1,0090.

Shunday qilib, o‘rtacha hisobda reproduktiv yoshdagi har bir ayolga to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlar soni 2025-yilda 2015-yilga nisbatan deyarli 46% ga oshgan. Bunda oshishning 44,7% qismi tug‘ilishni yosh bo‘yicha koeffitsiyentlari o‘zgarishi hisobiga 0,9% qismi esa ruproduktiv yoshdagi ayollarning yosh tarkibi o‘zgarishi hisobiga yuz bergan.

3.3-jadval

2015-2025-yillarda O‘zbekistonda tug‘ilishining tahlili rakami kani

Yosh guruhi, yosh	Yoshlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsienti, ‰		i-y yoshdagi ayollar ulushi, hissa		Hisoblar		
	2015	2025	2015	2025			
	$K_{t_{x0}}$	$K_{t_{x1}}$	u_{x_0}	u_{x_1}	$K_{t_{x0}} u_{x_0}$	$K_{t_{x0}} u_{x_1}$	$K_{t_{x1}} u_{x_1}$
A	1	2	3	4	5= 1 gurux x 3 gurux	6= 1 gurux x 4 gurux	5= 2 gurux x 4 gurux
15-19	34	39.0	0.212	0.185	7.208	6.290	7.215

20-24	154.0	192.0	0.206	0.189	31.724	29.106	36.288
25-29	180.0	220.0	0.191	0.188	34.380	33.840	41.360
30-34	94.0	130.0	0.161	0.168	15.134	15.792	21.840
35-39	30.0	45.0	0.113	0.126	3.390	3.780	5.670
40-44	6.0	4.0	0.073	0.087	0.438	0.522	0.348
45-49	0.8	0.2	0.044	0.057	0.035	0.046	0.011
Jami	-	-	1	1	92.309	98.376	112.732

Maxsus tug‘ilish koeffitsienti o‘sishining omillar hisobiga mutlaq ifodada aniqlash mumkin: $\Delta K15{-}49 = 54{,}2599 - 37{,}1741 = 17{,}0858$

-joriy -yilda basis-yilga nisbatan rebroduktiv yoshdagi ayollar tug‘ilish darajasi o‘rtacha 17.0858 ‰ ga oshgan.

Shu bilan birga, tug‘ish yoshidagi ayollar tarkibi o‘zgarishi hisobiga, yosh bo‘yicha tug‘ilish koeffitsientlari tenglashtirilganda, o‘sish:

$37{,}5095 - 37{,}1741 = 0{,}3354$‰ ni tashkil etgan

Yosh bo‘yicha tug‘ilish darajasi oshishi hisobiga esa, yosh tarkibi tenglashtirilgan, o‘sish: $54{,}2599 - 37{,}5095 = 16{,}7504$‰ ga teng bo‘lgan.

3.2. Tabiiy tug‘ilishning gipotetik minimal darajasi indeksi.

Tug‘ilish darajasiga aholining yosh tarkibi bilan bog‘liq omillar, shunnigdek, xo‘jalik (oila)larning reproduktiv xulq – atvoriga taalluqli omillar ta’sir etadi. Shu bois, turli omillarning ta’sirini tahlil qilishda ularni bir – biridan ajratib ko‘rishga intilishadi, bu esa tug‘ilish jadalligining o‘zgarish sabablarini aniqlash imkonini beradi. 1961-yilda Lui Anri tomonidan tug‘ilish jarayonlarini o‘rganishga qo‘llaniladigan “tabiiy tug‘ilish” konsepsiyasi ishlab chiqilib, ilmiy muomalaga qiritilgan.

Tabiiy tug‘ilish – bu tug‘ilish darajasi fiziologik hamda tarkibiy omillar bilan belgilanadigan holat bo‘lib, unga insonning nasl qoldirish qobiliyati, aholining jins – yosh tarkibi va nikoh holati ta’sir qiladi. Bunda kontraseptiv vositalar yoki abortlar orqali tug‘ilishni ongli ravishda cheklash mavjud bo‘lmaydi. Ushbu ko‘rsatkich har qanday aholi jamlanmasida ijtimoiy – biologik salohiyat sifatida real mavjud bo‘ladi va u ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy, psixologik hamda reprroduktiv xulq – atvorga ta’sir etuvchi boshqa omillarga qarab

qisman amalga oshadi. 1971-yilda rossiyalik demograf V.A.Borisov tomonidan matematik model ishlab chiqilib, inson plodovitligining asosiy parametralini aniqlagan. Ushba ma’lumotlar nikohdagi tabiiy tug‘ilishning minimal koeffitsientlarini hisoblash imkonini beradi.(jadval).Aholining nikoh – yosh tarkibini tug‘ilishning ijtimoiy – biologik salohiyatini hisobga olgan holda yagona raqam bilan ifodalash imkonini beruvchi ko‘rsatkich tabiiy tug‘ilishning gipotetik minimumi (GMER) deb ataladi.[7]

3.4-jadval

GMER modelida standart sifatida qabul qilingan nikohdagi tabiiy tug‘ilishning minimal koeffitsientlari dinamikasi

	Yosh guruhi, yosh					
Ko‘rsatkich	20-24	25-29	30-34	35-39	40-44	45-49
Nikohdagi tabiiy tug‘ilish koeffitsientlari	400	377	349	279	155	31

Biroq, ushbu ko‘rsatkichning kamchiligi bori – uni faqat aholi ro‘yxatga olingan-yillarga yaqin vaqtlarda hisoblash mumkin. Hozir esa uni hisoblash imkoniyati mavjud, chunki Statuzda rasmiy veb-saytida ayollar soni bo‘yicha, ularning yoshi va nikohda bo‘lishi hisobiga olingan jadvallar taqdim etilgan.

Quyidagi jadvalda 2015-yilgi aholi ro‘yxati natijalari asosida ko‘rsatkichni hisoblandi. (jadval)

i –yoshdagi tug‘ilish ko‘rsatkichlarini tegishli qismdagi ayollar soni bilan ko‘paytirib (2 va 3-ustunlar ma’lumotlari), nikohda kutilgan tug‘ilishlar sonini olamiz (4-ustun). So‘ngra tuzatish koeffitsienti 1,06ni hisobga olgan holda natijada kutilgan tug‘ilishlar soni aniqlanadi (4 277 186 x 1,06 = 4533817). Olingan nikohda tug‘ilganlar soninnig kutilgan miqdori va aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga asoslangan umumiy aholi sonidan kelib chiqib, GMER hisoblanadi. (4 533817:142856536 x 100= 31,7)

[7] Антонова Н. Л. Демография : учеб.-метод. пособие - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 154 с.

Ma’lumki, haqiqiy tug‘ilish ko‘rsatkich 12,5%ni tashkil etgan. Shu asosda GMERning amalga oshish darajasi umumiy tug‘ilish koeffitsientlarinnig GMERga nisbati orqali aniqlanadi: (12,5:31,6=0,394).

3.5-jadval

Boshlang‘ich ma’lumotlar jadvali rakami kani

Yoshi,-yil	Tabiiy tug‘ilish, ulushi	Rasmiy ravishda ro‘yxatdan o‘tgan nikohdagi ayollar soni, kishi	Nikohda kutilgan tug‘ilishlar soni
20-24	400	1 770	708 000
25-29	377	2 591	976 807
30-34	349	2 546	888 554
35-39	279	2 698	752 742
40-44	155	3 392	525 760
45-49	31	3 169	98 239
Jami			3 950 102

Shunday qilib, O‘zbekiston jami aholi ro‘yxatdagi natijalarga ko‘ra, tug‘ilishning ijtimoiy-biologik salohiyati 30,6‰ $N^{\mathrm{GMER}}\frac{4187108.1}{145200}$

Ushbu misolda GMER koeffitsienti qiymatini quyidagicha talqin qilish mumkin. Tabiiy tug‘ilish sharoiti mavjud bo‘lgan taqdirda, ya’ni aholining amaldagi nikoh – yosh tuzilmasi saqlangan holda (aholini ro‘yxatga olish davridagi holat bo‘yicha), umumiy tug‘ilish koefisenti kamida 30,6‰ ni tashkil etgan bo‘lar edi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda GMERni amalga oshirish salohiyati 31,2%ni tashkil etgan, bu esa haqiqiy umumiy tug‘ilish koefffitsienti 9.6‰ bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga GMERni so‘zma-so‘z ma’noda, ya’ni to‘liq amlaga oishirlishi mumkin bo‘lgan tug‘ilish salohiyati sifatida talqin qilish to‘g‘ri emasligini alohida ta’qidlash lozim. Aslida, bunday holatni to‘liq ro‘yobga chiqarig deyarli mumkin emas va bunga ehtiyoj yzq. GMERning asosiy ahamiyati shundaki, u aholining nikoh – yosh tuzilmasining real holatini hamda uning tug‘ilish darajasiga ta’sir

etuvchi omil sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. shu orqali tug‘ilish ko‘rsaktichlariga ta’sir etuvchi tuzilmaviy va xulq – atvor omillarinnig umumiy ta’siridagi nisbatini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, mazkur ko‘rsatkich demografik siyosatni faollashtirish hamda aholini tug‘ilishni oshirishga rag‘batlantirish orqali tug‘ilish darajasini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ham namoyon etadi.

3.3.Demografik koeffitsientlarni standartlashtirish usullari.

To‘g‘ridan – to‘g‘ri standartlash usuli.tug‘ridan – to‘g‘ri standartlash usulida standart sifatida aholinnig yosh tarkibi va haqiqiy yoshga xos demografik koeffitsientlar (masalan, tug‘ilish yoki o‘lim ko‘rsatkichlari) qo‘llaniladi. Hisoblash natijasida haqiqiy yoshga xos koeffitsientlar standart yosh tarkibi bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilib, masalan, Yevropa yoki jahon yosh standarti solishtiriladi.(3.6-jadval)

3.6-ladval

Yosh tarkibi standartlari, umumiy aholiga nisbatan, foizlarda

Guruh yoshi,-yil	Evropa standarti	Jahon standarti
0-1	1.6	1.8
1-4	6.4	7.0
5-9	7.0	8.7
10-14	7.0	8.6
15-19	7.0	8.5
20-24	7.0	8.2
25-29	7.0	7.9
30-34	7.0	7.6
35-39	7.0	7.2
40-44	7.0	6.6
45-49	7.0	6.0
50-54	7.0	5.4
55-59	6.0	4.6
60-14	5.0	3.7
65-69	4.0	3.0
70-74	3.0	2.2
75-79	2.0	1.5
80-84	1.0	0.9
85 va undan yuqori	1.0	0.6
Jami	100.0	100.0

2020-yilgi O‘zbekiston aholi ro‘yxati ma’lumotlari asosida

O‘zbekiston Respublikasining yosh tarkibi standartidan foydalanib, 2024-yilda shahar va qishloq aholimi o‘lim ko‘rsatkichlarining haqiqiy va standartlarshtirilgan qiymatlari orasidagi farqni aniqlaymiz (3.7-jadval).

3.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasining shahar va qishloq aholilisi o‘lim ko‘rsatkichlari

Yosh guruhi,-yil	O‘lim ko‘rsatkichi, %		2020-yilgi O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra O‘zbekiston aholisining yosh strukturasi	Shahar hududida standartlashtirilgan o’lim darajasi.	Qishloq hududida standartlashtirilgan o’lim darajasi.
	Shahar	Qishloq			
A	1	2	3	4=1guruh x 3guruh	5=2guruh x 3guruh
1 yoshgacha	8.0	10.0	1.8	0.144	0.180
1-4	1.2	1.5	7.0	0.084	0.105
5-9	0.4	0.5	8.7	0.035	0.044
10-14	0.3	0.4	8.6	0.026	0.034
15-19	0.7	0.9	8.5	0.060	0.077
20-24	1.0	1.3	8.2	0.082	0.107
25-29	1.2	1.6	7.9	0.095	0.126
30-34	1.5	2.0	7.6	0.114	0.152
35-39	2.0	2.6	7.2	0.144	0.187
40-44	3.0	3.8	6.6	0.198	0.251
45-49	4.5	5.5	6.0	0.270	0.330
50-54	6.5	7.8	5.4	0.351	0.421
55-59	10.0	12.0	4.6	0.460	0.552
60-14	15.0	18.0	3.7	0.555	0.666
65-69	25.0	28.0	3.0	0.750	0.840
70-74	40.0	45.0	2.2	0.880	0.990
75-79	65.0	70.0	1.5	0.975	1.050
80-84	95.0	100.0	0.9	0.855	0.900
85 va undan yuqori	140.0	150.0	0.6	0.840	0.900
Jami			100.0	7.87	9.91

3.8-jadval

Hududiy indekslar va aholi koʻrsatkichlarini tahlili

Yosh guruhi,-yil	Shahar, ‰	Qishloq, ‰	Yosh tarkibi standarti, %	Shahar standartl.	Qishloq standartl.
1 yoshgacha	8.0	10.0	1.8	0.144	0.180
1–4	1.2	1.5	7.0	0.084	0.105
5–9	0.4	0.5	8.7	0.035	0.044
10–14	0.3	0.4	8.6	0.026	0.034
15–19	0.7	0.9	8.5	0.060	0.077
20–24	1.0	1.3	8.2	0.082	0.107
25–29	1.2	1.6	7.9	0.095	0.126
30–34	1.5	2.0	7.6	0.114	0.152
35–39	2.0	2.6	7.2	0.144	0.187
40–44	3.0	3.8	6.6	0.198	0.251
45–49	4.5	5.5	6.0	0.270	0.330
50–54	6.5	7.8	5.4	0.351	0.421
55–59	10.0	12.0	4.6	0.460	0.552
60–64	15.0	18.0	3.7	0.555	0.666
65–69	25.0	28.0	3.0	0.750	0.840
70–74	40.0	45.0	2.2	0.880	0.990
75–79	65.0	70.0	1.5	0.975	1.050
80–84	95.0	100.0	0.9	0.855	0.900
85 va undan yuqori	140.0	150.0	0.6	0.840	0.900
Jami			**100.0**	**7.87**	**9.91**

Hududiy indekslar va aholi koʻrsatkichlarini tahlil qilishda faktik oʻlim

$$I_{\text{сф}} = \frac{14,5}{12,6} = 1,151$$

koʻrsatkichi boʻyicha ga teng. Bu shuni anglatadiki, qishloq aholisida faktik oʻlim darajasi shahar olisiga nisbatan 15,1 foizga yuqori. Yosh tuzilmasi boʻyicha

$$I_{\text{ст}} = \frac{1329,7}{1206,0} = 1,103$$

standartlashtirilgan oʻlim koʻrsatkichi ga teng. Standartlashtirligan koʻrsatkichlarga koʻra, qishloq aholisida oʻlim darajasi shahar aholisiga nisbatan 10,3 foizga yuqori. Bu koʻrsatkich aholi yosh tarkibiga ta’sirini hisobga olgan holda

hisoblangan agregat indeksdir. Faktik va standartlashtirilgan koʻrsaktichlar oraisdagi farq 1,151:1,103=1,045 ga teng. Bu demak, qishloq aholisida oʻlim darajasining koʻproqligi 4,5 fiozga yosh tarkibining salbiy oʻzgarishi (aholi "qarishi") hissaisga toʻgʻri keladi. 2020-yilda qishloq agʻolisida shahar aholisiga nisbatan oʻlim darajasi 10,3 foizdan yuqori, bu standartlashtirilgan koʻrsaktich bilan aniqlanadi. Agar umumiy faktik koeffitsientlarga qaraganda, oʻlim darajasi 15,1 foizdan yuqori koʻringan boʻlar edi, ammo uning 4,5 foiz qismi aholi yosh tarkibinnig yomonlashishi, ya'ni qishloq aholisi qarishi haissasiga toʻgʻri keladi.

Toʻgʻridan – toʻgʻri standartlashtirishning usulining kamchiliklari quyidagilardan iborat:

1. Standartni tanlash sub'ektivligi: toʻgʻridan –toʻgʻri standartlashtirish usulida standart aholi tuzilmasini tanlash kerak boʻladi. Ammo bu standart har doim ob'ektiv ravishda tanlamaydi, shuning uchun natijalarda inson faktori ta'sir qilish ehtimoli bor.

2. Yosh guruhlari notengligi:agar ayrim yosh guruhlari aholida kam aks etgan boʻlsa yoki guruhlar intervali katta boʻlsa, (masalan, 15-19,20-24 yosh), ularning oʻlim yoki tugʻilish koeffitsientlari standartlashtirilgan koʻrsatkichda notengli ta'sir koʻrsatish mumkin. Bu esa natijani burishga olib keladi.

Bu kamchiliklarni mutlaq qiymatlari standartlashtirilgan yoki bilvosita standartlashtirish usuli orqali yoki toʻliq bartaraf etish mumkin. Bilvosita standartlashtirishda yosh tarkibi notengli boʻlgan hollarda ham koʻrsatkichlar tahlili yanada ishonchli boʻladi.

Bilvosita standartlashtirish usuli. Bilvosita standartlashtirish usuli an'anaviy ravishda asosan oʻlim darajasini tahlil qilishda qoʻllanib kelingan. Biroq sunggi-yillarda ushbu usul tugʻilish jarayonlarini oʻrganishda ham faol qoʻllanila boshladi. Bunga misol sifatida V.A.Borisov toomnidan ishlab chiqilgan GMER modklini keltirish mumkin. Ushbu usulda hisob – kitob jarayoni yoshga xos standartlashtirilgan koeffitsientlarni aholinnig haqiqiy yosh tarkibi asosida qayta vaznlash orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, standart yosh koeffitsientlari mavjud aholining real yosh tuzilmasiga moslashtiriladi

va shu asosda umumiy demografik ko‘rsatkich aniqlandi.

3.9-jadval

Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston aholisida o‘lim darajasiga yosh tuzilmasi ta’sirini aniqlash.

Yosh guruhi,-yil	Aholi soni, ming kishi		Aholining tarkibi, %		O‘limning yosh koeffitsienti (standart),	O‘zbekistonda standartlashtirilgan o’lim darajasi, ‰	Rossiyada standartlashtirilgan o’lim darajasi
	O‘zbekiston	Rossiya	O‘zbekiston	Rossiya			
	1	2	3	4	5	6=3 gurux x 5 gurux	7=4 gurux x 5 gurux
0-4	4532,5	6644,2	12,2	4,6	6,0	0,732	0,276
5-9	3792,3	8451,1	10,2	5,9	0,4	0,041	0,024
10-14	3269,4	9423,9	8,8	6,5	0,3	0,026	0,019
15-19	2891,9	8171,5	7,8	5,7	0,5	0,039	0,029
20-24	2467,4	7457,9	6,7	5,2	0,7	0,047	0,036
25-29	2719,9	7018,1	7,3	4,9	0,8	0,058	0,039
30-34	3091,1	9077,4	8,3	6,3	1,0	0,083	0,063
35-39	2938,2	12523,5	7,9	8,7	1,3	0,103	0,113
40-44	2466,7	11702,3	6,7	8,1	1,8	0,121	0,146
45-49	2017.8	10596,2	5,4	7,4	2,7	0,146	0,200
50-54	1749,7	9562,8	4,7	6,6	4,2	0,197	0,277
55-59	1511,1	8327,6	4,1	5,8	6,7	0,275	0,389
60-64	1356,6	9421,2	3,7	6,5	10,9	0,403	0,709
65-69	978,7	9084,9	2,6	6,3	17,8	0,463	0,121
70-va undan yuqori	1270,2	16534,8	3,5	11,4	43,0	1,505	4,902
Jami	37053,4	143997,4	100,0	100,0	-	4,239	8,343

2020-yilda Rossiya Federatsiyasi o‘lim darajasi 13,0 foiz, O‘zbekiston Respublikasida esa 12,6 foiz tashkil etgan. (3.9-jadval). Ushbu ma’lumotlar asosida ikki mamlakatdagi o‘lim darajasidagi farqqa ag‘olining yosh tarkibi qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlash mumkin. Ya’ni, tahlil jarayonida Rossiya va O‘zbekiston aholisining

tuzilmasidagi farqlar o‘lim ko‘rsatkichlariga qay darajada ta’sir etgani baholanadi. Bu esa mamlakatlar o‘rtasidagi demografik farqlarni to‘g‘ri qilishga imkon beradi.

$$I_{obr}^{st} = \frac{\sum N_j^{real}}{f_j^{st}} = \frac{\sum S_j^{usl}}{\sum S_j^{real}} = \frac{S^{usl}}{S^{real}} \qquad (8)$$

bu yerda S^{real}-aholining haqiqy o‘rtacha soni.

Shunday qilib, standartlashtirilgan umumiy koeffitsient (K) hisoblanadi. U real aholi uchun umumiy ko‘rsatkichni ifodalaydi va agar standart sifatida olingan aholidagi yosh bo‘yicha koeffitsientlar o‘zgarmasdan saqlangan taqdirda, qanday qiymat hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

$$K = K^{st} \cdot I_{obr}^{st} \qquad (9)$$

bu yerda K^{st} -standart sifatida qabul qilingan aholining umumiy demografik koeffitsienti

Tug‘ilish dinamikasini chuqurroq anglash uchun juda muhim qo‘shimcha ma’lmotlar onaga nisbatan bolalarning tug‘ilish tartibi bo‘yicha jami tug‘ilish koeffitsientlarini differensiya qilish orqali olinishi mumkin. Turli tartibdagi onalarining turlicha yosh davrlarida, shuningdek, oilaning iqtisodiy sharoitdagi farqlari holatlarda dunyoga keladi. Shu bilan birga, har xil tartibdagi farzandlarini dunyoga keltirishga bo‘lgan motivatsiyasi ham bir biridan farq qiladi. Odatda birinchi farzandlar yoshlik davrida, nikoh tuzilgandan so‘ng qisqa vaqt ichida tug‘iladi. Ularnnig tug‘ilishi ko‘p hollarda kechiktirilmaydi, shu sababli birinchi farzdanlar bo‘yicha jami tug‘ilish koeffitsientining o‘zgarishi asosan ayollar aholisining yosh tarkibi va birinchi nikohlar sonidagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Ikkinchi farzandlar tug‘ilishi esa ko‘proq darajada tarkibiy omillarga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, ikkinchi farzandga bo‘lgan ehtiyoj birinchi farzandga nisbatan unchalik umumiy emas. Bu ehtiyoj turli moddiy va ma’naiy ehtiyojlar bilan raqobat ta’sirida zaiflashadi. Yuqori tartibdagi farzandlarning tug‘ilishi tobora ko‘proq ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi raqobat bosimiga duch keladi va bu bosim tug‘ilish tartibi oshgan sari kuchayib boradi.

Tug‘ilish tartibi bo‘yicha differensiya qilingan jami tug‘ilish koeffitsientlari dinamikasini tahlil qilish orqali ushbu jarayonga ta’sir etuvchi tarkibiy va motivatsion omillar o‘rtasidagi nisbatni yanada chuqurroq anglash mumkin. Shuningdek, jami tug‘ilish

koeffitsientining tug‘ilish tartibi bo‘yicha tuzilishi nafaat demografik jihatdan – tug‘ilish darajasi dinamikasi haqida, balki sotsiologik nuqtai nazardan ham – umumiy holda motivlar raqobati va ayniqsa tug‘ilishga bo‘lgan rag‘bat kuchini aks ettiradi.

Onadagi bolalarning tug‘ilish tartibiga qarab differensiatsiya qilingan jami tug‘ilish koeffitsientlarini hisoblash usuli murakkab emas, balki ma’lum darajada hajmli hisob – kitoblarni talab qiladi. Bunday hisob – kitoblarni amalga oshirish uchun dastlabki ma’lumotlar sifatida tug‘ilganlarning ona yoshi va tug‘ilish bo‘yicha taqsimoti, yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlari mavjud bo‘lishi zarur. Umuman olganda, ushbu hisob-kitoblarni ma’ulm bir matrisa shaklida ifodalash mumkin.

$$F_{15-19} = F_{15-19}^{1} + F_{15-19}^{2} + F_{15-19}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{15-19}^{n}$$
$$F_{20-24} = F_{20-24}^{1} + F_{20-24}^{2} + F_{20-24}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{20-24}^{n}$$
$$F_{25-29} = F_{25-29}^{1} + F_{25-29}^{2} + F_{25-29}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{25-29}^{n}$$
$$F_{30-34} = F_{30-34}^{1} + F_{30-34}^{2} + F_{30-34}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{30-34}^{n},$$
$$F_{35-39} = F_{35-39}^{1} + F_{35-39}^{2} + F_{35-39}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{35-39}^{n}$$
$$F_{40-44} = F_{40-44}^{1} + F_{40-44}^{2} + F_{40-44}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{40-44}^{n}$$
$$F_{45-49} = F_{45-49}^{1} + F_{45-49}^{2} + F_{45-49}^{3} + \ldots\ldots\ldots + F_{45-49}^{n}$$

Formula programmasida yozib chikish kerak.

Bu yerda:

- F_x yoshga oid tuug‘ilish koeffitsientlari
- F_x^j tug‘ilish tartibi bo‘yicha differensiya qilingan xususiy yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlaridir.

Ma’lum bir tug‘ilish tartibiga tegishli har bir yoshga oid xususiy tug‘ilish koeffitsienti umumiy yoshga oid tug‘ilish koeffitsientini mazkur tartibda tug‘ilganlar ulushiga (birlik ulushlarda) ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Masalan, 15-19 yosh gurug‘i uchn hisob kitob quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{15-19} = F_{15-19} \cdot \frac{B_{15-19}^{1}}{B_{15-19}} + F_{15-19} \cdot \frac{B_{15-19}^{2}}{B_{15-19}} + \ldots + F_{15-19} \cdot \frac{B_{15-19}^{n}}{B_{15-19}} \quad (10)$$

formula programmasida yezish kerak

Keyingi bosqichda tug‘ilish tartibi bo‘yicha xususiy jami tug‘ilish koeffitsientlari hisoblanadi. Buning uchun bir xil tug‘ilish tartibiga tegilshli bo‘lgan yoshga oid xususiy tug‘ilish koeffitsientlari yig‘indisi aniqlanadi.

$$TFR^j = \frac{n\sum_x F_x^j}{1000} \qquad (11)$$

Bu yerda:

TFR^j -tug‘ilish tartibi bo‘yicha jami tug‘ilish koeffitsienti

F_x^j - tug‘ilish tartibiga qarab differensiya qilingan yoshga oid xususiy tug‘ilish koeffitsientlari

n - yosh intervali uzunligi

Shartli hudud uchun tug‘ilish tartibi bo‘yicha differensiya qilingan jami tug‘ilish koeffiyientlarining hisob – kitobi keltirilgan.

3.10-jadval

Onalardagi bolalarnin tug‘ilish tartibi bo‘yicha diffrensiya qilingan jami tug‘ilish koeffitsientlarini hisoblash

Yosh guruhi	Ma’ulm bir tug‘ilish tartibiga to‘g‘ri keluvchi tug‘ilganlar ulushi/yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlari	Jumladan, tug‘ilish tartibi bo‘yicha				
		birinchi	ikkinchi	uchinchi	to‘rtinchi	Besh va undan ko‘proq
15—19	1,000/34,0	0,935/31,8	0,062/2,1	0,003/0,1	0,000/0,0	0,000/0,0
20—24	1,000/99,0	0,757/74,9	0,212/21,0	0,026/2,6	0,004/0,4	0,001/0,1
25—29	1,000/68,0	0,414/28,2	0,458/31,1	0,094/6,4	0,024/1,6	0,010/0,7
30—34	1,000/33,4	0,221/7,4	0,482/16,1	0,190/6,3	0,063/2,1	0,044/1,5
35—39	1,000/11,5	0,184/2,1	0,336/3,9	0,254/2,9	0,111/1,3	0,115/1,3
40—44	1,000/2,3	0,164/0,4	0,221/0,5	0,247/0,6	0,145/0,3	0,223/0,5
45—49	1,000/0,1	0,113/0,0	0,172/0,0	0,234/0,0	0,159/0,0	0,322/0,1
TFR	1,242	0,724	0,374	0,095	0,028	0,021

Demografik usul sifatida tug‘ilish holati va dinamikasini baholashda jami tug‘ilish koeffitsientini tuhilish tartibi bo‘yicha tuzish

juda muhim afzallikka ega. Bu afzallik birinchi farzandlar bo‘yicha jami tug‘ilish koeffitsienti beruvchi axborot bilan bog‘liqdir. Real avlodlarda birinchi farzandlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsienti, tabii y ravishda 1,0 dan oshishi mumkin emas, chunki oddiy, bir bolani tug‘ruq sharoitida bittadan ortiq birinchif arzand tug‘ilishi mumkin emas. Bundan tashqari, ushbu ko‘rsatkich hatto 1,0ga ham yetishi mumkin emas, chunki nikohlarning ma’ulm qismi bepusht bo‘lib qoladi. Amalda, real avlodlarda birinchi farzandlar bo‘yicha jami tug‘ilish koeffitsientining qiymati bepushtlik darajasiga qarab tahminan 0,90-0,95 orasida tebranadi.

Shartli avlodda birinchif arzandlar bo‘yicha jami tug‘ilish koeffitsientining qiymati 0,90-0,95 oraliqdagi harq anday tomonga og‘ishi mumkin va aynan shu og‘ishlar tug‘ilish darajasi o‘zgarishining sabablari haqida muhim ma’lumot beradi. Agar koeffitsienti qiymati 0,95 dan yuqori bo‘lsa, b birinchi farzandalr tug‘ilish kalendaridagi tarkibiy siljishlarni, yaxni tug‘lishlarnig ma’ulm bir davrda to‘planishini anglatadi. Bunday holat real avlodlarning bir necha qo‘shni avlod ayollarining birinchi farzad tug‘ilishlari bir kalendar davrga to‘g‘ri kelishi natijasida yuzaga keladi. Bu esa nikohlanish darajasining oshishi, nikohga kirish yoshining pasayishi va shunga o‘xshash omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Aksrncha, agar dami tug‘ilish koeffiyienti 0,90 dn patsga tushsa, bu kalendardagi teskari siljishlarni, yaxni tug‘ilish jarayonining vaqt bo‘yicha cho‘lishini ko‘rsatadi. Bunday holat nikohlanish darajasining pasayishi, ayollarning nikohga kirish o‘rtacha yoshining oshishi, birinchi farzand tug‘ilishini kechiktirish kabi tendensiya lar natijasida yuzaga keladi.

Aholining tug‘ilish darajasini tavsiflovchi yakuniy ko‘rsatkich sifatida jami tug‘ilish koeffitsienti qabul qilinadi. U agar ayol butun hayot davomida mavjud tug‘ilish darajasi saqlangan holda yashasa, u tug‘adigan bolalar soni sifatida talqin qilinadi. Bunda o‘lim darajasi va aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar ta’siri inobatga olinmaydi.1991 – 2020 yllar davomida jami tug‘ilish koeffitsienti 4,199dan 2,357 gacha kamaygan, ya’ni 1,8 barobar pasayish kuzatilgan.Shu jumladan, shahar joylarda u 3,130dan 1,934 gacha (1,6 barobar), qishloq joylarda esa

4,994 dan 2,614gacha (1,9 barobar) qisqargan. Tug‘ilishning bunday keskin va barqaror pasayishi hozirgi demografik vaziyatning shakllanishiga hamda uning kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.(3.11-jadval.)

3.11-jadval

O‘zbekiston Respublikasida jami tug‘ilish koeffitsienti dinamikasi (bola tug‘ish yoshidagi 1 ayolga to‘g‘ri keladigan bolalar soni)

Yillar	Aholi soni	Shahar	Qishloq
2000	2,541	2,095	2,894
2005	2,418	1,934	2,642
2010	2,342	2,081	2,619
2015	2,491	2,230	2,749
2018	2,604	2,410	2,794
2020	2,786	2,593	2,976

O‘zbekiston respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yiga kelib umumiy tug‘ilish koeffitsienti (UTK) 34,5 ‰ dan 19,8‰ gacha pasaygan, jami tug‘ilish koeffitsienti esa 4,199dan 2,357gacha kmamaygan.(jadval). 2005-yilda mutlaq ko‘rsatkichlarda eng past darajaga tushib, 533,5ming tiirik tug‘ilish qayd etilga.Biroq 2006 – 2020-yillar davomida tug‘ilishlr soni va umumiy tug‘ilish koeffitsienti ortib borgan (masalalan 2009 yida 23,4 promillegacha yetgan.)

3.12-jadval

O‘zbekistonda tartib bilan tug‘lganlarning ulushi (%)

Tug‘ilish tartibi	1991-yil	2000-yil	2011-yil	2020-yil
Jami tug‘ilganlar	100,0	100,0	100,0	100,0
ulardan:				
1chi	32,5	35,3	44,3	38,9
2chi	24,1	28,9	30,6	33,6
3chi	18,7	21,3	17,9	18,5
4chi	12,4	9,8	5,8	7,6
5chi va boshqalar	12,3	4,7	1,4	1,4

Hozirgi vaqtda birinchiv a ikkinchi tartibadig farzandlar umumiy

yangi tug‘ilganlar soninnig taxminan uchdan to‘rt qismini tashkil etadi. Beshinch va undan yuqori tartibdagi bolalar ulushi esa 10 barobarga kamaygan bo‘lib, bu borada shahar va qishloq joylari o‘rtasidagi katat farq kuzatilmaydi.

Odatda, ayol tug‘ilish darajasini belgilovchi eng muhim deomgarfik omil hisoblanadi. Eng yuqori tug‘ilish darajasi 20g‘24 va 25-29 yoshdagi ayollar hissasiga to‘g‘rik yeladi. Yosh ortgan sari ayollarda bola tug‘ish intensiligi pasayadi. Masalan, 2012-yilda umumiy tug‘ilga bolalarning 77,4 foizi 20-29 yoshdagi ayollarga to‘g‘ri kelgan, 40 yosh v undan katta allar hissasi esa atigi 0,6 foizni tashkil etgan.Tahllillar shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda tug‘ilganlarning 1,9 foizi 15-19 yoshdagi onalar hissasiga to‘g‘ri kelagn (2011-yildagi bu ko‘rsatkich 6,2 foiz bo‘lgan), 20-24 yoshdagi onalar hissasi 28,8 foizni (2011-yilda 44,8 foizni), 25-29 yoshdagilar hissasi esa 38,1 foizni (2011-yilda 32,0 foiz) tashkil etgan. O‘rtacha tug‘ruq yoshi 23,8 yoshni tashkil etgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda tug‘ruqlarning asosiy qismi 20-24 va 25-29 yosh guruhidagi ayollar hissasi tug‘ri keladi. Xususan, 2018-yilda barcha tug‘ilgan bolalarning 73,6 foizi aynan shu ikki yosh guruhiga to‘g‘r keladi. 2020-yilda 2005-yilga nisbatan deyarli barcha yosh guruhlarida ayollar hissasi hisobiga jami tug‘ilish koeffitsientiga qo‘shiladigan hissa oshgan.Ayniqsa 15-19 yoshdagi ayollar o‘rtasida tug‘ilishing o‘sishi sezilarlidir. Bu holat o‘smirlar orasidagi tug‘ruq holatlarinnig ko‘payganini ko‘rsatish ummkin. Shu bilan birga, 2010-yilgacha 15 yoshdagi qizlar o‘rtasida tug‘ilish holatlari kuzatilmaganlini ta’kidlash lozim. 30-34 yoshdagi ayollar hissasi 2005-yilag nisbatan 2020-yilda jami tug‘ilish koeffitsientida 13,1 foizga, 35-39 yoshdagi ayollarda esa 2,7 foizga oshgan.

Shunday qilib, 21 asrning 20-yillariga kelib, 30-34 yoshgacha bo‘lgan (shu jumladan) deyarli barcha yosh guruhlarida tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘sgan va 990-yillar boshidagi darajaga yaqinlashgan.Biroq 15-19 yosh hamda 35 yosh va undan katta ayollar guruhlarida tug‘ilish koeffitsientlari nimbatan past darajada saqlanib qolgan. Bunday o‘xshash holat shahar va qishloq ayollari o‘rtasida ham

kuzatiladi. Hududiy jihatdan qaraganda, yosh onalar (15-19 yosh) ulushi Namangan, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida nisbatan yuqoriroq.O‘z navbatida 30-34 yosh hamda 35 yoshdan katta ayollar orasida tug‘ilish ko‘rsatkichlari Surxondaryo viloyati va Toshkent o‘ahrida yuqoriroq darajada qayd etiladi.

Qisqa muddatdi istiqbolda 20-24 yoshdagi ayollar o‘rtasida tug‘ilish intensivligini saqlanib qolishi ehtimoli mavjud. Umuman olganda, yosh guruhlari kesimida tug‘ilish koeffitsientlari pasayishida “klassik” holat kuzatilgan – eng katta pasayish kattaroq yosh guruhlarida sodir bo‘lgan.Ya’ni tug‘ilish darajasining kamayishi asosan yuqori tartibdagi (to‘rtinchi va undan keyingi) farzandlar soni qisqarishi hisobiga yuz bergan. Jami tug‘ilish koeffitsienti, ya’ni bir ayol hayoti davomida tug‘ishi mumkin bo‘lgan farzandlar sonining gipotetik bahosi, O‘zbekistonda oila hajmining qisqarayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Nikoh deyarli umumiy holat bo‘lib qolmoqda, aksariyat hollarda insonlar nikohdan so‘ng darhol farzand ko‘rishni afzal ko‘rishadi.

Bugungi kunda respublikada 6- 7 nafar farzandli oilalarga nisbatan 3-4 nafar farzandli oilalar ko‘proq uchramoqda. Shu bilan birga huddularga qarab afzalliklar farq qiladi:qishloq joylarda oilalar ko‘proq farzandli bo‘lishni istashsa, shahar aholisi, ayniqsa, poytaxt aholisi kamroq farzandli bo‘lishga intiladi.

Tug‘ilish darajasi va dinamikasini baholashda onalardagi bolalarning tug‘ilish tartibi bo‘yicha tahlil qilish, ya’ni jami tug‘ilish koeffiyientini (JKT) tug‘ilish tartibi kesimida taqqoslash juda muhim ahamiyatga ega. Turli tartibdagi farzandlar onalaarning turlicha yosh davrlarida dunyoga keladi, shuningdek, ularni tug‘ishga bo‘lgan motivatsiya ham farq qiladi.

Birinchi farzandga deyarli ehtiyoj har bir oila ehtiyoj sezadi, ammo uning tug‘ilishi odatda nikohdan so‘ng tez orada yoki ma’lum muddat kechiktirilgan holda aslaga oshadi. Shu sababli birinchi farzand tug‘ilishi aossan onalarning yoshiga, jumladan nikohga kiaryotgan va turmush qurmagan ayollar yosh tarkibiga bohliq bo‘ladi. Ikkinchi farzandga bo‘lgan motivatsiya esa boshqacharoq xususiyatga

ega:barcha juftliklarda ham ikkinchi farzand tug‘ilmadi, nikohdan tashqari hollarda esa bu yanada kam uchraydi. Jami tug‘ilish koeffitsienti ummulashtiruvchi ko‘rsatkich sifatida umummiy tug‘ilish koeffitsientiga nisbatan to‘liqroq va oan yoshi bo‘yicha taqsimotiga oid ma’lumotlar talab etiladi. Bunday ma’lumotlar demogarfik jarayonlarning joriy hisobga olish tizimi orqali shakllantiriladi.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. Demografik vaziyat tushunchasi nimani anglatadi?
2. Demografik tahlilning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Demografik jarayonlarga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatadi?
4. Aholi soni va tarkibini o‘rganishda qanday metodlardan foydalaniladi?
5. Demografik ko‘rsatkichlar tizimiga nimalar kiradi?
6. Tug‘ilish va o‘lim darajasi qanday aniqlanadi?
7. Tabiiy o‘sish ko‘rsatkichi qanday hisoblanadi?
8. Demografik prognozlash nima va u qanday amalga oshiriladi?
9. Aholining yosh jins tarkibi qanday tahlil qilinadi?
10. Migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda qanday usullar qo‘llaniladi?

IV BOB. AHOLI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR MANBALARINI TIZIMLASHTIRISH

4.1.Demografik hodisalarning joriy statistik hisobi.
4.2.Tanlangan va maxsus tekshiruvlar.

Tayanch so‘zlar: demografik ma’lumotlar, aholini ro‘yxatga olish, tizimlashtirish, guruhlash, tasniflash, migratsiya sratistikasi, tug‘ilish va o‘lim statistikasi, axborot texnolagiyalari, registr tizimi, analitik tahlil.

4.1. Demografik hodisalarning joriy statistik hisobi.

Aholining joriy statistik hisobi – muayyan hududdagi aholi ro‘yzatini yuritishdan iborat bo‘lib, u aholi soni va tarkibini baholash uchun, shu hudduda sodir bo‘layotgan turli demografik hodisalarni (tug‘ilish, o‘lim, nikoh, va ajrashish, ko‘chib kelish va ko‘chib ketish) ro‘yxatga olish asosida amalga oshiriladi. Bu hisob aholi hajmi va tarkibidagi uzluksiz o‘zgarishlarni kuzatishga va ma’lumotlarni muntazam olishga xizmat qiladi.

Joriy statistik hisobning asosiy maqsadi – tug‘ilish va o‘lim natijasida doimiy o‘zgarib turadigan aholi soni va tarkibi haqida muntazam ma’lumot olish. Bu ma’lumot manbai bo‘lishi uchun, yoig‘ilgan ma’lumotlarni tezkor ravishda umumlashtirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Amalda esa aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar doimiy emas, balki muayyan sana holatiga ko‘ra taqdim etiladi. Shu bilan birga, ma’lumotlarning kech va to‘liq emasligi, aholi tarkibi haqida keng ma’lumot olish imkoniyatining cheklanganligi tufayli, joriy statistik hisob muntazam aholi ro‘yxatlarini o‘tkazishni istisno qilmaydi. Shunday qilib, joriy hisob – aholinnig tabiiy harakatini qayd etishning asosiy usuli hisoblanadi.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlangan mamlakatlarnnig aksariyatida demografik vqealarni joriy statitstik hisobga olish majburiy tartibda amalga oshiriladigan tizim sifatida shakllandi. Bu tizim doirasida tug‘ilish, o‘lim, nikohga kirish va nikohning bekor qilinishi kabi demografik voqealar maxsus davlat organlari yoki sog‘liqni saqlash muassalalari tomonidan ro‘yxatga olinadi.



4.1-rasm. Aholi harakatining joriy statistik hisobi

Voqealarni qayd etish va ularning soni bo‘yicha hisobotlar tuzish vazifasi maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar yoki tibbiyot xodimlariga yuklatilgan bo‘lib, ayrim mamlakatlarda, ayniqsa qishloq hududlarida, bu vazifalar mahaliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari tomonidan bajariladi. Ko‘p hollarda ro‘yxatga oluvchi shaxslar yoig‘ilgan ma’lumotlarni umumlashtirish hamda qayd etilgan demografik voqealar soni bo‘yicha statistik hisobotlar tayyorlash ham shug‘ullanadilar.

Demografik voqealarning joriy hisobi materialllarini ishlab chiqish har bir ro‘yxatga olinadigan belgi yoki ularning o‘zaro birikmalari bo‘yicha voqealar sonini hisoblash va gurug‘lashtirishdan iborat. Tug‘ilishi, o‘lim,nikoh va ajralishlar to‘g‘risidagi joriy hisob ma’lumotlarini qata ishlash yagoa dastur asosida statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi:oylik ravishda qisqa dastur bo‘yicha,-yilda bir marta esa to‘liq dastur asosida.

Qisqa dastur orqali ro‘yxatga olingan tug‘ilishlar, o‘limlar (jumladan, o‘limnnig ayrim sabablari bo‘yicha), shuningdek nikohlar va ajralishdar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar federatsiya sub’ektlari kesimida hamda ular doirasida shahar va qishloq huddulari bo‘yicha olinadi. Tuliq dastur esa quyidagi taqsimotlarni aniqlash imkonini beradi:

- Tug‘ilganlar:onasining yoshi, nikoh holati va millat tarkibi, tug‘ilish navbati, ota – onaning yoshi, onasining ta’lim darajasi bo‘yicha;
- Vafot etganlar: yoshi, jinsi, millat tarkibi, jins va yosh bog‘liq holda ta’lim darajasi, nikoh holati, o‘lim sabablari bo‘yicha;
- Nikohga kirganlar: jinsi, yoshi, millat tarkibi, avvalgi nikoh holati, ta’lim darajasi bo‘yicha;
- Nikohni bekor qilganlar: ajrashuvchilarning yoshi, bekor qilingan nikohning davomiyligi, millt tarkibi, ta’lim darajasi, 18 yoshgacha bo‘lgan umumiy farzandlar soni bo‘yicha.
- Joriy demografik hisob natijasida olingan ma’lumotlar muayyan davriylikda maxsus statistik to‘plamlarda, ilmiy jurnallarda e’lon qilib boriladi.

Aholini ro‘yxatga olish va aholi harakatining joriy statistik hisobi bir qatorda, aholi to‘g‘risidagi ma’lumot olishning boshqa manbalari mavjud.

Aholini o‘rganish – muayyan hudud aholisining ma’ulm qismini qamrab olgan holda, ularning tarkibi, ijtimoiy va demografik jarayonlari yoki jamoatchilik fikrini tahlil qilish mavsadida ma’lumot to‘plash jarayonidir. Tanlab olingan aholi guruhi shunday shakllantirilishi muiknki, mamlakatning butun aholisi uchun vakillik qila oladi. Bunday tanlanma asosida o‘tkaziladigan aholini o‘rganish mikroro‘yxatga olish deb ataladi.

Mikroro‘yxatga olish katta moliyaviy xarajatlarn tlab etilmaydi, uning dasturi, odatda nisbatan batafsil bo‘lib, ko‘pincha muayyan bir mavzuni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Mikroruyxatga olish Yevropa mamlakatlarida 20 asrning zrtalarida keng tarqaldi, chunk aynan shu davrda tanlab olish usullari va tanlama ma’lumotlar asosida aholi xususiyatlarini baholash metodlari ishlab chiqildi. Bunday mikroro‘yxatlarning asosiy mavzusi, asosan, tug‘ilish darajasi va unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etishdan iborat bo‘lgan.

Aholini o‘rganishning yana bir shakli – anamnestik tekshiruv bo‘lib, u demografik jarayonlarni retrospektiv kuztish usulining bir turi hisoblanadi. Bu usulda ma’lumotlar odamlardan o‘tmishdagi holatlar

to‘g‘risida so‘rov o‘tkazish orqali yig‘iladi. Anamstetik tekshiruv usuli aholinning hujjatlashtirilmagan o‘tmishini o‘rganish zarurati natijasida shakllangan. Sovet Ittifoqida mazkur usul 20 asrning 1920-yillaridan boshlab ayrim kam sonli xalqlarning sanitariya-gigiena sharoiti va turmush tarzini o‘rganish jarayonida keng qo‘llanilgan.

Anamnestik usulning kamchilklariga so‘rovda ishtirok etuvchilarning javoblaridagi noaniqlik va to‘liq emaslik, ayniqsa, vaqt jihatidan uzoq davrga oid voqealar haqidagi ma’lumotlarda hatolar mavjud bo‘ilishi kiradi. Shuningdek, ushubu usulning o‘ziga hos xususiyati bilan bog‘liq ma’lumotlar buzilishi ham kuzatiladi, ya’ni aholinnig demografik o‘tmishi haqida xulosa faqat tekshiruv paytigacha yashab qolgan aholi qismi javoblari asosida chiqariladi.

Anamnestik tekshiruvlar, jumladan, Qutbga yaqin hududlarda aholinnig ortiqcha zich joylashishi ntijasida yuzaga kelgan sanitariya oqibatlarini o‘rganishda, shunigdek, Gruziya va Armanston qishloqlarida demografik jarayonlarni tadqiq etishda (1940,1947), oila daromadlari darajasi, ijtimoiy mavqei va turar joy sharoitlariga bog‘liq holda nikohdagi tug‘ilish ko‘rstatkichlarini tahlil qilishda (1960), O‘zbekiston qishloq hududlarida tug‘ilish va bolalar o‘limi masalalarini o‘rganishda (1962) qo‘llanilgan.

Aholini o‘rganishning yana bir shakli sifatida jamoatchilik fikrini o‘rganish tekshiruvlarini ham kelitirish mumkin. Bunday tekshiruvlar aholining demografik qarashlari va avlodlar almashinuvi bilan bog‘liq tasavvurlari, rejalari va istaklarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur holatda “fikr” atamasi sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyadagi ma’nosidan farq qiladi.

Tadqiqotlar so‘rovi, asosan, tug‘ilish jarayonlarini o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi, kamroq hollarda esa nikoh, ajralish va migratsiya masalalari tadqiq etiladi. Bunday so‘rovlarda kuzatish birligi alohida shaxs hisoblanadi. Respondentlarni tanlab olish tekshiruv maqsadiga muvofiq amalga oshiriladi:tug‘ilish masalalari bo‘yicha odatda turmushga chiqqan ayollar, migratsiya yuzasidan mehnatga layoqatli aholi, nikoh masalalari bo‘yicha esa nikohda bo‘lmagan yoshlar ishtirok etadi. Bu tadqiqotlar mustaqil ravishda ham, shunigdek,

kengroq ijtimoiy-demografik tadqiqotlar doirasida alohida savollar bloki sifatida ham o‘tkazilishi mumkin.

Demografiya sohada fikrlar so‘rovining ilk namunasi sifatida AQShda J.Gellap rahbarligidagi Jamoatchilik fikri instituti tomonidan 1936-yilda o‘tkazilgan tadqiqotni ko‘rsatish mumkin. Ushbu so‘rovda oilalar uchun ideal bolalar soni haqida savol berilgan. Sobiq SSSR hududida esa 20 asrning 60-yillardan boshlab ko‘plab mahalliy so‘rovlar o‘tkazilgan bo‘lib, ular asosan tug‘ilishni o‘rganishga qaratilgan. Ilk umumittifoq miqyosidagi so‘rov 1969-yilda o‘tkazilgan, fikrlar so‘roviga oid savollar esa yosh oilani o‘rganish talqiqotlarida (1984,1989) ham qo‘llanilgan.

Aholi haqidagi muhim ma’lumot manbalaridan biri sifatida Butunjahon tug‘ilishii o‘rganish dasturi materiallari ham xizmat qiladi. Ushbu xalqaro dastur turli mamlakatlarda tug‘ilish tendensiyalari, reproduktiv xulq – atvor va aholinnig demografik qarashlari haqida qiyosiy ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashni maqsad qilgan. Maxkur tadqiqot BMT tomonidan e’lon qilingan Butunjahon aholi-yili doirasida amalga oshirilib, 1972 - 1984-yillar davomida yagona dastur asosida 42ta rivojlanayotgan va 14 ta rivojlangan mamlakatda o‘tkazilgan. Shu tariqa aholi haqidagi asosiy ma’lumot manbalariga aholini ro‘yxatga olish, aholi harakatining joriy statistik hisobi hamda qo‘shimcha manbalar – mikroro‘yxatlar, anamnestik tekshiruvlar va boshqa tadqiqot turlari kiradi.

Qo‘shimcha ma’lumot manbalaridan yana biri – turl tashkilotlar tomonidan yuritiladigan aholi ro‘yxatlari, kartotekalar hamda ayrim xorijiy mamlakatlarda an’anaviy ravishda qo‘llaniladigan joriy aholi registrlaridir. Ularning mohiyati shundan iboratki, navbatdagi aholi ro‘yxati asosida har bir inson uchun tug‘ilgan zahoti maxsus kartochka ochiladi va keyinchlik unga shaxs hayoti davomida sodir bo‘lgan barcha demografik voqealar kiritib boriladi. Shuningdek,boshqa mamlakatdan kelgan shaxslar uchun ham alohida kartochka rasmiylashtiriladi. Har bir shahsga ko‘p honali maxsus ientifikatsiya raqami beriladi, unda tug‘ilgan-yil, tug‘ilgan joyi va jinsi kabi o‘zgarmas belgilar kodlangan bo‘ladi.

Aholi to‘g‘risidagi muhim ma’lumot manbalaridan biri – tanlama va maxsus tekshiruvlar bo‘lib, ular demografik jarayonlarni chuqur va batafsil o‘rganish imkonini beradi.Bunday ma’lumotlarni joriy hisob yoki aholini ro‘yxatga olish orqali olish qiyin yoki umuman imkoni bo‘lmagan hollarda ushbu tekshiruvlar qo‘llaniladi.Tanlama tekshiruvlar aholining barchasini emas, balki ma’lum bir qismini qamrab oladi.

Ayrim hollarda mamlakatning muayyan hududida yoki aholinng alohida guruhlarida tug‘ilish darajasiga ijtimoy – iqtisodiy omillarning ta’siri, shunigdek, demografik xulq – atvor turlari haqida batafsil ma’lumot olish zarurati yuzaga keladi. Bunday axborotlar aholini ro‘yxatga olish va joriy statistik hisob ma’lumotlarini to‘ldirib, demogrfik tahlil va prognozlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.Tanlama tekshiruvlar statistika organlari bilan bir qatorda ilmiy muassasalar tomonidan ham o‘tkaziladi.

4.2.Tanlangan va maxsus tekshiruvlar.

Aholi ro‘yxatlari va aholi harakatining joriy hisobi bilan birq atorda, aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishning boshqa manbalari ham mavjud. Aholini o‘rganish (so‘rov) – bu muayyan hudud aholisining faqat bir qismi bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish orqali ularning tarkibi, ijtimoiy – demografik jarayonlari yoki jamoatchilik fikrini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot usulidir. Bunday tadqiqotlar, odatda, aholi ro‘yxati yoki joriy hisob orqali olish qiyin yoki maqsadga muvofiq bo‘lmagan batafsil ma’lumotlarni to‘plash uchun o‘tkaziladi. Aholini o‘rganishning asosiy maqsadi aholi takror barpo bo‘lishi omillari va komponetlarini, yashash sharoitlarini, demografik xulq – atvor motivlarini hamda ijtimoiy jarayonlarini tahlil qilishdan iborat. Aholi ro‘xatlaridan farqli ravishda, bunday tadqiqotlar butun aholini emas, balki uning ma’lum bir qismini qamrab oladi va odatda tanlanma usuliga asoslanadi. Bunda talab olingan guruh umumiy aholini ifodalay oladigan darajada shakllantiriladi.

Butun mamlakat aholisini talanma asosida o‘rganish mikroro‘yxat deb ataladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, tadqiqot o‘tkazish uchun

odatda muayya hududlar – yashash uylari, kvartiralari, binolar, hatto ayrim uchastkalari tanlab olinadi va ushbu hududlarda yashovchi barcha aholi to‘liq so‘rovdan o‘tkaziladi. Bunday yondashuv tufayli mamlakatning barcha hududlari va aholi guruhlari ma’lum darajada qamrab olinadi. Tanlanma ulushi mamlakat aholisi soni va zarur ma’lumotlar detallashguviga qarab odatda 1 foizdan 10 foizgacha bo‘ladi. Mikroro‘yxat katta moliyaviy xarajatlarni talab etmayji, uning dasturi esa qoida tariqasida, nisbatan batafsil bo‘lib, asosan muayyan bir mavzuga yo‘naltiriladi. Ushub usul 2g‘ asr o‘rtalarida Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, aynan shu davrda tanlanma shakllantirish va ma’lumotlarni baholash usullari takomillashtirilgan. Mikroro‘yxatlarning asosiy mavzulari ko‘p hollarda tug‘ilish darajasi va uni belgilovchi omillarni o‘rganishga qaratilgan.

1994-yil fevral oyida mikroro‘yxat shaklida o‘tkazilgan ijtimoiy – demografik tadqiqot 1989-yilgi aholi ro‘yxatining 5 foiz hisob uchastkalarini vamrab olgan bo‘lib, ushbu hududlarda yashovchi barcha doimiy aholi, jumladan vaqtincha yo‘q bo‘lgan shaxslar ham o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot demografik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda uy- joy sharoitlari, ta’lim darajasi va yashash manbalari ham tahlil qilingan. Aholini o‘rganishning yana bir shakli – anamnestik tadqiqot bo‘lib, u demografik jarayonlarni retrospektiv kuzatish usuli hisoblanadi. Bunda ma’lumotlar aholidan o‘tmish voqealari haqida so‘rov o‘tkazish orqali to‘planadi. Ushbu usul aholining hujjatlashtirilmagan o‘tmishini o‘rganish zarurati tufayli shakllangan. Mamlakatimizda u 20 asrning 20-yillaridan boshlab kam sonli millatlarning sanitariya-gigiena o‘aroitlarini o‘rganishda keng qo‘llanilgan. Bu esa demografik jarayonlarni joriy hisobga nisbatan ancha chuqur va batafsil tahlil qilish imkonin bergan. Anamnestik uchul ayniqsa tug‘ilish va go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichlarini o‘rganishda samarali bo‘lgan. Biroq ushbu usulning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, respondentlar tomonidan berilgan javoblarning noaniqligi va to‘liq emasligi, ayniqsa, uo‘oq o‘tmishga oid ma’lumotlarda, shuningdek, faqat tadqiqot

oʻtkazilayotgan paytgacha yashab qolgan aholi fikriga asoslanish kabi cheklovlar natijalariga maʼulm darajada taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Anamnestik tadqiqotlar turli yoʻnalishlarda qoʻllanilgan:ikkinchi jahon urushi oqibatlarini sanitriya nuqtai nazaridan baholash, Shimoly hududlarda aholi zisligini oʻrganish, Gruziya va Armaniston qishloqlarida demografik jarayonlarni tahlil qilish(1940,1947yy.), oila daromadi va ijtimoiy holatga bogʻliq holda tugʻilish darajasini oʻrganish (1960y), shoʻuningdek. Oʻzbekiston qishloq hududlarida tugʻilish va bolalar oʻlimi koʻrsaktichlarini tadqiq etish (1961y) kabi sohalarda.

Tanlama usuldan foydalanish aholining faqat bir qismini soʻrovdan oʻtkazish orqali butun aholi haqida yetarlicha aniq va keng qamrovli maʼlumot olish imkonini beradi. Bu esa xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejashga xizmat qiladi. Amaliyotda ikki asosiy usul qoʻllaniladi:

-soʻrov usuli, bunda roʻyxat varaqasi aholi soʻzlariga asosan tarqatilib, ular tomonidan toʻldiriladi;

-oʻz - oʻzini hisoblash usuli, yaʼni soʻrov aholiga tarqatilib, ular tomonidan mustaqil toʻldirilib pochta orqali yuboriladi.

Aniqlik nuqtai nazaridan birinchi usul samaraliroq hisoblanadi, biroq u koʻproq mehnat va vaqt talab qiladi. Tanlangan usullar, qoʻllaniladigan vositalar va tashkiliy daraja esa amaliyotda odatda sinov roʻyxatga olish jarayonida tekshirib koʻriladi.

Tanlama tekshiruvlar aholining maxsus tanla olingan qismida kamroq va mablagʻ sarflagan holda tadqiqot oʻtkazish hamda olingan natijalarni butun aholiga nisbatan umumlashtirish imkonini beradi. Mamlakatimizda ham aholinnig barchasi uchun vakillik qila oladigan miroroʻyxatga olishlar aynan tanlama tekshiruv shaklida oʻtkazilgan. Bunday tekshiruvlarni amalga oshirishda odatda mamlakat hududining ayrim qismlari tanlab olinadi va ushbu hududlarda yashovchi barcha aholi toʻliq qamrab olinadi. Hududlarda tanlashda mamlakat aholisining ummumiy soni hisobga olinadi. Va qoida tariqasida, aholining 1 foizidan 10 foizgacha boʻlgan qismi tekshiruvga jalb etiladi. Tanlama tekshiruv dasturi, odatda, keng qamrovli boʻlib, asosan muayyan bir mavzuni batafsil oʻrganishga qaratilgan boʻladi. Maxsus tekshiruvlar

esa tanlama tekshiruvlardan farqli ravishda, ma’lum bir tor doiradagi muammoni chuqur va atroflicha tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Tanlab kuzatish usuli ishonchli natijalarni faqat har bir birlik tanlanish iskoniyati jihatidan teng bo‘lgan holdagina ta’minlay oladi. Bunda birlikni tanlamaga kiritish yoki kiritmaslik qarorini boshqa omillar emas, balki faqat tasodifiylik belgilaydi. To‘liq bo‘lmagan kuzatish usullari ichida tanlab kuzatish eng yaxshi nazariy asoslangan usullardan biri hisoblanadi. Uning asosida yotgan tasodifiylik tamoyili tanlama orqali olingan ko‘rsatkichlarni butun boshli umumiy to‘plamga tatbiq etishni matematik jatidan asoslab berish imkonini yaratadi.

Tanlanma to‘plam reprezentativ, ya’ni vakillik xususiyatga ega bo‘lishi uchun u umumiy to‘plamning tarkibi va qonuniyatlarini haqqoniy ravishda aks ettirshi lozim.

Satistika amaliyotida tanlab kuzatish ususlining keng qo‘llanilishi uning to‘liq kuzatishga nisbatan bir qator ustunliklarga egaligi bilan izohlanadi.Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Tadqiqot natijalarini tez olish imkoniyati.Tanlama usulda umumiy to‘plamning faqat bir qismi tanlab olingani sababli kuzatish hajmi ancha kamayadi. Bu esa ma’lumotlarni tezroq yig‘ish va tadqiqotningo umumlashtirilgan natijalarini qisqa muddatda olish imkonii beradi.
- Kuzatishni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarning sezilarli darajada kamayishi.Tanlanma qo‘llanilanilganla o‘rganilayotgan birliklar soni qisqargani sababli kuzatish jarayoniga sarflanadigan moliyaviy va mehnat resurslari ham kamayadi.
- Kuzatish dasturini kengaytirish imkoniyati. Kuzatilayotgan birliklar soni kamaygani tufayli ularni chuqurroq o‘rganish mumkin bo‘ladi. Shunin guchun tadqiqot dasturiga qo‘shimcha savollar kiritish va tahlilni yanada batafsil amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi.
- Yoppasiga kuzatishni o‘tkazish uslubiy jihatdan mumkin bo‘lmagan holatlarda qo‘llash imkoniyatlari.Masalan, mahsulot saifti bo‘yicha statistik tadqiqotlarda yoki umumiy to‘alam cheksiz katta bo‘lgan hollarda har bir birlikni tekshirish imkoni bo‘lmaydi. Bunday

holatlarga xaridorlarni markteting tadqiqotlari orqali o‘rganish, yo‘lovchilarni oqimiini tahlil qilish kabi misollarni keltirish mumkin.

Shu bilan birga tanlab kuzatish usuli ayrim kamchiliklarga ham ega. Ularning eng muhimi – reprezentativlik xatolarining mavjudligi bilan bog‘liq. Bu xatolar o‘rganilayotgan to‘plamnnig barcha birliklari emas, balki faqat ma’lum qismi kuzatilgani sababli yuzaga keladi. Banday tashqari, mazkur usulni amalga oo‘irish yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida tadqiqotni o‘tkazish xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Tanlab kuzatish nazariyasida bir qator maxsus tushunchalar, ta’riflar va belgilar qo‘llaniladi.

Bosh to‘plam deganda o‘rganilayotgan statistik to‘plam tushuniladi. Mazkur to‘plamda bevosita kuzatish uchun ayrim birliklar tanlab olinadi. Bosh to‘plamdagi birliklar soni odatda N harfi bilan belgilanadi. Ma’lum qoidalar asosida bosh to‘plamdan tanlab olingan birliklar qismi tanlanma to‘plamni tashkil etadi. Tanlama to‘plamdagi birliklar soni n harfi bilan ifodalanadi. Tanlanma to‘plamning bosh to‘plam umumiy hajmiga nisbatan ulushi foizlarda ifodalalanganda tashlash ulushi (ya’ni tanlanma foizi yoki tanlash foizi) deb ataladi.

$$f = \frac{n}{N} \cdot 100\% \qquad (1)$$

Masalan, agar bosh to‘plam hajmi 200 ta birlik tanlanma to‘plam hajmi esa 50 ta birlikdan iborat bo‘lsa, bunday holat 25 foizli tanlanma deb ataladi.Ya’ni tanlash ulushi 25%ni tashkil qiladi. Agar tadqiqotda midoriy belgi o‘rganilayotgan bo‘lsa, tanlab kuzatishning asosiy vazifalaridan biri – shu belgining o‘rtacha qiymati va umumiy yig‘indisini baholashdan iborat. Bosh to‘plamdagi belgining o‘rtacha qiymati odatda x orqali belgilanadi.

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i-1}^{N} x_i}{N} \qquad (2)$$

Tanlanma to‘plamda belgining o‘rtacha qiymati quyidagicha topiladi:

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i-1}^{N} x_i}{n} \qquad (3)$$

Miqdoriy belgining birliklari bo‘yicha dispersiya quyidagi tarzda aniqlanadi:

- Bosh to‘plam dispersiyasi – bu bosh to‘plamdagi miqdoriy belgining o‘rtacha qiymat atrofida qanchalik darajada tarqarlganini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichdir.

$$\sigma_{bosh}^2 = \frac{\sum_{i-1}^{N}(x_i - \bar{x})^2}{N} \quad (4)$$

- Tadqiqot jarayonida ko‘p hollarda bosh to‘plam dispersiyasi noma’lum bo‘lib qoladi. Shu sababli amaliyotda u shartli ravishda tanlanma ma’lumotlar asosida hisoblangan dispersiyaga teng deb qabul qilinadi. Ya’ni, bosh to‘plam dispersiyasini baholash uchun tanlanma to‘plamda hisoblangan natijalar orqali bosh to‘plam xususiyatlarini taxminiy ravishda aniqlash imkonini beradi.

$$\sigma_{tanlanma}^2 = \frac{\sum_{i-1}^{N}(x_i - \bar{x})^2}{n} \quad (5)$$

Miqdoriy belgilar xususiyatlarinibaholash bilan birga alternativ ko‘rsatkichlar xususiyatlari ham o‘rganilishi mumkin.Agar bosh to‘plamda tadqiqot qilinayotgan belgini egallagan barliklar sonini M , tanlanma to‘plamda esa m bilan belgilasak, unda:

- Bosh to‘plamda ushub belgini egallagan birliklar ulushi:

$$p = \frac{M}{N} \quad (6)$$

- Tanlanma to‘plamda ushbu belgini egallagan birliklar ulushi:

$$\omega = \frac{m}{n} \quad (7)$$

Bu ko‘rsatkichlar har ikki to‘plamda belgini egallagan birliklarning nisbiy ulushini ifodalaydi va ular asosida bosh to‘plam xususiyatlari taxminiy ravishda baholandi.

Alternativ belgining dispersiyasi quyidagina formula orqali hisoblanadi:

- bosh dispersiya ulushi:

$$\sigma_p^2 = pq \quad (8)$$

bu yerda: q - (q=1-p) tadqiqot qilinayotgan belgini egallamaydigan birliklar ulushi;

- Tanlanma to‘plam ulushi:

$$\sigma_p^2 = \omega(1-\omega) \qquad (9)$$

Statistik kuzatishning asosiy maqsadi – ishonchli satistik ma’lumot olishdan iborat. Biroq, har qanday kuzatish usulida ma’lumotlar sifatiga ta’sir qiladigan hatolar yuzaga kelishi mumkin. Bu xatolar kuzatish xatolarideb ataladi.

Umumiy yoppasiga kuzatishda faqat registratsiya xatolari (tasodifiy va sistematik) yuzaga kelishi mumkin. Tanlab kuzatishda esa ham registratsiya xatolari, ham reprezentativlik xatolari sodir bo‘lishi mumkin. Ikki xil xatolar ham tasodifiy yoki sistematik xarakterda bo‘lishi mumkin. Tanlab kuzatishning asosiy vazifasi – reprezentativlikka oid tasodifiy xatolarni o‘lchash, ya’ni har qanday tanlash usulida kuzatishning to‘liq bo‘lmaganligi sababli yuzaga keladigan xatolarni aniqlashdan iborat.

Tanlab kuzatishni tashkil etishda asosiy bosqichlar quyidagilardan iborat:

1. Maqsadli belgilash va vazifalarni aniqlash – tanlab kuzatishning maqsadini iqtisodiy tadqiqot vazifasiga muvofiq ravishda belgilanadi;
2. Kuzatish dasturini ishalb chiqish – qanday ma’lumotlar yig‘ilishi va tahlil qilinishini rejalashtirish;
3. Anketalar va blankalarni loyihalash, ko‘rsatmalar tayyorlash – kuzatishni o‘tkazish va statistik formulalarni to‘ldirish bo‘yicha yo‘riqnomlarni tayyorlash;
4. Tashkiliy masalalarni hal qilish – yuqori malakali xodilmarni tayyorlash;
5. Bosh to‘plam birliklar tarkibini aniqlash – kuzatish uchun asos bo‘ladigan umumiy to‘plamni belgilash;
6. Tanlanma to‘plamni shakllantirish usulini tanlash – shu jumladan, tanlash ulushi, tanlanma hajmi va qabul qilinadigan xatolar chegarasini aniqlash;
7. Ma’lumotlarni yig‘ish – tanlab olingan birliklarda kuzatilgan belgilarni ro‘yxatga olish;
8. Tanlanma to‘plam xususiyatlarini olish – o‘rtacha qiymat, ulushlar va dispersiya kabi ko‘rsatkichlarni hisoblash;

9. Tanlanma xatolarni aniqlash – reprezentativlik va registratsiya hatolariga baho berish;

10. Tanlanma natijalarini bosh to‘plamga tatbiq etish – tanlanma ma’lumotlar asosida umumiy to‘plam xususiyatlarini baholash;

11. Xulosalar va tavsiyalar tayyorlash – olingan natijalar asosida qaror va takliflarni shakllantirish.

Tanlab kuzatish nazariyasida tanlanma to‘plamning reprezentativligini baholash aossiy o‘ringa ega. Reprezentativlik xatolari- bu tanlama to‘plam ko‘rsatkichlarining bosh to‘plam ko‘rsatkichlaridan chegaralash hisobalandi.

Tanlanma xatolarini baholash nazariyasida bir qator chegaraviy teoremalarga asoslanadi, ular umumiy nom bilan “katta sonlar qonuni” deb ataladi. Bu teoremalarda xatolar minimal qiymatga keltirilishi mumkinligi va ularni talab qilinadigan aniqlikda belgilash imkoniyati isbotlanadi.

Tanlab kuzatish qo‘lanilganda quyidagi teoremalardan foydalaniladi:

1.Chebыshev teoremasidan shu natija chiqadi:kamidagi qoidalarga muvofiq shakllantirilgan katta hajmli tanlanma olinganda, bosh to‘plam va tanlanma o‘rtacha qiymatlari orasidagi farq deyarli 0 ga yaqin bo‘ladi.

2.Lyapunov teoremasi o‘rtacha qiymat uchun tanlanmadagi chegaraviy xatoni baholash imkonini beradi.

3.Bernulli teolremasi Chebqshev teoremasining maxsus holati bo‘lib, u alternativ belgining ulushini tadqiq qilishda qo‘laniladi.

Bu teoremalar orqali tanlanma ma’lumotlar asosida bosh тщplam xususiyatlarini ishonchli va aniq baholash mumkin bo‘ladi.

Tanlash usullarini quyidagicha turlarga bo‘lish mumkin:individual, guruhli va kombinirovali.

Individula tanlash – tanlanma to‘plamga bosh to‘plamdan alohida birliklar olinadi.Masalan, sanoatni tadqiqni qilishda – korxonalar, aholini tadqiq qilishda – aniq shaxslar. Individual tanlash tasodifiy, mexanik v atipik tanlanmalarda qo‘llaniladi.

Guruhli tanlash – birliklar to‘plamlar bo‘yicha olinadi. Masalan, brigadalar, mikrorayoonlar. Bu usul seriyaviy tanlanmalar uchun xarakterlanadi.

Kombinirlangan tanlash – individual va guruhli tanlash usullari qo‘shib qo‘llaniladi. Masalan, avval guruhlar tanlanadi, so‘ngra ulardan tasodifiy tarzda aniq birliklar olinadi. Bunday tanlanma ham kombinirlangan tanlanma deb ataladi.

Shuningdek, xar bir tanlash usuli takror va takrorlanmagan mumkin:

- Takrorlanmas tanlash – bir marta olingan birlik ikkinchi marotaba tanlanmaydi.
- Takrorlanuvchi tanlash – tanlanmaga kirgan birlik yana bosh to‘plamga qaytariladi va ikkinchi, uchinchi va h.k.marta tanlanishi mumkin.

Statistikada quyidagilar kabi turli tanlanmalar uchraydi:

- Tasodifiy tanlanma;
- Mexanik tanlanma;
- Tipik tanlanma;
- Seriyaviy tanlanma;
- Kombinirovannqy tanlanma;
- Kichik tanlanma.

Tanlanma turi tadqiqot vazifalari, ma’lumotlar to‘liqligi va kuzatish ob’ekti xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Tasodifiy tanlanma: tanlanmaga kiruvchi birliklar tasodifiy usul orqali olinadi.Masalan, tasodifiy tanlab olish yoki tasodifiy jadvalidan foydalanish. Har bir bosh to‘plam biriligi tanlanishdan teng imkoniyatiga ega bo‘lishi shart.

Tasodifiy – jerebevka orqali tanlash usuli – bosh to‘plam birliklariga tegishli jerebevka - tayyorlangan sharlar, kartochkalar yoki boshqa turdagilar asosida tayyorlanadi. U yerda raqami, manzili yoki boshqa identifikatorlari ko‘rsatiladi. Va aralashtirilib, tasodifiy tarzda n birlik olinadi. Va bu tanlanmadagi birliklar soniga teng bo‘ladi. Bu usul bosh to‘plam hajmi kichik bo‘lganda samarali hisoblanadi.

Nazorat va muxokama uchun savollar.

1. Aholi bo‘yicha ma’lumotlar manbalari deganda nima tushuniladi?
2. Demografik ma’lumotlar qaysi asosiy manbalardan olinadi?
3. Aholini ro‘yxatga olishning ahamiyati nimada?
4. Joriy statistik hisob qanday ma’lumotlarni qamrab oladi?
5. Ma’lumotlarni tizimlashtirish nima va uning maqsadi nima?
6. Ma’lumotlar manbalarini shakllantirish qanday bosqichlardan iborat?
7. Migratsiya bo‘yicha ma’lumotlar qayerdan olinadi?
8. Ma’lumotlar ishonchli ekanligi qay tariqa ta’minlanadi.
9. Ma’lumotlarni guruhlash va tasniflash usullari nimalardan iborat?
10. Aholi statistikasi va boshqa ijtimoiy statistikalar o‘rtasidagi bog‘liqlik nimada?

V BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNING INTENSIVLIGINI O‘LCHASH

5.1.Demografik jarayonlarning o‘zgarish tezligi koeffitsientlari.
5.2.Demografik jarayonlarning intensivlik koeffitsientlari.

Tayanch so‘zlar: demografiya, intensivlik, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migratsiya ko‘payish, koeffitsient, aholi, dinamika, zichlik, struktura.

5.1. Demografik jarayonlarning o‘zgarish tezligining koeffitsientlari

Demografik koeffitsientlar aholining tabiiy harakatinnig ko‘rsatkichlaridir. Aholining umumiy harakat koeffitsientlari demografik jarayonlarni (tug‘ilish, o‘lim va boshqalarni) umumiy aholiga nisbatan taqqoslash yo‘li bilan hisoblanadi.

Demografik koeffitsientlar - aholinnig turli xil ko‘rsatkichlari, uning tarkibi, alohida demografik jarayonlar hamda aholi takror ishlab chiqarilishi o‘rtasidagi nisbatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar uchun qo‘llaniladigan umumiy atamadir.

Aholi insonlardan tashkil topgan, demografik hodisalar esa alohida shaxslarga taalluqli bo‘lgan faktlar yig‘indisidan iborat. Shuning uchun kuzatilayotgan hodisalar soni, albatta, aholinnig umumiy soniga bog‘liq bo‘ladi. Hodisaning mohiyati va uning jadalligini baholash uchun faqat uni tashkil etuvchi voqealarning mutlaq sonini bilish yetarli emas, balki ularni bizni qiziqtirayotgan hodisani “yuzaga keltirgan” aholi soni bilan taqqoslash zarur. Bu esa demografik tahlilda nisbiy ko‘rsatkichlar – ya’ni hodislaar soninin aholi soniga nisbatlash orqali hisobalanadigan koeffitsientlardan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Demografik voqealar soniga oid ma’lumotlar, odatda, muayyoyan vaqt davriga tegishli bo‘ladi. Masalan, bir-yil yoki bir oy davomidagi tug‘ilishlar soni. Aholi sonini ifodalovchi ko‘rsatkichlar esa, odatda, vaqtning aniq bir vaqtida –-yil boshi, shrta qismi yoki oxiriga nisbatan beriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar mohiyatan o‘zaro taqqoslanishi uchun aholi sonini davr bo‘yicha o‘rtacha hisoblash, ya’ni o‘rtacha aholi

sonini aniqlash talab etiladi. Bu koʻpincha aholining davr boshi va oxiridagi sonining yarim yigʻindisi sifatida, maslaan,-yil boshi va-yil oxiridagi aholi soni asosida hisoblab chiqiladi.

Aholi harakatiga oid voqealar soniga ular sodir boʻlgan vaqt davomiyligi ham taʼsir qiladi. Shu sababli aholi harakati koeffitsientlari vaqt boʻyicha oʻzaro taqqoslanishi uchnu, odatda, bir-yil hisobida ifodalanadi.

Demak, demografik koeffitsientlar maʼlum bir vaqt davrida aholi orasida sodir boʻlgan voqealar soning shu voqealarni yuzaga keltirgan oʻrtacha aholi soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

Oʻzgarish surʼatlarini koeffitsientar, odatda, aholi oʻsishi koeffitsientlari (aholi sonining ikki vaqt nuqtasidagi nisbati boʻlib, foizlarda oʻlchanadi) hamda aholi oʻsish koeffitsientlaridan iborat boʻladi. Aholi koeffitsientlarini aholi sonining ikki vaqt nuqtasidagi farqi, yaʼni mutlaq oʻsishning oʻrtacha-yillik aholi soniga nisbatlanishi asosida hisoblanadi.

Anʼanaviy ravishda quyidagi turlari farqlanadi:

- umumiy oʻsish koeffitsienti – umumiy oʻsish miqdorinnig aholining oʻrtacha-yillik soniga nisbati);
- tabiiy oʻsish koeffitsienti (tugʻilishlar soni bilan oʻlimlar soni oʻrtasidagi farqning aholining oʻrtacha-yillik soniga nisbati);
- migratsiya hisobiga oʻsish koeffitsienti (koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni oʻrtasidagi farqning aholinnig oʻrtacha soniga nisbati).

Aholi soni oʻsishiga koʻrsatkichlar vaqt oʻtishi bilan aholi miqdorinnig qanday oʻzgarib boryotganini yaqqol namoyon etadi. Aholi oʻsishi koʻrsatkichlari mutlaq (absolyut) hamda nisbiy shakllarda ifodalanishi mumkin.

Aholining ummuiy oʻsish koeffitsienti – maʼlum bir vaqt oraligʻidagi aholinnig mutlaq umumiy oʻsish miqdorinnig oʻrtacha aholi soniga nisbati hisoblanadi. U foizlarda (100 ga koʻpaytirib) yoki promilleda (1000 ga koʻpaytirib) ifodalandi. Umumiy oʻsish koeffitsienti nolga teng boʻlishi, musbat yoki manfiy qiymatga ega boʻlishi mumkin.

Aholining tabiiy o‘sish koeffitsienti – ma’lum bir davr mobaynidagi tabiiy o‘sish miqdorinnig o‘rtacha aholi soniga nisbati hisoblanadi. Shuningdek, u tug‘ilish koeffitsienti bilan o‘lim koeffitsienti o‘rtasidagi farq sifatida ham aniqlanadi.

U tug‘ilish darajasi yoki o‘lim darajasi qaysi biri yuqori ekaniga qarab musbat yoki manfiy bo‘lishi mumkin;ayrim hollarda nolga teng bo‘ladi.Bu ko‘rsatkich promile(%)da ifodalanadi. Jami aholi uchun tabiiy o‘sish koeffitsienti (k) tug‘ilish koeffitsienti (n) bilan o‘lim koeffitsienti (m) o‘rtasidagi farqqa teng: k=n-m

Migratsion o‘sish koeffitsienti – migratsiya jarayoninnig faollik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. U migratsion o‘sish miqdorinnig doimiy aholinnig-yillik soniga nisbati sifatida hisoblanadi. Migratsiya bo‘yicha eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar – kelib joylashganlar va ketib qolganlar koeffitsientlaridir. Ular ma’lum hududda ko‘chib kelganlar soni hamda shu huddudda ko‘chib ketganlar soninnig muayyan davr (odatda bir-yil) davomidagi miqdorini mazkur hududning o‘rtacha-yillik doimiy aholi soniga nisbatlash orqali aniqlanadi.

Aholining tabiiy harakatining statistik hisobi xalqaro tavsiyalarga muvofiq o‘tkazilishi orqali ma’lumotlarning mamlakatlararo taqqoslanishi ta’minlanadi. 1998-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotning statistika bo‘limi dunyoning barcha mamlakatlari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan fuqarolikni ro‘yxatga olish tizimlari va aholining tabiiy harakatini statistik hisobga olish bo‘yicha qo‘llanma nashr etdi. Qo‘llanmada umumiy ma’lumotlar, spesifikatsiyalar va fuqarolik holati dalolatnomlarani yaratish, aholining tabiiy harakatini statistik hisobga olish va shaxsni boshqarish yoki mavjud tizimlar uchun ularni takomillashtirishning amaliy misollari keltirilgan.Qo‘llanma o‘zining mazmuni va atvsfi bo‘yicha aholining tabiiy harakati hodisalarning butun doirasini qamrab oladi, jumladan tirik tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajratish, sud toomnidan ajratish, asrab tolish, legallashtirish va tan olish.

Fuqarolikni ro‘yxatga olish tizimlari va zamonaviy indentifikatsiyani boshqarish tizimlari va ularnig ishlashi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik quyidagi rasmda keltirilgan[8].



5.1-rasm fuqarolikni ro‘yxatga olish tizimlari va zamonaviy identifikatsiyani boshqarish tizimlari

BMTning statistika bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan aholining tabiiy harakatini statistik hisobga olish tizimining tamoyillari va tavsiyalari ham aholining statistik hisobini yuritish uchun qo‘llanma hisoblanadi.

5.1-jadval

BMT tasnifi bo‘yicha aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlar tarkibi

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar tarkibi
Tirik tug‘ilishlar:	Tug‘ilish sodir bo‘lgan joy va bolalarni jinsi bo‘yicha tirik tug‘ilish: - tug‘ilish sodir bo‘lgan joy va onaning odatiy yashash joyi; - odatdagi yashash joyi va onaning yoshi, bolaning jinsi va tirik tug‘ilishning tartib raqami bo‘yicha tirik tug‘ilish; - homiladorlik yoshi, onaning odatdagi yashash joyi va tug‘ilish vazni bo‘yicha tirik tug‘ilish

[8]Aholi demografiyasi statistikasi Yo’ldoshev Z 2025-yil 143 b

O‘limlar:	Marhumning odatiy yashash joyi va jinsi bo‘yicha o‘lim: - hodisa sodir bo‘lgan oy bo‘yicha o‘lim va o‘lim sabablari; - marhumning yashash joyi, yoshi, jinsi va ma’lumoti bo‘yicha o‘lim; - marhumning yoshi va odatiy faoliyati bo‘yicha o‘lim.
	Go‘daklar o‘limi: - tug‘ilish sodir bo‘lgan joy va onaning odatiy yashash joyi bo‘yicha chaqaloqlarning o‘limi; - hodisa sodir bo‘lgan oy va bolaning jinsi va yoshi bo‘yicha chaqaloqlarning o‘limi; - onaning odatiy yashash joyi va tug‘ilishni ro‘yxatdan o‘tkazish orqali chaqaloqlarning o‘limi; Tirik tug‘ilish va o‘lik tug‘ilish: - tug‘ilish tartibi va chaqaloqning holari bo‘yicha yetkazib berish (tirik yoki o‘lik tug‘ilish); - tug‘ilish tartibi va onaning yoshi bo‘yicha yetkazib berish, har bir jins uchun

Fuqarolarni hisobga olish va aholining tabiiy harakati statistikasi – bu qonun hujjatlariga muvofiq aholining demografik harakati hodisalari va hususiyatlarini uzluksiz, doimiy, majburiy va umumiy qayd etishdir.

Aholining tabiiy harakati bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tuzishda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, ESKATO, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va MDX statistika qo‘mitasi kabi xalqaro tashkilotlarinnig tavsiyalariga amal qilish kerak.

5.2-jadval

Jaxon sog‘liqni saqlash tashkilotining 10-qayta ko‘rilgan kasalliklar va o‘lim sabablari xalqaro statistic tasniflagichi (XKT-10)

XKT-10 kadi	XKT-10 SINFI
(A00-B99)	I SINIF – Ba’zi infeksion va parazital kasalliklar
(C00-D48)	II SINF – O‘smalar
(D50-D89)	III SINF – Qon va yaratuvchi organlar kasalliklari va immun mexanizmni jalb etuvchi ayrim buzilishlar
(E00-E90)	IV SINF – Endokrin Sistema kasalliklari, ovqatlanish tartibsizligi va modda almashinuvi buzilishlari
(F00-F99)	V SINF – Ruhiy buzilishlar va hulq-atvor buzilishlari
(G00-G99)	VI SINF – Nerv sistemasining kasalliklari
(H00-H59)	VII – SINF Ko‘z va uning qo‘shimcha apparati kasalliklari

(H60-H95)	VIII – SINF Quloq va so‘rg‘ichsimon o‘siq kasalliklari
(IOO-I99)	IX – SINF Qon aylanish sistemasi kasalliklari
(J00-J99)	X – SINF Nafas organlari kasalliklari
(K00-K93)	XI – SINF Hazm qilish organlari kasalliklari
(L00-L99)	XII – SINF Teri va teri osti kletchatkasi kasalliklari
(M00-M99)	XIII – SINF Suyak-mushak sistema va qo‘shuvchi to‘qima kasalliklari
(N00-N99)	XIV – SINF Siydik tanosil sistema kasalliklari
(O00-O99)	XV – SINF Homiladorlik, va tug‘ruqdan kiyingi
(P00-P96)	XVI – SINF Perinatal davrda yuzaga keladigan ba’zi holatlar
(Q00-Q99)	XVII – SINF Tug‘ma anomaliyalar(rivojlanish nuqsonlari), deformatsiyalar va xromosom buzilishlar
(R00-R99)	XVIII – SINF Boshqa runklarda tavsiflanmagan klinik va labarator tekshiruvlarda aniqlangan, simptom, belgi, normadan chetga chiqishlar
(S00-T98)	XIX – SINF Tashqi sabablar ta’sirining jarohatlar, zaharlanishlar kabi va ayrim boshqa oqibarlar
(V01-Y98)	XX – SINF Kasallanish va o‘limning tashqi sabablari

O‘limning sabablarini tasniflashga 1989-yilga ishlab chiqilgan JSST tomonidan 1990-yilda qabul qilingan Xalqaro kasalliklar tasnifi (XKT-10) bo‘yicha asoslanishi kerak. Ushub tasnif tibbiy tashxislarning umumiy qabul qilingan statistik tasnifiga ega bo‘lgan me’yoriy hujjat bo‘lib, u sog‘liqni saqlashda uslubiy yondashuvlarni va materiallarning xalqaro taqqoslanishini birlashtirish uchun ishlatiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham kasalliklar statistikasini yuritishda ushbu tasniflagichdan keng foydalaniladi.

5.2.Demografik jarayonlarning intensivlik koeffitsientlari.

Aholining tabiiy harakatiga oid eng sodda ko‘rsatkichlar – bu umumiy koeffitsientlar bo‘lib, ular demografik hodisalarning jami aholi soniga nisbatan intensivligini ko‘rsatadi (hisob – kitob 1000 nafar aholiga gisbatan amalga oshiriladi). Ular quyidagilardan iborat:

- tug‘ilishning umumiy koeffitsienti (bir-yil davomida tug‘ilishlar sonini hisobga oladi);
- o‘limning umumiy koeffitsienti (bir-yil ichidagi vafot etganlar soniga asoslanadi);

- nikoh koeffitsienti (yil davomida tuzilgan nikohlar sonini ifodalaydi);
- ajralish koeffitsienti (yil mobaynidagi ajralishlar soniga tayanadi).

Umumiy intensivlik koeffitsientlari demografik jarayonlarga faqat umumldashtirilgan va taxminiy baho berish imkonini beradiyu Bu koʻrsatkichlar 1000 nafar aholiga nisbatan promille (%)da ifodalanadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$n = \frac{N_t}{P_t} \qquad (1)$$

bu yerda: P – aholinnig oʻrtacha soni;

t – vaqt oraligʻini (odatda bir-yilni) anglatadi;

N- shu davr mobaynida roʻy bergan demografik hodisalar soni.

Shuningdek, tugʻilishning umumiy koeffitsienti (tugʻilish darajasini ifodalovchi koʻrsatkich) – tirik tugʻilgan bolalar soninnig tegishli davrdagi aholi soniga nisbati hisoblanadi. U promille (%)da ifodalanadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$n = \frac{N_t}{P_t} \qquad (2)$$

bu yerda: P – aholinnig oʻrtacha soni;

t – vaqt davri;

N- shu davr mobaynida tugʻilgan bolalar soni.

Tugʻilishning umumiy koeffitsienti nazariy jihatdan nolga teng boʻlishi mumkin (agar oʻrganilayotgan davrda ayrim hududda aholi orasida sezilarli tugʻilishlar roʻy bermagan boʻlsa, garchi bu amalda deyarli imkonsiz). Eng qoʻllaniladigan yuqori chegara – tugʻilish uchun juda munosib sharoitlarda (erta va koʻp nikohli turmush, yoshga qarab tugʻilishning yuqori darajasi, oilaviy aloqalarning barqarorligi, aholi sogʻligʻi yaxshi holatda) – 50 – 55%ni tashkil qilishi mumkin.Agar tugʻilish sun’iy ravishda cheklansa, koeffitsienti 14-16% atrofida boʻladi. Bu koeffitsienti faqat bola tugʻilishining intensivligiga emas, balki aholinnig yosh-jins va nikoh tuzilishiga ham bogʻliq.

Koʻproq aniqlikka ega boʻlgan koʻrsatkichlar – maxsus koeffitsientlar boʻlib, ular demografik hodisalarning intensivligini faqat

shu hodisalarni ro‘y berishi mumkin bo‘lgan aholi qismida baholaydilar:

- tug‘ilish uchun – tug‘ilgan bolalar sonining reproduktiv yoshdagi soniga nisbati;
- nikoh uchun – nikohga kirganlar sonining nikoh tuzishi mumkin bo‘lgan, ya’ni nikohda bo‘lmagan shaxslar soniga nisbati;
- ajralish uchun – ajralishlar sonining nikohdagi bo‘lgan shahslar yoki mavjud nikohlar soniga nisbati.

Shuningdek, maxsus koeffitsientlra aholi jamiga emas, faqat shu demografik hodisani yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan aholi qismiga nisbatan hisoblanadi.

Maxsus koeffitsientlarning umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$f = \frac{N}{F} \qquad (3)$$

F-shu tur demografik hodisani yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan aholi guruhi o‘rtacha soni;

f - maxsus koeffitsient;

N – shu tur hodisalar soni.

Biroq, bu aholi guruhlari ham bir xil emas va demografik hodisalar turli qismlarda turlicha sodir bo‘ladi. Masalan, bola tug‘ilish darajasi turmushga chiqqan va chiqmagan ayollarda farq qiladi, shuning uchun xususiy koeffitsientlar ham hisoblanadi. Xususiy koeffitsientlar - ma’lum aholi qismida sodir bo‘lgan hodisalar sonining shu qismi o‘rtacha aholi soniga nisbati. Ular hodisalarning sodir bo‘lishi jihatidan aniqroq ma’lumot beradi, lekin jami aholi uchun umumiy chastotani aniqlash imkonini bermaydi.

Bola tug‘ilishi jarayonini demografik tahlilda yana bir muhim ko‘rsatkich – umumiy tug‘ilish koeffitsienti (UTK) qo‘llaniladi. U bir ayolning butun umri davoida tug‘ishi mumkin bo‘lgan o‘rtacha bolalar sonini ko‘rsatadi, agar har bir yoshdagi tug‘ilish darajasi shu davomda saqlansa. Umumiy tug‘ilish koeffitsienti – bu barcha yosh intervallaridagi yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlari yig‘indisiga teng.

Umumiy tug‘ilish koeffitsienti aniqroq va yakunlovchi ko‘rsatkich hisoblanadi, ya’ni tug‘ilish darajasini umumiy baholash imkonini beradi. U aholi ko‘payishi uchun zarur bo‘lgan tug‘ilish darajasini baholashda qo‘llaniladi:

- agar UTK 4,0 dan yuqori bo‘lsa, tug‘ilish darajasi yuqori hisoblanadi.
- agar UTK 2,15 dan past bo‘lsa, tug‘ilish darajasi past deb baholanadi.

Past o‘lim ko‘rsatkichlari sharoitida UTK 2,15 faqat sodda aholi ko‘payishini ta’minlaydi. Hozirgi tibbiyot va sog‘liqni saqlash sharoitida ko‘pchilik tug‘ilgan bolalar jinsiy o‘sishga yetadi va o‘z navbatida farzandli bo‘ladi. Agar barcha bolalar tirik qoladi deb hisoblasak, umumiy tug‘ilish koeffitsenti (UTK) 2,0 – 2,15 bo‘lsa, aholi soni o‘zgarmaydi:ikki bola ona va otani o‘rnini egallaydi, ya’ni aholi soni barqaror holatda qoladi – bu sodda aholi ko‘payishi hisoblanadi. Bu holatda avloddan – avlodga aholi soni deyarl bir xil bo‘ladi. Agar UTK 2,0 danp ast bo‘lsa, aholi soni kamayadi, chunki avlodlar to‘liq o‘rin egalaly olmaydi - bu qisqartirilgan ko‘payish (depopulyatsiya) hisoblanadi. Shu tariqa, har avlodda aholi soni kamayadi va aholi tiklanishi-yildan --yilga qisqarib boradi.

Agar umumiy tug‘ilish koeffitsienti (UTK) 2,15 – 2,20 dan yuqori bo‘lsa va o‘lim darajasi past bo‘lsa, aholi kengaytirilgan ko‘payish holati yuzaga keladi. Bu paytda har avlodda aholi soni oldingi avlodga nisbatan o‘sib boradi va aholi jamiyatda avloddan – avlodga yanada ko‘payib boradi.

Umumiy tug‘ilish koeffitsienti UTK aholi nikoh holati va reproduktiv davrda bolalar tug‘ilish oralig‘idan kelib chiqib o‘zgarib turadi. UTK, ya’ni bir ayolning o‘rtacha tug‘ilgan bolalar soni, bir qato omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

- aholi nikoh holati;
- oilalar hohlayotgan bolalar soni;
- oila a’zolarining sog‘lig‘i va jismoniy imkoniyatlari;

- oilaviy iqtisodiy imkoniyatlari;
- oilaviy an’analar;
- oila a’zolarinnig diniy e’tiqodi;
- ayolning ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etishi;
- bolalar bog‘chalari va maktabgacha ta’lim muassasalari mavjudligi va ularga kirish imkoniyati;
- samarali kontraseptiv vositalarning mavjudligi va ularga kirish imkoniyati va boshqalar.

Umumiy tug‘ilish koeffitsienti (UTK)ni hisoblashda barcha yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlari yig‘indisi qabul qilingan yosh va intervali uzunligiga ko‘paytiriladi (agar interval bir-yillik bo‘lsa – 1ga, besh-yillik bo‘lsa – 5ga) va 1000ga bo‘linadi.

$$F_{so\prime m} = n \cdot \sum_{15}^{49} F_x \cdot 0{,}001 \qquad (4)$$

Bu yerda: F_x -yoshga oid tug‘ilish koeffitsientlari;

n – yosh intervali uzunligi.

5.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2020-2050-yillarda tug‘ilish jami koeffitsiyentining prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	Past variant	O‘rta variant	Yuqori variant
2020	1,638	1,761	1,816
2030	1,552	1,770	1,833
2040	1,565	1,870	1,937
2050	1,578	1,965	2,050

Mazkur prognozga ko‘ra, tug‘ilishning jami koeffitsiyenti qiymatlari aholi sonining hatta oddiy takror bo‘lishini ham ta’minlaydi(5.4-jadval)

5.4-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida tug‘ilishning jami koeffitsiyenti

Mamlakat	Yil	TJK
Rossiya	2024	1,7
Belarus	2024	1,7
Ukraina	2024	1,5
Tojikiston	2024	3,4
Buyuk Britaniya	2024	1,9
Germaniya	2024	1,4
Italiya	2024	1,5
Fransiya	2024	2,0
AQSH	2024	2,0
Yaponiya	2024	1,4
Hindiston	2024	2,5
Xitoy	2024	1,7

Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda jami tug‘ilish koeffitsienti (JTK) o‘rtacha 1,9 atrofida bo‘lib, bu aholinnig oddiy takror barqarorligi darajasijan biroz past hisoblanadi. O‘unga qaramasdan, mazkur mamlakatlarning ko‘pchiligida aholi soni hozirga qadar o‘sishda davom etmoqda. Bu holat o‘tmishdagi nisbatan yuqori tug‘ilish darajasi natijasida shakllangan ko‘p sonli avlod mavjudligi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda JTK past bo‘lishiga qaramay, o‘lim darajasininng nisbatan kamligi tufayli tug‘ilganlar soni vafot etganlar sonidan ortiq bo‘lib qolmoqda. Biroq demografik jarayonlar tahlili yaqin istiqbolda aholi sonining barqarorlashuvi, keiynchalik esa qisqarishi ehtimolini ko‘rsatmoqda. Chunki bugungi ota –onalar avlodi qarib bormoqda, tabiiy ravishda safi kamaymoqda va ularning o‘rni to‘liq qoplanmayapti. Kamroq rivojlangan mamlakatlarda esa JTK

1995-yilda 4,8ni, 1998-yilda 3,3ni tashkil etgan. Demografik prognozlarga koʻra 2050-yilga kelib ushbu koʻrsatkich 2,1 darajaga tushishi kutilmoqda. Hozirgi vaqtda mazkur davlatlardagi JTK aholinnig oddiy takror barqarorligini ta'minlovchi darajadan ikki barobaridan ziyod yuqori. Shu bois, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi yaqin kelajakda aholi sonini ikki barobarga oshirish imkonini beruvchi demografik salohiyatga ega. Mazkur davlatlarda aholining taxminan 40 foizi 15 yoshgacha boʻlgan bolalar va oʻsmirlardan iborat boʻlib, oʻrta va katta yoshdagi aholi ulushi nisbatan pastdir.

Jahonda aholi soni oʻsishini cheklashga qaratilgan chora – tadbirlar (ya'ni "oilaviy rejelashtirish" dasturlari va boshqalar) soʻnggi-yillarda umumiy tugʻilish koeffitsientining sezilarli darajada pasayishiga olibk yedi. Agar mazkur tendensiya kelgusida ham saqlanib qolsa, rivojlanayotgan mamlakatlar taxminan 2025-yillarga kelib oddiy takror ishlab chiqarish darajasidagi tugʻilish koʻrsatkichlariga yaqinlashishi mumkin. Birov mavjud demogrfik salohiyat sababli ushbu mamlakatlardagi aholi soni 2080-yillarga qadar baribir zsishda davom etadi. Shu bilan birga, yuqori darajada rivojlangan davlatlarda aholi oʻsishi sur'ati sekinlashadi yoki mutlaqo toʻxtaydi.

Agar rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy tugʻilish koeffitsienti (UTK) 2,1 darajagacha pasaysa ham (bu yoʻnalishdagi tendensiya allaqachon kuzatilmoqda), ularning aholisi taminan yana bir asr davomida oʻsishda davom etadi va shundan keyingina barqaror holatga keladi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar aholisining jahon umumiy aholisidagi ulushi tobora kamayib boradi. Kelgusi 50 – 70-yil ichida bu koʻrsatkich hozirgi 25 foizdan 10 foizgacha qisqarishi mumkin.

Umumiy oʻlim koeffitsienti aholi oʻlim darajasini ifodlalovchi asosiy demografik koʻrsatkich hisoblanadi. U ma'lum bir davr mobaynida vafot etganlar umumiy sonining oʻsha davrdagi aholining oʻrtacha soniga nisbati sifatida aniqlanadi. Mazkur koʻrsatkich promille (‰)da ifodalanadi va quyidagi formula asosida ifodalandi:

$$m = \frac{M_t}{P_t} \qquad (5)$$

M – vafot etganlar soni;

T – davrni-yillarda ifodalash;

P – aholining o‘rtacha soni.

Umumiy o‘lim koejffitsienti o‘lim jarayonlari intensivligiga, balki aholinnig mavjud yosh-jins tuzilmasining xosiyatlariga ham bog‘liq. Aholining o‘lim darajasini aniqroq baholash uchun yoshga oid o‘lim koeffitsientlari qo‘llaniladi. Ular alohida yosh guruhlari bo‘yicha o‘lim darajasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi.Eng ma’qul sharoitlarda umumiy o‘lim koeffitsienti 4-5‰ ni tashkil qiladi. Soliqga, soliqdan katta aholi guruhlari uchun uning-yillik minimal qiymati nolga teng bo‘lishi deyarli mumkin emas. Umumiy o‘lim koefitsientining maksimal qiymatini hisoblash biroz murakkabroq, lekin uni 50‰ gacha oshishi eg‘timoli bor deb taxmin qilish mumkin.

Bolalar (chaqaloq) o‘lim koeffitsienti – bu 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘lim darajasini o‘lchovchi ko‘rsatkich. U tug‘ilganlardan qancha bola birinchi-yil ichida vafot etganligini 1000ta tug‘ilganga nisbatan ko‘rsatadi. Umumiy o‘lim koeffitsientidan farqli o‘laroq, bu ko‘rsatkichda vafot etgan bolalar soni aholining o‘rtacha sonigaemas, balki tug‘ilgan bolalar soniga nisbatan hisoblanadi.

Bolalarning birinchi-yililk hayotida organizm tashqi muhit ta’siriga alohida sezgir bo‘ladi. Yangi tug‘ilganlarnnig rivojlanishi va hayot faoliyatida eng muhim omillaridan biri – malakali tibbiy yordamni o‘z vaqtida olishi hisoblanadi.Tahillardan ma’lumki, 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning taxminan 2/3 qismi o‘sha kalendar-yilda tug‘ilgan bo‘lsa, 1/3 qismi esa ularning vafoti-yilidan avvalgi-yilda tug‘ilgan. Agar quyidagicha hisoblanadi:

$$m_0 = \frac{M_0}{2/3N_0 + 1/3N_{-1}} \qquad (6)$$

M_0 -1 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘limi,soni;

m_0 – chaqaloqlarning o‘lim koeffitsienti;

N_0 – shu-yilda tug‘ilganlar soni;

N_{-1} – o‘tgan-yilda vafot etganlar soni.

Quyidagi holatda, ya’ni chaqaloq o‘lim darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda, bu ko‘rsatkichni hisoblashda boshqa nisbat qo‘llaniladi.

Bu usul minimal o‘lim holatlarini aniqroq aks ettirish va statistik xatolarni kamaytirish uchun mo‘ljallangan.

$$m_0 = \frac{M_0}{3/4N_0 + 1/4N_{-1}} \qquad (7)$$

Bu ko‘rsatkichning eng past qiymatlari Yaponiya, Shvesiya, Norvegiya, Islandiya va jahonning boshqa yuqori rivojlangan mamlakatlarda 5-7‰ oralig‘ida o‘zgaradi.

Oxirgi asrlarda, samarali bolalar kasalliklari bilan kurashish tizimi va sanitariya darajasi past bo‘lgan paytlarda, chaqaloq o‘lim koefitsieni 250-300‰ oralig‘ida bo‘lgan. Epidemiya va ocharchilik sharoitida esa u 350-400‰ gacha oshishi mumkin edi. Hozirgi kunda aholinnig turmush darajasi yuqori bo‘lgan hollarda bu ko‘rsatkich 4-7‰ gacha pasayishi mumkin. Bolalar o‘lim koeffitsienti mamlakat aholisining sog‘ligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aniq baholashda eng ishonchli ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Umumiy nikoh koeffitsienti ma’lum bir muddat (masalan,yil) ichida tuzilgan nikohlar sonini ko‘rsatadi. U quyidagicha hisoblanadi:tug‘ilgan nikohlar soni (V)ni shu davr (T)dagi aholinnig o‘rtacha soniga (P) nisbatan oladi.

$$b = \frac{B}{P_t} \cdot 1000 \qquad (8)$$

Nikoh koeffitsienti promille (‰)da hisoblanadi. U aholining yosh tuzilmasi va nikoh holati, nikoh tuzish va ajrashish sharoitlari hamda har bir mamlakatdagi nikoh statistikasini qayd etish usullariga bog‘liq bo‘ladi. Eng past nikoh ko‘satkichlari (taxminan 3-4‰) Lotin Amerikasi mamlakatlarida kuzatiladi, bu yerda rasmiy ro‘yxatga olinmagan nikohlar keng tarqalgan va ular hozirgi staitsikada inobatga olinmaydi.

Maxsus nikoh koeffitsientlari – nikoh holatini aniqroq baholash uchun ishlatiladi. Bu ko‘rsatkichlarda nikohlar soni aholining umumiy soniga emas, faqat nikoh tuzish qobiliyatiga ega yoshdagi aholi (16 yoshdan katta)ga nisbatan hisoblanadi.

$$\mathrm{K} = \frac{B}{P_{16+}} \qquad (9)$$

B – ma’lum bir davr mobaynida qayd etilgan jami nikohlar sonini;

P – nikoh tuzish huquqiga ega bo‘lgan (16 yosh va undan yuqori) aholi miqdorini ifodalaydi.

Nikoh ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish maqsadida yoshga xos nikoh koeffitsientlari ham hisoblab chiqiladi. Ushbu ko‘rsatkich muayyan yosh guruhida qayd etilgan nikohlar sonining shu yosh toifasiga mansub aholinnig umumiy soniga nisbati orqali aniqlanadi.

Umumiy ajralishlar koeffitsienti jami aholi o‘rtasida nikoh bekor qilinishi holatlarining tarqalish darajasini ifodalaydi. U muayyan vaqt davri mobaynida qayd etilgan ajralishlar sonining shu davr uchun o‘rtacha aholi soniga nisbati asosida hisoblanadi.

Ushbu jarayonni yanada aniqroq baholash imkonini beruvchi ko‘rsatkich – maxsus ajralish koeffitsienti hisoblanadi. U ma’lum bir davr mobaynida qayd etilgan ajralishlar sonining shu davrda mavjud bo‘lgan nikoh juftliklarining o‘rtacha soniga nisbati sifatida aniqlanadi.

Yoshga xos ajralish koeffitsienti esa turli yosh guruhlaridagi shaxslar orasida ajralishlar takrorlanish darajasini tavsiflaydi. Mazkur ko‘rsatkich muayyan yosh toifasida qayd etilgan ajralishlar sonining shu yosh guruhi aholisining ma’lum vaqt oralig‘ida o‘rtacha nisbati orqali hisoblanadi. Umumiy koeffitsientlar miqdoriga aholinnig yosh tarkibi,jinsi, nikoh holati, ta’lim darajasi kabi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois amaliyotda umumiy koeffitsientlar to‘g‘ridan – to‘g‘ri emas, balki standartlashtirishdan keyin qiyoslanadi.

Standart sifatida muayyan bir aholi guruhinnig ko‘rsatkichlari qabul qilinadi va taqqoslanayotgan har bir aholi uchun o‘rganilayotgan jarayonning mazkur aholi hamda standart aholidagi nisbatini ifodalovchi indeks hisoblab chiqiladi. Ushbu indeks umumiy koeffitsientga ko‘paytirish orqali standartlashtirilgan koeffitsientlar hosil qilinadi. Bunday ko‘rsatkichlarda takribiy farqlar ta’siri bartaraf etilgan bo‘ladi, bu esa ularni chuqurroq va asosli tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Tuzilmaviy koeffitsientlar ikki asosiy asosiy guruhga ajratiladi:yuklama (nisbat) ko‘rsatkichlari va ish ulush (qism) ko‘rsatkichlari. Yuklama ko‘rsatkichlari aholinnig ayrim qismlarini

oʻzaro hamda boshqa guruhlar bilan nisbatan taqqoslash imkonini beradi. Masalan, turli yosh guruhlari oʻrtasidagi nisbat, erkaklar va ayollar soni oʻrtasidagi mutanosiblik kabi koʻrsatkichlar shular jumlasidandir. Ulush koʻrsatkichlari esa muayyan belgiga ega boʻlgan shaxslarning aholi tarkibidagi salmogʻini ifodalaydi. Jumladan, bandlik koeffitsienti ma'lum yosh va eins guruhi doirasida iqtisodiyotda band boʻlgan shaxslar ulushini koʻrsatadi.Demografik yuklama koeffitsienti tuzilmaviy koeffitsientlar turkumiga kiradi. U aholining yosh tarkibini umumlashtirgan holda ifodalvochi koʻrsatkich boʻlib, aholinnig ayrim guruhlari oʻrtasidagi nisbat orqali bir guruhning boshqasi zimmasiga tushayotgan "yuklama" darajasini baholash imkonini beradi. Mazkur koeffitsienti, masalan, mehnatga layoqatli aholinnig har 1000 nafari nechta mehnatga layoqatsiz shaxs toʻgʻri kelishini koʻrsatadi. Shu tariqa u jamiyat zimmasiga tushayotgan noishlab chiqaruvchi aholi yuklamasining miqdoriy ifodasini aks ettiradi.

5.5-jadval

Demografik yuklama dinamikasi

Yillar	16 – 59 yoshdagi 1000 kishiga mehnatga layoqatsiz yoshdagi shaxslar toʻgʻri keladi		
	0 – 15 yosh	60 yosh va undan katta	jami
1959	512	202	714
1970	511	275	786
1979	385	270	655
1989	430	325	755
1995	404	356	760
2000	336	349	686
2005	267	323	590
2010	258	347	605
2020	518	180	698

2024	567	206	773

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mehnatga layoqatli aholiga yosh guruhlar tomonidan tushayotgan demografik yuklama 1950-yili ko‘rsatkichiga nisbatan qariyb ikki baravar qisqargan. Shu bilan birga, xuddi shu davr mobaynida keksa yoshdagi aholi hissasi ortishi natijasida ular tomonidan yuklanadigan demografik yuklama deyarli ikki baravarga oshgani kuzatiladi.

Yosh guruhlari yuklamasini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar katta yosh toifalari o‘rtasidagi nisbatlarini aks ettiradi:mehnatga layoqatsiz aholi (0-15 yosh), keksa yoshdagi aholi (60 yosh va undan katta) va mehnatga layoqatli aholi (16-59 yosh) (rasm 5.2.).Shuningdek, keksa yoshdagi aholi soninning bolalar soniga nisbati ham qo‘llaniladi, bu ko‘rstkich aholi qariyasini baholashda xizmat qilishi mumkin.



5.2-rasm. Dunyo bo‘yicha turli yosh guruhlari aholisining nisbati

Umumiy koeffitsientlar asosida demografik jarayonlarini tahlil qilishda asosiy qiyinili kshundaki, ularning qiymati faqat deomgrafik hodisalar xususiyatiga emas, balki aholinnig yosh tarkibini va turli yosh guruhlari ulushiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday ta’sirini kamaytirish uchun yoshga xos (maxsus) demogarfik koeffitsientlarni hisoblash

zarur. Yoshga xos koeffitsientlar odatda besh yoshlik guruhlar bo‘yicha hisobalandi:0-4 yosh, 5-9 yosh, 10-14 sh va hokazo. O‘lish koeffitsientlari esa jins bo‘yicha alohida hisobalandi, chunki erkaklarda u ayollarga nisbatan hamisha sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Shuning uchun umumiy o‘lim koeffitsienti miqdori mamlakat yoki mintaqaning aholisining erkaklar va ayollar soni nisbatiga bog‘liq bo‘ladi.

Ayollar uchun yoshga xos tug‘ish koeffitsientlari quyidagilar shaklida hisoblanadi:

- 15-49 yoshli ayollar tug‘ish koeffitsienti (shunga xos maxsus tug‘ish koeffitsienti(- ushbu yoshdagi ayollar har 1000 nafarga qancha farzand tug‘ilishi o‘rtacha ravishda to‘g‘ri keladi;
- 15-49 yoshli ayollarning bir yoshlik guruhlari bo‘yicha yoshga xos tuhish koeffitsientlari (maxsus yoshga xos tug‘ish koeffitsientlari).

15-49 yoshli ayollarning yosh intervallari bo‘yicha tug‘ish koeffitsientlari, aholinnig yog takribi va tug‘ish qobiliyatiga ega ayollar ulushiga bog‘liq holda, odatda umumiy tug‘ish kojffitsientidan 3-5 baravar yuqori bo‘ladi. Yoshga xos tug‘ish koeffitsientining maksimal qiymati taxminan 250-270‰ ga yetishi mumkin.

Nazorat va muxokama uchun savollar.

1. Demografik intensivlik nima?
2. Tug‘ilish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
3. Migratsiya intensivligi qanday baholanadi?
4. Ajralish darajasi nimani aks ettiradi?
5. Demografik ko‘rsatkichlar nimani uchun kerak?
6. Umumiy demografik koeffitsiyentlar nimani anglatadi?
7. Maxsus demografik koeffitsiyentlar qanday farqlanadi?
8. Aholi o‘sish surati qanday aniqlanadi?
9. Aholi zichligi qanday aniqlanadi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimada?
10. Demografik ko‘rsatkichlar tizimi nima va ular qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?

VI BOB. JAMIYAT TARKIBIDA NIKOH VA OILA TAHLILI

6.1.Aholining nikoh tarkibini tahlili.
6.2.Oila tuzilishining rivojlanish tarixi.

Tayanch so‘zlar: nikoh, oila, barqarorlik, tug‘ilish, o‘lim, ajralish, reproduksiya an’ana, modernizatsiya, gender, ijtimoiylashuv, migratsiya, urbanizatsiya, qadriyatlar.

6.1. Aholining nikoh tarkibini tahlili.

Oila – bu jamiyat tomonidan turli shakllarda qabul qilingan, ayol va erkak o‘rtasidagi nikohli ittifoqidir. Nikoh – bu tarixiy jihatdan shakllangan, jamiyat toomnidan qonuniylashtirilgan va tartibga solingan ayol va erkak munosabatlarining bir turi bo‘lib, ularnnig bir – biriga hamda bolalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Hozirgi qonunchilikda nikoh – bu ayol va erkak o‘rtasidagi erkin, ixtiyoriy, teng huquqli ittifoq bo‘lib, o‘zaro muhabbat va hurmatga asoslanadi. U oila qurish maqsadida tuziladi, turmush o‘rtoqlariga o‘zaro huquq va majburiyatlar keltiradi hamda bolallar tug‘ilishi va tarbiyasiga xizmat qiladi.

Nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish – bu oila tuzilganligini davlat tomonidan rasmiy tan olish faoliyatidir. Bu faqat rasmiy harakat emas, balki turmush o‘rtoqlari va ularning bolalari uchun huquqiy ahamiyatga ega harakatdir. Har bir davlat qonuni nafaqat nikohnnig o‘zi, balki uni tuzish shartlarini ham belgilaydi. Eng aosiy shart – nikohga kiruvchi shaxslarnin o‘zaro roziligi. Ikkinchi shart – nikohga kira oladigan yoshga yetishidir. Qaysi yoshdan boshlab nikohga kirish mumkinligini qonun bilan belgilanadi. Aynrim mamlakatlarda minimal nikoh yosht xaqidagi qonunlar turlicha bo‘lib, ayollar uchun 9-12 yoshdan 20 yoshgacha, erkaklar uchun 14-22 yoshgacha o‘zgaradi. Qonunda mahalliy odatlar bilan bog‘liq hollarda ba’zi istisnolar ham ruxsat beriladi.

Yevropa davlatlarida nikoh yoshi yosh va jins bo‘yicha bir xil yoki erkaklar uchun bir oz yuqori beligalanadi. Masalan, Vengriyada

erkaklar uchun nikoh yoshi 18 yosh, ayollar uchun 16 yoshga teng. Polshada ham xuddi shunday, Angliyada 16 yoshga yetgan shaxslar nikoh qila oladi, Fransiyada esa ayollar 15 yoshdan, erkaklar esa 18 yoshdan nikohga kirishlari mumkin.

Osiyo davlatlarida nikoh tuzish yoshi mamlakatga qarb farq qiladi. Masalan, Yaponiyada erkaklar 18 yoshdan, ayollar esa 16 yoshdan rasman nikohdan o‘tish huquqiga ega. Hitoyda esa nikoh yoshi nisbatan yuqori bo‘lib, erkaklar uchun 22 yosh (jahon davlatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri), ayollar uchun 20 yosh etib belgilangan. Hindistonda nikoh yoshi erkaklar uchun 21 yosh, ayollar uchun esa 18 yosh qilib mustahkamlangan.

AQShda nikohga kirishning eng kam yoshi davlat va hududlarga qarab farq qiladi. Masalan, AQShda minimal nikoh yoshi shtatlar qonunchiligiga muvofiq belgilanadi: erkaklar uchun 14-18 yosh, ayollar uchun esa 13-17 yosh oralig‘ida belgilangan. Kanadaning Kvebek provinsiyasida eng kam nikoh yoshi qizlar uchun 12-16 yosh, yigitlar uchun esa 14-16 yoshni tashkil etadi. Argentina, Kolumbiya va Peruda erkaklar uchun nikohga kirishning eng kam yoshi 16 ysh, ayollaru chun esa 14 yosh etib belgilangan. Argentina, Kolumbiya va Peruda erkaklar uchun nikohga kirishning eng kam yoshi 16 yosh, ayollar uchun esa 14 yosh etib belgilangan. Shuningdek, Venesuela,Paragvay, Chili va Ekvadorda erkaklar uchun minimal nikoh yoshi 14 yosh, ayollar uchun esa 12 yosh qilib belgilangan.

Afrika qit’asida davlatlarida ham nikohga kirishning eng kam mamlakat qonsnchiligida ko‘ra turlicha belgilangan. Masalan, Misr va Jazoirda erkaklar uchun minimal nikoh yoshi 18 yosh, ayollar uchun esa 16 yosh etib belgilangan.Nigeriya va Keniyada esa qizlar uchun nikohning eng kam yoshi 9 yosh, yigitlar uchun esa 6-18 yosh oralig‘ida ko‘rsatilgan. Avstraliyada erkaklar uchun minimal nikoh 18 yosh, ayollar uchun esa 16 yosh qilib belgilangan. Ko‘plab davlatlarda nikoh yoshiga yetmagan shahslarning nikoh tuzishi uchun ota – onalar yoki qonuniy vakillarning roziligi talab etiladi.

Nikoh yoshini belgilashdagi xilma – xillik shuni ko‘rsatadiki, uni qonunchilik yo‘li bilan mustahkamlash asosida yagona ummuiy

qonuniyat emas, balki muayyan ijtimoiy – amaliy omillar yotadi. Nikohdagi kirishning minimal yoshi, eng avvalo, aholining takror barpo bo‘lishi nuqtai nazaridn ahamiyat kasb etadi. Chunki tug‘ilish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi organlar, odatda, ushbu yosh me’yorlarini belgilashda mahalliy urf - odat va an’analar inobatga olgan holda, ularni muayyan yo‘nalishda - oshirish yoki pasaytirish orqali - huquqiy jihatdan tartibga solgan.

Nikohga kirish yoshi mamlakat aholisining nikohlanish jarayonini tavsiflovchi asosiy demografik ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Statistik tahlil amaliyotida, odatda, o‘rtacha nikoh yoshi ko‘rsaktichidan foydalaniladi;mazkur ko‘rsatkich muayyan-yil davomida nikohga kirgan shaxslarning yosh tarkibini taqsimoti asosida hisoblab chiqiladi. Nikohlanish va u bilan bog‘liq ijtimoiy – demografik jarayonlarni tahlil qilishda kuyov va kelin yoshining o‘zaro nisbati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu omil oila shakllanishi, tug‘ilish darajasi hamda ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Umuman olganda, erkaklar va ayollarning nikohga kirish yoshi teng doirada farqlanadi.

Amaliyotla shunday nikohlar uchraydiki, ularda er xotinidan ancha katta yoki, aksincha, xotin eridan katta bo‘ladi. Biroq statistik jihatdan qralaganda, ko‘p hollarda erkak xotinidan o‘rtacha ikki – to‘rt yosh katta bo‘lishi kuzatiladi. Nikohga kirish yoshiga oid ma’lumotlar aholini ro‘yxatga olish jarayonlarda, tanlanma demografik tadqiqotlarda, shuningdek,demografik hodisalarning joriy hisobini yuritish ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlar nikohga kirishga turtki bo‘luvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni qayd etadi:muhabbat, qiziqishlar, umumiyligi, qisqa muddatli ishqibozlik yoki maftunlik, o‘zaro simpatiya, yolg‘izlik hissi, hamdardlik tuyg‘usi, tez orada farzandli bo‘lish ehtimoli, moddiy ahvolni yaxshilash istagi, yaqin munosabatlarni qonuniylashtirish niyati, ota – onalar bosimi, oila qurish istagi hamda farzandli bo‘lishga intilish va boshqalar.Mazkur omillar

shaxsning ijtimoiy muhiti, qadriyatlari va hayotiy maqsadlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.[9]

Ko‘plab davlatlar qonunchiligida nikohni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida nikoh shartnomasi (nikoh shartnomasi) tuzish imkoniyati nazarda tutilgan. Nikoh shartnomasi - kuyov va kelin o‘rtasida tuziladigan yozma kelishuv bo‘lib, unda toomnlarning mol - mulkini boshqarish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq o‘zaro huquq va majburiyatlari tartibga solinadi. Bu hujjat orqali er - xotinning mulkiy munosabatlari huquqiy jihatdan aniq belgilab qo‘yiladi.

Nikohlanish aholinning tug‘ilish darajasi, oila shakllanishini va oilaviy takribinnig o‘zgarishiga ta’sir kzrsatuvchi eng muhim demografik omillardan biri hisoblanadi. Nikohlanish jarayonini o‘lchashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar ichida nikoh koeffitsientlari eng keng tarqalgan hisoblanadi. Ular butun aholi orasida nikohga kirish intensivligini ifodalovchi umumiy nikoh koeffitsientlari hamda nikoh yoshiga yetgan muayyan guruhlar kesimida hisoblanadigan maxsus nikoh koeffitsientlariga bo‘linadi.

Nikohlilik koeffitsiyentining pasayishi (1000 kishi hisobiga) oldin ham sezilarli bo‘lgan, ammo o‘tgan asrning 90-yillarida bu “pasayish” sur’ati yanada kuchaydi. 2000-yillardan boshlab esa nikohlilik koeffitsiyentining oshish tendensiyasi kuzatiladi (6.1-jadval)

6.1-jadval

Nikohlilik va ajralishning umumiy koeffitsiyentlari((‰ hisobida)

Ko‘rsatkich	Yillar									
	1959	1961	1971	1981	1992	2000	2012	2018	2018	2024
Nikohlar	12,5	10,1	10,6	8,9	6,2	8,5	9,2	8,5	8,5	8,4
Ajralishlar	1,5	3,0	4,2	3,8	4,3	4,5	4,7	4,5	4,7	4,7

[9] Abduraxmonov Q.H. va boshqalar./ Zokirova N.K., Shoyusupova N.T., Gabzalilova V.T., Abduramanov X.X., Abduraxmanova G.K., Shakarov Z.G. Demografiya. Darslik. – T.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 364 b.

Nikohlilik koeffitsiyentining qisqarishi faqat tuzilayotgan nikohlar sonining kamayishi bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi o‘zgarishlar bilan ham izohlanadi(6.1-rasm)



6.1-rasm. Nikoh va ajralish koeffitsiyentlari dinamikasi

Aholining nikohlanish jarayoniga migratsiya ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Chunki migratsiya oqimlari natijasida ayrim hududlarda jinslar nisbatida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin, bu esa nikoh bozoridagi demografik muvozanatga ta’sir etadi. Shunigdek, mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy vaziyat ham nikohlanish darajasiga bevosita ta’si ko‘rsatadi. Turmush darajasining pastligi yoki iqtisodiy beqarorlik sharoitida ayrim shaxslar nikohni kechiktirishga majbur bo‘ladilar. Ba’zi hollarda esa rasmiy nikoh o‘rniga birga yashashning boshqa shakllari tanlanadi.

Jamiyaning barcha institutlari kabi oila ham jamiyat uchun muhim bo‘lgan muayyan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan qabulq ilingan me’yorlar va tartiblar tizimini ifoda etadi. Oilaning funksiyalari aksariyat jamiyatlarda deyarli o‘xshash bo‘lsada, ularni amalga oshiirsh shakllari turlicha va xilma – xildir. Har bir jamiyatda oilani tashkil etishning umumiy akli mavjud bo‘lsada, uning namoyon bo‘lishida muayyan o‘ziga xosliklar va xususiyatlar kuzatiladi. Oila ko‘p qirrali funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy tuzilma bo‘lib, uning vazifalarini

aniq bir tartibda to‘liq cheklab qo‘yish qiyin. Umuman olganda oila funksiyalarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:shaxsga yo‘naltirilgan funksiyalar va jamiyatga yo‘naltirilgan funksiyalar. Jumladan, oilaning xo‘jalik maishiy funksiyasi oilaviy munosabatalarning turli jihatlarini qamrab oladi. Bu uy xo‘jaligini yuritish, oilaviy byudjetni boshqarish, oilani tashkil etish va boshqarish, shuningdek, ayollar mehnati bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda ham yolning kasbiy faoliyati bilan uning oilaviy majburiyatlari – xotin, ona va uy bekasi rollari (taom tayyorlash, uyni tozalash, kir yuvish, kichik yoshdagi bolalar va qariyalarga qarash va boshqalar) o‘rtasida muayyan ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Jamiyatimizda ayol va erkakning oiladagi roliga oid an’anaviy qarashlar tarixan mustahkam o‘rin egallagan. So‘nggi-yillarda, ayniqsa, yoshlar orasida muayyan diniy qadriyatlarga qaytish tendensiyasi ta’sirida, ko‘plab ayollarning uydan tashqari faoliyati bilan bog‘liq rollari ma’lum darajada cheklanayotgani kuzatilmoqda.

Zamonaviy jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – shahar vva qishloq oilalarda erkaklar tomonidan o‘zaro zil bo‘lgan turli rollarning bajarilishi holatlarining uchrashi hisoblanadi. Ayrim erkaklar uchun oilada asosiy daromad manbai ayol bo‘lishi uyatli holat sifatida qabul qilinmaydi. Oilada an’anaviy ravishda erkakka xos bo‘lgan yetakchilik, moddiy ta’minot va javobgarlik funksiyalarining bunday o‘zgarishi ko‘pchilik erkaklarda salbiy munosabat uyg‘otmaydi, aksincha ayrimlari tomonidan ijobiy qvbul qilinadi. Shu bilan birga, boshqa bir guruh erkaklar esa muayyan diniy qarashlarga tayanib, ayollarning uydan tashqari mehnat faoliyati orqali oila farovonligini oshirishda ishtirok etishini mutlaqo qabul qilmaydi.

6.2.Oilaviy tuzilmaning rivojlanish tarixi

Oilaning rivojalnishi va o‘ziga xos muammolar turli sohalar olimlari diqqat markazida bo‘lib, bu oilaning xar bir shaxs xayotidagi alohida ahamiyati bilan bog‘liq. Oilaning tarixi va evolyusiyasini ilk bor o‘rganishga asos solgan shveysariyalik olim Iogann Baxofen hisoblanadi. U 1861-yilda “Materinskoe pravo” nomli asarini nashr

etgan. Baxofenning tadqiqotlariga koʻr, qadimiy xalqlarda nikoh va jinsiy munosabatlar tartibsiz (geterizm) boʻlib, atigi ona aniq maʼlum boʻlgan. Shu bois ona jamiyatda mmustahkam huquqiy va ijtimoiy mavqega ega boʻlib, baʼzi hollarda uning hokimiyati erkakning ustunligidan ham yuqori boʻlagn (ginekokratiya). Demak, "oatlik huquq"dan oldin "onalik huquqi" mavjud boʻlgan.

Qadimiy davrdagi qavm shaklidagi yashash (promiskuitet)dan keyin, inson jamiyat turli guruhli nikoh shaklalridan oʻtib, oxirida yagona nikoh (monogamiya)ga erishgan, deb hisoblaydi amerikalik tarixchi va etnograf Lyuis Morgan.

Birinchi shakli – qon -qarindoshlik asosida oila shakli boʻlib, u endogamiya (urugʻ ichidan nikoh) bilan tavsiflanadi va ota -ona bilan avlod orasida jinsiy munosabatlar taqiqlaydi. Ikkinchi shakli – guruhli nikohning arxaik shakli, yaʼni "punalua oilasi", bu shakldan ekzogamiya (uruqdan tashqari nikoh) va urugʻiy tashkilot tizimi rivojlangan boʻlib, unda aka – uklaar va singil – opalar nikohdan chetlanadi. Uchinchi shakli – juftlik oilasi, unda asosan onalik huquq ustuvorlik qilgan. Ushbu shakldan toʻrtinchi – patriarxal oila shakli shakllangan. Beshinchi shakl – hozirgi zamon monogam oilasi boʻlib, unda bir erkak va bir ayolning yagona birgalikda yashashi ustuvor hisoblanadi.

Inson tarixida Lyuis Morgan uch asrni ajratib koʻrsatgan:vaholatlik (dikost), balogʻatsizlik (varvarstvo) va sivilizatsiya. Unnig fikriga koʻra, monogam oila juftlik oilasidan rivojlanib, balohatsizlikning oʻrta va yuqori bosqichlari oʻrtasida paydo boʻlgan. Monogam oila juftlik nikohidan farq qilib, nikoh munosabatlarida ancha barqfarorlikka ega va erning ustuvorligi asosida tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi – aniq erdan tugʻilgan bolalarni rivojlantirsh, chunki bolalarning haqiqiy otasi aniq boʻlishi ularning ota mol – mulkini meros qilishi uchun zarur boʻlgan. Shu tariqa, erning oiladagi ustuvorligi va bolalarning aniq uning merosini olishi – yagona nikohning asosiy va mustaqil maqsadi hisoblangan.

Aholi taqsimoti va jtimoiy – psixologik qadriyatlar mezonlarini hisobga olgan taʼriflar orasida demograf A.G.Xarchevning bir necha-yil

avval bergan ta’rifi alohida e’tiborga molikdr. U oilani quyidagicha ta’riflaydi:Oila – bu nikohni yoki qarindoshlik aloqalari, umumiy turmush tarzi va o‘zaro ahloqiy majburiyatlar bilan bog‘langan a’zolariga ega kichik guruh sifatida, ham eng qadimiy, ham tarixiy aniq tizimdir. Uning ijtimoiy ahamiyati esa aholinnig jismoniy va ma’naviy ko‘paytirilishiga bo‘lagan jamiyat ehtiyoji bilan belgilanadi. Bu ta’rif oilani faqat tug‘ilish va avlodlarni davom ettirish omillari bilan emas, balki uning ijtimoiy, ahloqiy va madaniy funksiyalari bilan ham bog‘laydi.

Tanilgan demograf V.A.Borisovning fikriga ko‘ra, demografiya oila quyidagicha ta’riflanadi: oila – yuu qardoshlik yoki nikoh aloqalari bilan bog‘langan, birgalikda yashash va umumiy byudjetga ega bo‘lgan odamlar guruhi. Bu ta’rif oilaning asosiy ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini, ya’ni a’zolarinnig hamkorlikda yashashi va moliyaviy birlashuvini ta’kidlaydi.

Demografik ensiklopedik lug‘atda oila quyidagicha ta’riflanadi: oila – nikoh yoki qon – qarindoshlik asosida tashkil topgan, umumiy turmush va o‘zaro mas’uliyat bilan bog‘langan odamlar birlashmasi. Bu ta’rif oilaning asosiy ijtimoiy funksiyalarini – birgalikda yashash va a’zolarning o‘zaro mas’uliyatini alohida ta’kidlaydi.

An’anaviy jamiyatda deyarli barcha ehtiyojlarni qondirish oila bilan bog‘liq bo‘lgan. Qadimiy jamiyatlarda oila ko‘p funksiyali bo‘lib, biroq uning eng asosiy vazifasi aholini ko‘paytirish va avlodni davom ettirish hisoblanardi. Oila – bu yopiq organizm bo‘lib, jamiyatga faqat oila boshlig‘i hisobot berardi. Ko‘p asrlar davomida oilaviy klanga tegishli bo‘lmagan holda hayotda omon qolish ham amalda qiyin edi. Oilaviy jamiyatning farovonligi indivdual a’zolarning farovonligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. A’zolarnig harakatlarini nazorat qilish orqali oila ham ishlab chiqarish va iste’mol hujayrasi, ham bolalarni ijtimoiylashtirish instiutti sifatida xizmat qilgan.

Oila va urug‘li jamiyatga yo‘altirilgan bunday munosabat ko‘p farzandlik motivlarini kuchaytirgan, chunki oila a’zolari sonining ortishi uning farovonligini va iqtisodiy qudratiga bevosita ta’sir qiladi.

Bolalarni qisqa muddatda ijtimoiylashtirish, ularnnig kichik yoshdan boshlab uy ishlari va ishlab chiqarishda ishtirok etishi koʻp farzandlilikka boʻlgan ehtiyojni qoʻllab – quvvatlardi, chunki bolalarning foydasi xarajatlardan oshib ketardi. Vaqt oʻtgan sari ishlab chiqarish jarayoniga faol qoʻshilib, oila ishlash samaradorligi aniqlashtiriladi:oila qanchalik koʻp bolaga ega boʻlsa, shunchalik samaali oila yuritardi.

Oilaning uzluksiz mavjudligi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'sinlardi. Katta a'zolar esa qrilikda iqtisodiy qoʻllab – quvvatlashga muhtoj boʻlganligi sababli, oiladan kelasi avlodlarga bilim, koʻnikma va moliyaviy resurslarni muqvaffaqiyatli yetkazishga alohida e'tibor qaratadilar.

Shunday qilib, oial va uy – xoʻjalikka yoʻnaltirilgan hayot tizimida erkak va ayollarning ijtimoiy rollari qat'iy ajratilgan va bir – birini toʻldirgan. Koʻp farzandli oila faat iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy nuqtai nazardan ham samarali faoliyat yuritgan:bolalarnnig nikoh aloqalari oilaning jamoadagi maqomini mustahkamlab, ular orqali oila "nikoh almashinuvi"ni amalga oshirilib, qardoshlar sonini koʻpaytirgan. Oilaviy iqtisodiyot, qardoshlik aloqalaridagi hokimiyat, yer bilan uzluksiz bogʻliqlik, koʻp farzandlilik va avlodlar ustuvorligining ilgaridagi ahamiyati oilaning barqarorligini ta'minlagan.

Jamiyatning keyingi rivojlanishi eski oilaning iqtisodiy bazasini yoʻq qiladi va oilaviy munosabatlarini oʻzgartiradi. Katta korxonalarda ish haqi asosida mehnat paydo boʻlishi bilan oilaviy ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosiy va ustuvor elementi boʻlishini toʻxtatadi, shaharlashgan hududlarda esa iste'molchi turdagi oila shakli kengayib boradi. 20 asrda barcha qit'alarda oilaviy tuzilmalarda sodir boʻlgan aniq oʻzgarishlar koʻp farzandlikning ixtiyoriy kamayishi davriga oʻtish haqida gapirish imkonini beradi.

Oila jamiyat uchun bir qator muhim funksiyalar bajaradi:

- Reproduktiv funksiya – farzand tugʻish va avlodni davom ettirish;

- Tarbiyaviy funksiya – bolalarni tarbiyalash va ularning ahloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojini ta’minlash;
- Xo‘jalik – iqtisodiy funksiya – uy-xo‘jalikni tashkil qilish va a’zolarning moddiy ehtiyojlarini qondirish;
- Rektreativ funksiya – o‘zaro yordam, sog‘liqni saqlash va dam olishni tashkil etish;
- Kommunikativ va regulyativ funksiya – a’zolar o‘rtasida aloqa va munosabatlarni tartibga solish.

Oilaviy ijtimoiylashuv – bu jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va normalarga bolalarni jalb qilish jarayoni hisoblanadi. Bu tushuncha ikki qirrali:

1. Bolalarni kelajakdagi oilaviy rollarga tayyorlash;
2. Oilaning bolaning ijtimoiy qobiliyatli, mukammal shaxs sifatida shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri.

Bolaning oilaviy ijtimoiylashuvi uning oilaviy ehtiyojlari rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umumiy oilaviy muhit bolalarning oilaviy rollarni qabul qilish darajasi va kelajakda o‘z oilasiga ega bo‘lish istagiga bevosita ta’sir qiladi. Shaxsning xarakteri, oilada shakllangan umumiy madaniy saviyasi uning kelgusi nikohli hayotini aniqlaydi. Shu bois yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash har qanday faoliyatga tayyorlash darajasida jiddiy va mukammal amalga oshirilishi lozim.

Oilada turlicha tuzilma xos bo‘lib, u oila ichidagi barqarorlik aloqalar va munosabatlar bilan belgilanadi.Aholining oilaviy tuzilmasi oilalarni muayyan xususiyatlariga ko‘ra guruhlash orqali ifodalanadi:masalan, oila a’zolari soni, oiladagi bolalar soni, oila kattaligi va hokazo. Demogarfiyada odatda oilaning “yadrosi” sifatida oila jufti hisoblanadi va statistik tasniflashda oilaga bolalar, qardoshlar va kuyov-kelinning ota – onalari qo‘shilishiga qarab turli toifalar ajratiladi. Oilalar demografiyada quyidagicha guruhlantiriladi:

- kattaligi bo‘yicha;
- nikoh holati bo‘yicha;
- tuzilma va turlari bo‘yicha.

Oilaning o‘rtcha kattaligi oilada yashovchi a’zolar sonining umumiy soniga bo‘linishi orqali hisoblanadi.

Oilaviy tuzilmalar turlicha bo‘lib, ular nikoh, qardoshlik va ota g‘ onalik xususiyatlariga ko‘ra shakllanadi. Oilaning yadrosidagi nikohli shaxslar mavjduligiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- to‘la oila – ikki ota – onadan tashkil topgan;
- to‘liq bo‘lmagan oila – bir ota-ona bilan yashaydigan oila;

Nikoh shakliga ko‘ra oilalar quyidagicha ajratiladi:

- monogamiya – bir erkak bir vaqtning o‘zida faqat ayolga nikohlanadi;
- poligamiya – bir shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta nikohli sheriklarga ega.

Poligamiya turalirga:

- poliginiya – ko‘p xotinlilik (bir erkak bir vaqtda bir nechta ayolga nikohlanadi);
- poliandriya – ko‘p erkaklilik (bir ayol bir vaqtda bir nechta erkakka nikohlanadi) kiradi.

Qardoshlik aloqalari tuzilishi bo‘yicha oilalar turli tiplarga bo‘linadi:

- bitta nikohli juftlikli oilalar – bolali va bolasiz;
- bitta nikohli juftlikli oilalar – bollai va bolasiz, shuningdek, kuyov yoki kelinning ota – onalaridan biri yoki boshqa qarindoshlari bilan;
- bir ota – ona bilan oilalar – bolali;
- bir ota – ona bilan oilalar – bolali va boshqa qarindoshlar bilan;
- boshqa turdagi oilalar;
- barcha oilalar umumiy hisobda.

Oilaning demografik tiplari tuzilmasi haqida ma’lumot faqat aholini ro‘yxatga olish natijalari orqali olinadi, chunki ko‘pgina mamlakatlarda oila a’zolari tarkibidagi o‘zgarishlarni joriy hisobga olish yo‘q.

Hozirgi zamon shaharlashgan aglomeratsiyalarida eng keng tarqalgan oila turi – oddiy yoki nuklear oila (lotincha – nukleus –

yadro)). Bu ikki avloddan oddiy oila bo‘lib, unda nikohli juftlik (yoki bir ota-ona) va bollar yoki yo‘q bo‘lishi mumkin. Shahar aholisida nuklear oilalar barcha oilalarnig 60%ni tashkil qiladi. Shu bilan birga ota yoki ona va bolalardan ttshkil topgan oilalarnnig ulushi oshib bormoqda.

Ayrim Yevropa mamlakatlari va AQShda rasmiy bo‘lmagan nikohlar soni tez sur’at bilanortmoqda, bu avvalo, talbalar orasida keng tarqalgan. Shu bilan birga bugungi kunda notug‘ri “fuqarolik nikohi” deb atalagan g‘amxuo‘rlik shakli o‘rta va katta yoshdagi orasida ham keng tarqalmoqda.

Shu bilan birga hohishi bo‘yicha yolg‘iz yashashni tanlaydiganlar soni ham oshib bormoqda. AQShning ayrim mualliflariga ko‘ra, inson zaruratsiz oila qurmasligi mumkin, chunki hayotdagi barcha mamnunliklarni oila va bolalarga bog‘liq qarz va xarajatlarsiz ham olish mumkin. Ba’zi mamlakatlarda nikohli tug‘ilish darajasi uzluksiz pasayishi kuzatilayotgani qayd etiladi.

Shu bilan birga, nikohdan tashqari tug‘ilish darajasi ham oshibb ormoqda va bu bilan yangi tug‘ilgan bolalar orasida nikohsiz tug‘ilganlar ulushi ham ortib bormoqda. Bu ayniqsa Skandinaviya, Avstriya va AQShda sezilarli. Hozirda shu kabi tendensiyalar hududlarda kuzatilib borilmoqda. Bu jarayonlarga umuman davlatlar qonunchiligi va har bir mamlakatga xos ijtimoiy – demografik siyosat choralari – masalan, yolg‘iz onalarga beriladigan imtiyozlar, moddiy yordam va shu kabi tashabbuslar – ta’sir ko‘rsatishi aniq ko‘rinadi.

Oilaning tuzilmasi bo‘yicha unioddiy va murakkab qilib ajratish mumkin.

Kengaytirilgan (murakkab) oila – bu ikki va undan ortiq nuklear oilalarni umumiy uy xo‘jalikda birlashtirib, uch va undan ortiq avloddan iborat bo‘lgan oiladir: bu avlodlar – bub obo-buvilar, ota – onalar va bolalardir.

Farzandlar soni bo‘yicha oilalar quyidagicha tasniflanadi:

- kam farzandli oila – ikki va undan kam bolali;
- o‘rtacha farzandli oila – uch – to‘rt bolali;
- ko‘p farzandli oila – besh va undan ortiq bolali.

Oiladagi hokimiyat jihatidan oilalar quyidagicha ajratiladi:

- avtoritar tuzilma – xotin erga qat’iy bo‘ysunishga majbur;
- demokratik tuzilma – roli shaxsiy sifatlarga ko‘ra erkin taqsimlanadi.

Oila haqidagi barcha statistik ma’ulmotlarning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- aholini ro‘yxatga olish;
- mikroro‘yxatlar;
- ijtimoiy-demografik so‘rovlar (tanlov asosida);
- aholinnig tabiiy harakati bo‘yicha joriy hisobot ma’lumotlari.

Uy – xo‘jalik – bu ijtimoiy – iqtisodiy hujayra bo‘lib, u odamlarni birgalikla yashash va xo‘jalik yuritish jihatdan birlashtiradi.

Oilaning a’zolari orasida qardoshlik yoki nikoh aloqalari bo‘lishi shart bo‘lsa, uy-xo‘jalikda bunday cheklov yo‘q. Uy-xo‘jalik bir shaxsdan iborat bo‘lishi, birgalikda yashaydigan birnechta shaxsdan iborat bo‘lishi mumkin, ular qardosh yoki noturarlik aloqalariga ega bo‘lishi mumkin va hatto ikkalasi ham birlashtirilishi mumkin – daromadlarni birlashtirib, umumiy xo‘jalikni olib borishadi.

BMTning aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha tavsiyalariga ko‘ra uy-xo‘jalik tushunchasi asosan turmush tarziga tayanadi, unda a’zolar o‘zlarini oziq – ovqat va hayot uchun zaruri ehtiyojlar bilan ta’minlaydi, asosan iste’molchi hujayra sifatida. Uy – xo‘jalik bir yoki bir nesta oilalardan iborat bo‘lishi mumkin.

Uy-xo‘jaliknnig belgisi sifatida ba’zi hollarda birgalikda ovqatlanish, boshqa hollarda birgalikda yashash kabi jihatlari qabul qilinadi. Tushuncha ta’riflaridagi farqlar ayrim mamlakatlar bo‘yicha ma’lumotlarni solishtirishni qiyinlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda uy-xo‘jalik odatda bitta oiladan iborat bo‘lib, unda noturarlar bo‘lmaydi. Demografiyada esa odatda uy-xo‘jalik ham qardoshlardan iborat oilaviy tarkib sifatida qaraladi.

Nikohdan so‘ng oila rivojlanib, bir qator bosqichlardan o‘tadi va shular orqali uning hayot sikli shakllanadi. Oilaning rivojlanish jarayoni birbosqichdan ikkinchi bosqichga uzluksiz o‘tadi va oilalarni turlarga taqsimlash rivojlanishning turli bosqichlariga muvofiq bo‘ladi.

Har bir ayrim paytda aholinnig yosh – jins va nikoh tuzilishi ztmish va hozirgi demografik jarayonlar ta’siri ostida bo‘ladi. Oilaning rivojlanishi va shakllanishi jarayoniga tug‘ilish va o‘lim darjasi, nikoh va ajrashish holatlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Uyg‘unlikdagi oilaning tashkil topishi va tarqalishi jarayoni aholini ko‘paytirish bilan bog‘liq barcha demografik jarayonlar bilan uzviy bog‘langan.

Ajrashish nikohning nikohli juftlik hayotligi davomida tugatilishi hisoblanadi. Bir kuyov yoki kelin arizasiga ko‘ra nikoh sud orqali bekor qilinadi, agar sud tomonidan juftliknnig birgalikda yashashi va oilaning saqlanishi imkonsiz ekanligi aniqlansa. Nikoh bekor qilinganda sud majburiyatli ravishda malakali emas, bolalar va mehnat qila olmaydigan nikohli sherikning manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘rish kerak. Shuningdek, sud bolalar kimda qolishi va ularning parvarishi uchun qancha miqdorda aliment to‘lanishi aniqlaydi.

Nikoh rasman bekor qilingan hisobalandi, qachonki nikohni bekor qilish haqidagi hujjatni fuqarolik holatlari qayd ettirilgansa. Demografiyada nikohning aniq bekor qilinishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu sobiq juftlarning nikohli holatini o‘zgartiradi. Bu ularning keyingi nikohga kirishi va tug‘ilish darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ajrashish holati – bu nikohning bekor qilinishi (ajrashish) natijasida nikohli juftlikning tarqalishi jarayonidir. Nikohlilik, eri vafot etishi va ajrashish holatlari birgalikda aholinnig nikoh tuzilishi va uning rivojlanish jarayonini shakllantiruvchi demografik jarayonni tashkil etadi.

Ajrashish holati bu murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, uning darajasi ko‘p omillarga bog‘liq:

- mamlakatda ayolning jamiyatdagi mavqei;
- mamlakatga xos ijtimoiy va madaniy normalar;
- oilaning turmush tarzi;
- nikohni bekor qilish qonunchiligi;
- diniy qarashlar;
- nikoh davomiyligi.

Shahar aholisida ajrashish koʻrsatkichi qishloqqa nisbatan yuqori boʻladi. Ajrashish ehtimoli shuningdek, juftlarning yoshiga bogʻliq boʻlib, yoshlikda koʻproq, yosh oʻtgan sari kamayadi, shunigdek, oiladagi bolalarning borligi va soniga ham bogʻliq.

6.2-jadval

Oʻzbekistonda ruyxatga olingan ajralishlar soni

Yillar	Har 1000 kishiga ajralishlar
1940	0,9
1950	0,5
1960	1,5
1970	3,0
1980	4,2
1990	3,8
2000	4,3
2010	4,5
2014	4,7
2024	4,4

Jadval maʼlumotlari shuni koʻrsatadiki, ajralishlar koʻrsatkichi 1940-1980-yillar oraligʻida sezilarli oʻsib borgan, 1990-yillarda biroz pasayib, keyinchalik yana oshib, 2014-yilda 4.7 promillegacha yetgan. 20204-yilga kelib bu koʻrsatkich 4.4 promille atrofida shakillangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Nikoh va oila tushunchalari jamiyat tartkibida qanday oʻn tutadi?
2. Oila ijtimoiy institut sifatida qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Ajralish darajasi jamiyatga qanday taʼsir koʻrsatadi?
4. Oila barqarorligiga taʼsir qiluvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
5. Anʼanaviy va zamonaviy oila oʻrtasidagi farqlar nimada?

6. Gender rollari oilada qanday shakllanadi?
7. Ijtimoiylashuv jarayonida oilaning roli qanday?
8. Migratsiya oilaviy munosabatlarga qanday ta’sir qiladi?
9. Oilaviy qadriyatlar qay tariqa o‘zgarmoqda?
10. Nikoh yoshining o‘zgarishi jamiyat taraqqiyotiga ta’siri qanday?

VII BOB. O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

7.1.Aholining soni va yosh tarkibi dinamikasi.

7.2. Migratsiya jarayonlarining asosiy tushunchalari va zamonaviy tendentsiyalari.

Tayanch so‘zlar: aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, migratsiya, urbanizatsiya, aholi zichligi, yosh tarkibi, jinsiy tarkibi, mehnat resurslari, nikoh.

7.1.Aholining soni va yosh tarkibi dinamikasi.

Statistika aholini ikki asosiy yo‘nalishda o‘rganadi:ijtimoyi kategoriya sifatida, ya’ni muayyan hudduda yashovchi shaxslar majmuasi sifatida, hamda iqtisodiy kategoriya sifatida, ya’ni ishlab chiqarish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida bo‘ladi. Aholi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar davalt tomonidan tartibga solish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ular turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini aniqlash, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va boshqa ijtimoiy – iqtisodiy sohalarni samarali tashkil etishda keng qo‘llaniladi.

Aholi statistikasi quyidagi asosiy vazifalarni hal etadi:

- mamlakat aholisi soninin aniqlash va uning huddular bo‘yicha joylashuvini beliglash;
- aholi tarkibini (yosh,jins, ijtimoiy va boshqa xususiyatlark yesimida) tavsiflash;
- aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini, ya’ni tabiiy harakatini (tug‘ilish,o‘lim va tabiiy o‘sish) tadqiq etish;
- aholining mexanik harakatini (migratsion jarayonlarini) hisobga olish va tahlil qilish;
- aholining istiqboldagi sonini prognozlash;
- demografik jarayonlarni statitstik hisobga olish va tahlil qilish usullarini ishlab chiqish.

2026-yil 1-yanvar holatiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 38 236,7 ming nafarni tashkil etgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga oʻsganini anglatadi. 2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida tirik tugʻilganlar soni 879,6 ming nafarni, vafot etganlar soni esa 177,1 ming nafarni tashkil etdi. Natijada tabiiy oʻsish 702,5 ming nafarga teng boʻlgan.



7.1-rasm. 2026-yil 1 yanvar holatiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasining aholi tarkibi

Xalqaro migratsiya koʻrsatkichlariga koʻra, xorijiy davlatlardan kelganlar soni 1159 nafarni tashkil etgan boʻlsa, chet elga chiqib ketganlar soni 10117 nafarni tashkil topgan. Shuningdek, hisobot davrida 267,1 mingta nikoh qayd etilgan va 46,9 mingta ajralish holatlari rasmiy roʻyxatga olingan.

7.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining doimoy aholi soni, ming kishida

	2025-yil	2026-yil	O‘sish sur’ati, %
O‘zbekiston Respublikasi	**37 543,2**	**38 236,7**	**101,8**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 029,7	2 053,2	101,2
Viloyatlar:			
Andijon viloyati	3 461,0	3 521,8	101,8
Buxoro viloyati	2 077,0	2 107,0	101,4
Jizzax viloyati	1 537,6	1 566,9	101,9
Qashqadaryo viloyati	3 639,3	3 717,0	102,1
Navoiy viloyati	1 094,7	1 111,9	101,6
Namangan viloyati	3 131,7	3 190,8	101,9
Samarqand viloyati	4 297,5	4 379,8	101,9
Surxondaryo viloyati	2 945,5	3 011,0	102,2
Sirdaryo viloyati	930,8	946,3	101,7
Toshkent viloyati	3 108,5	3 160,7	101,7
Farg‘ona viloyati	4 144,7	4 223,0	101,9
Xorazm viloyati	2 032,4	2 069,2	101,8
Toshkent shahri	3 112,8	3 178,1	102,1

2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mamlakat bo‘yicha aholi zichligi har bir kvadrat kilometriga 85,2 nafarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning shu davriga nisbatan 1,6 nafarga oshgan.

2025-yil yanvar-dekabr oylari tirik tug‘ilishlar soni 879,6 ming nafarni tashkil etgan bo‘lib, tug‘ilish koeffitsienti har 1000 aholiga nisbatan 23,2 promilleni tashkil qildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan joriy-yilda tug‘ilganlar soni 46,8 ming nafarga kamaygan. Shu davr mobaynida qayd etilgan o‘lim holatlari soni 177,1 ming nafarni tashkil etdi va o‘lim koeffitsienti har 1000 aholiga 4,7 promille bo‘lgan. 2024-yilning shu davriga nisbatan joriy-yilda vafot etganlar soni 2,7 ming nafarni oshgan.



7.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Aholi zichligi (1 kv.kmga,kishi).



7.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilish va o‘lim, ming kishida

Ko‘rib chiqilayotgan davrda respublika bo‘yicha jami tirik tug‘ilganlar soni 879,6 ming nafarni tashkil etdi. Shulardan o‘g‘il bolalar 454,7 nafar (jami tug‘ilganlarnig 51,7 foizi), qiz bolalar esa 424,9 ming nafar (48,3 foiz)ni tashkil etgan. Hududiy kesimda shahar joylarda 419,5 ming nafar (47,7 foiz), qishloq joylarda esa 460,1ming nafar (52,3 foiz) bolalar tug‘ilgan. Shu davrda Respublika bo‘yicha jami vafot etganlar soni 177,1 ming nafarni tashkil etdi. Ulardan 97,5 ming nafari erkaklar (jami o‘lganlarning 55,1 foiz), 79,6 ming nafari ayollar (44,9foiz)ni tashkil qiladi. Hududiy jihatdan shahar joylarda 95,7 ming nafar (54,1 foiz), qishloq joylarda esa 81,4 ming nafar (45,9 foiz) vafot etgan.



7.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2025-yilda tug‘ilganlar va vafot etganlarning jinslar kesimidagi taqsimoti, ming kishi

2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida tug‘ilishlar sonini tahlil qilish natijasida quyidagi taqsimot aniqlangan:bir nafar bola tug‘ilishi 96,7 foizni (859065 nafar), ikki nafar bola tug‘ilishi 2,3 foizni (19976 nafar), uch nafar va undan ortiq bola tug‘ilishi esa 0,1 foizni (558 nafar) tashkil etgan.

7.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilganlar, vafot etganlar va tabiiy o‘sish (kishi)

Hududlar	**Tug‘ilganlar**	**Vafot etganlar**	**Tabiiy o‘sish**
O‘zbekiston Respublikasi	**879 599**	**177 104**	**702 495**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	39 277	10 400	28 877
Andijon viloyati	79 672	16 948	62 724
Buxoro viloyati	43 654	9 394	34 260
Jizzax viloyati	37 393	6 294	31 099
Qashqadaryo viloyati	99 656	15 637	84 019
Navoiy viloyati	24 127	4 781	19 346
Namangan viloyati	75 689	14 379	61 310
Samarqand viloyati	106 266	19 670	86 596
Surxondaryo viloyati	81 885	12 891	68 994
Sirdaryo viloyati	21 042	4 624	16 418
Toshkent viloyati	64 245	16 984	47 261
Farg‘ona viloyati	98 319	18 695	79 624
Xorazm viloyati	46 056	9 481	36 575
Toshkent shahri	62 318	16 926	45 392

Hududlar kesimida eng yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari Samarqand viloyatida – 106 266 nafar (jami tug‘ilganlarning 12,1 foizi), Qashqadaryo viloyatida – 99 656 nafar (11,3 foiz), Farg‘ona viloyatida – 98 319 nafar (11,2 foiz) va Surxondaryo viloyatida – 81 885 nafar (9,3 foiz) qayd etilgan. Eng past ko‘rsatkichlar esa Sirdaryo viloyatida – 21 042 nafar (2,4 foiz), Navoiy viloyatida – 24 127 nafar (2,7 foiz), Jizzax viloyatida – 37 393 nafar (4,2 foiz) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 39 277 nafar (4,5 foiz) qayd etilgan.

O‘lim holatlari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand viloyatida – 19 670 nafar (jami vafot etganlarning 11,1 foizi), Farg‘ona viloyatida – 18 695 nafar (10,6 foiz), Toshkent viloyatida – 16 984 nafar (9,6 foiz) va Andijon viloyatida – 16 948 nafar (9,6 foiz) qayd etilgan. Eng past o‘lim ko‘rsatkichlari Sirdaryo viloyatida – 4 624 nafar (2,6 foiz), Navoiy viloyatida – 4 781 nafar (2,7 foiz), Jizzax viloyatida – 6 294 nafar (3,5 foiz) va Buxoro viloyatida – 9 394 nafar (5,3 foiz) kuzatilgan.

Tabiiy o‘sish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand viloyatida – 86 596 nafar (jami tabiiy o‘sishning 12,3 foizi), Qashqadaryo viloyatida – 84 019 nafar (12,0 foiz), Farg‘ona viloyatida – 79 624 nafar (11,3 foiz) va Surxondaryo viloyatida – 68 994 nafar (9,8 foiz) qayd etilgan. Eng past tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari Sirdaryo viloyatida – 16 418 nafar (2,4 foiz), Navoiy viloyatida – 19 346 nafar (2,8 foiz), Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 28 877 nafar (4,1 foiz) va Jizzax viloyatida – 31 099 nafar (4,4 foiz) qayd etilgan.

7.2. Migratsiya jarayonlarining asosiy tushunchalari va zamonaviy tendentsiyalari.

Migratsiya – bu insonlarnnig muayyan hududlar orasida yashash joyini doimiy yoki nisbatan uzoq muddatli ravishda o‘zgartirish jarayonidir.Migrant – bu doimiy yashash joyini doimiy yoki uzoq muddatli ravishda o‘zgartirib, muayyan hududlar orasida harakat qilayotgan shaxsdir. Aholi migratsiyasi- bu murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, u iqtisodiy tuzilma va ishlab chiqarish kuchlari taqsimoti

oʻzgarishi, aholidagi ijtimoiy va mehnat mobilligi oshishi bilan yaqin bogʻliqdir. Chegaralariga koʻra migratsiya quyidagicha ajratiladi:

- tashqi migratsiya – davlat chegaralari oʻtilganda;
- ichki migratsiya – mamlaka ichida hududlar orasida koʻchish.

Tashqi migratsiya, ya'ni davlat chegarasini kesib oʻtish bilan bogʻliq koʻchishlar doirasida \migratsiya va immigratsiya tushunchalari qoʻllaniladi.

Emigratsiya – bu shaxsnnig boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun koʻchib ketishi boʻlib, koʻpincha oʻzgartirish bilan bogʻliq boʻladi.Immigratsiya esa oʻz navbatida bu chet el fuqarolarinnig muayyan mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun kirib kelishidir. U koʻp hollarda yangi fuqarolik qabul qilish bilan bogʻliq boʻladi.

Migratsiya toʻgʻrisida qaror qabul qilishda insonlarga ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir koʻrsatadi. Ob'ektiv omillarga hududning geografik joylashuvi va tabiiy sharoiti, yerlarnnig oʻzlashtirilganlik darajasi, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy vaziyat, aholinnig yosh – jins va etnik tarkibi, ish haqi darajasi, imtiyozlar va boshqa omillar kiradi.

Ayniqsa, ijtimoiy – iqtisodiy barqarorlik, yashash sharoitlari hamda aholinnig ish bilan ta'minlanganlik darajasi migratsiya qarorlariga hal qiluvchi ta'sir koʻrsatadi.Bir hududda, bir xil sharoitda yashaydigan odamlar ham mazkur omillarni turlicha qabul qiladilar va oʻz migratsion xulq – atvori boʻyicha turlicha qarorlar qabul qiladilar. Aynan shu individual qabul qilish, baholash va shaxsiy munosabat bilan bogʻliq omillar sub'ektiv yoki psixologik migratsiya omillari deb ataladi. Ular shaxsning qadriyatlari,ehtiyojlari,intilishlari va xavfsizlikka boʻlgan munosabati bilan uzviy bogʻliqdir.

Aholi migratsiyasini oʻrganishda muayyan hududga kelganlar soni oʻrtacha soni, ya'ni kelish koeffitsienti, hamda hududdan ketganlar oʻrtacha soni – ketish koeffitsienti (1000 nafar aholiga nisbatan) hisoblanadi. Ma'lum bir davr mobaynida kelganlar va ketganlar soni oʻrtasidagi farq, "-", "+" ishorasi bilan ifodalanib, sof migratsion, netto-migratsiya yoki migratsiya saldosi deb ataladi. Kelish va ketish koeffitsientlari oʻrtasidagi farq esa migratsion saldosi koeffitsienti (yoki

sof migratsiya koeffitsienti) hisobalanadi. Tashqi va ichki migratsiya saldosi farqlanadi:u ijobiy, manfiy yoki nolga teng bo‘lishi mumkin. Migratsiya samaradorligi esa muayyan hududga kelgan har 1000 nafar shaxsga nisbatan ketganlar soni orqali ifodalandi. Migratsiya koeffitsientlari alohida hududlarda migratsiya jarayonlarinnig intensivligini baholash imkonini beradi hamda vaqt va makon bo‘yicha taqqoslashda qo‘llaniladi.

Aholinnig turli guruhlar – yosh-jins, ijtimoiy,kasbiy,etnik va boshqalar – migarsion harakatchanlik darajasi jihatidan bir xil emas. Ushbu farqlarni o‘rganish umumiy migratsiya intensivligida yuz berayotgan o‘zgarshlarni anglash va uni prognoz qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Demografik xususiyatlar – yosh-jins tarkibi, nikoh holati, oiladagi bolalar soni va ularning yoshi kabi omillar - migratsion jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa shartlar teng bo‘lgan holda, aholi tarkibida eng harakatchan yosh guruhlari ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, umumiy migratsion faollik ham shunchalik baland bo‘ladi. Jinsga qarab ham harakatchanlik ko‘rsatkichlari faq qiladi. Ayniksa, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va yoshlar yuqori migratsion faollikka ega. Odatda, migrantlar orasida nikohsiz erkaklar ulushi nisbatan yuqori bo‘ladi. Tez – tez ko‘chib yurish tug‘ilishlarni kechiktirishga, oxir – oqibat esa bolalar soni kmayishigaolib keladi. Shu tariqa, migratsiya aholini takror barpo etish jarayonlarinnnig intensivligiga ta’sir ko‘rsatib, aholi soni va uning tarkibini bevosita o‘zgartiradi. Ayniksa, aholining yosh – jins tarkibida yuz beradigan o‘zgarishlar katta ahamiyatga ega. Bu o‘zgarishlar migratsiyaning yosh va jins bo‘yicha farqli (differensial) xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, muayyan huddudlarda mehnatga layoqatli yoshdagilar yoki erkaklar/ayollar ulushinnig o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Agar, ko‘p hollarda kuzatilganidek, migrantlar orasida erkaklar ustunlik qilsa va asosiy ulush 16 – 30 yoshli mehnatga layoqatli yosh guruhlargia to‘g‘ri kelsa, jinslar nisbatida nomutanosiblik yuzaga keladi. Hamda aholinnig tabiiy yosh tarkibi buziladi. Natijada, aholi chiqib ketayotgan hududlarda eng serfarzand yoshdagilar ulushi kamayadi, qabul qiluvchi huddularda esa aksincha ortib boradi.

Jinlar nisbatidagi bunday disproporsiya nikoh tuzish jarayonini qiyinlashtiradi va bu o‘z navbatida aholinnig tabiiy harakati ko‘rsatkichlariga tasir qiladi. Iqib ketish huddularida tug‘ilish darajasi pasayadi va umumiy o‘lim koeffitsinti ortishi mumkin. Shuningdek, migratsiya migrantlarning sog‘lig‘iga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolidan holi emas, chunki yangi muhitga moslashish qiyinchiliklari ular orasida o‘lim darajasining oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Epidemiyalar va urushlar migratsiya jaaryonlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, urushlar natijasida aholi yo‘qotishlari qator salbiy demografik oqibatlariga olib keladi. Bunday oqibatlar qatoriga aholi soninning qisqarishi, yosh – jins tarkibining o‘zgarishi, tug‘ilish va nikohlanish darajalarining pasayishi, shuningdek, o‘lim va kasallanish ko‘rsatkichlarinning oshishi kiradi. Urush va epidemiyalar natijasida yuzaga kelgan majburiy ko‘chishlar esa aholining hududiy joylashuvida ham jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

Migratsiya o‘rganish usullari – bu aholining mexanik harakatini, unig omillari va ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga qaratilgan maxsus ilmiy yondashuvlar majmuasidir. Ulara sosan ikki gurug‘ga bo‘linadi:

- statistik usullar – migratsiya hajmi, yo‘alishi va intensivligini raqamli ma’lumotlar asosida tahlil qilish;
- sotsiologik usullar – so‘rovlar, intervlar va boshqa tadqiqot vositalari orqali migratsiya qarorlarinnig sabablari va ijtimoiy – psixologik omillarni o‘rganish.

Mazkur usullar birgalikda qo‘llanilganda migratsiya jarayonlarinning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Statistik usullar migrantlarning ketish va kelish joylarida ro‘yxatga olishga asoslanadi. Ushbu usullar yordamida migrantlarning tarkibi, kelganar va ketganlar soni, shunigdek, migratsiyaning aniq yo‘nalishlari aniqlanadi. Statistik tahlilorqali qishloq hududlaridan shg‘arlarga ko‘chish,ichki va tashqi migratsiya jarayonlari o‘rganiladi. Shuningdek, aholinnig muayyan joyda qancha muddat yashaganligi, ya’ni migratsion faollik darajasi ham aniqlanadi. Bunday yondashuv migratsiyaning miqdoriy ko‘rsatkichlarini baholash va hududlar kesimida taqqoslash imkonini beradi.

Sotsiologik usullar orqali aholi migratsiyasining mexanizmi va uni g‘arakatga keltiruvchi kuchlar aniqlanadi. Nazariy usullar, ya’i migratsiya haqida ma’lumot to‘plash, odtda bir marotabalik xarakterga ega bo‘ladi. Ammo muayyan hududadagi migratsiya tendensiyalari va dinamikasini aniqlash uchun takroriy tadqiqot usullaridan foydalanish talab etiladi. Bu yondoshuv migratsiya jarayonlarinnig ijtimoiy sabablarini chuqurroq tushunish va kelajakdagi harakatlarini prognoz qilish imkonini beradi.

Hozirgi zamon migratsiya tendensiyalari shag‘arlarda yuqori demografik bosimni yuzaga keltiradi, bu esa ko‘pincha yetarli infratuzilmasizlik va maxdud turar – joy resurslari bilan bog‘liq. Bunga qo‘shimcha qilib, migrantlar uchun yangi muhitga moslashish qiyinchiligi, ish o‘rinlari yetishmasligi va mahalliy aholi blian cheklangan ijtimoiy imtiyozlar uchun rafobat kabi muammolar ham qo‘shiladi. Hozirgi kunda aholi migratsiyasi muammosi butun dunyoda jiddiylashgan. Migratsiya – eng murakkab demografik jarayonlardan biri, chunki aholinnig migratsion xulq – atvori ko‘plab xalqaro, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi.

2025-yil 1-oktyabr holatiga taxminan 2 million nafar fuqarolarimiz chet elda yashagan, shundan 1.6 million nafari ishlayotganlar. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda chet eldan kelgan pul oqimi 18.9 milliard dollarni tashkil etgan.

Migratsiya bo‘yicha prezidentimizning PF-59-son Farmoni va PF-162-son Farmoni Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish, fuqarolarni xorijda qonuniy ishga joylashtirish, ularning huquqlarini himoya qilish, oldindan tayyorlash va xorijdagi vakolarxonalar faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan.

Davlatlar metodologiyasida shakllangan an’anaga ko‘ra, migratsiya turlari migrantlarnnig kelish joyidagi yashash davri va xususan xususiyatlari bilan belgilanadi. Asosiy migrayiya turlari quyidagilardan iborat:

- epizodik migratsiya – qisqa muddatli,kayfiyatga bog‘liq ko‘chishlar;

- tebranuvchi migratsiya – doimiy yashash joyini o‘zgartirmay,ish yoki ta’lim maqsadida qaytarma ko‘chishlar;
- mavsumiy migratsiya –-yil davomida beliglangan mavsumga bog‘liq ko‘chishlar;
- qaytarib bshlmaydigan igratsiya – doimiy yashash uchun boshqa hududdga ko‘chish;
- majburiy migratsiya – turli sharoitlar, masalan, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki falokatlar tufayli ko‘chib yurish;
- qonuniy bo‘lmagan migratsiya – ruxsatnoma yoki zarur hujjatlarsiz ko‘chib yurish;
- zo‘ravonlik bilan bog‘liq migratsiya – urushi, qurolli to‘qnashuvlar yoki bosqinlar tufayli yuzaga keladi;
- jinoyatga bog‘liq migratsiya – qonun buzilish yoki kriminal faoliyat tufayli ko‘chishlar. Bu turlar migratsiyani tahlil qilishda uning sabablari va xarakterini aniqlash imkonini beradi.

Epizodik migratsiyalar – bu ish,turistik,dam olish va shunga o‘xshash safarlar bo‘lib, ularda doimiy yoki muntazam vaqt davri yo‘q. Hajm jihatdan u boshqa turlardan kattaroq bo‘lsada, demografik ahamiyatida larga nisbatan sezilarli darajada qoladi. Hozirgi kunda bu tur migratsiya, chet elga turistik safarlardan tashqari ancha sust o‘rganilgan.

Tebranuvchi migratsiya – bu aholinnig yashash joyidan ish yoki ta’lim maskanlariga va orqaga har kuni yoki har haftali muntazam safarlari. Ularning asosiy yo‘nalishlari qishloqdan shaharga va kichik shahardan katta shaharga bo‘linadi. Katta shaharlarnnig atrof hududlarida, shuningdek urbanizatsiyalashgan qishloqlarda va o‘rta va kichik shaharlar atrofida tebranish migratsiya sezilarli darajada kuzatiladi. Bunday migratsiyaning barqaror zonalari ko‘pincha transport infratuzilmasining rivojlanishiga bog‘liq. Uning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- shaharlarda mexnat resurslarini shakllantirish manbai (katta shaharlardagi mehnat talabinnig qariyib 20% tebranuvchi migratsiya hisobiga qoplanadi);

- yuqori malakali kadrlarnnig samaradorlgini past malakali xodmlar bilan to‘ldirish orqali oshiradi;
- katta shaharlarnnig madaniy va iqtisodiy ta’sir doirasini kenagytiradi, qishloq aholisini shahar hayoti va ijtimoiy mobillikka jalb qiladi;
- kasb va faoliyat turlarini kengroq tanlash imkonini beradi;
- shahar va qishloq elementlarini birlashtirgan yangi turar-joy shakllarini rivojlanishiga yordam beradi.

O‘z navbatida salbiy tomonlari bo‘sh vaqtnnig samarasiz sarflanishi va ishga orqaga safarlar uzoqligi “transport charchashi”ga olib keladi, bu esa mehnat samaradorligining pasayishiga sabab bshladi.

Mavsumiy migratsiya – bu asosan iqtisody faol aholinnig vaqtinchalik ish va yashash joylariga bir necha oylik ko‘chishlari bo‘lib, ular doimiy yashash joyiga qaytish imkoniyati bilan amalga oshiriladi. Uning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- mavsumiy migrantlar o‘zlariga doimiy yashash joyidagi daromaddan ko‘ra ko‘proq foyda olish imkoniga ega bo‘ladilar;
- bu tur migratsiya ishchi kuchi yetishmasligi seziladigan ishlab chiqarish ehtiyojini qoplaydi;
- mavsumiy ko‘chishlar alohida huddular iqtisodiyotiga hos,vaqt bo‘yicha turlicha talab bo‘lgan tarmoqlar bilan bog‘liq.

Uning asosiy tarmoqlari qishloq xo‘jaligi (yozgi ekish va terim mavsumlarida ishchi kuchi talabinnig yuqoriligi),qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qayta ishlash, baliqchilik, tog‘-kon metallurgiya tarmoqlaridan iboart. Mavsumiy migratsiya nafaqat ishchi kuchi masalasini hal qiladi, balki iqtisodiy faollikni muayyan vaqtlarga muvofiqlashtirishga ham xizmat qiladi.

Qaytishsiz migratsiya – migratsiyani tor ma’noda tuo‘unish bo‘lib, u aholining makon doirasidagi umumiy harakatidan farq qiladi va asosan doimiy qo‘chish bilan bog‘liq bo‘ladi. Unig asosiy shartlari aholi bir yashash joyidan boshqa yashash joyiga ko‘chishi, ko‘chish doimiy yashash joyini o‘zgartirish bilan birga, so‘nggi-yillarda ko‘pincha fuqarolikni ham o‘zgartirishni o‘z ichiga olishlaridan iborat. Qaytishsiz migshratsiyaning hajmi va intensivligi ko‘plab omillarga

bog‘liq bo‘lib, asosiylari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa omillardan iborat.

Majuriy migratsiya – bu zamonaviy migratsiya turlaridan biri bo‘lib, aholinnig ko‘chishii ularning hohishiga qarshi va ularga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlar tufayli amalga oshishi bilan ajralib turadi. Uning sababalari tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar,iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy netolerantlik, shu jumladan fuqarolik to‘qnashuvlari va mintaqaviy urushlar, siyosiy vaziyat o‘zgarishlari va turli ijtimoiy gurug‘lar hamda organlari o‘rtasidagi ziddiyatlari, turli qurolli mojarolar, inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi,birlik davlat makonining vayron bo‘lishidan iborat. Majburiy migratsiyayada aholi o‘z ixtiyoriga ko‘ra emas, balki xavf va bosimlar tufayli ko‘chishga majbur bo‘ladi.Bularga qochqinlar, majburiy ko‘chirilgan aholi, majburiy joyidan ayrilgan shaxslar va panoh izlayotgan shaxslar kiradi. Erkin ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiriladigan migratsiyadan farqli o‘laroq, majburiy ko‘chishlar aniq siyosiy mazmunda va majburiy xarakterga ega bo‘ladi.

Noqonuniy migratsiya – tashqi migshratsiyannig alohida turi bo‘lib, bu mehnat izlab boshqa mamlakatga chiqadigan shaxslar bo‘lib, bevosita noqonuniy yo‘l bilan, qonuniy yo‘l asosda kirib, keyin noqonuniy maqom va mehnat faoliyatiga o‘tadi.

Aholi migratsiyasining funksiyalari – bu migratsiyaning xamiyat hayotida bajaradigan rollaridir. Funksiyalar migratsiyaning mohiyatini va xosiyatlarini aks ettiradi, ular ijtiomiy-iqtisodjiy tizim turiga va alohida jamiyatlar xususiyatlariga bog‘liq emas, ammo ularning amalga oshirilishi ko‘p jihatjan aniq davlatlarning ijtimoiy – iqtisody sharoitlariga bog‘liqdir.

Migratsiya funksiyasinnig birinchi turi – aholi sonini qayta taqsimlanishi. Bu funksiya mamlakatning turli hududlari, tabiiy zonalari, qishloq va shahar mahallalalri o‘rtasida ishlab chiqarish quvvatlari va investitsiyalarni taqsimlash bilan bog‘liq. Qayta taqsimlanishning aossiy xususiyati – uning huddulararo tabiati, chunki ko‘chib o‘tish uchun kamida ikki mintaqaning aholisi o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi lozim. Qayta taqsimlovchi funksiyani

amalga oshirar ekan, migratsiya muayyan hududlarda aholi sonini koʻpaytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Migrantlar ishlab chqiarish jarayonida ishtirok etgani uchun aholi sonini oʻzgartirishda migratsiya aholinnig oʻzidagi ulushidan ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qayta taqsimlovchi funksiya migrantlarga oʻz hayotiy maqsadalirni amalag oshirishda yordam beradi:koʻchib oʻtish orqali insonlar hayotini yaxshilashga intiladilar. Bu jihatdan migratsiya migrantlar hayot darajasini oshirishga qaratilgan integratsiya jarayonini aks ettiradi. Odatda, koʻchib kelgan migrantlar yangi joylarda oʻzlari uchun chiqish hududdian koʻra yuqori hayot darajasini taʼminlanadilar.

Ikkinchi funksiyasi selektiv funksiya deb nomlanib, turli ijtimoiy-demografik guruhlarning migratsiyada ishtirok etishi hisoblanmagan boʻlishi hududlarda aholinnig sifat tarkibini oʻzgartirishiga olib keladi. Tajriba koʻrsatadiki, erkaklar va mehnat qobiliyatiga ega yoshlar migratsiyada faolroq ishtirok etadilar, norahbar va ayollar esa kamroq boʻladi. Shuningdek, turli millat va milliy guruhlar, shuningdek, mahalliy va yaqinda boshqa joydan koʻchib kelgan aholi migratsiyada turlicha faollik koʻrsatadi.

Uchinchi funksiya tezlashtiruvchi, yaʼni aholining koʻchishining tezlashuvi, territorial harakatlar inosnlarning ijtimiy-psixologik xususiyatlarini oʻzgartirishga, qarashlarini kengaytirishga,hayotning turli sohalari haqda bilim toʻplashga, mehnat koʻnikmalari va ishlab chiqarish tajribasini almashishga yordamga beradi. Bu jarayon shaxs rivojlanishi, uningmodddiy, ijtimoiy va maʼnaviy ehtyojlarini qondirish va milliy madaniyatlarni integratsiya qilishda muhimdir. Koʻproq koʻchib oʻtgan aholi odatda ijtimoiy faol boʻladi. Axborot va taʼlim darajasi aholining ijtimoiy rivojlanish darajasini koʻrsatuvchi aossiy koʻrsatkich boʻlib, uning harakat tezligini oshirish bilan bogʻliq boʻladi.

Yuqorida koʻrsatilgan migratsiyaning koʻrsatilgan funksiyalari mustaqil xususiyatga ega boʻlsada, ular oʻzaro bir biriga chambarchas bogʻlangan. Aholining hududiy qayta taqsimlanishi va uning jihatidan tarkibidagi oʻzgarishlar faqat tegishli darajadagi harkatchanlik boʻlganda amalga oshiriladi. Aholinnig soni boʻyicha qayta taqsimlanishi baʼzi huddullarda migrantlar oqimiga bogʻliq ravishda

sifat jihatidan o‘zgarishi bilan ham, hammasiz ham yuz berishi mumkin. Shunday qilib, saylangan migrantlar orqali hududlarda migratsiya almashuvi miqdori nisbatan kichik bo‘lsa ham, aholi tarkibi sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga, aholinnig chiqishi va kirishi hududdagi tarkibning yangilashga va migratsiya faoliyatinnig zsishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Harakatchanlikni oshirish uchun funksiyasi, hududiy qayta taqsimlanish va selektiv funksiya turli xil migratsiya turlarida turlicha namoyon bo‘ladi.

7.3-jadval

Migratsiya turlari va ularga ta’sir qiluvchi omillar.

Omillarning turlari	**Migratsiyaning omillari**
Ob’ektiv omillar	
Ekologik-geografik	Hududiy geografik joylashuvi, tabiiy – ilimiy sharoitlari, tabiiy ofatlar va stixiyali falokatlar
Etnikli	Aholinnig etnik tarkibi, xalqaro munosbaatlar va etnik mojarolar, etnik deportatsiya, etnik meg‘nat taqsimoti, madaniy hukronlik, diniy holat
Harbiy - siyosiy	Harbiy harakatlar, davlat chegaradarinnig o‘zgarishi, evakuatsiya zaruriyati
Iqtisodiy	Hududni o‘zlashtirish, ijtimoiy -kasbiy mobillik, bandlik va ish o‘rinlarining mavjudligi,daromad darajasi,tadbirkorlik tashabbusni amalga oshirish
Ijtimoiy	Jinoyatchilik darajasi, migrantlarnnig moslashuvchanligi, ijtimoiy himoya darajasi, inson huquqlari va kollektiv huquqlari, migratsiya siyosati, taxlimga kirish imkoniyati,turmush sharoitlari,ijtimoiy maqomning o‘zgarishi
Demografik	Aholi yosh tarkibi, jins tarkibi, oilaviy tarkib
Sub’ektiv (psixologik) omillar	
Etnopsixologik	Etnik o‘z-o‘zini anglash, migrantdagi etnik stereotiplar, deportatsiya bilan bog‘liq o‘tmishdagi psixik tarvmalar, etnik dinga amal qilish istagi, etnik vataniga qaytish istagi, oila a’zolari va tanishlari bilan muloqot qilish istagi, ona tilida so‘zlashish istagi.
Siyosiy psixologik	O‘zini asrab qolish hissi, boshqa davlatda yashash istagi
Iqtisodiy psixologik	Ishdan qoniqish, daromad darajasidan qoniqish
Ijtimoiy psixologik	Ta’xlim olish imkoniyati, xavfsizlik hissi, migrantlarning atrof muhitga moslashuvchanligi va muvaffaqiyatliligi,ijtimoiy himoyalanganlik hissi, resurslar va manfaatlarga kirish imkoniyati, trmush sharoitlardan qoniqish, ro‘yxatdan o‘tish va propiska

	olish imkoniyati, saylov huquqini, mulk huquqini amalga oshirish,ijtimoiy maqomni o‘zgartirish istagi
Demografik psixologik	Jins va yoshga oid harakatchanlik xususiyatlari, oilaviy migratsiyaga bo‘lgan munosabat va qarashlar.

Migratsiyaning sabablari va omillari salbiy (surib chiqaruvchi) va ijobiy (jalb etuvchi) omillariga bo‘linadi. Qaysi omil migratsiya harakatiga aniq ta’sir ko‘rsatganini belgilash ancha murakkab. Birinchi bosqichda, bir tomondan, ko‘chib o‘tishga moyillikni shakllantiruvchi omillar (surib chiqaruvchi) hamda ikkinchi tomondan, inson qaysi mamlakat yoki hududga ko‘chib o‘tishini aniqlaydigan omillar (jalb etuvchi) birgalikda ishglaydi. Agar ko‘chib o‘tish qarorini qabul qilishda birinchi tur omillari ustunlik qilsa, (“qaerga bo‘lsa ham ketaman, faqat bu yerda qolmaslik uchun), migratsiya asosan surib chiqaruvchi omillar ta’sirida bo‘ladi. Agar aniq hududga ko‘chib o‘tish ehtiyoji ustunlik qilsa (hech narsaga qaramay, aynan o‘sha joyga ketaman), hal qiluvchi ta’sir jalb etuvchi omillarga tegishli bo‘ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. O‘zbekistonda aholi sonining o‘sishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
2. Tug‘ilish va o‘lim darajasi demografik rivojlanishda qanday o‘rin tutadi?
3. Tabiiy o‘sish ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi va uning mazmuni nimadan iborat?
4. O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari demografik tarkibga qanday ta’sir qiladi?
5. Urbanizatsiya jarayoni deganda nima tushuniladi?
6. Aholining yosh tarkibi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida nimaga muhim hisoblanadi?
7. Jinsiy tarkibdagi nisbatlar demografik tahlilda qanday ahamiyat kasb etadi?
8. Demografik yuklama tushunchasi nimani bildiradi va u qanday hisoblanadi?
9. Nikoh va oila munosabatlari demografik rivojlanishga qanday ta’sir etadi?

VIII BOB. INSON TARAQQIYOTINING IJTIMOIY VA DEMOGRAFIK XAVFLARI

8.1. Inson salohiyati va inson kapitali.
8.2.Demografik muhitni shakllantirishdagi xatarlar.

Tayanch so‘zlar: inson taraqqiyoti, ijtimoiy xavf, demografik xavf, qashshoqlik, ishsizlik, migratsiya, urbanizatsiya, aholi qarishi, tug‘ilish, ta’lim sifati, hayot sifati.

8.1. Inson salohiyati va inson kapitali.

“Inson kapitali” tushunchasi bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmoqda. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va keng tarqalishi natijasida xodimlarning malakasi hamda ta’limi iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarining ichki, ajralmas unsunlari sifatila baholana boshladi. Ushbu nazariyaning tarixiy tahlili unnig ildizlari klassik siyosiy iqtisodchi namoyondalarinnig asarlarida, shuningdek, o‘tmishda faoliyat yuritgan ko‘plab mashhur iqtisodchilarning ilmiy ishlarida mujassam ekanligini ko‘rsatadi.

8.1-jadval

G‘arb va mahalliy iqtisodchilar tomonidan “inson kapitali” tushunchasining tahlili.

Mualliflar	“Inson kapitali” tushunchasining izohlari
T.Shuls	“Barcha inson resurslari va qobiliyatlari tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi. Har bir inson uning tug‘ma insoiy salohiyatini belgilab beruvchi o‘ziga hos genlar majmuasi bilan dunyoga keladi. Inson tomonidan hayot davomida egallagan va tegishli sarmoyalar orqali yanada rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan qimmatli sifatlar esa inson kapitali deb ataladi.
G.Bekker	“Inson kapitali insonga yo‘naltirilgan investitsiyalar hisobiga shakllanadi. Bunday investitsiyalar qatoriga ta’lim olish, ishlab chiqarish jarayonida kasbiy tayyorgarlikdan o‘tish, sog‘liqni saqlashga sarf - xarajatlar, migratsiya, shuningdek, narxlar va daromadlar to‘g‘risida axborot izlash bilan bog‘liq harajatlar kiradi.
L.Turou	Inson kapitali shaxs egallagan ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi ko‘nikmalar, qobiliyatlar va bilimlar majmuasi sifatida ta’riflanada hamda u tomonidan yaratilgan tovar

	va xizmatlar umumiy hajmining bozor qiymati orqali baholanadi.
E.Dolan J.Lindsey	Inson kapitali – rasmiy ta’lim yoki o‘quv jarayoni orqali, shuningdek, amaliy tajriba natijasida shakllangan aqliy qobiliyatlar ko‘rinishidagi kapitalidir.
B.Kili	Inson kapitali – bu shaxsning tug‘ma iste’dod va qobiliyatlari hamda ta’lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonida orttirilgan bilim va ko‘nikmalarining kompleks uyg‘unlashuvidir.
M.M.Kritskiy	Insonk apitali – bu inson hayot faoliyatinning umumiy va ayni paytda aniq – tarixiy shakli bo‘lib, u o‘zidan oldingi – iste’mol va ishlab chiqarishga xos shakllarini o‘zlashtiriladi. Mazkur shakllar mos ravishda o‘zlashtiruvchi va ishlab chiqaruvchi xo‘jalik davrlariga tegishli bo‘ladi. Inson kapitali esa inson jamiyatinnig o‘z tarixiy taraqqiyot jarayonida hozirgi holatigacha yetib kelishining yakuniy natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.
A.I.Dobrinin S.A.Dyatlov Ye.D.Sirenova	Inson kapitali – bu investitsiyalar natijasida shakllangan va inson tomonidan jamg‘arilgan sog‘liq, bilim, ko‘nikma, qobiliyat hamda motivatsiya zahirasidir. U xodim malakasining oshishiga olib keladi, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning muayyan sohalarida maqsadga muvofiq ravishda qo‘llaniladi, meg‘nat unumdorligi va sifati o‘sishiga xizmat qiladi hamda shu orqali mazkur shaxsning daromadlari ko‘payishini ta’minlaydi.
R.I.Kapelyushnikov	Inson kapitali – bu har bir shaxs egallagan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar zahirasi bo‘lib, ular ishlab chiqarish jaaryonlarida ham, iste’mol maqsadlarida ham qo‘llanilishi mumkin. U “insoniy”dir, chunki u inson shaxsiyatida mujassamlashgan, u “kapital”dir, chunki u kelgusida daromadlar yoki qoniqish manbai, yoki har ikkisining birgalikdagi manbi sifatida namoyon bo‘ladi.
S.A.Kurganskiy	Inson kapitali – bu investitsiyalar natijasida shakllangan va shaxslar tomonidan jamg‘arilgan bilim, ko‘nikma va boshqa sifatlar zag‘irasi bo‘lib, ular maqsadga muvofiq qo‘llanilganda yangi qiymat va daromad oqimini yaratadi.

Milliy hisobotlar tizimiga oid amaldagi metodologiya muvofiq, “inson kapitali” quyidagi sabablarga ko‘ra kapital aktivlar qatoiga kiritilmaydi:

- u moddiy shaklga ega emas;
- Uni egallash mumkin emas (individlarda mujassamlashgan bilim va ko‘nikmalar bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tkazilmaydi va

ular ishlayotgan korxonalar balanslarida aks ettirilmaydi);

- uni o‘lchash qiyin;
- u moliyaviy hisobotalarda aks ettiriladigan standart transaksiyalar bilan bog‘liq konvensiyalar va institutlar bilan muvofiq kelmaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va hisob – kitoblar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyotda insons alohiyatini rivojlantirishga qilingan investitsiyalar boshqa barcha yo‘nalishlar va foydalanish sohalari bilan solishtirganda eng samarali hisoblanadi.

Inson salohiyati paradigmasi inson kapitali paradigmasidan farq qiladi:bu yerda utilitar va pragmatik yondashuvlarga qaraganda gumanistik tamoyillar ustunlik qiladi va ta’limni modernizatsiya qilish dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqishda madaniy – tarixiy, ijtimoiy madaniy va madaniy psixologik omillarga nisbtana yuqori sezgirlik ko‘rsatadi.

Inson kapitali atamasidan inson salohiyati atamasiga o‘tishda dunyoqarashdagi o‘zgarishlar, shuningdek, inson va uning rivojlanishiga bo‘lgan yondashuvdagi farqlar mujassam. Qayd etish joizk, inson salohiyati tushunchasi aniq shaklda na mahalliy, na chet ellik olimlar ilmiy ishlarida keng qo‘llaniladi.

Ushbu tushuncha 20 asrda pado bo‘lgan, chunki iqtisodiy jarayonlarning aksariyatida sub’ektiv inson omilining muhim roli aniq ko‘rinib qoldi. Shu bois, “inson salohiyati” tushunchasi dastlab iqtisodiyot fanining doirasida shakllangan deyishm umkin va u “mehnat salohiyati”, “mehnat resurslari”, “ishchi kuchi” kabi tushunchalarning mantiqiy davomi sifatida paydo bo‘lgan. Bu mantiqiylik, avvalo, ishlab chiqarishda inson omilining, xususan, aholi sifat ko‘rsatkichlarining ahamiyati ortishi bilan bog‘liqdir.



8.1-rasm.”Inson salohiyati” tushunchasining rivojlanish tarixi.

“Mehnat resurslari” tushunchasi faat ishga layoqatli aholi sonini

aks ettiruvchi miqdoriy xarakterga ega bo‘lsa, “mehnat salohiyati” tushunchasi esa ma’lum ijtimoiy – iqtisodiy sifat bilan namoyon bo‘ladigan ishchi kuchini ifodalaydi. I.S.Maslova ta’rifiga ko‘ra:”Shaxsiy mehnat salohiyati – bu insonning integrallikdagi ish qobiliyatini ko‘rsaktuvchi ko‘rsatkich bo‘lib, u uning sifatlarinnig organik uyg‘unligidan kelib chiqadi, va bu aholi, mehnat resurslari, umumiy ishchi va jamiyat a’zosi sifatidagi rolidan hosil bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, mehnat salohiyati aholi ishlab chiqarish qobiliyatida namoyon bo‘ladi:insonlarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokning miqdoriy va sifatli xususiyatlaridan iborat.[10]

Ikkala tushunchaning – “mehnat resurslari” va “mehnat salohiyati”ning o‘ziga xos jihati shundaki, ular faqat mamlakatning iqtisodiy faol aholisi bilan cheklangan. Shuningdek, “mehnat salohiyati” – bu inson salog‘iyati kabi kengroq kategoriyaning faqat bir kichik subtizimidir. Shu bois ham mehnat salohiyati va inson salohiyati o‘rtasidagi asosiy farq quyidagicha:

- mehnat salohiyati – ishga layoqatli aholi va uning ishlab chiqarishga qobiliyati bilan bog‘liq;
- Inson salohiyati – barcha aholini, shu jumladan ishga layoqatsizlarni ham qamrab oladi, shuningdek, barcha qobiliyatlarni, shu jumladan, ishlab chiqarish biln bog‘liq bo‘lmaganlarini ham o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun, mehnat salohiyatining amalga oshirish sohasini faqat ish faoliyati (ishlab chiqarish) tashkil etsa, inson salohiyati nafaqat ish faoliyatini, balki dam olish, iste’mol qilish va shaxslararo munosabatlarni ham qamrab oladi.

Boshqacha kilib aytganda, iqtisodiyot fanida “inson salohiyati” tushunchasi paydo bo‘lishi bilan yangi kategoriya .zaga keladi. U insonlarning to‘g‘ridan – to‘g‘ri va bilvosita ishlab chiqarish qobiliyatlarini hamda eg‘tiyojlarini aks ettiradi:aholi iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokining miqdoriy va sifatli xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

[10] Abdurahmanov X.X., A.B.Xayitov. Demografik tahlil. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 268 b.

Agar inson salohiyatini iqtisodiyot bilan cheklanmagan, umumiy nuqtai nazardan qaralsa, quyidagicha ta’rif berish mumkin: inson salohiyati – bu insonning qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari va shaxsiy xususiyatlari yoig‘indimi bo‘lib, ular ishlab chiqarish faoliyatida amaliy qo‘llaniladimi yoki kelajakda qo‘llanilishi mumkin bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar baholanadi.

Ikkala ta’rifning farqi quyidagicha:

- iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson salohiyati faqat aholi xususiyatlarining shularni qamrab oladi va baholaydi, ular ijtimoiy – iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va ishlab chiqarish jarayonlarini belgilashga xizmat qiladi;
- umumiy nuqtai nazardan inson salohiyati esa barcha qobiliyatlar, ehtiyojlar, dam olish, shaxslararo munosabatlarini o‘z ichiga oladi, ya’ni iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishidan qat’iy nazar, butun aholini miqdoriy va sifatli xususiyatlari bilan qamrab oladi.

Yuqoridagilar kelib chiqib xulosa qilsak:

1.Mehnat resurslari tushunchasi ishga layoqatli aholi sonini aks ettiruvchi miqdoriy xarakterga ega;

2.Mehnat salohiyati ishga layoqatli aholi ishlab chiqarish qobiliyatlarini va ish faoliyatini qo‘llab – quvvatlovchi sifatlarni o‘z ichiga oladi.

3. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson salohiyati barcha aholi (shu jumladan ishga layoqatsizlar) ishlab chiqarish, iste’mol va boshqa qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi, ular reproduktiv jarayonlarning samardorligini oshirishga xizmat qladi. Masalan, iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson salohiyati doirasida bollarni qarovchi buvisi ham o‘rganiladi:u iqtisodiy faoliyatda ishtirok etmasa ham, ota – onalarga ish faoliyatiga vaqt ajratish imkonini berad va shu orqali bilvosita iqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi.

4.Umumiy nuqtai nazardan inson salohiyati insonning barcha qobiliyatlari, ko‘nikmalari va iste’dodlarini o‘z ichiga oladi, ularni ishlab chiqarishidan yoki iqtisodiy ta’siridan qat’iy nazar baholaydi. Masalan, shu kategoriya doirasida o‘z foydasini ko‘zlamay, shaxsiy qiziqish uchun rasm chizayotgan noma’lum rassom kiradi. Umuman

olganda, bu kategoriya insonning barcha faoliyatini, jumladan, dam olish va shaxslararo munosabtlarini ham qamrab oladi.

5.Mehnat resurslari kategoriyasi miqdoriy xarakterga ega bo‘lsa, keyingi kategoriyalar – mehnat va inson salohiyati - sifatli xarakterga ega. Shaxslar, uy xo‘jaliklar, tumanlar yoki mamlakatlar bo‘yicha mehnat va inson salohiyatini o‘rganishga sifatli ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, ularning miqdoriy xarakteri ham olinadi.

Yuqoridagi barcha ijtimoiy kategoriyalarga bo‘lgan munosabatimizda kuzatiladigan jarayon – bu induksiya, ya’ni xususiy kategoriyalardan umumiy kategoriyalarga ko‘tarilish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan, insons alohiyati eng umumiy kategoriya hisoblanadi. Uning tarkibiga, jumladan, iqtisodiyot uchn inosn salohiyati ham kiradi. Iqtisodiyot uchun inson salohiyati o‘z navbatida mehnat salohiyati va iste’mol salohiyatini qamrab oladi. Demak, mazkur tushunchalar o‘rtasida ierarxik bog‘liqlik mavjud bo‘lib, har bir keyingi bosqich avvalgisinnig kengaytirilgan va umumlashtirilgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson salohiyati tushunchasini chuqurroq anglash uchun ushbu atamaning etimologiyasgia murojaat etamiz: ”salohiyat” so‘zi lotincha potentia so‘zidan kelib chiqib, “kuch”, “qudrat” ma’nosini anglatadi. Izohli lug‘atlarga ko‘ra, salohiyat - bu muayyan vazifani hal etish yoki beliglangan maqsadga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zahiralardir. Shunigdek, u muayyan alohida shaxs, jamiyat yoki davlatning imkoniyatlarini ham anglatadi. Ko‘rinib turinibdiki, “salohiyat” tushunchasining ta’rifi muayyan maqsad mavjudligini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, inson salohiyati – bu ma’lum bir sohada beliglangan maqsadga erishishga xizmat qiluvchi inson skoniyatlari va xususyatlari majmuasidir. Demak, iqtisodiyot inson salohiyati, fan inson salohiyati, madaniyat yoki san’at inson salohiyati haqida gapirish mumkin. Biroq inson salohiyatini umumiy ma’noda ta’rifdash muayyan qiyinchilik tug‘diradi, chunki bu holatda barcha sohalar uchun yagona va umumiy maqsadni beligalsh talab etiladi. Bu holatda shuni ta’kidlash lozimki, imkoniyat va sifat o‘zaro bog‘liq tushunchalaridir. Ya’ni aholining sifat

koʻrsatkichlari uning faoliyat yuritish va muayyan yutuqlarga eoishish imkoniyatlari sifatida qaraladi. Faoliyat turiga qarab iqtisodiy, ilmiy, madaniy va boshqa salohiyatlar haqida soʻz yuritish mumkin. Umumiy maʼnoda esa inson salohiyati aholinining turli faoliyatini amalga oshirish, oʻz ehtiyoj va intilishlarini qondirish imkonini beruvchi sifatlari majmuasini anglatadi.

“Inson salohiyati” (shuningdek, “mehnat salohiyati”) tushunchasi gʻarb ilmiy tafakkurida mavjud emas. Horijiy ilmiy adabiyotlarda asosan human resourse (inson resurslari) va manpower (mehnat resurslari) atamalari qoʻllaniladi. “Inson resurslari” atamasi “mehnat resurslari” tushunchasining oʻrnini egallab, ishchi kuchi (mehnat qilish qobiliyati) bilan shaxs oʻrtasidagi chegaraning asta sekin yoʻqolib borishini ifoda etadi. Shu bilan birga, ushbu atamalar mazmun jihatidan umumlashtirish darajasi va qamrov kengligi boʻyicha mahalliy ilmiy adabiyotlarda qoʻllaniladigan “inson salohiyati” tushunchasining umumiy maʼnodagi mazmuniga toʻliq mos kelmaydi. Yaʼni, “inson salohiyati” tushunchasi insonning barcha imkoniyatlari va sifat xususiyatlarini keng qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Shaxsiy moliyalar – bu aniq shaxsning mustaqil faoliyati natijasida shakllanadigan koʻrsatkichdir. Ushbu faoliyat davomida uning inson kapitali amalga oshiriladi.

Inson kapitali – bu muayyan faoliyat turi uchun bilim, koʻnikm, mahoarti va shaxsiy qobiliyatlar majmuasi boʻlib, u shaxsga daromad olishni taʼminlaydi.

Inson kapitali shakllanishi jamiyatnnig barcha qatlamlari uchun ahamiyatli, chunki zamonaviy sharoitlarda u taraqqiyotning aossiy zahirasi hisoblanadi. Maʼlum bir individning bilim, qobiliyat va koʻnikmalarini oshirish unnig daromadini maksimallashtirishning zaruriy shartidir. Inson salohiyati va inson kapitali oʻrtasidashi oʻzaro bogʻliqlik 1 rasmda aks ettirilgan.



8.2-rasm. Inson salohiyati va inson kapitali o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

Inson kapitali tuzilishida biologik va ijtimoiy tuzilmalar ajratiladi.8.3-rasm.



8.3-rasm.Inson kapitali tuzilishi.

Inson kapitali bu muayyan shaxsga ta’lim va kasbiy rivojlanishiga kiritilgan investitsiyalar yig‘indisi sifatda ta’riflanadi.

Inson kapitali quyidagi klassifikatsiyaga ega (rasm):

1.Shaxsiy (individual) inson kapitali – har bir shaxsning bilim, ko‘nikma va qobiliyatidir.

2.Korxonaning inson kapitali – korxona xodimlarinnig umumiy bilimi va malakasi;

3.Milily inson kapitali – butun mamlakat aholisinnig bilim va malakasi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun asos.



8.4-rasm. Inson kapitalining turlari.

Inson kapitali samaradorlik darajasiga ko‘ra ishlab chiqarish omili sifatida quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1.Salbiy (buzuvchi) inson kapitali – ishlab chiqarish jarayonida zarar yoki samarasizlik keltiruvchi bilim va qobilityalar;

2.Ijobiy (yaratuvchi) inson kapitali – samaradorlikni oshiradi va qiymat yaratadigan bilim va qobiliyatdir.

Bu ikki tomon o‘rtasida esa samaradorlik darajasi bo‘yicha oraliq holatlar va ularga mos inson kapitali komponentlari mavjud.

Ijobiy inson kapitali – bu jamg‘arilgan inson kapitali bo‘lib, u rivojlanish va o‘sish jarayonlariga kiritilgan investitsiyalardan foyda keltirishni ta’minlaydi. Xususan, aholi hayoti sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan sarmoyalardan ham samara olinadi.

Salbiy inson kapitali – bu jamg‘arilgan inson kapitalining shu qismi bo‘lib, jamiyat va iqtisodiyot uchun investitsiyalardan foyda keltirmaydi, aholi hayoti sifati va shaxs hamda jamiyat rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi. Har qanday tarbiya va ta’limga kiritilgan investitsiya inson kapitalini oshirib, samara keltirmaydi.

Passiv (faoliyatsiz) inson kapitali – bu inson kapitali bo‘lib, u mamlakat rivoji jarayolariga yoki innovatsion iqtisodiyotga hissa qo‘shmaydi va asosan shaxsning moddiy iste’moliga yo‘naltiriladi.

Shu tariqa, inson kapitali quyidagicha xususiyatlarga ega:

- bilim, qobiliyat, ishchi va boshqaruv ko‘nikmalari shaklida namoyon bo‘ladi;
- moddiy charchashga duch kelmaydi;
- yig‘iladi va uzluksiz rivojlanadi;
- muayyan shaxsga investitsiya qilinadi.

Inson kapitali shaxsning moliyaviy aktivlarini shakllantirishda asosiy element hisoblanadi.

Xavf jamiyati – zamonaviy jamiyat taraqqiyot bosqichin ifodalovchi ijtimoiy tushunch bo‘lib, u yerda asosiy muammo boylik ishlab chiqarish emas, balki ishlab chiqarligan va yaratilgan xavflarni boshqarish masaalsiga aylanadi. Ushbu konsepsiya nemis sotsiologi Ulrich Bek tomonidan ilgari surilgan va uning mashhur asari Risk Societyda asoslab berilgan.

Xavf jamiyatinig asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Sun’iy (inson tomonidan yaratilgan) xavflar ustunligi – ekologik muammolar, texnogen falokatlar, yadroviy tahdidlar.
2. Global xarakter – xavflar milliy chegaralarni tan olmaydi.
3. Noaniqlik va beqarorlikning ortishi – idmiy -texnik taraqqiyot yangi imkoniyatlar bilan birga yangi tahdidlarni ham keltirib chiqarad.
4. Ijtimoiy tengsizlikning yangi shakllari – xavflarni boshqarish imkoniyati jamiyat qatlamlari o‘rtasida turlicha taqsimlanadi. Agar

industrial jamiyat boylik ishlab chiqarishga yoo‘naltirilgan bo‘lsa, xavf jamiyatda asosan e’tibor xavflarni kamaytirish, prognozlash va boshqarishga qaratiladi.

Inson kapitali – bu bilim, malaka, sog‘liq va kasbiy ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘lib, u iqtisodiy qiymat yaratish imkonini beradi. Xavf jamiyati sharoitida esa inson kapitali oddiy ishlab chiqarish omilidan ko‘ra kengroq ahamiyat kasb etadi. Yuqori malakali va tanqidiy fikrlay oladigan kadrlar xavflarni tahlil qilish, prognozlash va samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, ekologik muammolarni hal qilish, raqamli xavfsizlikni ta’minlash yoki pandemiya kabi inqirozlarga qarshi kurashish bevosita inson kapitali sifatiga bog‘liq. Demak, xavf jamiyatida inson kapitali iqtisodiy o‘sishning emas, balki xavfsiz va barqaror rivojlanishning asosiy shartiga alanadi. Biroq xavf jamiyatini faqat inson kapitali orqali tushuntirish yetarli emas. Bu yerda inson salohiyati tushunchasi yanada muhim ahamiyatga kasb etadi. Insons alohiyati insonning barcha qobiliyatlari, ijtimoiy faolligi, madaniy va ahloqiy sifatlarini qamrab oladi. Xavf jamiyatida shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, madaniy ongi va psixologik barqarorligi katta ahamiyatga ega. Chunki global xavflar sharoitida jamiyatning jipsligi, o‘zaro ishonch va hamjihatlik darajasi hal qiluvchi omilga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson kapitali xavflari boshqarishning amaliy vositasi bo‘lsa, inson salohiyati ularni anglash va ularga ma’naviy – ijtimoiy javob qaytarishsh imkoniyatini ta’minlaydi. Birinchisi bilim va ko‘nikmalar orqali amaliy yechimlar taklif etsa, ikkinchisi jamiyatning qadriyatlari va dunyoqarashini shakllantiradi.

Xavf jamiyati sharoitida inson kapitali va inson salohiyati strategik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning yuqori darajada rivojlangani nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki jamiyatning xavfsizligi, barqarorligi va kelajak avlodlar uchun munosib sharoit yaratilishini ta’minlaydi. Zamonaviy jamiyatda insonga kiritilgan investitsiyalar - eg muhim va uzoq muddatli xavfsizlik kafolatidir.

8.2.Demografik muhitni shakllantirishdagi xatarlar.

“Hozirgi rivojlangan davlatlarda jamiyatda bolikning yaratilishi doimiy ravishda turli xil xavf – xatarlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq”[11]. U.Bekning fikriga ko‘ra, modernizatsiya jarayonida ishlab chiqarish quvvatlari rivojlanishi bilan birga insonning jismoniy barqarorligiga tahdid soluvchi omillar ham ortib boradi. Inson salohiyatini rivojlantirishdagi xavf – xatarlar manbalari nafaqat texnogen omillar, balki iqtisodiy, demografik, etnik, ijtimoiy kabi turli jamiyat tizimlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlardan ham kelib chiqishi mumkin.

Zamonaviy adabiyotlarda demografik xavfsizlik “inson avlodlarinnig hayot jarayoni va doimiy tabiiy yangilanishi jarayonini himoya qilish” sifatida tushuniladi. L.L.Rqbakovskiynining fikriga ko‘ra, demografik xavfsizlik shunday holat sifatida qaralishi mumkinki, jhdemografik jarayonlar aholi miqdorini o‘z – o‘zidan ko‘paytirish uchun yetarli bo‘ladi, tashqi omillar ta’siridan qat’iy nazar va davlatning geosiyosiy manfaatlarini ta’minlaydigan inson resurslari bilan ta’minlanadi. Shu ma’noda, demografik xavfsizlik – bu aholi poplyatsiyasining yosh – jinsiy va etnik tarkibida faoliyat ko‘rsatilishi va riaojlanishi, uning davlat milliy manfaatlari bilan uyg‘unligi, davlatning yaxltligi, mustaqilligi va suverenitetini ta’minlash hamda mavjud geosiyosiy statusini saqlash bilan bog‘liqdir.

Xavfsizlik mexanizmi nafaqat murakkab, balki uning turli darajalarida ko‘rib chiqilishi tufayli yanada murakkablashadi. Ushbu darajalar global, davlat (milliy), mintaqaviy va mahalliy bo‘lishi mumkin va ularning manfaatlari nafaqat kesishishi, balki ba’zi hollarda ochiq ziddiyatda bo‘lishi ham mumkin. Shu nuqtai nazardan A.I.Kuzminning fikri qiziqdir: sub’ekt va ob’ekt kim bo‘lishidan (shaxs, jamiyat, davlat) kelib chiqib, xavfsizlikning muayyan darajasi aniqlanishi mumkin.

Xavfsizlik darajalari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. Shaxsiy yoki individual xavfsizlik – har bir fuqaroning hayotiva

[11] Бек, 2000,стр 21

sog‘lig‘i himoyasi

2. Jamiyat xavfsizligi – jamiyatning umumiy barqarorligi va ijtimoiy tartibnnig saqlanishi;

3. Milliy yoki davlat xavfsizligi – davlatning suvereniteti, mustaqilligi va ichki barqarorligini ta’minlash;

4. Xalqaro yoki kolletkiv xavfsizlik – bir necha davlatlar va xalqaro jamiyat ishtirokidagi xavfsizlikni ta’sinlash mexanizmlari;

5. Jahon yoki global xavfsizlik – butun sayyora darajasidagi barqarorlik va xavf -xatarlarga qarshi hamkorlik.

Xavfsizlikning o‘rtacha darajalari ham mavjud bo‘lib, masalan, guruhli yoki mintaqaviy xavfsizlik.Bu holat katta davlatning ayrim hududlari yoki tarixi va etnografik mintaqalari doirasida ko‘rib chiqilishi mumkin. Shuningdek, xavfsizlikning turli turlari mavjudligin ahamiyatlidir, chunki ularning ko‘pligi ko‘pincha va hatto muntazam ravishda turli darajalarda ziddiyatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, har qanday jamiyat uchun turli xavfsizlik turlari orasida oqilona muvozanat topish muhim vazifa hisoblanadi.

Demografik xavfsizlik – bu jamiyatning ijtimiy – iqtisodiy rivojlanishini ichki va tashqi demografik tahdidlardan himoya qilish holati bo‘lib, davlatning geosiyosiy, iqtisodiy,etnik va boshqa statusini kamiga saqlashni ta’minlaydi. Ushbu ta’rifning ijobiy jihatlari bir necha tomondan ko‘rinadi. Birinchidan, uning nisbatan qisqa va aniq shaklda berilgani diqqatga sazovor. Ikkinchidan, ta’rifda demografik jarayonlar jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining barcha jihatlariga ta’sir ko‘rsatilishi va uning natijalarini ichki hamda tashqi omillar orqali o‘zgartirishi mumkinligini qayd etilgan. Uchinchidan, demografik xavfsizlikni ta’minlashning asosiy maqsadi davlatning mavjud holatini saqlash va zarur hollarda uni turli faoliyat sohalarida yanada oshirishdan iborat.

Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy rviojlanishini turli demografik tahdidlardan himoya qilish darajasini miqdoriy baholash uchun dmografik xavfsizlik tamoyillari va jihatlari haqida so‘z yuritish zarur. Bu shartlarsiz, statistik nuqtai nazadan qaralganda, hatto mutlaqo ideal nazariy modellar ham amaliyotda minimal ahamiyatga ega

bo‘ladi.

O.N.Slobotchikov tomonidan eng to‘liq tarzda belgilangan bo‘lib, ular quyidagilarga asoslanadi:

Demografik xavfsizlik tamoyillari quyidagilardan iborat:

1.Birinchi o‘rinda inson, uning shaxsiy xavfsizligini va oilasi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha manfaatlari va ehtiyojlari turishi kerak;

2.Har qanday demografik ta’sir ehtiyotkorlik bilan o‘rganilishi va amalga oshirilishi, faqat gumanitar maqsadlarda va usullar orqali qo‘llanilishi lozim;

3.Demografik ta’sir har bir davlat, har bir millat va har bir oilaning suveren huquqi bo‘lib, u davlatning potensial resurslari hisobga olingan holda amalag oshiriladi.

4.Davlatlar, siyosiy partiyalar va xalqaro tashkilotlarning siyosiy rahbarlari tomonidan demografik degradatsiya va har qanday xalqning tamoyil bo‘yicha kamayishiga olib keladigan ochiq yoki yashirin harakatlar uchun huquqiy javobgarlik belgilanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillarni amalga oshirish samarasi demografik xavfsizlikning turli jihatlari orqali aniq ko‘rinadi. Ushbu jihatlar har bir davlatda o‘z tarkibi va namoyon bo‘lish shakllari jihtidan alohida xususiyatga ega bo‘lishi lozim.

Demografik xavf – xatarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Aholi sonining kamayishi (depopulyatsiyaning o‘sishi);
- Tabiiy ko‘payishni ta’minlaydigan tug‘ilish darajasi;
- Kasallik va o‘lim darajasining oshiish;
- Kutilgan o‘rtacha umr muddati kamayishi;
- Aholi sog‘lig‘ining yomonlashishi;
- Oila institutining degradatsiyasi;
- Ichki migratsiya jarayonlarining samarasizligi;
- Noqonuniy migratsiya hajmining ortishi.

Bizning fikrimizcha, demografik xavfsizlikning asosiy jihatlari mamlakatning ani rivojlanish sharoitiga joy va vaqt nuqtai nazaridan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, bir xil demografik jarayon turli davlatlarda turlicha,hatto qarama -qarshi baholanishimumkin. Masalan, aholi

sonining o‘sishi ba’zi davlatlar uchun milliy miqyosdagi muammo bo‘lib hsioblansa, boshqa davlatlarda esa maqbul va kutilgan natija sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, aholi populyatsiyasining umumiy rivojlanish jihatlariga oid asosiy xavflar quyidagicha shakllanishi mumkin:

1.Aholi soni bilan bog‘liq demografik xavf – xatarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Aholi sonining kamayishi (depopulyatsiya);
- Aholi sonining ortiqchv o‘sishi;
- Davlatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga muvofiq kelmaydigan aholi sonining barqarorlashishi;
- Mamlakat aholisining mintaqaviy yoki global aholi miqdoridagi hissasiga nomaqbul o‘zgarish;
- Aholi zichligi juda past yoki juda yuqori bo‘lishi.

2.Aholi tarqalishi bilan bog‘liq demografik xavf – xatarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- aholining hududiy taqsimotida nomutanosiblik;
- aholining amaldagi tarqalishi davlatning ijtimoiy – iqtisodiy trivojlanish strategik maqsadlariga mos kelmasligi;
- qishloq aholisining kamayishi va nobud bo‘lishi;

3.Aholi tuzilmasi bilan bog‘liq demografik xavf – xatarlar quyilagilarni qamrab oladi:

- aholining qarishi, ya’ni keksa yoshdagilar ulushini ortishi;
- aholining ortiqcha “yosharishi”, ya’ni yoshlar ulushining mutanosiblikdan chiqishi;
- jinsiy tarkibdagi nomutanosiblik;
- nikoh – oila tarkibidagi salbiy o‘zgarishlar;
- aholining etnik (irqiy, milliy,diniy va til) nomutanosiblikdagi nomaqbul trasnformatsiyalar.

4.Aholining tabiiy harakati bilan bog‘liq demografik xavf – xatarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tug‘ilish darajasiningjuda past yoki ortiqcha yuqori bo‘lishi;
- o‘lim ko‘rsatkichining yuqoriligi;

- tabiiy o‘sishning manfiy ko‘rinish olishi, ya’ni aholi sonining tabiiy kamayishi;
- nikohlanish intensivligining pasayishi;
- ajrimlar soni va intensivligining ortishi va boshqa shu kabi jarayonlar.

5.Aholining migratsion harakati bilan bog‘liq demografik xavf – xatarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- aholining boshqa hududlarga yoki mamlakat tashqarisiga chiqib ketishi (emigratsiya oqimining kuchayishi);
- migrantlar oqimining ortiqcha ko‘payishi;
- noqonuniy migratsiya holatlarining o‘sishi;
- migratsiya saldosining manfiy ko‘rinish olishi, ya’ni migratsion kamayish;
- ichki migratsiya oqimlarining davlatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga mos kelmasligi va boshqa shu kabi jarayonlar.

6. Aholini takror barpo etish jarayoni bilan bog‘liq demografik xavf – xatarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- avlodlar almashinuvining qisqargan shakli, ya’ni aholining o‘rnini to‘liq qoplamaydigan takror barpo bo‘lish;
- avlodlar almashinuvining haddan tashqari kengaygan ko‘rinishi;
- aholining o‘rtacha umr davomiyligining pastligi;
- o‘lim holatlari sababli aholini takror barpo etish jarayonida katta yo‘qotishlar va boshqa shu kabi omillar.

Yuqoridagi tizimlashtirilgan asosiy demografik tahdidlarning o‘ziga hos jihati shundan iboratki, ular ob’ektlararo xususiyatga ega bo‘lib, qit’alararo, davlatlararo va mintaqalararo darajada namoyon bo‘ladi. Ya’ni, har qanday mamlakatning demografik xavfsizligi faqat unin gichki deomgrafik jarayonlari bilan emas, balki uning tashqarisida – qo‘shni davlatlar, mintaqalar va boshqa hududlarda kechayotgan demografik o‘zgarishlar bilan ham belgilanadi. Shu sababli demografik xavfsizlikni ta’minlash masalasi kompleks va o‘zaro bog‘liq yondashuvlarni talab etadi.

Demografik xavfsizlikni har qanday tadqiqot darajasida tahlil qilish jarayonida satitsika oldida turgan vazifalar, an’anaviy xususiyatga ega bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarga taalluqlidir:

- demografik xavfsizlikning amaldagi holatini kompleks tavsiflash;
- demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarning yo‘nalishi, xususiyati, sur’ati va chuqurligini baholash;
- demografik xavfsizlik ko‘rsatkichlarining transformatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish;
- demografik xavfsizlikning asosiy indiktorlari bo‘yicha istiqbolli prognozlar ishlab chiqish.

Demografik xavfsizlikni har tomonlama statistik tahlil qilishning dolzarbligi va zarurati uning milliy xavfsizlik konsepsiyasini amalga oshirishda tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Milliy xavfsizlik har qanday davlatning barqaror yashashi va muvaffaqiyatlirivojlanishi uchun asosiy poydevor hisoblanadi, demografik xavfsizlik esa ushbu poydevorning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Demografik xavfsizlik statistik tadqiqot ob’ekti sifatida bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, u ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi, bunda tashqi omillar ko‘pincha bilvosita, ayrim hollarda esa yashirin tarzda aholini rivojlanishi natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, demografik xavfsizlik global, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lib, uni milliy xavfsizlikning muayyan bir yirik turiga to‘liq mansub etishni murakkabalashtiradi. To‘rtinchidan, demografik xavfsizlik fanlararo, ob’ektlararo va ko‘p jihatli kategoriya sifatidanamoyon bo‘ladi, bu esa ayniqsa, jamiyat demografik rivojlanishining alohida miqdoriy ko‘rsatkichlarini mazmunan talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Inson taraqqiyoti nimani anglatadi va ifodalaydi?
2. Ijtimoiy xavf qanday holatlarni o‘z ichiga oladi?
3. Qashshoqlik inson taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
4. Ishsizlik jamiyat rivojiga qay tariqa ta’sir qiladi?

5. Urbanizatsiya jarayoni qaysi omillar bilan bog‘lingan?
6. Aholi qarishi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradimi?
7. Tug‘ilish darajasi demografiyada qanday ahamiyatga ega?
8. Sog‘liqni saqlash inson taraqqiyotida nega muhim?
9. Ijtimoiy tengsizlik qanday salbiy oqibatlarni kuchaytiradi?
10. Hayot sifati qanday mezonlar asosida baholanadi?

IX BOB. DEMOGRAFIK SIYOSAT: TASHQI VA ICHKI TAJRIBA

9.1. Demografik va oilaviy siyosatning xorijiy tajribasi.
9.2. O’zbekistonda demografik siyosat

Tayanch so‘zlar: demografik siyosat, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, urbanizatsiya, aholi tarkibi, oila siyosati, aholi soni, bandlik, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ichki tajriba, davlat boshqaruvi.

9.1. Demografik va oilaviy siyosatning xorijiy tajribasi.

Demografik siyosat aholining jinsiy va yosh tarkibiga nsibatan, nikohlanish modellariga, sog‘liq holatiga hamda mamlakat ichidagi hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rastishi mumkin. Demak, erkaklar va ayollar xulq – atvoriga maqsadli ta’sir etish vositasi sifatida namoyon bo‘lib, tuhilish, nikoh tuzish va bekor qilish, ichki va xalqaro migratsiya jarayonlari, shuningdek, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq qarorlariga ta’sir qiladi.

Tug‘ilish sohasidagi demografik xulq – atvorning oilaviy ijtimoiy – iqtisodiy farovonlik hamda ko‘plab noaiq va bilvosita omilllar bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, tug‘ilish darajasini davlat siyosatining bevosita maqsadi sifatida barqaror oshirishga erishilgan tarixiy misollarnig deyarli mavjud emasligi tadqiqotchilar e’tiborining boshqa yo‘nalishga qaratilishiga sabab bo‘ldi. Ayrim mamlakatlarda tug‘ilish ko‘rsatkichlarining o‘sishi kuzatilgan bo‘lsa – da, bu jarayonni faqat qo‘llanilgan siyosiy chora – tadbirlar bilan zohlab bo‘lmagan yoki natijalar belgilangan maqsadlar darajasidan ancha past bo‘lgan. Shu bois ham, ilmiy izlanishlarda asosiy e’tibor oilaviy siyosatga, ya’ni oilalar hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan chora – tadbirlarga qaratila boshlandi.Hozirgi kunda shakllangan ilmiy konsensusga ko‘ra, turmush darajasining yuksalishi bilvosita tarzda insonlarning reproduktiv niyatlariga va ularni amalga oshirish imkoniyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, hozirda aholini boshqarsh siyosati (population policy) deb ataluvchi sohasi ham mavjudligini saqlab qolmoqda. Bu

siyosat demogarfik siyosatdan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Avvalo, u oldindan aniq miqdoriy maqsadlar va natijalarni belgilamaydi, balki tug‘ilish va o‘lim ko‘rsaktichlarida kutilgan o‘zgarishlarga javob sifatida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, bu siyosat ichki va xalqaro migratsiya jarayonlariga ham ta’sir kzrsatadi, bu esa aholi soni, yosh tarkibi va hududiy tarqalishiga ta’sir qiladi (Handbook of Development Economics, 2010).

Kutilgan o‘zgarishlar olimlarning tadqiqotlariga asoslanadi. Shuningdek, demografik siyosat ham asosan siyosatchilar irodasiga emas, balkiilmiy tahlillariga tayanadi. Aholi siyosatini shunday ta’riflash mumkinki, u davlat toomnidan maxsus tashkilotlar orqali yoki maxsus dasturlar orqali demografik o‘zgarishlarga bevosita yoki bilvosita ta’sir etishga qaratilgan chora – tadyuirlardir. Bu yondashuvning afzalliklari quyidagilardan iboart:avvalo, u ilmiy tadqiqotlarga tayanadi:ikkinchidan, u aniq miqdoriy demografik ko‘rsatkichlarga erishishni maqsad qilmaydi. Chunki ijtimoiy vaziyatni inson xulq - atvorini o‘zgartirish orqali yaxshilashda aniq raqamli me’yorlarni belgilash mumkin emas va ahloqiy jihatdan to‘g‘ri ham emas. Masalan, ayollar tomonidan tug‘iladigan farzandlar soni yoki insonning sog‘lom umr ko‘rishi-yillarini aniq ko‘rsatish mumkin emas:birinchi holda ayollarning irodasi va reproduktiv hamda umumiy sog‘lig‘i cheklovlari inobatga olinmaydi, ikkinchi holatda esa taxmin qilish deyarli imkonsiz bo‘ladi.

Birinchi jahon urushi va uning orqasidan ro‘y bergan epidemiyalar, shuningdek, 1930-yillarning boshidagi Buyuk iqtisodiy depressiya shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy qarorlar tug‘ilish va o‘lim o‘rtasida aholi kamayishiga olib kelmaydigan muvozantni avtomatik ta’minlaydi, degan kafolat yo‘q edi. Shu bois ham davlatning tartibga soluvchi aralashuvi zarurligi yuzaga keldi, ammo bu safar unig maqsadi teskari:aholini kamida tug‘ilishni sodda tarzda ta’minlaydigan darajaga olib chiqish edi. Ba’zi mamlakatlarda abort va kontrasepsiya uchun jazolar kuchaytirildi, davlat tomonidan tug‘ilishni targ‘ib qilish kompaniyalari boshlandi. Ammo uning ta’siri kam bo‘ldi. Iqtisodiy rag‘batlantirishlar va daromadlarni qayta taqsimlash, ayniqsa, kichik

yoshli farzandlariga ega oilalar uchun, maqbul koʻrina boshlandi:ijtimoiy jihatdan maqbul reproduktiv xulq uchun mukofot va nomaqbul harakatlar uchun jazo nazarda tutildi. Baʼzi mamlakatlarda tugʻilish koʻrsatkichlari qisqa muddatda oʻsdi, ammo bu hech qachon aniq avlodlarda tugʻilgan bolalar soniga sezilarli taʼsir qilgani isbotlanmadi. Shu davrda demografik siyosatchilar belgilangan miqdoriy maqsadlarga erishilmadi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan soʻng tadqiqotchilar eʼtibori rivojlanayotgan davlatlarda aholi sonining tez oʻsishiga qaratildi. Bu mamlakatlarda oʻlim koʻrsatkichlari pasaygan va tugʻilishni nazorat qilishga ijtimoiy ehtiyoj yuzaga kelgan edi. Yuqori tugʻilish darajasi iqtisodiy rivojlanishiga toʻsiq boʻlib, kelajakda global barqarorlik uchun xavf sifatida koʻrinadi. Shu bois, xalqaro tugʻilishni nazorat qilish bilan shugʻullanadigan tashkilotlar paydo boʻldi. Baʼzi olimlar fikricha, kontrasepsiya va boshqa tugʻilish nazorat qilish vositalirga kirish imkoniyati muhim hisoblansada, ota - onaning farzandlarga boʻlgan ehtiyoji aossiy ahamiyatga ega boʻlib, siyosat shu jihatidan shakllantirlishi kerak. Bu jumladan, kichik yoshdagi bolalarga gʻamxoʻrlik qilish vaqtida ota - onalarning daromadlaridan yoʻqotishlarini, farzandlarining oila daromadiga qoʻshadigan hissasi pasayishini va kattalikda ota - onani qoʻllab quvvatlashda ularning hissasi pensiya va jamgʻarmalariga nisbatan kamayishini bozor “signallari” orqali kuchaytirishni oʻz ichiga oladi.Shu davrda ota - onannig farzandlarga boʻlgan huquq va majburiyatlari tobora yuqori yoshgacha uzaytirildi, taʼlimga iqtisodiy sarmoyalar koʻproq va uzoq muddatli boʻldi.Ayollar uchun ish bilan taʼminlanish imkoniyatlarik yengaydi, bu esa tez - tez va koʻp tugʻilishlar bilan mos kelmaydi. Majburiy maktab taʼlimi joriy etildi, bu esa bollarning pul topishga yoki oila fermerligida ishlashga yordam berishiga toʻsiq boʻldi; bolalar mehnati hatto uy xoʻjaligida ham qonunga xilof yoki muammoli holatga aylandi. Shu bilan birga pensiya va jamgʻarma tizimlari rivojlandi. Biroq, barcha ushbu omillar tugʻilish darajasining ixtiyoriy pasayishiga faqat iqtisodiy rivojlanish mavjud boʻlgan oʻaroitda olib keladi. Davlatlar koʻpincha bozorni toʻldirishga urinishdi va aholining

kutilgan xulq – atvorini rag‘batlantiruvchi dasturlar orqali iqtisodiy farovonlik o‘sishini o‘rnini bosishga harakat qilishdi. Shu bois, hali tug‘ilishni kamaytirishga ochiq ehtiyoj sezmagan aholi gurug‘lari orasida zamonaviy va ishonchli kontrasepsiya vositalarini tarqatishga qaratilgan dasturlar rviojlantirildi.

1930-yillardagi tug‘ilishni oshirish dasturlaridagi kabi kontrasepsiyani tarqatish dasturlari ta’sirida rivojlanayotgan davlatlarda tug‘ilish darajasining pasayishi sodir bo‘ldi, deb aniq aytish qiyin. Bu dasturlar bo‘lmaganida natija qanday bo‘lar edi, bu ham noma’lum. Ayrim davlatlarda, masalan Xitoyda, tug‘ilishni amaytirish dasturlari ochiq majburiy xosiyatga ega bo‘lgan. Boshqa mamlakatlarda, masalan, Braziliyada, tug‘ilish darajasi tegishli dasturlarsiz ham pasaygan. Xitoyda “bir oila – bir farzand” siyosati yaqinda bekor qilinganidan so‘ng, hozircha tug‘ilish darajasida sezilarli o‘sish qayd etilmagan. Ba’zi tadqiqotchilar fikricha, maxsus dasturlar ta’sirisiz ham ko‘p davlatlarda tug‘ilish darajasi vaqtida bir xil ko‘rsatkichlarga pasayishi mumkin edi va bu jarayonda eng samarali vosita sifatida iqtisodiy rivojlanish va ayollar ta’limi o‘sishi e’tirof etilgan.

Tarixan oilaviy siyosat ijtimoiy siyosatdan rivojlanib chiqqan bo‘lib, uning nisbatan keyin shakllangan bo‘limi hisoblanadi. U oilaviy masalalarda davlat tomonidan turli qonunchilik tashabbuslari orqali bevosita aralashuvni o‘z ichiga oladi. Bu tashabbuslar nikoh, ota – ona va farzand munosabatlari, meros masalalari, maktab ta’oimi majburiyatlari, mehnatga kirish va undan chiqish yoshi, turar – joy siyosati va boshqa soxalarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Dasturlr maxmuni va e’lon qilingan maqsadlar ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib kelgan, shuningdek, davlatlar orasida farqlar doim mavjud bo‘lgan. Adabiyotlarda (Kamerman, Kahn, 1978; Kamerman, 2010) ochiq (eksplitsit) va bilvosita (implitsit) oilaviy siyosatlar farqi qayd etiladi: ochiq siyosat aniq demografik maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilsa, bilvosita siyosat asosan farzand tug‘ilishiga bevosita aloqasi bo‘lmagan, lekin unig demografik oqibatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan chora tadbirlardan iboratdir.

Ba’zi mamlakatlarda oilaviy siyosat ochiq xarakterga ega

(Fransiya), boshqalarida esa u asosa bilvosita tarzda (AQSh) amal qiladi. Fransiyada oilaviy siyosatning tarixi bir asrdan ortiq Italiya, Germaniya va ayrim Yevropa davlatlarida esa u Birinchi jahon urushidan so‘ng shakllangan. Mamlakat implitsit siyosatga ega guruhdan ochiq siyosatga ega guruhga o‘tishini siyosat mazmunini o‘zgartirmasdan maqsad va vazifalarni qayta ta’riflash orqali amalga oshirishi mumkin. Masalan, farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq ta’til va ota - onalik ta’tili mehnat bozorini tartibga solish choralari sifatida emas, balki oilaviy siyosat vositalari sifatida qayta ta’riflanishi yoki qayta nomlashini mumkin.[12]

Hozirgi kunda oila shakllari turli xil bo‘lib borishi munosabati bilan oilaviy taa’sir ob’ekti kimligi haqida konqeptual bahslar yuzaga kelgan. Siyosatchilar uchun asosiy ustuvorlik oila o‘zi sifatidami yoki oilaning a’zolari sifatidagi alohida individlar bilan bog‘liqmi? Oilaning o‘zi esa faqat bilvosita ta’sir ob’ekti sifatida qaralmoqdami? Masalan, davlat tomnidan bog‘chalarning yaratilish va moliyalashtirilishi kimga qaratilgan – onaga, bolalarga yoki butun oilagami? Davlat faqat muayyan oila turini (qonuniy nikohlardagi juftlik va farzandlari) qo‘llab – quvvatlaydimi yoki barcha turdagi oilalarni (yakka ota – ona oilalari, hamjinsli juftliklar,hamkorlikda yashovchi sheriklar, farzandsiz oilalar) qo‘llab quvvatlanganmi? Ko‘p olimlar fikriga ko‘ra, asosiy e’tibor farzandli oilalarga qaratilgan, bu esa zamonaviy oilaviy siyosatning demografik maqsadlarbilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Boshqalar esa oilaviy siyosatning genderlik jihatlariga e’tibor qaratib, uning ayollar va erkaklar hayoti, ularning gender rollarini o‘zgartirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Oiladagi barcha bog‘liq yoki jismoniy yordamga muhtoj a’zolar bilan bog‘liq moliyaviy majburiyatlar davlatning oilaviy masalalariga aralashuvining asosiy elementi hisoblanadi. Tahlil darayonida, dasturlar, ular amal qiladigan sektor, maqsadlar va ularga erishish vositalarini aniq ajratish muhimdir. Kichik bolaning g‘amho‘rlikka bo‘lgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan, masalan, bog‘chalar xizmati

[12] Щербаков А.И., М.Г. Мдинарадзе, А.Д. Назаров, Е.А. Назарова Демография: учеб. пособие - М. : ИНФРА-М, 2017. - 216 с.

rivojlantirish orqali yoki ona (yoki ota)ga moliyaviy qo‘llab quvvatlash ko‘rsatish orqali qondirilishi mumkin. Bunda amaliy g‘amxo‘rlikni aossan ona o‘zi taxminlaydi. Qaysi vosita tanlanishi siyosat maqsadlari va ular asosidagi qiymatlar, ya’ni rag‘batlantirilishi kerak bo‘lgan “to‘g‘ri” xulq-atvor tushunchasiga bog‘liqdir.

So‘nggi o‘n-yiliklarda Yevropa davlatlarida siyosiy dasturlarning ochiq maqsadlari ayollarni mehnat bozorida faol ishtirok etishini qo‘llab – quvvatlash, oilaviy hayot va mehnat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hamda bolalarning inson kapitali shakllanishiga sarmoya kiritishdan borat bo‘ldi. Bu maqsadlar bolalar bog‘chalari tarmog‘ining rvojlanishiga xizmat qiladi – ham bolalarnig ilk ta’limi markazi sifatida,ham ayollarga mehnat bozorida ishtirok etishda va mehnat yuklamasini muvozanatlashtirishda yordamchi vosita sifatida qaraladi.

Keng ma’noda “oilaviy siyosat” tushunchasi davlat oila hayoti sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha sohalarni o‘z ichiga oladi. Bu sohalarda mehnat bozorida ishtirok etish, transport, oziq – ovqat bilan ta’minlash, ta’lim, tibbiyot va boshqalar kiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda esa oilaviy siyosat odatda tor ma’noda qo‘llaniladi: u oilalarga moliyaviy qo‘llab – quvvatlash, ishchi ota – onalar uchun xizmatlr va nafaqalar, ta’lim va tibbiyot sohasida siyosat hamda oila qonuniyatini o‘z ichiga oladi. Shu tor ma’noda turli xil dasturlarni qamrab oladi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng, an’anaviy oila tushunchasiga asoslangan dasturlar qabul qilindi:oilaning asosiy boquvchisi erkak hisoblanar, faqat uning yo‘qligida ayol bu rolni o‘z zimmasiga olar edi. Bu yondashuv oldingi davrlardagi oilaviy siyosat qarashlarining tabiiy davomidir. Ayollarga to‘g‘rdan – to‘g‘ri ularga berilishi kerak bo‘lgan va oila shakllari eng turli xil bo‘lishi mumkin, degan tushuncha esa keyingi ikki o‘n-yililkda eng rivojlangan va demokratiyali jamiyatlarda ham sekin va murakkab ravishda rivojlandi.

Yevropa davlatlarida va uning tashqarisidagi oilaviy siyosat daturlari asosan ikki turga bo‘linadi:moliyaviy yordam ko‘rsatuvchi va vaqt (xizmatlar) taqdim qiluvchi dasturlardan iborat. Bollar va oilaning

boshqa bog‘liq a’zolari nafaqat ota – onannig mablag‘larini, balki ularning vaqtini ham iste’mol qiladir. Shu bois, turli nafaqalar va soliq imtiyozlari (mooliyaviy yordam) hamda ota – onalar ta’tili va bolalar bog‘chalari, yaslilari kabi vaqtni tejaydigan xizmatlar ham muhim hisoblanadi.

Xorijda ijtimoiy, demografik va oilaviy siyosat tushunchalari orasida aniq chegara belgilanmagan. Ular ko‘pincha bitta siyosat doirasida birlashtirilgan bo‘lib, uni oilaga nisbatan ijtimoiy siyosat deb atashadi. Amalda bu oilani qo‘llab – quvvatlash choralaridan iborat bo‘lib, oilaga o‘z vazifalarini bajarish va faoliyat yuritish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda jahonning ko‘plab mamlakatlarida turli shakllarada ijtimoiy – demografik siyosat amalga oshirilmoqda. Uning mazmuni, maqsadalari, hajmi va amalga oshirish usullari har bir davlatda turlicha bo‘ladi, chunki mamlakatlaring demografik holati va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari sezilarli darajada farq qiladi. Ko‘plab Yevropa davlatlarida esa bolalar uchun oylik to‘lovlar keng miqyosda va tizimli ravishda oshirib boriladi.

Oilani to‘g‘riadan – to‘g‘ri qo‘llab – quvvatlashga yo‘altirilgan resurslar miqdori jihatdan Yevropa mamlakatlari orasida sezilarli farqlar mavjud. Shvesiya, Daniya, Finlyandiya oilaviy siyosatga YaMMning 4%dan ortiqini sarflaydi. Janubiy Yevropa mamlakatlarida vaziyat yomonroq bo‘lib, Gresiyada bu ko‘rsatkich 0,2%dan, Portugaliyada esa 1,1%dan iborat. Ispaniya va Italiyada ular tegishli ravishda 0,4 va 0,8%ni tashkil qiladi. Qolgan Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida sarflar YaMMnnig 2-3% atrofida bo‘ldi.

Fransiya Yevropaning yagona mamlakatlari bo‘lib, u yerda birinchi bola uchun nafaqa to‘lanmaydi.Ba’zi mamlakatlarida uch va undan ortiq farzandli oilalarga yordam miqdori oshirilmoqda, boshqalarda esa tshlovlar bollarnnig yoshi bilan ortib boradi. Daniyada esa ular,aksincha, kamayadi. Faqat Ispaniyada va Gresiyada oilaviy to‘lovlar soliqqa tortilishi mumkin.Fransiya, Buyuk Britaniya va Irlandiya eng cheklovli siyosatni olib borayotgan bo‘lsa, Shvesiya va

Niderlandiyada ta’lim olayotgan bolalar uchun maxsus to‘lovlar ham belgilanadi va ular oilaviy nafaqalar doirasidan tashqarida chiqadi. Oilaga yordam berish degani farzand tug‘ilishi va tarbiyasi jarayonini ikkala ota - ona mehnat faoliyati imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish, ayollar va bolalarni diskriminatsiya va zo‘ravonlikdan himoya qilish sharoitlarini yaratishni anglatadi.

Bolalar uchun nafaqa tizimini solishtirish ularning asosiy farqlarini ko‘rsatdi. Yeropa mamlakatlarida nafaqa barcha farzandli oilalarga, har qanday shartlardan qat’iy nazar beriladi. Kanadada ham shunday universal yondashuv qo‘llaniladi. Vaqt o‘tishi bilan ko‘plab davlatlar universallikni kamaytirib, yordamni asosan eng muhtoj oilalarga yo‘naltirilmoqda. Masalan AQShda nafaqa faqat kambag‘allik chegarasidan past daromadli farzandli oilalarga beriladi. Ba’zi Yevropa davlatlarida oilalarga minimal kafolatlangan daromad bilan ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Boshqa davlatlarda esa o‘z rolini minimal yordam ko‘rsatish bilan cheklaydi. Hamma mamlakatlarda davlat e’tiborini qisqa oilalarga qaratmoqda, chunki ular soni o‘sib bormoqda. Bu holatda kambag‘al oilalarda nikoh rasmiylashtirilmaydi yoki qo‘shimcha daromad olish maqsadida feyk ajrashuvlar ro‘yxatga olinadi. Har qanday tug‘ilish siyosati nikohlanishni rag‘batlantrish va oilani mustahkamlash choralarini ham o‘z ichga oladi. Bu choralar turli yordam va imtiyozlar shaklida yosh oillarga, shuningdek, ularga kreditlar taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Demografik siyosatning iqtisodiy vositalari nafaqalar va rag‘batlantiruvchi to‘lovlar bilan cheklanmaydilar. Mehnat kunlarini moslashtirish va tegishli to‘lovlar ayol – onalarga, ayniqsa, farzandning ilk-yillarida, vazifalar va jamiyat ishlarida ishtirok etishni samrali uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, demografik siyosatda kasallikni kamaytirish va umr davomiyligini uzaytirish uchun samarali chora - tadbirlar kompleksini ishlab chiqish ham muhim vazifa hisoblanadi.

Yevropaning qator davlatlarida – Fransiya, Avstriya, Bolgariya, Ruminiya, Vengriya, Germaniya va boshqalarda – tug‘ilish darajasining pasayish tendensiyalarini yumshatishga qaratilgan chora – tadbirlar

amalga oshiriladi. Ushbu siyosatlar, avvalo, oilalarda ikkinchi, qisman uchinchi farzandlar sonining ortishiga, onalik nufuzining oshishiga, kasallanishi va o‘lim ko‘rsatkichlarining kamayishiga, shuningdek, bolali oilalarning moddiy farovonligining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Demografik siyosatning maqsad va usullari mamlakatlari kesimida sezilarli farq qiladi. Bu farqlar nafaqat davlatlarning tarixiy rivojlanish xususiyatlari, balki ularning ijtimoiy – iqtisodiy holati bilan ham belgilanadi.

Belgiya va ayniqsa Fransiyada uzoq vaqt davomida juda past tug‘ilish oqibatlari sezilarli bo‘lgani sababli, Ikkinchi jahon urushida keyin ilk bor davlat darajasida tug‘ilishni rag‘batlantiruvchi choralar joriy etildi. Tug‘ilish darajasining oshishiga oilaviy nafaqalar ko‘rinishidagi pul to‘lovlari hamda ikki va uch farzandi uchun turli imtiyozlar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Germaniyada tug‘ilish darajasining pastligi munosabati bilan so‘nggi-yillarda uchinchi va to‘rtinchi farzand tug‘ilishini rag‘batlantirishga qaratilgan chora – tadbirlar faollashtirildi.

Fransiya hukumati tomonidan so‘nggi o‘n-yilliklarda oilani qo‘llab – quvvatlash sohasida keng ko‘lamli chora – tadbirlar amalga oshirildi. Ularning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboart:

- bola tug‘ilgan paytdan boshlab oylik bola nafaqasi to‘lanadi; uchonchi farzand tug‘ilgada nafaqa miqdori eng yuqori darajaga yetkaziladi;
- Oila uchun kafolatlangan minimal daromad joriy etilgan;
- Minimal daromadli oilalarga dotatsiyalar beriladi, bunda uch farzandli oilalarga ustuvorlik beriladi;
- Daromad solig‘ini hisoblashda farzandlar soniga qarab imtiyozlar qo‘llaniladi;
- Bola tug‘ilishidan oldin va keyin bir martalik nafaqalar to‘lanadi, ayniqsa, uchinchi farzand uchun ularning miqdori sezilarli darajadja yuqori;
- Dekret ta’tili 16 hafta etib belgilangan, uchinchi farzand tug‘ilganda bu muddat 26 haftagacha uzaytiriladi;

- Bolani yakka tarbiyalanayotgan onalarga homiladorlik davri va bolaning dastlabki uch-yili mobaynida kafolatlangan minimal daromad ta’minlanadi;
- Oilalarga xo‘jalik yuritish uchun ssudalar beriladi;har bir farzand tug‘ilganda ssudaning ma’lum qismi qoplanadi, to‘rtinchi farzand tug‘ilganda esa ssudaning 90 foizi bekor qilinadi;
- Bolalar ta’limi xarajatlarini qoplash uchun-yililk kompensatsiya to‘lanadi;
- Uch farzandli onalar avtomatik ravishda davlat pensiya ta’minoti tizimida sug‘urtalanadi4
- Davlat va xususiy maktabgacha hamda maktab muassasalarida bollarning kun bo‘yi nisbatan arzon parvarishga imkon beruvch qamrovli tashqi tarbiya tizimi shakllantirilgan.

Ushbu chora – tadbirlar Fransiyada oilaviy siyosatning kompleks va ko‘p yo‘nalishli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Ular nafaqat tug‘ilishni rag‘batlantirish, bali oilalarning iqtisodiy barqarorliginini ta’minlash, bollaar tarbiyasi va ta’limi uchun qulay shart – sharoit yaratishga qaratilgan. Mazkur chora – tadbirlarni amalga oishirilishi Fransiyada ma’lum davrda depopulyatsiya jaaryonini to‘xtatish imkonini berdi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida tortib yuqori sinflargacha bolalarni kun bo‘yi kafolatlangan, sifatli va nisbatan arzon parvarishi bilan ta’minlovchi qamrovli tashqi tarbiya tizimi ayollarning mehnat bozorlaridagi faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qildi. Natijada 25 – 49 yoshdagi ayollarning 79 foizi mehnat faoliyati bilan bvnd bo‘ldi. E’tiborli jihati shundaki, uch nafar farzandi bor onalarning 45 foizi ham ish bilan ta’minlangan. Bu ko‘rsatkichlar oilaviy siyosatning ayollar mehnat faolligi va oila – ish muvozanatini ta’minlashdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Buyuk Britaniya hukumati yoshlar va bolali oilalarni qo‘llab – quvatlashga katta ahamiyat aratadi. Mamlakatda farzandli oilalar uchun soliq imtiyozlari, pul nafaqalari hamda uy – joy taqsimotida imtiyozli shartlar joriy etilgan. Mamlakatda 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun (ta’lim olayotganlar uchun 19 yoshgacha) haftalik nafaqalar to‘lanadi. Ayniqsa, yakka tarbiyalanayotgan ota – onalarni qo‘llab - quvvatlashga

alohida e’tibor qaratilgan.Shu sababli ayrim juftliklar rasmiy nikohdan ro‘yxatga o‘tkazmaslikni afzal ko‘radilar. Shuningdek, to‘rt yoshli bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida bepul joylar kafolatlangan.

Avstriyada tug‘ilish darajasining oddiy takror ishlab chiqarish darajasidan pastlashuvi jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Oilaviy nafaqa va imtiyozlar miqdorini belgilashda aosiy mezon sifatida oila daromadi emas, balki farzandlar soni hisobga olinadi. Oilalarga yordam jamoat fondlari hisobidan amalga oshiriladi. Barcha oilaviy nafaqfalarni tayinlash vakolatiga ega bo‘lgan kompensatsiya fondi tadbirokrlar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi. Shuningdek, hukumat va federal yerlar (provinsiyalar) ham soliq tushumlari hisobidan mablag‘ ajratadi. Proqinsiyalar fondga o‘z hududidagi aholi soniga mutanosib ravishda badal to‘laydi. Mazkur fond oila, yoshlar va iste’molchilarni himoya qilish vazirligi tasarrufida faoliyat yuritadi. Bollar uchun nafaqalar, agar ular tahsil olayotgan bo‘lsa, 27 yoshgacha to‘lanadi.

Vengriyada tabiiy kamayish jarayoni kuchayib borayotgani tufayli hukumat tug‘ilish darajasining pasayishidan jiddiy xavotir bildirdi va bolali oilalarni qo‘llab – quvvatlashni kuchaytirdi. Bola tug‘ilganda tibbiy sug‘urtaga ega bo‘lgan ishlaymaydigan onaga ma’lum pul miqdorida bir martalik nafaqa, shuningdek, bola parvarishi uchun har oylik shu miqdorda to‘lov ajratiladi. Ikkinchi farzand tug‘ilganda nafaqa hajmi ikki barobarga oshiriladi. Shuningdek, yosh oilalar davlat tomonidan imtiyozli kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lib, har bir farzand tug‘ilganida kreditning muayyan qismi hisobdan chiqariladi.

Italiya hukumati demografik tendensiyalarga “to‘g‘ridan – to‘g‘ri va maxsus aralashuv” orqali ta’sir ko‘rsatishni maqbul deb hisoblamaydi. Davlat uchun asosiy muammolar aholinnig qarishi va tibyubiy xizmat sifatini yaxshilash zaruratidir. Oilaviy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari – ayollarning mavqeini mustahkamlash va oilani qshllab quvvatlash. Ikiknchi bola uchun nafaqa birinchisiga nisbatan ikki barobar, uchinchi bola uchqun esa qariyb uch barobar ko‘p. To‘lovlar oila daromadiga bog‘liq ravishda beliglanadi. Agar-yillik

daromad 50 ming yevrodan oshmasa, har bir bola tug‘ilganda bir martalik yordam beriladi. Tahsil olayotgan farzandlar 25 yoshgacha nafaqa oladi.

Shvesiyada esa bolali oilalar kchkn ijtimoiy imtiyozlar izchil kengaytirib borilmoqda.Oilaviy nafaqalar barchaga, jumladan, immigrantlarga ham to‘lanadi. “Onalik va otalikni sug‘urtalash rejasi”ga muvofiq, otalar ham har-yili 60 kunlik to‘lanadigan ta’tilni bola parvarishi uchun olish huquqiga ega, o‘uningdek, bola tug‘ilganda 10 kunlik ta’til beriladi. Ota – onalar manfaatlarini himoya qilish kasaba uyushmalari, tadbirokorlar va hukumat o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadi.Bu mamlakatda muvofiqlashtirilgan ijtimoiy – demografik va oilaviy siyosat amal qladi.

Norvegiyada aholi masalalari bo‘yicha qo‘mita tashkil etilgan bo‘lib, u demografik jarayonlarni tahlil qiladi va mehnat bozori, ta’lim, oilaviy siyosat va sog‘liqni saqlash sohalarida qarorlar qabul qilishda tavsiyalar beradi. Hukumat aholi o‘sish sur’atlaridan qoniqqan bo‘lib, asosiy maqsad sifatida fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, ayollar mavqeini yaxshilash va oilalar farovonligini oshirishni beliglangan.

Finlyandiyada ham samarali demografik siyosat yuritilmoqda. Davlat uchinchi va to‘rtinchi bola tug‘ilishini rag‘batlantiradi, uy - joy uchun subsidiyalar taqdim etadi.

Belgiyada tug‘ilish darajasi oddiy takror ishlab chiqarishni ta’minlamaydi. Shu bois davlat nafaqalar, soliq imtiyozlari, uy – joy va ta’lim uchun subsidiyalar kabi keng ko‘lamli choralarni amalga oshiradi. Nafaqalar bolaning yoshiga qarab oshadi:14 yoshli bola uchun to‘lov 4 yoshgacha bo‘lgan bolaga nisbatan uch barobar ko‘p, ta’lim olayotganlarga esa 25 yoshgacha to‘lanadi. Bir martalik nafaqa birinchi va ikkinchi bola uchun yuqoriroq miqdorda belgilangan.

Niderlandiya hukumati mamlakat aholisi ortiqcha ekanini hisobga oliyu, uzoq istiqbolda bolalar sonini qisqartirishga qaratilgan siyosat yuritadi. Bolalru uchun nafaqalar har chorakda to‘lanadi, ayollarga 16 hafta davomida 100% ish haqi saqlanadi, ammo nafaqalar miqdori qisqartirilgan.

Gresiyada tug‘ilish darajasi pasaymoqda. Shuning uchun davlat

katta oilalarni rag‘batlantirib, to‘rtinchi va beshinchi bola uchun nafaqfalarni bir necha barobar oshirgan.

Ispaniyada moddiy yordam faqat homiladorlikkacha ishlagan onalarga beriladi. Dekret ta’tili amalda mavjud emas, faqat ikki oylik to‘lanadigan ta’til beriladi. Nafaqalarni taqsimlash markazlashmagan bo‘lib, hududlar o‘rtasida farq qiladi.

Irlandiya aholi o‘sish sur’atlarini saqlab qolishga intilmoqda. Bolalar uchun nafaqalar faqfat oltinchi boladan boshlab oshiriladi.

Isroilda aholi o‘sishi immigratsiya hisobiga amalag oshmoqda. Eng yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichi musulmon aholi orasida kuzatiladi. Davlat homiladorlikning dastlabki oylaridanoq oanlarni qo‘llab – quvvatlaydi. Bola tug‘ilganida bir martalik yordam beriladi va 18 yoshgacha nafaqa to‘lanadi. Beshinchi bola uchun nafaqa birinchisiga nisbatan o‘n barobar ko‘p. Ko‘p bolali oilalarga soliq imtiyozlar mavjud.

AQShda umumdavlat darajasida demografik siyosat yuritilmaydi. Biroq mamlakat 80ga yaqin ijtimoiy va oilaviy dasturlar amal qiladi. Demografik masalalar har bir shtat tomonidan mutaqil hal qilinadi. 2035-yilga kelib mehnat resurslari sifati pasayishi mumkinligi xavotir uyg‘otmoqda, chunki yakka ota – onali oilalar soni ortib, ularda farzandlarni sifatli ta’lim va kasbiy tayyorgarlik bilan ta’minlash imkoniyatlari cheklagan.

9.2. O’zbekistonda demografik siyosat.

O‘zbekistonning milliy demokratik siyosati – bu aholi soni va tarkibining dinamikasini tartibga solishga qratilgan strategik vosita bo‘lib, u barqaror ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. U chuqur ilmiy – nazariy asosga tayanadi va demografik jarayonlarning milliy hamda global rivojlanish sharoitidagi qonuniyatlari va xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Demografik siyosatning asoslari bir qator nazariyalar va konsepsiyalar orqali shakllanadi. Demografik o‘tish nazariyasi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar tug‘ilish va o‘lim darajalarining pasayishiga olib kelishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston misolida ko‘rinib turibdiki, mamlakat an’anaviy jamiyatga xos bo‘lgan yuqori tug‘ilish va o‘lim darajasidan,

ushbu koʻrsatkichlarning pasayishi hama tabiiy oʻsishning barqaror saqlanishi sharoitiga oʻtgan.

Inson kapitali nazariyasi aholi sifatini alohida ahamiyatga ega deb qarrab, fuqarolarning ta’lim olishi, sohliqni saqlash va kasbiy koʻnikmalarini rivojlanirishga investitsiya kiritishini taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta’kidlaydi. Oʻz navbatida neomaltuzian yondashuvlar resusrlarning cheklanganligini eslatib, aholi soni oʻsishini inobatga olgan holda mutanosib va barqaror rivojlanishiga e’tibor qaratish zarurligini koʻrsatai. Ushub nazariyalar davlatga demografik vaziyatni samarali boshqarish bzyicha ongli va asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Tarixiy jihatdan Oʻzbekiston demografik siyosatning shakllanishi bir necha muhim bosqichlardan oʻtgan. Mustaqillikning daastlabki-yillarda mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy muhitning keskin oʻzgarishiga dus kelib, bu aholini qoʻllab – quvvatlash boʻyicha tezkor choralarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ushub davrda ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qraratilgan dasturlarni joriy etish hamda tugʻilish oʻsishi uchun zarur shart – sharoitlarni yaratish ishlari amalga oshiriladi.

Keyingi oʻn-yilliklarda e’tibor aholi turmush sifatini yaxshilash, kambagʻallik darajasini kamaytirish hamda sogʻliqni saqlash va ta’lim tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratildi.

Hozirgi bosqichda demografik siyosat yangi chaqiriqlarni hal etish bilan tavsiflanadi, jumladan yoshlar salohiyatini boshqarish, ichki migratsiya jarayonlarini tartibga solish hamda inson kapitalini rivojlantirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston demografik siyosatida yoshlar alohida oʻrin tutadi. Mamlakat ahoisining taxminan 60 foizini 30 yoshgacha boʻlgan shaxslar tashkil etadi. Bunday katta yoshlar salohyatini samarali foydalanish uchun keng koʻlamli bandlikni ta’minlash, sifatli ta’limga keng imkoniyat yaratish hamda qulay ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan dasturlar zarur. Ushbu chora – tadbirlar samarali amalga oshirilmasa, ishsizlik va ijtimoiy keskinlik orqali iqtisodiyotga

demografik bosim yuzaga kelishi mumkin. Shu bois davlat ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, startaplarni qo‘llab – quvvatlash va ayniqsa, yoshlar migratsiyasi yuqori bo‘lgan hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Tug‘ilish siyosati va oilani qo‘llab – quvvatlash ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Davlat ko‘p bolali oilalar uchun iqtisodiy rag‘batlantiruvchi choralarni joriy etmoqda, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda hamda reproduktiv salomatlikni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Bu esa aholining tabiiy o‘sishini saqlab qolish bilan birga, chaqaloqlar va onalar o‘limi ko‘rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qiladi, bu ayniqsa ayrim hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya jarayonlarini tartibga solish ham demografik siyosatning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ichki migratsiya, ayniqsa qishloq hududlaridan shaharlarga ko‘chish jarayoni shahar infratuzilmasiga sezilarli bosimni yuzaga keltiradi va urbanizatsiyani samarali rejalashtirishni talab qiladi. Hukumat aholining qishloq hududlaridan chiqib ketishini kamaytirish maqsadida ushbu hududlarda yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqmoqda. Shuningdek, mehnat resusrlarini muvozanantni taqsimlash uchun yangi iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini rivojlantirish ustida ish olib bormoqda. Tashqi migratsiya esa iqtisodiy o‘sish imkoniyai sifatida, ya’ni pul o‘tkazmalari oqimi orqali qaralsada, xorijdagi fuqarolar huquqlarini himoya qilish maqsadida kuchaytirilgan nazoratni talab etadi.

Ilmiy tadqiqotlar va prognozlarga ko‘ra 21 asr o‘rtalariga kelib O‘zbekiston aholisi 40 million nafardan oshishi mumkin. Bu esa resurslarning barqarorligi va ijtimoiy tenglik masalalariga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Aholi soni o‘sishi ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda sifatli o‘zgmarishlar bilan birga kechishi lozim, aks holda demografik o‘sish iqtisodiy beqarorlik omiliga aylanib qolishi mumkin.

Demografik siyosatning eng muhim vazifalaridan biri demokratik

va iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashdan iborat. Iqtisodiy o‘sish, aholi turmush darajsini oshirish hamda inson kapitali rivoji davlatning aholi soni va tarkibini samarali byuoshqarish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, gender tengligini ta’minlash va aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan siyosat barqaror taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda demografik siyosat mustahkam ilmiy – nazariy asoslarga tayanib, barqaror va ijtimoiy adolatli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan. Demografik o‘tish nazariyasi, inson kapitali va mutanosib rivojanish konsepsiyalarig asoslangan holda davlat har bir fuqaro uchun munosib hayot sifatiga erishishni ta’minlashga intilmoqda. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning milliy demografik siyosati aholi sonining mutanosib o‘sishini ta’minlash, turmush sifatii darajasini yuksaltirish hamda kelajak avlodlar uchun barqaror ijtimoiy – iqtisodiy muhitni shakllantirishga qaratilgan strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Yosh va tez o‘sib borayotgan aholi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ichki migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va shahar hamda qishloq hududlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Aholi sonining prognoz qilinayotgan o‘sishi tizimli va muvozanatlashgan yondashuvli talab etadi. Eng muhim vazifalardan biri demografik o‘sishni sifat jihatdan o‘zgarishlarga aylantirishdan iborat bo‘lib, bu aholi turmush darajasini oshirish va mamlakat raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning demografik siyosati jamiyatning uyg‘un rivojlaishini ta’minlash, inson salohiyatini kuchaytirish hamda ijtimoiy tenglikka ta’minlash, inson salohiyatini kuchaytirsh hamda ijtimoiy

tenglikka erishishga qaratilgan. Ushbu siyosatning smarali amalga oshirilishi mamlakatning barqaror va farovon kelajagi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy jihatdan qaratilgan O‘zbekistonda demografik siyosat bir nechta muhim bosqichlarni bosib o‘tgan. 1991-yilda mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy muhitda keskin o‘zgarishlarga duch keladi. Bu esa ijtimoiy ifratuizmani jadal rivojlantirish va aholini qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ayniqsa, onalik va bolalikni muhofaza qilish, saqaloqlar o‘limi darajasini kamaytirish hamda tug‘ilishni rag‘batlantiruvchi asosiy shart – sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratildi.

Keyingi-yillarda e’tibor asosan tizimli va tarkibiy masalalarlag qaratildi. Jumladan, inson kapitalini rivojlantirish, aholi turmush sharoitlarini yaxshilash, sohliqni saqlash va ta’lim tizimlarini modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlarga aylandi.

O‘zbekistonda demografik siyosat rivojining zamonaviy bosqichi yangi chaqiriq va vazifalarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida yoshlar salohiyatini samarali boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar mamlakat aholisining 60 foizdan ortig‘ini tashkil etgani bois, ular strategik demografik resurs sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan davlat yoshlarni ish bilan ta’minlash, sifatli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda innovatsiyalar va startap tashabbuslarini qo‘llab – quvvatlash orqali ularning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun qulay shart – sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratmoqda. Biroq mazkur chora – tadbirlar yetarli darajada samarali amalga oshirilmasa, demografik bosimning iqtisodiyotga ta’siri kuchayishi mumkin. Bu esa ishsizlik darajasining oshishi va ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib kelishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Demografiya tarix, geografiya, antropologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, din kabi bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi. O‘rganilaligan sohaga qarab, demografik tadqiqotlar aholi soni va taqsimotning o‘zgarishi, uning etnik va ijtimoiy xususiyatlari, uning

dinamikasiga iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillarning ta’siri, shuningdek, aholining yashash va salomatlik sharoitlari to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etadi. Bularning bari davlatlar va tashkilotlarga jamiyatning samarali rivojlanishini rejalashtirish imkonini beradi.

Demograflar mamlakat aholisi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va talqin qilish bilan shug‘ullanadi. Ularning ishi aholini ro‘yxatga olish, tadqiqotlar va so‘rovlar o‘tkazish, shunigdek, aholi soni va tuzilishini baholash uchun ma’muriy ma’lumotlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlar aholini ro‘yxatdan o‘tkazish, tug‘ilish va vafot etish to‘g‘risidagi qaydnomlaar orqali davlat tomonidan to‘planadi.

O‘zbekistonda demograflar ishining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1.Tug‘ilish va o‘lim ko‘rstatkichlar tahlili. Demogarflar tug‘ilish va o‘lim tendensiyalarini o‘rganib, ushbu ko‘rsaktkichlarga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlaydi. Masalan, ular ijtimoiy – iqtisodiy daraja, ta’lim va tibbiy xizmatdan foydalanishning tug‘ilish va o‘lim darajasiga ta’sirini o‘rganish mumkin. Bu hukumatga turmush va sog‘liqni saqlash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha chora – tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

2.Migratsiya jarayonlarini o‘rganish. O‘zbekistonda ham ichki,ham tashqi migratsiyaning sezilarli oqimi kuzatilmoqda. Demograflar migratsiya sabablarini, uning iqtisodiyot va jamiyat uchun oqibatlarini tahlil qiladi, shuningdek, migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

3.Aholi soni va tarkibini prognoz qilish. Dnmograflar demokrafik rivojlanish prognozlarini joriy tendensiyalar asosida tuzadi. Ushbu prognozlar davlat organlariga infratuzilmani rejalashtirish, t’alim va sog‘liqni saqlash bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

4.Aholining yosh tarkibini o‘rganish.Demograflar aholining yosh tarkibi vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini o‘rganadi. Bu ayniqsa, aholining keksayishi yoki yoshlar ulushining o‘sishi sharoitida mug‘imdir. Yosh tarkibini o‘rganish ta’lim va ijtmoiy siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi.

Demograflar uchun-yillik yozgi maktablar an’anaviy ravishda “Oila va gender” ilmiy – tadqiqot instituti huzuridagi UNFPA ko‘magida tashkil etilgan demografik laboratoriya faoliyati doirasida uyushtiriladi. Ularnig maqsadi – ishtirokchilarni mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi uchun demografik ma’lumotlardan samarali foydalanishga o‘rgatishdir. Dastur demografik o‘zgarishlar va ularning ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotning turli sohalariga ko‘rsatadigan ta’siri bilan bog‘liq keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demografik siyosat nimani anglatadi?
2. Ichki tajriba deganda aynan nima tushuniladi?
3. Tashqi tajriba qanday amaliy ahamiyatga ega?
4. Tug‘ilish siyosati odatda qanday natijalar beradi?
5. O‘lim darajasi qanday omillarga bog‘liq bo‘ladi?
6. Migratsiya siyosati davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
7. Aholi sonining o‘sishi nimaga ta’sir qiladi?
8. Jamiyatda oila siyosati qanday vazifalarni bajaradi?
9. Sog‘liqni saqlash nima uchun muhim omil hisoblanadi?
10. Davlat boshqaruvi demografiyada qanday o‘rin tutadi?

X BOB. IQTISODIY DEMOGRAFIYA

10.1.Demografik omillarning iqtisodiyotga ta'siri, iqtisodiyotning demografik jarayonlarga ta'siri.

10.2.Demografiya va biznes.

Tayanch so‘zlar: aholi soni, mehnat resurslari, tug‘ilish, o‘lim, bandlik, ishsizlik, daromad, aholi tarkibi, demografik yuklama, inson kapitali, iqtisodiy faollik, aholi takror barpo bo‘lishi.

10.1.Demografik omillarning iqtisodiyotga ta'siri, iqtisodiyotning demografik jarayonlarga ta'siri.

Oilalarning farovonligi o‘sishi nafaqat ularning shahsiy boyligini, balki davlatning iqtisodiy qudratini ham mustahkamlashning zarury sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, iqtisodiyot pasayishi aholi qaytarilishi va oila shakllanishi sharoitlarini yomonlashtiradi. Bu esa oilaning iqtisodiy ahvoli mamlakatning ijtimoiy – demografik siyosatini ishlab chiqishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

19 asrning boshlarida aholi o‘sishi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni, shu jumladan, iqtsodiyot holati va texnologik jaaryonlar o‘zgarishlarini ham e’tirof etar edi. Biroq keyinchalik, Richard A.Isterlin fikriga ko‘ra, olimlarning e’tibori ko‘proq aholi va iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabatning qisqa muddatli jihatlariga qaratiladi. Bu tufayli uzoq muddat davomida ilmiy adabiyotlarda aholi va iqtisodiyot masalasi kamida baholandi va “G‘arbda deomgrafik shartlar o‘zgarganda, Maltus tasavvurlari avvalgi ahamiyatini yo‘qotadi va o‘zi noto‘g‘ri bo‘lgan deb ehlon qilindi.”. Shu paytgacha aholi masalalari iqtisodiy muammolar bilan bog‘liq emas deb hisoblanar edi. So‘ngra, jamiyat rivojlanishining uzoq muddatli muammolari qayta ko‘tarilganda, aholi masalasini o‘rganish yanada dolzarb bo‘ldi. Ko‘p olimlar demografik va iqtisodiy jarayonlarnnig o‘zaro ta’siri bilan qiziqdi, lekin uni rejali jarayon sifatida ko‘rdi:rejali xo‘jalikda o‘sib borayotgan iqtisodiyot tegishli aholi va mehnat resurslari o‘sishi bilan taxminlanishi kerak edi. Shu davrda demografik dinamika keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlar, bepul tibbiy xizmat va bepul ta’lim bilan

ta’minlanar edi. Shunday ekan, uzoq vaqt mobaynida ijobiy demografik o‘sish yuqori mehnat samaradorligi va iqtisodiy ko‘tarilish bilan hamohang bo‘lgan.

Hozirgi zamonaviy global iqtisodiyot rivojlanishi bosqichida davlatlarning demografik va iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik shubhasiz ekanligi aniqlandi. Aholi holatif aqfat iqtisodyoitga bog‘liq emas, balki iqtisodiyot ham to‘g‘ridan - to‘g‘ri demografik vaziyatga bog‘liqdir. Xususan aholi soni va sifati hamda mehnat resurslari shakllanish jarayonlarigadir.

E.Felpsning aholi va iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga oid o‘ziga xos yondashuvi demografik vaziyatni yaxshilash bilan barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishni maqsad qilgan. U mamlakatlarda iqtisodiy – demografik rivojlanish konsepsiyasini ishla chiqishni taklif qilgan va shuningdek, “nasl davomiyligi uchun oltin qoidani” nazarda tutgan. Bu terminni E.Felps kapital yig‘ishning “oltin qoidasi”ga o‘xshashlik qilib, ya’ni iqtisodiyotning barqaror holatini ta’minlaydigan kapital to‘panish darajasi va eng yuqori iste’mol darajasidan iboratdir. Felp fikriga ko‘ra, rivojlanmagan mamlakatlarda aholi o‘sishi yuqori sur’atlarda iqtisodiy jihatdan oqilona emas. Shu bois “nasl davomiyligi uchun oltin qoida” modelining asosiy tamoyili shunday:qaysi darajada doimiy tug‘ilish koeffitsienti past bo‘lsa, shu darajada aholi uchun doimiy daromad yuqori bo‘ladi”. Uning fikricha, bu qoida barqaror o‘sish uchun muvozanatni belgilaydi, unda ijtimoiy farovonlik funksiyasi maksimallashtiriladi va bu funksiya tug‘ilish koeffitsienti va aholi boshiga iste’mol darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

1980-yillarda Yaponida “mukammal milliy qudrat” konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u katta darajada aholi holatiga tayangan. Bu konsepsiyaning o‘rnini uch toifa egallagan:

1. Xalqaro jamiyatga hissa qo‘shish qobiliyati – davlatning global maydonda ijobiy va samarali ta’sir ko‘rsatish imkoniyati;
2. Qiyin va ekstremal halqaro vaziyatlarda tirik qolish qobiliyati – fojiaviy vaziyatlarda davlat va aholining barqarorligini ta’minlash salohiyati;
3. Kuch qo‘llash salohiyati – davlatning o‘z irodasini boshqa

mamlakatlarga ta’sir ettirish qobiliyati, ya’ni strategik va siyosiy ta’sir ko‘rsatish salohiyati.

Ushbu ko‘rsaktichlarning o‘rtacha vaznli qiymati har bir davlat uchun “mukammal milily qudrat” indeksi sifatida hisoblanadi. Muhim jihati shundaki, “tirik qolish qobiliyati” tarkibiga aholi soni va milliy ma’naviy ruh kabi jemogarfik hamda ijtimoiy – psixologik omillar ham kiritiladi. Bu esa demografik salohiyat va jamiyatning ichki birdamligi davlat qudratini baholashda strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Demografik o‘sish va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik masaalsi ikki asrdan ziyod vaqt davomida ilmiy munozaralar markazida bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu ikki jarayon o‘rtasida muayyan sabab – oqibat aloqalari mavjudligi haqidagi qarashlar mustahkamlanib bormoqda.

United Nations Population Fund hisobotlarida ta’kidlanishicha, ko‘p bolali oilalar ulushining yuqoriligi va aholining tez sur’atlarda o‘sishi iqtisodiy taraqqiyotiga to‘siq bo‘lishlari mumkin. Bunday demografik holat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini sekinlashtiradi, kam ta’minlangan qatlamlar iste’molining oshishi cheklaydi hamda qashshoqliknnig saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Hisobot mualliflarining fikricha, agar 1980-yillarda barcha mamlakatlarda tug‘ilish darajasini pasaytirishga eoishilganda, jahonda qashshoqlik darajasi taxminan uchdan bir qismga kamayishi mumkin edi. Shu nuqtai nazardan, qashshoqlikning bartaraf etish siyosati faqat iqtisodiy chora – tadbirlar bilan cheklanmasdan, demografik jarayonlarni tartibga solish, aholinin reproduktiv xulq – atvorini takomillashtirish hamda kam ta’minlangan aholi yashaydigan hududlardagi noqulay sanitariya sharoitlarini yaxshilashni ham qamrab olishi lozim.

Mazkur yondashuvning nazariy asosi 1960-1970-yillarda keg tarqalgan neomaltuzianlik g‘oyasiga borib taqaladi. Ushbu qarashga ko‘ra, yuqori tug‘ilish darajasi iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy to‘siq bo‘lib, aholining tez o‘sishi resurslar taqchilligini kuchaytiradi va qashshoqlikni saqlab qoladi. Shu ta’sir ostid ko‘plab mamlakatlarda davlat va jamoat fondlari hisobidan moliyalashtirilgan oilani

rejalashtirish dasturlari ishlab chiqildi hamda ular kambag‘al mamlakatlar iqtisodiy muammolarining universal yechimi sifatida taqdim etildi.

Biroq 1980-yillarda o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar neomaltuzian g‘oyalarning bir qator jihatlarini shubha ostiga qo‘ydi. Natijada iqtisodiy o‘sishning yangi konseptual talqini shaknllandi. Unga muvofiq, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri moddiy aktivlar shaklidagi jismoniy kapital emas, balki inson kapitali, bilim va texnologiyalar taraqqiyoti hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarafdorlarining fikricha, demografik bosim ijtimoiy institttular, texnologiyalar va siyosiy tizimlarda islohotlar o‘tkazilishiga turtki berishi mumkin. Demografik o‘sish ayrim hollarda noto‘g‘ri siyosiy qarorlar, korrupsiya yoki tabiy resurslar yetishmasligi kabi omillarga qaramay iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan holi emas. Shunday qilib, zamonaviy ilmiy qarashlarda deomografik jarayonlar iqtisodiy rivojlanishning faqat cheklovchi emas, balki muayyan sharoitlarda rag‘batlantiruvchi omili sifatida ham baholanmoqda.

So‘nggi-yillarda iqtisodchilar deomgrafik jarayonlarning iqtisodiy rivodlanishdagi hal qiluvchi ahamiyati haqidagi fikrlarga qayta murojaa qilmoqda. Biroq United Nations Population Fund hisobotlarida ta’kidlanishicha, iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy demografik omil aholi sonining mutloq o‘sishi emas, balki yosh tarkibining o‘zgarishi, ya’ni yosh piramidasidagi siljishidir.

O‘rtacha umr davomiyligining oshishi, odatda, tug‘ilish darajasining pasayishi va ayollar fertilliginnig kamayishi bilan birga kechadi. Bu jarayonlar aholining yosh tarkibida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Demografik o‘tish bosqichida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushi ortishi mumkin, keyinchalik esa aholining qarishi natijasida boqimandalar ulushi kshpayishi ehtimoli yuzaga keladi. Shu bilan birga, oila hajmining qisqarishi ayollarning iqtisodiy faolligi va mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Mehnat bozori yangi ishchi kuchini o‘zlashtira olgan sharoitda mehnat unumdorligi o‘sishi mumkin. Bu holat iqtisodiy adabiyotlarda

“demografik divdidend” deb ataladi. Demografik dividend mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi hisobiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirib, jamg‘arma va investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beradi. Oilalarda farzandlar sonining kamayishi har bir bolaga yo‘naltiriladigan sarf – xarajatlarni ko‘paytirish imkonini yaratadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlashga ko‘proq investitsiya kiritilishi esa kelgusida yanada malakali va yuqori samarador mehnat resurslarnini shakllantirishga zamin yaratadi. Shunday qilib, zamonaviy yondshuvlarga ko‘ra, demografik o‘zgarishlar iqtisodiy taraqqiyotga salbiy yoki ijobiy taxsir ko‘rsatishi ularning tarkibiy xususiyatlari va institutsional muhitga bog‘liqdir.

Har xil demogarfik o‘sish va uning vaqt osha o‘zgarishi iqtisodiy rivojlanishda eng muhim omillardan hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish birinchi va so‘nggi demografik o‘tish bosqichlarida sekinlashadi, bu vaqtda eng yosh va eng qariyb yoshdagi aholi qavmlari moni maksimal darajaga yetadi. “Demografik dividendlar” faqat o‘rtacha demografik fazada paydo bo‘ladi va bu jarayon bir marta sodir bo‘ladi. Uzoq muddatda past fertillik darajasi aholi tarkibida qariyalarning ulushi nisbatan ortishiga olib keladi, bu esa boqimandalar koeffitsientining (pensioner va mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar nisbati) oshishiga sabab bo‘ladi.

“Demografik dividend”lar iqtisodiyot va jamiyatga avtomatik ravishda kelmaydi. Ularings amarali amalga oshirilishi uchun adolatli siyosiy qarorlar talab etiladi. Bularga aniq misol sifatida mehnat bozoridagi elastiklikni ta’minlash, investitsiya va tejamkorlkini rag‘batlantirish, ta’lim va tibbyot sohalarida imtiyoz va yordamlar berish kabi chora – tadbirlarni ko‘rsatish mumkin. Bularnig barchasi iqtisodiy faol aholining mehnat samaradorligini yuqori darajada ta’minlashning asosiy shartlari hisoblanadi.

Agar holat shunday bo‘lsa, demografik jarayonlar natijasida yosh tuzilishidagi o‘zgarishlar - aniqrog‘i, o‘lim darajasi va tug‘ilish darajasining pasayishi - iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Qashshoqlik masalasiga kelsak, uning kamayishi faqat iqtisodiy o‘sish orqali emas, balki tug‘ilishning kamayishi orqali ham

ta’sinlanishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, iste’molni kambag‘al aholiga qayta taqsimlashga va ayollarning mehnat bozoriga kirishi natijasida ularning daromadalarini oshirishga yordam beradi.

“Demografik dividendlar” Janubi - Sharqiy Osiyo mamlakatlardagi “iqtisodiy mu’jiza”ning asosiy qismiga aylandi. 1950-yillarda bu mamlakatlarda bir ayolga o‘rtacha olti nafar bola to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich ikki nafarga tushgan. Tug‘ilishning kamayishi natijasida iqtisodiy faol aholi ulushi 1965-yildagi 57%dan 1990-yilda 65%ga ko‘tarilgan, bu esa ijaradorlar sonining o‘sishiga nisbatan to‘rt barobar yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilgan.Ba’zi baholashlarga ko‘ra “demografik dividendlar” o‘sha davrda aholi boshiga daromad o‘sishining taxminan uchdan birini ta’minlagan. Lotin Amerikasi mamlakatlari esa bu fenomendan to‘liq foydalanish imkoniga ega bo‘lmagan. Demografik sharoitlar qonuniy bo‘lsada, 1975-1998-yillarda aholi boshiga daromad o‘rtacha faqat 0,7%ga o‘sgan, bu JShO mamlakatlaridagi 6,8%ga nisbatan ancha kam. Bu asosan, noto‘g‘ri siyosiy tanlovlar natijasida hisoblanadi. Tadqiqotlar maxlumotlariga ko‘ra, agar mintaqada savdo rivojlantirilganida, aholi boshiga daromad o‘sishi ikki barobarga ko‘payishi mumkin edi.

10.2.Demografiya va biznes.

So‘nggi o‘n ikki-yil ichida demografiya fanining ahamiyati jahon miqyosida sezilarli darajada oshdi. Biznes – demografiya bu yo‘nalish bo‘lib, u qo‘llanilayotgan hudud va muayyan iqtisodiy sharoitlarda belgilangan vaqtda faoliyat yuritayotgan tadbirokrlik sub’ektlarining soni va tarkibini o‘z ichiga oluvchi, ularning tug‘ilishi, o‘limi va hayot davomiyligini statistik tahlil qiladigan sohadir.

Demografik tadqiqotlar orqali olingan ma’lumotlar jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida qo‘llanila boshladi. Eng ko‘p ta’sir esa iqtisodyoitda sezilyapti. Xususan, biznes va marketingda demografik ko‘rsaktichlar keng ko‘llaniladi, chusnki mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj, istaklar va iste’mol intensivligi ko‘pincha aynan shu ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, demografik

xususiyatlarni koʻplab boshqa oʻzgaruvchilardan osonroq oʻlchash mumkin. Demografik maʼlumotlarning biznesdagi amaliyotida qoʻllanilishi sohasi “demografiks” yoki “biznes – demografiya” deb ataladi. Bu termin soʻnggi oʻn besh-yil ichida demografik adabiyotda va marketing maqolalarida tobora koʻp uchray boshladi. Biznes-demografiyaning rivojlanishi 1990-yillarga toʻgʻri keladi va uchta asosiy omil bilan izohlanadi.

Birinchidan, demografik maʼlumotlar ancha kengroq mavjud boʻlib qoldi, ularni tahlil qlishning yangi usullari paydjo boʻldi va murakkab modellar yaratildi. Qaror qabul qilish jarayoni uchun aniq maʼlumotlarga asoslangan puxta rejalashtirilgan startegiya zarur edi, shu bois demogshrafik tahlil uning ajralmas qismiga aylandi.

Ikkinchidan, marketing tadqiqotlarida demografik tahlilning keng qoʻllanilishi varorlar barchasi aniq maʼlumotlarga asoslanadi degan umidni yaratadi;bu maʼlumotlarning mavjudligi 1980-yillar va 1990-yillar boshlarida katta darjada oshdi. Ishonchli maʼlumotlarga asoslangan rejalashtirish bozorni eng smarali shakllantirishni taʼminlaydi.

Uchinchidan, kompyuter texnikasi va dasturiy taʼminotning takomillashishi katta maʼlumotlar bazalarini saqlash va kerakli maʼlumotlarni toʻsiqsiz toʻplash imkonini berdi. Turli bazalardan foydalanish demografik jarayonlar va savdo tashkilotlari oʻotasidagi bogʻliqlikni aniqlash imkonini yaratadi. Maxsus dasturlar esa zarur maʼlumotlarni grafiklar va jadvallarga aylantirilib, tahlilni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Biznes – demograflar migratsiya, oʻlim va tugʻish kabi demografik koʻrsatkichlar hamda ularning biznes muhitiga taʼsirini oʻrganadilar. Aholi va xonadonlarni ehtimoliy tovar va xizmatlar isteʼmolchilari sifatida tahlil qilgan holda, shuningdek, jins, yosh, moliyaviy ahvol, kasb, milla va boshqa demografik maʼlumotlarga ega boʻlgan holda, kompaniyalar oʻz mahsulotlarining savdo hajmi, narxlari va reklama strategiyasini samarali tarzda muvofiqlashtirishi, yangi savdo nuqtalarini ochish boʻyicha qarorlar kabul qilishi mumkin. Masalan, oilaning turmush davri kabi demografik koʻrsatkichlar oila va xonadon

strukturasining vqaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini aks ettiradi. Bir necha bosqichni ajratadi. Masalan, kichik bolali yosh oila yoki kattalardan alohida yashadigan qari ota – onalar, har biri esa moliyaviy holati va xarid qoidalari bilan ajralib turadi.

Barcha zarur demografik ma’lumotlarga ega bo‘lgan marketing kompaniyalar iste’molchilarning afzalliklari, ehtiyojlari va turmush darajasini hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega. Ammo demografik tahlil faqat savdo hajmi, mahsulot sifati, tovar narxlari va savdo nuqtalari soni bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun emas, balki kompaniya ichida mehnat resurslarini taqsimlash siyosati va rejalashtirishda ham zarur. Masalan, aholi qariyb borayotgani sababli pensiya yoshiga yetgan shaxslar ulushi ortishi mumkin; bu esa kompaniyalarni nogiron yoki pensiyaga chiqqan xodimlarning o‘rnini to‘ldirishga majbur qiladi. Kompaniyada xodimlar a lanish davrini belgilovchi xizmat muddati jadvali va grafigi tahlili ushbu sohada optimal qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Olingan ma’lumotlar aossida pensiya reajsi shakllantiriladi. Ayniqsa, kompaniya kengayganda, yangi hududlarga kirganda yoki shartnomalar tuzganda, mehnat resurslari hajmi, takribi va geografik taqsimoti haqidagi ma’lumotlar juda muhimdir. Demografik ma’lumotlarni biznesni boshqarishda qo‘llash rahbariyat uchun beqiyos yordam hisoblanadi.

Biznes demografiya – iqtisodiy va siyosiy muhitga, ijtimoiy – madaniy, texnologik va geografik sharoitlarga ta’sir ko‘rsatadi; shu tarzda u aholining ijtimoiy tarkibini, hamda hudud va mamlakat iqtisodiyotining samarali faoliyati sifatini belgilaydi.

10.1-jadval

Janubiy mintaqa davlatlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar demografiyasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar dinamikasi, birlikda

Ko‘rsatkich	2019 y.	2020 y.	2021 y.	O‘sish sur’ati, %
Faol korxonalar soni, shu jumladan	**236048**	**216891**	**207008**	**87,7**
yangidan tashkil topganlar	16466	12724	13323	80,9

bir-yilliklar	17571	16032	12487	71,1
ikki-yilliklar	18241	14679	13847	75,9
uch-yilliklar	17808	15362	13048	73,3
to‘rt-yilliklar	21163	14985	13592	64,2
besh-yilliklar	23645	18661	13273	56,1
Tugatgan korxonalar soni, shu jumladan	**43161**	**30765**	**22691**	**52,6**
bir-yilliklar	1548	1519	1368	88,4
ikki-yilliklar	3878	2730	2075	53,5
uch-yilliklar	4700	2659	1538	32,7
to‘rt-yilliklar	3989	2602	1634	41,0
besh-yilliklar	3939	2635	1572	39,9
Kamayish (-) / O‘sish (+)	**192887**	**186126**	**184317**	**95,6**
Muvofiqlashtirish koeffitsiyenti	**5,47**	**7,05**	**9,12**	**x**
Ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlarning Rossiya ko‘rsatkichlaridagi ulushi, %	**7,6**	**7,7**	**7,8**	**x**
Tugatilgan tashkilotlarning Rossiya ko‘rsatkichlaridagi ulushi, %	**2,7**	**2,7**	**3,6**	**x**

10.2-jadval

Janubiy mintaqa faoliyat yuritayotgan korxonalarning tadbirkorlik faolligini tavsiflovchi koʻrsatkichlar dinamikasi, birlikda

Koʻrsatkich	2019 y.	2020 y.	2021 y.	Oʻsish sur'ati, %
Faol korxonalar soni, shu jumladan	**236048**	**216891**	**207008**	**87,7**
Xodimlar sonining oʻsish sur'ati mezoni boʻyicha	**12495**	**12512**	**12665**	**100,6**
tez oʻsuvchi	3990	4158	4531	113,6
yuqori oʻsish salohiyatiga ega	8212	8131	7861	95,7
«gazellar»	393	223	273	69,5
Aylanma mablagʻlar oʻsish sur'ati mezoni boʻyicha, shu jumladan	**89136**	**37249**	**31224**	**35,0**
tez oʻsuvchi	37012	13594	11785	31,8
yuqori oʻsish salohiyatiga ega	49730	23051	19015	38,2
«gazellar»	2394	604	424	17,7
«Soʻnib borayotgan korxonalar» soni	**4716**	**6696**	**6583**	**139,6**

Demografiya har qanday biznes tashabbusning muvafffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli demografik guruhlarning xususiyatlari, afzalliklari va xulq – atvorini tushunish orqali korxonalar oʻz markteting strategiyalarini, mahsulot takliflari va mijozlar tajribasini moʻljalli auditoriyaning ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin. Dnmografiyaning biznesdagi ahamiyatini vuiydagi misollar orqali koʻrishimiz mumkin:

1. Moʻljalli auditoriyani nivqlash:yosh,jins, daromad darajasi va joylashuv kabi demografik ma'lumotlar korxonalarga oʻz mjozlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan,qimmatbaho brend boy aholiga moʻljallangan boʻlsa, reklama va marketing faoliyatini boy aholi

konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naltirishi mumkin. Bu orqali brend salohiyatli mijozlarni samarali ravishda jalb qiladi.

2. Mahsulot va xizmatlarini moslashtirish: demografiya korxonalarga turli iste’mol guruhlarining maxsus afzalliklari va ehtyojlarini tushunish imkonini beradi. Masalan, terini parvarsh qilish kompaniyasi muayyan yosh guruhi uchun qarishga qarshi mahsulotlar (kremlar, serumlar) ishlab chiqio‘i va taklif qilishi mumkin. Bu orqali mijozlarning ehtiyojlariga mos mahsulotlar taqdim etiladi va ularning sodiqligi oshadi.

3. Mijozlarga xizmat sifatiini oshirish:demografiya mijozlar uchun shahsiy va individual tjriba yaratishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, oilalarga mo‘ljallangan mehmonxona bolalar uchunn o‘yin maydonlari, mu’tabarlik xizmatlari va oilaviy tadbirlarni taklif qilishi mumkin. Mijozlarning demografik tarkibini tushunish orqali korxonalar ularning maxsus ehtiyojlarini qondiruvchi muhit yaratadi va bu mijozlar mamnunligini va takroriy tashriflarini oshiradi.

4. Yangi tendensiya aniqlash:demografik ma’lumotlar iste’molchilar xulq-atvoridagi yangi tendensiyalar va o‘zgarishlar haqida ma’lumot beradi. Masalan, milleniallar qatorida barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli mahsulotlarga talab oshganini uchun, korxonalar ekologik toza va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli amaliyotlarni kiritish orqali raqobatdan oldin turishi mumkin.

Bozor salohiyatini baholashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan asosiy demografik omillar quyidagilardan iborat:

1.Yosh – bozor imkoniyatlarini aniqlashda eng muhim demografik ko‘rsatkichlardan biri. Maqsadli aulitoriya yoshi ularning iste’mol afzalliklari, xarid qobiliyati va mahsulot yoki xizmatga bo‘lgan umumiy talabiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, agar biznes zamonaviy moda mahsulotlarini taklif etsa, yoshlar segmentiga yo‘naltirilgan strategiya samaraaliroq bo‘ladi. Aksincha, pensiya rejalashtirish xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniya uchun kattaroq yoshdagi qatlami maqsadli auditoriya hisoblanadi.

2.Daromad darajasi – daromad miqdori iste’molchilarning to‘lov qobiliyati va sarf – xarajat qilishga tayyorgarligini belgilaydi. Lyuks

toifasidagi mahsulot yoki yuqori sifatli xizmatlar taklif etuvchi biznes yuqorii daromadli auditoriyaga mo‘ljallanishi maqsadga muvofiqdir. Byudjet mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar esa o‘rta yoki past daromadli qatlamga yo‘naltirilgan marketing siyosatini olib borishi samrali bo‘ladi.

3.Joylashuv – hududiy joylashuv iste’molchilarning xulq-atvori va eg‘tiyojlariga ta’sir qiluvchi muhim omildir. Turli huddularda yashovchi aholining iste’mol odatlari farq qiladi. Masalan, sohil hududida faoliyat yurituvchi biznes suv sporti va ochiq havodagi faoliyat turlariga qiziquvchi auditoriyaga e’tibor qaratishi mumkin. Qishloq joylarda esa agrar sohalarga oid mahsulot va xizmatlarga talab yuqori bo‘lishi ehtimoldir.

4.Ta’lim va kasb - maqsadli auditoriyaning ta’lim darajasi va kasbiy faoliyati bozor salohiyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masala, kasbiy malaka oshirish kurslarini taklif etuvchi kompaniyalar karera rivojlanishiga intilayotgan shaxslarga yo‘naltirilishi lozim. Yuqori texnologiyali mahsulotlar yoki xizmatlar taklif etilgandja esa yuqori malakali va texnik bilimga ega auditoriya samarali segment hisoblanadi.

5.Turmush tarzi va qiziqishlar – iste’molchilarning turmush tarzi va qiziqishlarini tahlil qilish bozor imkoniyatlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatgaega.Masalan, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqaruvchi biznes barqaror rivojlanish hoyalarini qo‘llab – quvvatlovchi auditoiyaga yo‘naltirilishi kerak. Fitnes va sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liq xizmatlar esa sog‘lom hayotga qiziquvchan aholi qatlamiga mos keladi.

Jins va etnik mansublikning bozor salohiyatiga ta’sirini anglash kompaniyalari uchun maqsadli auditoriyalrni samarali qamrab olish va bozor ulushini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli jins va etnik guruhlarning o‘ziga xos ehtiyojlari, qadriyatlari va iste’mol xulq – atvorini hisobga olgan holda korxonalar marketing strategiyasni va mahsulot takliflarini moslashtirishi mumkin:

1.Jins omili – iste’mol qarorlarini shkllantirishda muhim rol o‘ynaydi.Masalan, ayollar ko‘p hollarda oilaviy xaridlar bo‘yicha

asosiy qaror qabul qiluvchi hisoblanadi va sog‘liq hamda go‘zallikka oid mahsulotlarga yuqori qiziqish bildiradi. Shu sababli, kosmetika, sog‘lom turmush tarzi yoki fitnes xizmatlarin taklif etuvchi kompaniyalar ayollar segmentini maqsadli ravishda qamrab olishi mumkin. Erkaklar esa texnologiya, sport jihozlari yoki avtomobil mahsulotlariga nisbatan yuqori qiziqish bildirishi mumkin. Ushbu farqflarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan marketing kompaniyalari bozorda samaradorlikni oshiradi.[13]

Biznes salohiyatidan to‘liq foydalanish uchn strategiyangizni maqsadli auditoriya demografiyasiga moslashtirish zarur. Mijozlarning yosh, jins, daromad darajasi, ta’lim, joylashuv va boshqa demografik xususiyatlariga asoslangan holda ularning ehtiyojlari, afzalliklari va xulq – atvorini chuqur tahlil qilish qimmatli ma’lumot manba bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tahlil natijalari marketing kompaniyalarini samarali yo‘naltirish, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish, narx siyosati va tarqatish kanallarini to‘g‘ri belgilash hamda umumiy biznes startegiyani optimallashtirishga imkon beradi. Demografik omillarni hisobga olgan holda qabul qilingan qarorlar bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi va mijozlar bilan barqaror mnosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Iqtisodiy demografiya nimani tahlil qiladi hamda o‘rganadi?
2. Aholi soni iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Mehnat resurslari qanday shakillanadi va rivojlanadi?
4. Iqtisodiy jihatdan o‘lim darajasi nimani ifodalaydi?
5. Migratsiya iqtisodiy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Bandlik darajasi nimaga bog‘liq bo‘ladi?
7. Ishsizlik qanday iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi?
8. Daromad darajasi aholi turmushini qanday belgilaydi?
9. Inson kapitali iqtisodiyotda qanday o‘rin tutadi?
10. Aholi takror barpo bo‘lishi nima?

[13] Медков В.М. Введение в демографию. – М.: ИНФРА-М, 2006. С320.

XI BOB. ETNIK DEMOGRAFIYA

11.1. Etnik guruhlar demografik o'rganish ob'ekti sifatida.
11.2. Demografik jarayonlarning etnik jihatlari.

Tayanch so‘zlar: etnos, elat, millat, etnik tarkib, etnik guruh, milliy tarkibi, assimilyatsiya, integratsiya, dispersiya, til birligi, madaniy meros, an’anaviylik, ko‘p millatlik.

11.1.Etnik guruhlar demografik o'rganish ob'ekti sifatida.

Etnik demografiyaning predmet sohasini belgilashdan oldin, etnologiya va demografiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda ularning tadqiqot yo‘nalishlari qay darajada kesishishini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Ma’lumki, etnologik tadqiqotlarda o‘rganilayotgan xalqlarnig faqat madaniy yoki ijtimoiy xususiyatlari emas, balki ularning miqdory ko‘rsatkichlari ham tahlil qilinadi. Etnolog uchun muayyan etnosning hozirgi kunlagi soni, uning tarixiy dinamikasi va demografik o‘zgarishlari haqidagi ma’lumotlar juda muhimdir. Chunki, muayyan hududda yashovchi xalqlar sonini bilish ular o‘rtasidagi madaniy o‘zaro ta’sirni, assimilyatsiya yoki integratsiya jarayonlarini, shuningdek, etnik dinamikani tahlil qilish imkonini beradi.

Odatda, aholisi ko‘p bo‘lgan xalqlar qo‘shni etnik guruhlarga nisbatan kuchliroq madaniy ta’sir o‘tkazadi. Biroq ayrim holatlarda soni jihatidan kichik etnoslar o‘z milliy o‘ziga xosligini saqlab qolish maqsadida tashqi madaniy ta’sirlarga qarshi turishga, ma’lum darajada yopiqlik siyosatini yuritishga intiladi. Bu holat etnik jarayonlarning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi hamda demografik va etnologik tahlillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

O‘zaro aloqaga kirishgan etnoslar soni etnik jarayonlar kechishiga sezilarli ta’sir ko‘rasatadi. Ma’lumki, boshqa sharoitlar teng bo‘lgan holda, soni jihatidan kichik etnik guruh kattaroq etnik muhit tomonidan assimilyatsiyalanayotgan guruhning yosh – jins tarkibiga ham bog‘liq: yoshlar ulushining yuqoriligi yoki nikoh tuzish darajasi jarayon tezligiga ta’sir etishi mumkin. Bundan tashqari, assimilyatsiya dinamikasi muhojir guruh yangi ko‘chib keluvchilar hisobiga

muntazam to‘ldirilib borilayotgani yoki yo‘qligiga ham bog‘liq. Agar migratsiya oqimi davomli bo‘lsa, etnik guruh o‘z madaniy xususiyatlarini uzoqroq saqlab qolishi mumkin, aks holda esa u tezroq singib ketishi ehtimoli ortadi.

Shuningdek, xalqlar soniga doir miqdoriy ma’lumotlar ularning etnik tarixini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yirik etnos taraqqiyoti kichik etnik birlik rivojlanishidan tubdan farq qiladi, aholi sonining keskin qisqarishi esa xalqning keyingi tarixi va madaniy yo‘nalishini mutlaqo o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shu sababli, etnik tarixni tahlil qilishda etnologlar ko‘pincha tarixiy demografiya materiallariga tayanadilar.

Demograflar ham o‘z tadqiqotlarida ko‘pincha etnologik ma’lumotlariga ehtiyoj sezadilar. Chunki turli xalqlarda tabiiy barpo bo‘lish ko‘rsatkichlari – tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish darajalari – sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois demografik jarayonlarni tahlil qilishda etnik omilni hisobga olish ilmiy jihatdan zarurdir. Masalan, tug‘ilish darajasiga muayyan xalqda ustun bo‘lgan oila tipi, ko‘p bolalikka bo‘lgan an’anaviy munosabat, nikoh yoshi va reproduktiv xulq – atvor me’yorlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim kasalliklarning tarqalishi va ular bilan bog‘liq o‘lim ko‘rsatkichlari ko‘p hollarda aholining ovqatlanish tarkibi, taom tayyorlash usullari hamda an’anaviy xo‘jalik faoliyati xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Demografik jarayonlarga etnik omil sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sabali, etnik jihatdan xilma – xil tarkibga ega mamlakatlardadjemografik ko‘rsatkichlarni faqat umumiy darajada emas, balki alohida yashovchi etnoslar kesimida ham xisoblash maqsadga muvofiqdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bir mamlakat doirasida turli xalqlar o‘rtasida tug‘ilish, o‘lim, nikoh va boshqa demografik ko‘rsatkichlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Biroq bunday tahlillar ko‘p millatli davlatlarning faqat ayrimlaridagina muntazam amalga oshiriladi. Demografik jarayonlarning etnik jihatini aniqlashda demograf mutaxassis muayyan etnologik bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Aks holda, u etnik guruhni irqiy guruh bilan adashtirib

qo‘yishi, subetnosni mustaqil xalq sifatida talqin qilinishi yoki shunga o‘xshash metodologik xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shuning uchun demografiya va etnologiya o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik aholi jarayonlarini to‘g‘ri va xolis baholashda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Demografiya va etnologiya o‘rtasidagi yaqin o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, ularnig tadqiqot ob’ektlaridagi umumiylik natijasida ushbu fanlar kesishmasida yangi chegaraviy tadqiqot ob’ektlaridagi umumiylik natijasida ushbu fanlar kesishmasidagi yangi “chegaraviy” ilmiy yo‘nalish – etnik demografiya shakllandi.

Etnik demografiyani etnologiya fanining tarkibiy qismi siftida qarash mumkin. Shu ma’noda uning tadqiqot lb’ekti, etnologiya kabi xalqlar yoki etnoslar hisoblanadi. Birv vaqtning o‘zida u demografiya fanlari tizimiga ham kiradi va demografiya singari aholining tarkor barpo bo‘lish jarayonlarini o‘rganadi. Shu asosda etnik demografiyani turli hududlardagi aholining etnik tarkibini,xalqlar soni dinamikasini va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili bilan birga, shuningdek, turli etnoslarda tabiiy takror barpo bo‘lish xususiyatlarini tadqiq etuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida ta’riflash mumkin. Ayrim etnodemograflar migratsiya jarayonlarining etnik jihatlariga ham alohida e’tibor qaratadilar, chunki ko‘chish harakatlari etnik tarkib va demografik dinamikaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, aholining etnik tarkibini aniqlash metodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish ham ushbu soha oldida turgan muhg‘im ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, etnik demografiya hal etadigan muummolar doirasi juda kengyu Uning asosiy vazifalaridan biri – alohida mamlakatlar, mintaqalar, va umuman jahon aholisining etnik tarkibini aniqlashdan iborat. Bunda etnik tarkib imkoni boricha faqat statik holatda emas, balki dinamikada ham o‘rganiladi, ya’ni uning o‘tmishda turli davrlarda qanday bo‘lgani tahlil qilinadi. Etnodemograflar muayyan hudud aholisining etnik tarkibida yuz bergan o‘zgarishlarga olib kelgan aossiy omillarni aniqlaydilar. Bunday omillarga, avvalo, turli etnoslarda tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarining farqlanishi, muayyan millat vakillari ustun bo‘lgan migratsiya jarayonlari, shuningdek, etnik o‘zini anglashningsh o‘zgarishiga olib keluvchi etnik jarayonlar kiradi.

Etnik demografiya ushbu uch omilning kumulyativ ta’sirini kompleks tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Shu bilan birga, chuqur etnodeiografik tadqiqotlar faqat zamonaviy milliy tarkibni aniqlash bilan cheklanib qolmaydi. Etnik tarkib dinamikasining asosiy tendensiya va qonuniyatlarini bilish orqali etnodemograflar kelgusida aholining etnostruktruasi qanday o‘zgarishi mumkinligini haqida ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy jarayonlarning, balki milliy madaniyatning yanada yaqinlashuvi, boyishi, tarkibiy tuzilishining o‘zgarishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni ko‘rish ham, sezish ham ancha mushkul, ayniqsa, g‘arb ommaviy madaniyatining etnomadaniyatlariga ta’sir ko‘rsatishi va uning tarkibiga singib borishini darxol aniqlash qiyindir. Shu boisdan ham ijtimoiy – madaniy jarayondagi o‘zgarishlarni xushyorlik bilan kuzatib borish, globallashuv jarayonning enomadaniyatlarning mazmuni va tarkibiy tuzilishiga ko‘rsatatdigan ta’sirini sezmasdan qolish kerak emas.

Etnomadaniyatning shakllanishi, rivojlanishi va boyib borish jarayoniga nazar tashlansa, u vaqtlar o‘tishi bilan har bir davr ruhiyati, ya’ni zamonning o‘zgarishi bilan o‘zining tarkibiy tuzilishini doimo o‘zgartirib borishi ko‘rinadi.

Etnik madaniyat – bu umumjamiyat madaniyatidir. Uning tarkibini nafaqat xalqning azaldan shakllangan elitar va avom madaniyati, balki bugungi kunda milliy madaniyatlarning jonkuyarlari tomonidan inkor qilinayotgan zamonaviy “ommaviy madaniyat” ham tashkil etadi.

Etnomadaniyat eng avvalo ishlab siqarish mnosabatlaridagi o‘zgarishlar, shuningdek, yonma – yon yashovchi boshqa etnik madaniyatlarining ta’siri ostida shaklan va mazmunan boyib boradi. Elitar madaniyat jamiyatdagi ilhor tafakkurga ega bo‘lgan kishilar tomonidan yaratiladi va o‘zlashtiriladi.

Etnomadaniyatning ikkinchi ko‘rinishi – bu ommaning, avomning madaniyati, yuqori tabaqa vakillarining ta’biri bilan ayotganda “turban”

madaniyatdir. Oddiy xalq ichidan yetishib chiqqan, xalqning dard – alamlarini tushunib yetadigan, ularning orzu – armonlarini, ruhiy kechinmalalrini o‘zining boshidan kechirgan ijodkorlar tomonidan yaratiladigan madaniyat ommaning, ya’ni avomning madaniyati deb yuritilgan.

Etnomadaniyatning tarkibini taashkil qiluvchi ommaviy madaniyat bilan milliy madaniyatlarini deformatsiya qilishga, millatsizlantirishga qaratilgan “ommaviy madaniyat” tushunchalari o‘rtasida juda katta farq mavjudligini ham unutmaslik zarur. Bugungi kunda etnomadaniyatning tarkibiy qismidan o‘rin egallashga harakat qilayotgan zamonaviy ommaviy madaniyatning tarkibiy tuzilishiga e’tibor berilsa, zamonaviy ommaviy madaniyatning ayrim ko‘rinishlari xalqning an’anaviy madaniyatini sezdirmasdan ichdan buzadigan madaniyat ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shuningdek, har bir ijtimoiy hodisaning, zamonaviy ommaviy madaniyatning nafaqat salbiy, balki uning ijobiy jihatlari, ya’ni etnomadaniyatni boyitishga foyda keltiruvchi elementlari ham mavjudligini nazardan qochirmaslik kerak. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonining ommaviy madaniyatning milliy madaniyatlariga foyda keltiruvchi va zarar keltiruvchi jihatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ommaviy madaniyatning shunday ko‘rinishlari mavjudki, ulardan foydalanish nafaqat, etnomadaniyatning boyishiga, balki turli xil tabaqalarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlanganlaridek, “Yangi tahdidlar, jumladan, “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob – axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu hoyat muhim ahamiyat kasb etmoqda”.[14]

Etnomadaniyat – bu kishilarning muayyan tarixiy birliklari tomonidan asrlar davomida yaratilgan, asrab – avaylanadigan, uzluksiz rivojlantiriladigan, ularning o‘zligini anglashida, hayotida ustuvorlikka ega bo‘lgan madani boyliklar, qadriyatlar, odob – axloq qoidalari, diniy

e’tiqod, an’ana va marosimlarnin, turmush tarzining umumiy harakatchan tizimidir. Jamiyat va kishilar hayotida ustuvorlikka ega bo‘lgan madaniyat avalo milliy yoki etnik xarakterga ega bo‘lishi zarur. Etnomadaniyat – kishilarning kundalik hayoti va maishiy turmushi xususiyatlari, talablari ta’sirida shakllanadi. U insonlarni avvalo turmush shart – sharoitlariga moslashtiradi va kun ko‘rishini, faoliyat yuritishini osonlashtiradi, turmush kechirish va mehnat qilish ko‘nikmalarini, ma’naviy e’tiqodiy, diniy talablarini o‘zlashtirishga, jamoaga integratsiya bo‘lishiga yordamlashadi.

11.2. Demografik jarayonlarning etnik jihatlari.

Demografik jarayonlarning etnik jihatlarini o‘rganuvchi yo‘nalish – etnodemografiya turli etnik guruhlarning madaniy, diniy va ijtimoiy xususiyatlari tug‘ilish, o‘lim, nikoh va migratsiya jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Ushbu omillar aholi takror ishlab chiqarilishidagi farqlarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Milliy an’analar, oilaviy tuzilma xususiyatlari va urbanizatsiya darajasidagi tafovutlar demografik rivojlanishning nomutanosibligini belgilab beradi. Bu esa o‘z navbatida turli xalqlar sonining dinamikasiga, ularning hududiy joylashuvi va ko‘chish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Demografiyaning etnik jihatlari quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Aholi takror ishlab chiqarilishi:turli etnik guruhlarda tug‘ilish darajasi bir – biridan farq qiladi. An’anaviy jamiyatlarda u nisbatan yuqori bo‘lsa, industriallashgan hududlarda pastroq kuzatiladi. Ayniqsa, qishloq joylarda mahalliy aholi ulushining ortishi ko‘p hollarda yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari bilan izohlanadi.
2. Migratsiya jaryonlari.Aholining etnik tarkibi migratsiya ta’sirida doimiy ravishda o‘zgarib boradi. Vatanga qaytish jarayonlari yoki tashqi migratsiya oqimlari ayrim etnik gurular soniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
3. Nikoh va madaniy omillar. Milliy an’analar va diniy qadriyatlar nikohga kirish yoshi, oila qurish tartibi hamda ajralish holatlariga

bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Bu esa umumiy demografik holatning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

4. Etnik tarkibni hisobga olish. Aholining ro‘yxatga olish jarayonlari orqali etnik tarkib aniqlanadi. Bu ma’lumotlar tug‘ilish va o‘lim kabi tabiiy harakatlar, shuningdek, migratsiya jarayonlarini etnik kesimida tahlil qilish imkonini beradi.

Ko‘rinib turibdiki, etnodemografiya o‘rganadigan masalalar doirasi juda keng. Uning asosiy vazifalaridan biri alohida mamlakatar,hududlar va butun dunyo aholisining etnik tarkibini aniqlashdan iborat. Bunda etnik tarkibni faqat statik holatda emas, balki dinamik jihatdan ham tahlil muhim ahamiyatga ega, ya’ni u turli tarixiy davrlarda qanday o‘zgargani o‘rganiladi. Etnodemografik tadqiqotlar orqali muayyan hudud aholisining etnik tarkibida yuz bergan o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi. Bularga turli etnik guruhlar o‘rtasidagi tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlaridagi farqlar, muayyan millat vakillari ustun bo‘lgan migratsiya jarayonlari, shuningdek, etnik o‘zliknianglashdagi o‘zgarishlarga olib keluvchi etnik jarayonlar kiradi.

Etnodemografiyaning muhim vazifalaridan biri ushbu uch asosiy omilning kumulyativ ta’sirini o‘rganishdan iborat. Biroq chuqur etnodemografik tahlil faqat aholining hozirgi etnik tarkibini aniqlash bilan cheklanib qolmaydi. Etnik tarkib dinamikasining asosiy tendensiyalar va qonuniyatlarni bilish orqali mutaxassislar kelajakda etnik tuzilmasiga yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni prognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Shuningdek, etnik demografiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri xalqlar soni dinamikasini tahlil qilish hisoblanadi. Aholini muntazam ro‘yxatga olish yo‘lga qo‘yilgan va unda etnik tarkib qayd etiladigan mamlakatlarda bu vazifani samarali amalga oshirish mumkin. Xalqlar sonidagi o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash orqali nafaqat mamlakatdagi etnodemografik vaziyatni chuqur tahlil qilish, balki ayrim etnik guruhlarning kelgusidagi taxminiy sonini beliglash imkoniyati ham yaratiladi.

Etnodemograflar aholini ro‘yxatga olish jarayonlarini tayyorlashda faol ishtirok etadilar. Ular ro‘yxat dasturiga kiritiladigan etnik va tilga oid savollarni ishlab chiqadilar, shuningdek, xalqlar ro‘yxatini

shakllantiradilar, keyinchalik shu asosda ro‘yxat materiallari tahlil qilinadi.

Zamonaviy etnik demografiyada tabiiy takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir etuvchi etnik omillarni o‘rganishga tobora ko‘proq e’tibo qaratilmoqda. Turli xalqlar o‘rtasida tug‘ilish a o‘lim ko‘rsatkichlari sezilarli darajada farq qilishi sababli, ushbu farqlarning kelib chiqish omillarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, etnodemograflar tabiiy o‘sish darajasiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tarzda tahlil qiladilar.

Ayrim xalqlarda tug‘ilish darajasini o‘rganishda an’analar bilan bog‘liq nikoh yoshi, nikohga bo‘lgan munosabat, nikohszlik, nikohdan oldingi va nikohdan tashqari munosabatlarga nisbatan qarashlar, oila shakllari va turlari, jinsiy cheklovlar, oilada ayolning o‘rni, ko‘p bolalik yoki befarzandlikka bo‘lgan munosabat kabi omillar inobatga olinadi. Shuningdek, tug‘ilish darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi xalqning ijtimoiy va madaniy hayotiga doir boshqa jihatlar ham chuqur tadqiq etiladi.

O‘lim darajasini tahlil qilishda ham etnik omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Avval ta’kidlanganidek, o‘lim ko‘rsatkichlariga anxanaviy mashg‘ulot turlari, moddiy madaniyat elementlari (masalan, turar joy sharoiti, kiyim – kechak va ovqatlainsh xususiyatlari) muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tabiiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining etnik jihatlarini o‘rganish davomida etnodemografiya har bir omilning nisbiy o‘rnini aniqlaydi va ularning biologik, iqtisodiy, psixologik hamda boshqa omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi. Shu bilan birga, etnik demografiyaning vazifalari faqat tug‘ilish, o‘lim va boshqa demokratik ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi.Ushbu yo‘nalish turli xalqlar o‘rtasidagi demografik ko‘rsatkichlarni taqqoslash, shuningdek, qo‘shni etnik guruhlarning demografik xulq-atvori ayrim jarayonlarga (tug‘ilish,nikoh va ajralish) qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, turli xalqlarda tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarining vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarib borishi ham tadqiq etiladi. Etnodemografiyaning muhim vazifalaridan biri migratsiya jarayonlarining etnik jihatlarini tahlil

qilishdan iborat. Bunda migratsiya oqimlarining etnik tarkibini aniqlash, turli millatlar bo‘yicha migratsion saldoni belgilash kabi masalalar o‘rganiladi. Bunday tashqari, etnodemograflar migratsiyaning aholining etnik tarkibi dinamikasiga hamda muayyan xalqlarning hududiy joylashuv xususiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini ham tahlil qiladilar. Etnik demografiya oldida turgan vazifalar doirasining kengligi mazkur sohada qo‘llaniladigan asosiy manbalar va tadqiqot usullarining xususiyatini ham belgilab beradi.

Etnodemografik tadqiqotlarda eng muhim manbalardan biri, shubhasiz, aholini ro‘yxatga olish maateriallari hisobalandi. Ushbu ma’lumotlar orqali aholining etnik mansubligi, xalqlarning hududiy joylashuvi, shuningdek, turli etnik guruhlarning yosh va jins tarkibi haqida muhim ahborotlar olinadi. Biroq dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘tkaziladigan ro‘yxatlarda etnik mansublikka doir to‘g‘ridan – to‘g‘ri savqollar mavjud emas. Shu sababli, etnodemograflar milliy tarkibini aniqlashda turli bilvosita ko‘rsatkichlardan foydalanishga majbur bo‘ladilar. Mahalliy (milliy) olimlar tomonidan aholining etnik tarkibini bilvosita ma’lumotlar asosida aniqlashga qaratilgan maxsus uslubiyat ishlab chiqilgan bo‘lib, u etnodemografik tahlillarda keng qo‘llanilmoqda.Ushbu uslubiyat tufayli mamlakatimizda jahon aholisining etnik tarkibini aniqlash sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Etnodjemografiya uchun muhim manbalardan yana biri aholini joriy statistik hisobga olish matreiallari hisoblanadi. Jumladan, turli etnik guruhlar bo‘yicha tug‘hilish, o‘lim,nikoh va ajralish ko‘rsatkichlari, shuningdek, ichki va tashqi migratsiyalarda turli xalqlarning ishtirokini aks ettiruvchi ma’lumotlar katta ahamiyatga ega. Ayrim mamlakatlarda muayyan omillarning milliy guruhlar demografik xulq – atvoriga ta’sir darajasini aniqlash maqsadida maxsus etnodemografik tadqiqotlar o‘tkaziladi. Ularning natijalari ham ilmiy jihatdan muhim manba sifatida qo‘llaniladi. Shuningdek, etnodemografik izlanishlarda ba’zan madaniyat va turmush tarzining demografik jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlarni yorituvchi dala etnografik materiallardan ham foydalaniladi. Bundan tashqari, etnodemografiyaga oid ilmiy ishlar tayyorlashda turli

sohalar – etnodemografiya, etnologiya, demografiya, tarix,geografiya, sotsiologiya, dinshunoslik, tibbiyot va boshqa fanlarga oid maxsus adabiyotlar keng jalb etiladi.

Umuman olganda etnodemografiya nafaat “ota – fanlari” – etnologiya va demografiya bilan chambarchas bog‘liq, balki ko‘plab boshqa ilmiy fanlar bilan ham uzviy aloqador bo‘lib, asosan ular “chegaraviy” yoki hamkorlik sohalari hisoblanadi. Masalan u quyidagilardan iborat:

- Etnik ekologiya – etnik guruhning turmush tarzi va ijtimoiy tizimi tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir qilayotganini o‘rganishda qo‘llaniladi.
- Etnik sotsiologiya – demografik jarayonlarda ijtimoiy va etnik omillar o‘rtasidagi nisbatni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.
- Etnik psixologiya – turli xalqlar tug‘ilishii nazorat qilishga munosabati, nikohga kirish yoshi va xoxlagan bolalar soni kabi ijtimoiy mental muqarrarliklarni tahlil qilishda qo‘llaniladi.
- Tarixiy demografiya – mamlakat aholisining etnik tarkibi dinamikasini o‘rganish va turli xaqlarning ilgari qanday demografik xulq – atvorga ega bo‘lgannini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.
- Ijtimoiy gigiena – turli xalqlarda tug‘ilish va o‘lim darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda qo‘llaniladi.
- Etnik kartografiya – demografik va etnik xaritalarni tuzishda zarur hisoblanadi.

Shu tarzda etnodemografiya ko‘plab fanlar bilan integratsiyalashgan holda aholining etnik va demografik xulq – atvorini chuqur va kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Etnodemografik tadqiqotlar nafaqat ilmiy-tahliliy ahamiyatga ega, balki amaliyot uchun ham katta qimmatga ega. Oldin ham ta’kidlagandek, etnodemograflar aholini ro‘yxatga olish jarayonlarini tayyorlashda faol ishtirok etadilar. Milliy tarkib dinamikasiga bag‘ishlangan etnodemografik ishlar millatalararo munosabatlarni yaxshilash bo‘yicha chora – tadbirlar ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkie. Turli xalqlarda tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari farqlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar esa aholi siyosati differensial ravishda yuritish

uchun ilmiy asos yaratadi. Shuningdek, etnodemografik prognozlar muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalarni hal etishda qimmatli axborot berishi mumkin. Bular orasida aholining etnik tarkibining kelgusidagi dinamikasi, ayrim xalqlarning demografik xulq – atvoridagi o‘zgarishlar va shu kabi jarayonlar tahlili alohida ahamiyatga ega. Etnodemografik tadqiqotlar xalqlar sonidagi nomutanosiblik sabablarini aniqlash va polietnik tarkibga ega hududlarda demografik vaziyatni prognoz qilishda ham muhim vosita hisoblanadi.[15]

Aholining demografik ko‘rsatkichlarini milliy (etnik) tarkib bo‘yicha taqsimlash – bu belgilangan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo‘yicha tarkibini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Milliy tarkib haqidagi ma’lumotlar asosan aholini ro‘yxatga olish jarayonida yig‘iladi.

Jahon aholisining aniq etnik tarkibini beliglash murakkab vazifa hisoblanadi, chunki ko‘plab mintaqalarda assimlyatsiya (aralashuv) va konsolidatsiya (milliy birlashish) jarayonlari keng tarqalgan. Ba’zi mamlakatlarda aholini ro‘yxatga olish natijalari milliy tarkibni nisbatan to‘liq yoritish im konin beradi. Ammo ayrim holatlarda millatlar haqidagi ma’lumotlar to‘liq keltirilmaydi yoki cheklangan holda beriladi.Shuningdek, turli mamlakatlarda “millat” tushunchasini ifodalashda ishlatiladigan etnik terminologiya ham farq qiladi. Masalan, ingliz, fransuz, ispan tillarida so‘zlashiladigan ko‘plab davlatlarda “millat” tushunchasi ko‘pincha “davlat” tushunchasi bilan sinonim sifatida qo‘laniladigan va “millat” atamasi asosan shaxsning davlatchilik mansubiyati yoki fuqaroligi bilan bog‘liq holatni ifodalaydi.

[15] Abduraxmonov Q.H. va boshqalar./ Zokirova N.K., Shoyusupova N.T., Gabzalilova V.T., Abduramanov X.X., Abduraxmanova G.K., Shakarov Z.G. Demografiya. Darslik. – T.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 364 b.

11.1-jadval

Aholining milliy tarkibi va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi (2024-yil yanvar holatiga ko‘ra, kishi hisobida)

Millati	Aholi soni	ulishi, %
Jami	36 799 771	100
Shu jumladan		
O‘zbeklar	31 284 552	85,0
Qoraqalpoqlar	787 485	2,1
Ruslar	704 021	1,9
Ukrainlar	66 263	0,2
Qozoqlar	830 545	2,3
Ozarbayjonlar	41 683	0,1
Qirg‘izlar	306 983	0,8
Tojiklar	1 758 001	4,8
Armanlar	33 708	0,1
turkmanlar	218 325	0,6
tatarlar	184 031	0,5
koreyslar	172 653	0,5
Lo‘lilar	29 535	0,1
Boshqa millatlar	381 986	1,0

Yevropa davlatlari aholisining milliy tarkibiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

1.Birmillatli davlatlar – bunday mamlakatlarda asosiy millat aholining 90 foizi va undan ortig‘ini tashkil qiladi. Bu guruhga 20dan ortiq davlat kiradi, jumladan, Polsha, Germaniya,Vengriya,Daniya va Shvesiya.

2.Ko‘pmillatli davlatlar – bu turga Buyuk Britaiya, Ispaniya, Shveysariya kabi mamlakatlar kiradi. Ushub davlatlarda asosiy millat bilanbir qatorda aholi tarkibida katta ulushga ega bo‘lgan boshqa etnik guruhlar ham yashaydi.

3.Oraliq davlatlar – bu mamlakatlarda milliy muammolar to‘liq hal qilinmagan. Kam sonli xalqlar va millatlarning majburiy assimilyatsiyasi siyosatini amalga oshirish kuzatiladi.

Etnik tarkib bo‘yicha demografik ko‘rsatkichlarni taqsimlashda xalqaro klassifikatsiyadan foydalaniladi. O‘zbbekiston Respublikasi ko‘pmillatli davlat sifatida e’tirof etilgan. Respublikada 120 dan ortiq millat va elatlar vakillari yashaydi. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar

takshil qiladi (85,08%), shuningdek, tojiklar (4,8%), qozoqlar (2,3%), qaraqalpoqlar (2,1%) va ruslar (1,9%) ham yashaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Etnik demografiya nimani o‘rganadi?
2. Etnos qanday belgilar orqali ajratiladi?
3. Elat va millatning bir-biridan farqi nimada?
4. Etnik tarkibi qanday shakillanib boradi?
5. Milliy tarkibi nimani ifoda etadi?
6. Assimilyatsiya qanday jarayon sifatida qaraladi?
7. Integratsiya qatsi omillar bilan kuchayadi?
8. Dispersiya qanday holatda yuz beradi?
9. Etnik hudud odatda qanday belgilanadi?
10. Ko‘pmillatlik qanday demografik holat hisoblanadi?

XII BOB. IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MIGRATSIYA SIYOSATINING XUSUSIYATLARI.

12.1.Chet elda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning ijtimoiy-huquqiy asoslari.

12.2.Yevropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida migratsiya siyosatini modernizatsiya qilish tajribasi.

Tayanch so‘zlar: immigratsiya, emigratsiya, kvota, viza, rezidentlik, naturalizatsiya, deportatsiya, chegara nazorati, mehnat bozori, integratsion dasturlar, qochqinlar, boshpana.

12.1.Chet elda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning ijtimoiy-huquqiy asoslari.

Rasmiy yondashuvga ko‘ra, migratsiyaga bo‘lgan motivatsiya odatda ijtimoiy,etnik va siyosiy omillar bilan belgilangan “surib chiqaruvchi” hamda “jalb etuvchi” faktorlar uyg‘unligi sifatida talqin etiladi (jadval). Biroq mehnat migrantlarinnig aksar qismi uchun hal qiluvchi rag‘bat – ish topish imkoniyati va yuqoriroq ish haqiga ega bo‘lish istiqbolidir.

12.1-jadval

Migratsiya motivlari

Motivlar	Surib chiqaruvchi omillar	Jalb etuvchi omillar
Iqtisodiy va demografik	Kambag‘allik Ishsizlik Past ish haqi Yuqori narx-navo Tibbiy xizmat va ta’lim muassasalarining yetishmasligi	Yuqoriroq ish haqi olish istiqboli Yuqori turmush sifatiga erishish imkoniyati Shaxsiy yoki kasbiy rivojlanish
Siyosiy	Nizolar, shaxsiy xavfsizlikning yo‘qligi, zo‘ravonlik Davlat boshqaruvining samarasizligi Korrupsiya Inson huquqlarining buzilishi	Xavfsizlik va himoyalanganlik Siyosiy erkinliklar
Ijtimoiy va madaniy	Etnik, diniy va boshqa belgilariga ko‘ra kamsitish	Oilani birlashtirish Etnik diasporalarning mavjudligi Kamsitishning yo‘qligi

Migratsiya xususiyatlariga ko‘ra xorijiy davlatlar quyidagi oltita asosiy guruhga birlashtiriladi:

1.An’anaviy immigratsiya mamlakatlari. Bu guruhga AQShdan tashqari Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya,Isroil,shuningdek Janubiy Afrika Respublikasi kiradi.Hozirgi kunda Janubiy Afrika Respublikasi bir vaqtning o‘zida “elit” toifadagi migrantlarning ommmaviy chiqib ketishi hamda qo‘shni Afrika davlatlaridan kam malakali nomuntazam migrantlarnnig keng ko‘lamli kirib kelishi bilan bog‘liq murakkab migratsiya jarayonlariga duch kelmoqda.

2.Ilgari ko‘pmillatli imperiya markazlari bo‘lgan mamlakatlar. Bularga, masalan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Niderlandiya, Belgiya, shuningdek, hududiy jihatdan yaxlit imperiyaga ega bo‘lgan davlatlar – Germaniya,Avstriya va ayniqsa Turkiya kiradi. Imperiyalar parchalangandan so‘ng ushbu mamlakatlar ikki asosiy turdagi yirik migratsiya oqislarini qabul qildilar. Dastlab metropoliya vakillarining o‘z etnik vataniga qaytishi bilan bog‘liq repatratsion (qaytish) migratsiya kuzatildi (britanlar,fransuzlar,turklar va boshqalar). Keyinchalik esa “uchinchi dunyo” mamlakatlari vakillarining migratsiyasi kuchaydi. Bunda, avvalo, metropoliya tillarini bilgan, ularning madaniyati bilan tanish bo‘lgan hamda sobiq mustamlaka mamlakatlari fuqarolari tomonidan avvaldan shakllangan etnik diasporalar qo‘llab - quvvatlashiga tayanish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslar ustunlik qildi.

3.Markaziy,Janubiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari.Ushbu davlatlar jahon migratsiya tizimidagi o‘rnini tez sur’atlarda o‘zgarishiga duch kelib, yangi migratsiya tuzilmalarinin shoshilinch ravishda shakllantirish, migratsiyani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish hamda migratsiya siyosatinnig strategik maqsadlarini belgilash zaruratiga ro‘baro‘ bo‘ldilar.

4. So‘nggi o‘n-yilliklarda keng ko‘lamli “elit” emigratsiyasini boshdan kechirgan davlatlar. Bu mamlakatlar xorijdagi diaspora vakillarini vatanga qaytarish yoki ular bilan turli shakllarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha faol siyosat olib bormoqda. Ular qatoriga Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston va Tayvan kiradi.

5.So‘nggi o‘n-yililklarda jadal (portlovchi) iqtisodiy o‘sishni boshdan kechirgan davlatlar. Bunday mamlakatlardagi yirik ko‘lamdagi mehnat immigratsiyasini – ham “elit” (yuqori malakali),ham past malakali ishchi kuchini – rag‘batlantirishga majbur bo‘ldilar. Ushbu guruh tipik vakillari sifatida Fors kzrfazi mamlakatlari tilga olinadi (shuningdek Singapur va Janubi – Sharqiy Osiyoning qator davlatlarini ham qayd etish mumkin). Bunday migratsiya siyosati natijasida ayrim davlatlarda mahalliy fuqarolar bilan huquqiy jihatidan cheklangan (ko‘p hollarda noqonuniy maqomga ega) immigrantlar o‘rtasida chuqur ijtiomiy tafovut va ziddiyatlar shakllandi. Ko‘pincha immigrantlar qabul qiluvchi jamiyat aholisidan til va din jihatidan ham farq qiladi. Bu jihatidan shialar va sunniylar o‘rtasidagi qarama – qarshilik alohida ahamiyat kasb etadi. Ko‘pchilik mazkur davlatlarda vaziyat siyosiy tizimnnig avtoritar xususiyati va fuqarolik jamiyatining nihoyatda zaifligi bilan yanada murakkablashadi. Shu bilan birga ularnnig ayrimlarida migrantlar allaqachon aholining ko‘pchiligini tashkil etadi. Jumladan, BAAda migrantlar ulushi 84%ni, Qatarda 74%ni, Quvaytda 60%ni, Bahraynda esa 55%ni tashkil etadi.

6. Jiddiy demografik muammolarni boshdan kechirayotgan,ammo siyosiy va boshqa sabablarga ko‘ra immigratsiya oqimlarini cheklab kelayotgan davlatlar. Bunday mamlakatlar qatoriga yaqin vaqtgacha Janubiy Koreya va Yaponiya kiritilar edi. Ular aholi qarishining kuchayishi va mehnat resurslarining qisqarishiga qaramasdan, immigratsiya siyosatini cheklangan trazda olib bordilar. Natijada, immigratsiya oqimlarini sun’iy ravishda to‘sib turish ayrim hollarda jiddiy demografik hamda ijtimoiy – iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy qiyinchiliklar kuchayishi va etnik tarmoqlardagi taranglikning ortishi natijasida immigratsiyani qat’iyan cheklash va migratsiya siyosatida yuqori malakali mutaxassislarni qabul qilishga e’tibor qaratish talablari kuchayapti.Bu siyosat qolgan migrant kategoriyalari,jumladan qochqinlar xuquqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Misol uchun sobiq Fransiya prezidenti N.Sarkozi “azoblanib qabul qilingan” immigratsiyadan “tanlangan”

immigratsiyaga ztish zarurligini ta’kidlagan. Yevropa mutaxassislari migratsiyani ikki turga ajratadilar:

- Maqbul (hohlanadigan) migratsiya – yuqori malakali mehnat migrantlari;
- Maqbul bo‘lmagan (hohlanmaydigan) migratsiya – nohuquqiy yoki past malakali ishchi migrantlar va majburiy qabul qlinganlar (masalan, oila qayta birlashuvi huquqiga ega bo‘lganlar yoki panoh izlayotganlar).

Bugungi kunda Yevropa mamlakatlariga oila qayta birlashuvi asosida kelayotganlar umumiy legal immigratsiya oqimining 40 – 60%ni tashkil etadi va Fransiyada bu ko‘rsatkich 70%ga yetadi.

Xalqaro migratsiya tartibga solish ham ikki tomonlama kelishuvlar orqali, ham bu maqsadda maxsus tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kunda migratsiya va mehnat sohasidagi institttular va standartlarning katta qismi bunday tashkilotlar bo‘yicha – birlashgan millatlar tashkiloti -BMT, xalqaro mehnat takiloti – XMT), xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT), jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti –(JSST) va boshqa tashkilotlar faol ishtiroki bilan yaratilgan. Tartibga solish jarayonida mazkur tashkilotlar doirasida qabulq ilingan qlnuniy va normativ hujjatlar ham katta ahamiyatga ega. Bunda asosiy manbalar quyidagilar hisoblanadi:

- BMT ustavi
- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
- Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi BMT konvensiyasi
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pak
- Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, inson qadrini biladigan muomala yoki jazolarga qarshi BMT konvensiyasi
- Barcha mehnat muhojirlari va ular oila a’zolarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya.

Xalqaro mehnat tashkiloti -BMT tizimidagi muhim organ sifatida xalqaro migratsiyani tartibga solishda asosiy rol o‘ynaydi. 1919-yili itashkil etilgan XMT mehnat qonunchiligi va mehnat sharoitlari

standartlarini ishlab chiqish, shu orqali ijtimoiy adolat asosida tinchlikni ta’minlashbilan shu0ullanadi. Tashkilot uch taraflama prinsip asosida faoliyat yuritadi:hukumat, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari vakillari ushub jaaryonda ishtirok etadi.

XMT konvensiyalar va tavsiyalar ishlab chiqadi, rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam ko‘rsatadi hamda sohasi bzyicha tayyorlov dasturlari o‘tkazadi. Asosiy vazifasi – xalqaro mehnat normalarini belgilash, jumladan, muhojirlarning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy ta’minotda tenglikni ta’minlash, nogironlik holatlarida ijtimoiy huquqlarini saqlash va nafaqa ta’minotida teng imkoniyatlarni ta’minlashdan iborat. Shuningdek, takshilot mehnatga oid siyosat, muhojirlarning sog‘lig‘ini va ijtimoiy muhofazasini yaxshilash, muhojirlarni vatanga qaytarish, oilaviy aloqalarni himoya qilish va ish va ijtimoiy ta’minotda teng sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha konveniyalar va tavsiyalar ishlab chiqadi. XMT bOsh konversiyasi migratsiya va muhojirlar huquqlari bo‘yicha muhim masalalarni muhokama qiladi, jumladan, amaldagi 97-sonli Konvensiyani, u muhojirlarga muayyan muddatdan so‘ng doimiy yashash huquqini kafolatlaydi.

1955-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 100-sonli tavsiya qabul qilinib, u migratsiya jarayonlarini tartibga solish va rivojlanayotgan mamlakatlardagi mehnat resurslarining kamayib ketishining oldini olishga qaratilgan qoidalarini belgilab beradi. Keyingi-yillarda noqonuniy migratsiya va muhojir mehnatkashlar mehnatini tartibga solishga qaratilgan 143-sonli Konvensiya hamda 151-sonli tavsiya qabul qilindi.[16]

XMTga a’zo davlatlar muhojir mehnatkashlar va ularning oila a’zolari uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar. Shuningdek, ular mazkur tamoyil buzilgan hollarda murojaatlarni ko‘rib chiqish, tqonunbuzilishi holatlariga nisbatan tegishli choralar ko‘rish, muhodirlar huquqlariga oid xalqaro me’yorlarga rioya etish vazifalarini bajaradi.

[16] Abdurahmanov X.X., A.B.Xayitov. Demografik tahlil. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 268 b.

Bundan tashqari, dvlatlar oila a’zolarini birlashtirishga ko‘maklashish, ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish va muhojirlar bilan bog‘liq masalalar yuzasidan maslahatlar berish kabi yo‘nalishlarda ham faoliyat olib borishlari lozim.

Xalqaro darajada Xalqaro mehnat tashkmlotidan tashqari yana bir muhim institut – Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ham faoliyat yuritadi. U 1951-yilda tashkil etilgan bo‘lib, migratsiya sohasidagi yetakchi hukumatlararo takshilot hisoblanadi va turli xalqaro hamkorlar bilan yaqin aloqada ishlaydi. Hozirgi kunda ushbu tashkilotga 146ta davlat a’zo bo‘lib, yana 13ta davlat kuzatuvchi maqomiga ega. Xalqaro migratsiya tashkilotning asosiy maqsadi – barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga olgan holda tartibli va inson parvar migratsiyani ta’minlashdjan iborat. Tashkilot davlatlar va insonparvar migratsiyani ta’minlashdan iborat. Tashkilot davlatlar va migrantlarga maslahat va amaliy yordam ko‘rsatadi, migratsiya oqimlarini boshqarishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqadi hamda migratsiya jarayonlarini tashkil etshda amaliy ko‘mak beradi. Uning asosiy vazifalari qatoriga fuqarolar migratsiyasini rejalashtirish, malakali ishchi kuchi va ularning oila a’zolari harakatini yengillashtirish, qochqinlar va boshqa shahslarinng ko‘chish jarayonlarini tashkil etish kiradi. Shuningdek, tashkilot insonparvar migratsiya boshqaruvini ta’minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlanitirish va ehtiyojmand migrantlarga yordam ko‘rsatishga intiladi. Bundan tashqari, XMT migratsiya va taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va majburiy migratsiya hg‘ajmini kamaytirish yo‘nalishlarida ham faol ish olib boradi.

Mehnat migarsiyasini tartibga solishning muhim usulalridan biri – xalqaro kelishuvlar tuzish hisoblaandi. Bunday kelishuvlar mehnat migrasyasiga doir miqdoriy cheklovlarni beliglash orqali uni boshqarish imkonin beradi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida yagona immigratsiya siyosatini shaklalntirish maqsadida turli darajadagi muzokaralar asosida ko‘p tomonlama kelishuvlar keng tarqalgan. Xalqaro huquqiy jihatdan migratsiya jarayonlari majuriy va ixtiyoriy ko‘chishlarga ajratiladi. Bu

tasnif migratsiyaning sabablarini va xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mehnat migratsiyasini xalqaro huquqiy tartibga solish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir tomondan, mehnat va ijtimoiy huquqlarning umumiy standartlari 1966-yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktdagi mustahkamlangan bo‘lib, u ishtirokchi davlatlar tomonidan barcha shaxslarga nisbatan, hech qanday kamsitishsiz qo‘llanilishi lozim. Paktda “har bir inson” tushunchasi qo‘llanilgani sababli, ushbu huquqlar xorijiy fuqarolarga ham, shu davlat fuqarolarga ham teng darajada tatbiq etiladi. Shu bilan birga har bir davlat mazkur paktda belgilangan huquq va erkinliklarini o‘z milliy qonunchiligi doirasida qanday amalga oshirish masalalsini mustaqil ravishda hal qiladi.Boshqa tomondan qabul qiluvchi davlat mehnat migrantlrining kirishi, mamlaka hududida bo‘lishi va chiqib ketish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi. Bu esa har bir davlatning milliy qonunchiligi va migratsiya siyosatiga bog‘liq holda amalga oshirilad. Xalqaro migratsiya tashkiloti ekspretlarining fikriga ko‘ra, davlatlararo mehnat migratsiyasi, avvalo, milliy migratsiya qonunchiligiorqali tartibga solinadi. Shu bilan birga, ayrim davlatlar tashqi mehnat migratsiyasini boshqarishda faol ishtirok etib, o‘z fuqarolari uchun xorijda qulay mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratadi[17]. V.A.Volox mehnat migratsiyasining “ijtimoiy-tashkil etilgan” shakli muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu shakl davlatlar tomonidan olib borilayotgan siyosatni hisobga olgan holda, aholining bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chish hajmi va yo‘nalishlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini nazarda tutadi[18]. Qabul qiluvchi davlatlarning xalqaro majburiyatlari hamda mehnat migrantlarini joylashtirish bo‘yicha ichki imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanat ular uchun munosib mehnat sharoitlari va yashash muhitini yaratishga xizmat qilishi lozim.

[17] Лиссабонский договор, изменяющий Договор о Европейском Союзе и Договор об учреждении Европейского сообщества, от 13 декабря 2007 г. 2007/С 306/01. Инф.-правовая система «Гарант Аэро», 2015. [Электронный ресурс]

[18] Волох В.А. Трудовая миграция: политико-правовые и социально-экономические аспекты привлечения и использования иностранной рабочей силы. –М.: Спутник, 2010. – С. 14.

12.2.Yevropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida migratsiya siyosatini modernizatsiya qilish tajribasi.

AQSh migratsiya siyosati modernizatsiyasi tajribasi qiziqarli hisoblanadi, chunki AQSh dunyodagi eng yirik migratsiya tiziminnig markazidir. Shuningdek, Amerika immigratsiyasining ko‘p asrlik tarixi ham, hozirda AQShga kirib kelayotgan migratsiya oqimida bir etnik va diniy guruh – ispan tilida so‘zlashuvchi latinoamerikan katoliklar ustunlik qilish fakti ham ahamiyatga ega. Bu AQSh aholisining etno – diniy o‘zligini yumshashi bo‘yicha xavotirlarni kuchaytiradi. Hozirda AQShda migratnlar aholining 1/8 qismini tashkil qiladi. Shuningdek, 24 milliondan ortiq migrant iqtisodiy faoliyatda ishtirok etmoqda. Migratsiya nafaqat aholi sonini oshirishda, balki Amerika aholisini sifatini o‘zgartirishda ham muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda aholi 138 milliondan oshgan va o‘sish sur’ati yuqori davom etmoqda.

Immigratsiya aholi sonining o‘sishining taxminan 1/3 qismiga hissa so‘shadi va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi omil sifatida qaraladi. U iqtisodiyotni nafaqat past maoshli mehnat quvvati, balki yuqori malakaga ega mutaxassislar bilan (bu esa ularni tayyorlash uchun sarflanadigan mablag‘ni ham sezilarli darajada tejash imkonini beradi) ta’minlaydi. AQShning migratsiya siyosati uzoq vaqt davomida migrantlarning malakasiga alohida e’tibor qaratmagan,balki ularning etnik kelib chiqishi va chiqish mamlakatlariga birinchi darajada ahamiyat bergan. Bu esa asosan 20 asr boshlarida shakllangan diskriminatsion mintaqaviy kvotalar orqali G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan kelgan aholining yuqori ulushini saqlab qolishga qaratilgan. Faqatgina 1965-yildan keyin Immigratsiyani isloh qilish to‘g‘risidagi qonun qabul qilingach, AQSh o‘z migratsiya siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqdi va “uchinchi dunyo” mamlakatlaridan keluvchilar hamda yuqori malakali mutaxassislar uchun chegaralarni ochdi. Hozirgi kunda AQShning migratsiya siyosati quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- AQSh aholisining barqaror demografik o‘sishini ta’minlash;
- aholining etnik xilma-xlligini saqlash;

- iqtisodiyotni turli toifadagi mehnat resurslari bilan ta’minlash;
- siyosiy, liniy, etnik va boshqa gumanitar sabablarga ko‘ra qochqinlar qabul qilish;
- yuqori malakali mutaxassislarni oqimini rag‘batlantirish.Bu ta’lim tizimiga tushayotgan yuklamani yengillashtiradi, professional elitani tayyorlash xarajatlarini qisqartiradi hamda Amerika universitetlari va milliy byudjetga sezilarli daromad keltiradi.
- xorijiy talabalarni amerika oliy ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda tayyorlash. Bu eng salohiyatli kadrlarni saralab olish,ularda AQShda ish va yashash imkoniyatini berish,shuningdek vatanlariga qaytganidan keyin proamerikan siyosiy madaniyat va g‘oyalarni targ‘ib etuvchi guruhlarni shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda AQShda tabiiy fanlar sohasidagi akademik xodimlarning taxminan yarmini xorijiy talabalar va immigrant olimlar tashkil etadi.

Shu tariqa AQShning migratsiya siyosati ichki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘lishi bilan birga, tashqi siyosatda ham “yumshoq kuch”ning muhim mexanizmi hisoblanadi. Shunga qaramasdan, bugungi kunda AQShda migratsiya siyosati keskin tanqidlarga uchramoqda. Muhokamalr markazida noqonuniy immigratsiya muammosi turibdi. Taklif etilayotgan yechimlar spektri 11 million noqonuniy migrantga to‘liq amnistiya berishdan tortib, ularni ommaviy deportatsiya qilishgacha bo‘lgan choralarni qamrab oladi.

Immigratsiya islohotni konsepsiyasi,shunigdek, yuqori malakali mutaxassislar va Amerika iqtisodyoitga sarmoya kiritishga tayyor bo‘lgan tadbirkorlar uchun vizalar rejimini liberallashtirishni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, migratsiya siyosati ustuvor yo‘nalishlarini belgilash masalasi liberal yondashuv tarafdorlari orasida ham jiddiy qarama – qarshiliklarga sabab bo‘lmoqda. Bir tomondan, immigratsiyaga quyilgan cheklovlarni to‘li bekor qilish va noqonuniy migrantlarni ommaviy legalizatsiya qilishni qo‘llab – quvvatlovchilar

tursa, shu bilan birga oila qayta birlashuv asosida keluvchilar sonini sezilarli darajada qisqartirishni taklif etuvchlari mavjud.

Migrantlar bilan qabul qiluvchi jamiyat o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni yo‘lga qo‘yishga oid konseptual yondashuvlar uni turli etnik, madaniy, diniy va til jihatlariga mansub, turlicha tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan shaxslar hamda ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ochiq va hurmatga asoslangan fikr almashinuvi sifatida talqin etadi. Bunday muloqotning asosiy maqsadi – turli dunyoqarash va xulq - atvor modellarin chuqurroq tanlashni rivojlantirish, hamkorlik va ijtimoiy faol ishtirok darajasini oshirish, shuningdek, shaxs rivoji va bag‘ikenglikni targ‘ib qilish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat.

Yevropa ittifoqi huquqida hozircha malakalari past bo‘lgan xorijiy ishchilarga nisbatan maxsus tartibga solish tizimi to‘liq shakllanmagan. Bunday shaxslarning huquqiy maqomi, asosan, qabul qiluvchi davlatning milliy qonunchiligi hamda tegishli ikki tomonlama xalqaro shartnomalar asosida belgilanadi. Shu bilan birga xalqaro migratsi tashkiloti ekspertlarining fikriga ko‘ra, malakali bo‘lmagan xorijiy ishchilarni jalb etish sohasida umumiy huquqiy asoslar shakllanib boromqda. Bu asoslar Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar milliy qonunchiligini ma’lum darajada uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, quyidagi umumiy yondashuvlar ajralib chiqmoqda:

- mehnat beruvchi yoki ishchi tomonidan to‘lanadigan tibbiy sug‘urta mavjudligi;
- ish haqining mahalliy fuqarolarga to‘lanadigan miqdordan sun’iy ravishda kamaytirilishining taqiqlanishi;
- faqat Yevropa ittifoqi davlatlaridan bo‘lgan mehnat beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolanganidan so‘ng ish va yashash uchun ruxsatnoma berilishi;
- mehnat shartnomasi muddati tugashidan so‘ng ishchilarning ish beruvchi mamlakatdan chiqib ketishini ta’minlash[19].

[19] Правовые основы привлечения и использования неквалифицированных и низкоквалифицированных иностранных работников-граждан третьих стран в 27 государствах Европейского союза. С. 9.

G‘arb huquqshunos olimlari integratsiya jarayonlari va qabul qiluvchi mamlakatlarning immigratsiya siyosati o‘rtasida yaqin bog‘liqlik borligini ta’kidlaydilar. Masalan, Fransiya,Germaniya va Niderlandda ‘orijiy fuqarolari integratsiya qilish sohasida davlat vakolatlari ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi vazirliklardan ichki ishlar yoki immigratsiya idoralariga o‘tkazilgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘a, immigratsiyani nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi[20].

Fransiya qonunchiligiga oid jihatlarini ko‘rib chiqib, holat ma’lum darajada Germaniyaga o‘xshash ekanligini ta’kidlash mumkin. Nisbatan liberal migratsiya siyosati bilan bir qatorda, jamiyatning ayrim qatlamlarida migrantlarga nisbatan yumshoq munosabat ham kuzatiladi. Bu holat fransuz intellektual muhitida chap siyosiy an’analarning ta’siri bilan izohlaadi.

Hozirgi kunda Fransiya hukumati mazkur muammoni hal etish maqsadida bir qator chora – tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, chegaralarda politsiya kuchlarini kuchaytirish, ularga Yevropa Ittifoqining tashqi chegaralarini nazorat qilish va himoya qilish vakolatlarini kengaytirish, migrantlar kelib chiqadigan davlatlarda nazorat o‘tkazish punktlarini tashkil etish orqali qochqinlar oqimiini cheklash, shuningdek, noqonuniy migratsiya va odam saavdosi bilan bog‘liq faoliyatga qarshi kurashni kuchaytirish kabi choralar ko‘rilmoqda[21]. Boshqacha qilib aytganda, uzoq-yillar davomida hokimiyat tomonidan yetarli darajada qat’iy choralar ko‘rilmagani salbiy oqibatlariga olib keldi. Jumladan, antimigratsion kayfiyatlarning kuchayiishi, milliy patriotik kuchlarning faollashuvi, shuningdek ayrim hollarda antisemitik qrarashlarning o‘sishi kuzatildi. Shu o‘rinda Italiyada horijiy ichilar uchun kirish vizalari amaliyotini misol sifatida kelitirsh maqsadga muvofiq.Ushbu mamlakatda mehnat vizalarining ikki asosiy turi amal qiladi:mustaqil faoliyat (o‘zini o‘zi band qilish) uchun vizalar va yollanma mehnat asosida ishlash uchun vizalar.

[20] K.Groenendijk. Pre-departure Integration Strategies in the European Union: Integration or Immigration Policy // European Journal of Migration and Law. – No 13 (2011) 1–30. – P. 8

[21] Стрельцова Я. Р. Особенности современной миграционной политики Франции // ДЕМИС. Демографические исследования. 2021. Т. 1, № 1. С. 97–105.

Birinchi turdagi mehnat vizasi mustaqil faoliyat bilan shg‘ullanuvchi xorijiy fuqarolarga beriladi. U qisqa muddatli (90 kungacha), belgilangan uzoq muddatli (1-yildan oshmagan) hamda ayrim hollarda ochiq muddatli shaklllarda taqdim etilishi mumkin. Ushbu toifaga o‘z faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshiradigan shaxslar, shuningdek, ijodiy kasb egalari ham kiritiladi[22].

AQSh iarixan migrantlar mamlakati sifatida shakllangan. Qisqa tarixga ega bo‘lishiga qaramasdan, mazkur davlat migratsiya siyosati sohasida boy tajribaga ega.Turli davlatlarda AQShning migratsiyaga bo‘lgan munosabti o‘zgarib borgan bo‘lib, u keng ko‘lamli immigratsiyani rag‘batlantirish siyosatidan tortib, yangi keluvchilarga nisbatan qat’iy cheklovlar joriy etishgacha bo‘lgan bochqichlarni qamrab olgan. Jo Bayden prezidentligi davrida migratsiya siyosati nisbatan yumshoqlashgani kuzatildi. Jumladan, deportatsiyaga 100 kunlik moratoriy joriy etildi, oilalarni birlashtirishga ustuvor ahamiyat berildi, xorijiy fuqarolarinng mamlakatga kirishi uchun sharoitlar yengillashtirildi, immigrantlarga subsidiyalangan sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi hamda ayrim holatlarda immigratsion amnistiya choralari nazarda tutildi[23].

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Immigratsiya siyosati qanday tartibda yuritiladi?
2. Emigratsiya jarayoni qaysi omillarga bog‘liq?
3. Kvota tizimi nima maqsadda joriy etiladi?
4. Viza tartibi qanday vazifani bajaradi?
5. Rezidentlik olish shartlari nimalardan iborat?
6. Naturalizatsiya qanday huquqiy jarayon hisoblanadi?
7. Deportatsiya odatda qanday hollarda qo‘llaniladi?
8. Mehnat bozori migratsiyaga qanday ta’sir qiladi?
9. Qochqinlar masalasi qanday tartibga solinadi?

[22] Аналитический обзор процедур привлечения иностранной рабочей силы (законодательство Республики Казахстан и международный опыт). Первая версия. – Астана: МОМ, 2011. – С. 24

[23] Невзорова В. В. Государственная миграционная политика: зарубежный опыт // Преступность в СНГ: проблемы предупреждения и раскрытия преступлений : сб. материалов (г. Воронеж, 26 мая 2022 г.). Ч. 2. Воронеж : Воронежский ин-т МВД РФ, 2022. С. 194–196.

XIII BOB. DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY SHART-SHAROITLARI

13.1.Onalik va bolalikni himoya qilish.

13.2.Uy-joy siyosati oilani rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida.

13.3.Oilaviy hayotning infratuzilmasi.

Tayanch so‘zlar: farovonlik, daromadlilik, bandlilik, sog‘lomlashtirish, ta’minot, iste’mol, hududlashuv, infratuzilma, savodxonlik, kasblashuv, ijtimoiylashuv, barqarorlik.

13.1.Onalik va bolalikni himoya qilish.

Demokratik rivojlanishning ijtimoiy – iqtisodiy omillari eng muhim omillar qatoriga kiradi. Ular demografik jarayonlar yo‘nalishini tubdan o‘zgartirish hamda mamlakat uchun maqbul aholi takror barpo bo‘lish tipini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Davlatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohg‘otlarning aosiy maqsadi – barcha iqtisodiy mex’anizmlarning barqaror va samarali faoliyati asosida aholi turmush darajasi va sifatini oshirishdan iborat.

Davlat tomonidan onalik, bollaik va oilani muhofaza qilish amaldagi Konstiutsiyaning 77 – moddasi rasman mustahkamlab qo‘yilgan. U ijtimoiy – iqtisodiy va huquqiy jihatdan kompleks xususiyatga ega bo‘lib, onalikni rag‘batlantirish, ona va bola manfaatlarini hisoya qilish, oilani mustahkamlash hamda uni ijtimoiy qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan turli davlat chora – tadbirlarini amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Bunday huquqni vositalarga alohida ahamiyat beriladi. Onalik, bolalik va oilani himoya qilish masalalari sog‘0liqni saqlash, mehnat va mehnatni muhofaza qilish, ijtimoiy ta’minot, nikoh va oila to‘g‘risidagi qonunchilikda o‘zining aniq ifodasini topgan. Mehnatni muxofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik ayollarning mehnat huquqlarini alohida himoya qilish va ular uchun fiziologik xususiyatlariga mos, qulay mehnat sharoitlarni yaratishga qaratilgan choralar majmuini nazarda tutadi.

Onalik, bolalaik va oilani himoya qilish, shuningdek, ona va bolaga ixtisoslashgan tibbiy yordam darajasini oshirish orqali ham ta’minlanadi. Sog‘liqni saqlash masalasi har bir davlatning aholisi uchun yuqori o‘lim ko‘rsaktichllari sababli markaziy ahamiyatga ega. Ayollar reproduktiv salomatligini muhofaza qilish muammolarini oilani, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan chora – tadbirlar tizimini muhim bo‘g‘ini hisoblanadi.

Reproduktiv salomatlik – bu jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan to‘liq farovonlik holati bo‘lib, avlod davom ettirish maqsadida jinsiy munosabatlarga kirishishga psixologik, ijtimoiy va fiziologik tayyorgarlikni anglatadi. Shuningdek, reproduktiv salomatlik inson organizmdagi homiladorlikning salbiy oqibatlariga, takroriy homiladorlik imkoniyatining cheklanishiga yoki nuqsonli bola tug‘ilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan infeksiyalar va boshqa noqonuniy holatlarning mavjud emasligini ham nazarda tutadi. Reproduktiv va jinsiy salomatlikning muhofaza qilish chora – tadbirlari ko‘p qirralidir. Xususan, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bepushtlikni davolash sifatini va uning ommabopligini oshirish;
- malakali bo‘lmagan abortlarni bartaraf etish;
- jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarga qarshi kurashish.

Onaning salomatligi jamiyat farovonligining muhim ko‘rsatkichidir. Onalar o‘lim yoki kasallanish xavfi yuqori bo‘lgan sharoitda bo‘lsa, ularnig bolalari ham xavf ostida qoladi, chunki chaqaloq va ona salomatligi o‘zaro bog‘liqdir. Homiladorlik, tug‘ruq va ayniqsa, tugruqdan keyingi davrda yetarli parvarish va munosib tibbiy yordamning mavjud emasligi neonatal hamda go‘daklar o‘limiga olib kelishi mumkin. Infeksion kasallakilar, tug‘ruq paytidagi asfiksiya (nafas yetishmovchiligi) va turli jarohatlar neonatal o‘limning asosiy sabablari hisoblanadi.

Ayollarga tibbiy xizmat ko‘rsatkuvchi muassasalar takomillashtirish va xio‘matlar doirasini kengaytirish – onalik o‘limi va nogironlikni oldini olish yo‘lidagi birinchi qadam hisoblanadi. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar

chaqaloqlar sog‘lig‘ini mustahkamlash va ularning tirik qolishini ta’minlashga xizmat qiladi, shu bilan birga ona va bola salomatligini muhofaza qilish maqsadlarini amalga oshirishda muhim bog‘lovchi omil sanaladi.

Onalik va bolalar salomatligini muhofaza qilishda muhim element sfatida ayollarga nisbatan uy va jinsiy zo‘ravonlikni, shuningdek, barcha shakladgi diskriminatsiyani bartaraf etish hisoblanadi. Ayollarga qarshi zo‘ravonlik erkaklar tomonidan turli xulq-atvor va harakatlar orqali namoyon bo‘ladi. Chunki uydagi zo‘ravonlik ayollarning jismoniy,psixik,qtisodiy va ijtimoiy farovonligiga ta’sir ko‘rsatadi,shuningdek, ularning reproduktiv salomatligi va xulq-qoidalarga ham ta’sir qiladi.

Bunday ayollar holatni yetarlicha nazorat qila olmaydilar va homiladorlik davrida tibbiy kuzatuv imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydilar. Ayollarning huquqlari uchun kurashish va ularga qarshi zshravonlikka qarshi choralar ko‘rish ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. AQSh va Yevropa davlatlarida ayollar huquqlarini himoya qilish klublari mavjud. Bunday birlashmalar turlicha nomlanadi.

Qonunda nikohda er-xotinning tengligi tan oladi. Ota – onaning huquqlari va majburiyatlari tengligi oila qonunchiligi orqali ta’minlanadi. Uning normalariga ko‘ra, ota va ona o‘z farzandlari oldidagi majburiyatlarini bajarishda teng huquqlariga ega va teng mas’uliyatni yuklanadi.

Har bir bola tug‘ilgan paytdanoq dvlat tomonidan tarbiya va g‘amho‘rlik huquqi kafolatlangan. Har bir davlatda bolalarni oiladagi zo‘ravonlikdan huquqiy himoya qilish asoslari belgilangan - tarbiya usullari bolalarga nisbatan haqoratli, shadid, dag‘al inson qadr - qimmatini tushuntirmaydigan munosabatlarni, haqorat va ekspluatatsiyani istisno qilishi lozim. Bolalarga qarshi zo‘ravonlik ham ko‘plab mamlakatlarda kuzatiladi. Amerikalik olimlarning fikriga ko‘ra, AQShda bolalarga nisbatan dag‘allik va shadidlikka ayniqsa, ayollar ustunlik qiladi va har-yili katta miqdorda bolallar o‘z ota - onalari tomonidan jarohatlanib, azob chekadi va vafot etadi. Ushbu

ma’lumotlar bolalar, ota – onalar, maktab o‘qituvchilari, bolalar o‘ifokorlari hamda jamiyatnnig barcha a’zolari bola huquqlari sohasida yetarli bilimga ega bo‘lishi zarurligini tasdiqlaydi. O‘smirlar amaldagi huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan o‘z huquq va majburiyatlarni bilishlari lozim. Bu yerda bola manfaatlarini maksimal darajada himoya qilish maqsadida bolalar huquqlarini ta’minlashi lozim bo‘lgan asosiy talablar belgilangan. Undan ko‘ra, bolalar quyidagi asosiy huquqlarga ega: yashash huquqi, rivojlanish huquqi, himoyalanish huquqi.

Yashash huquqi bolaga qulay va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, belgilangan turmush darajasi standartlarini ta’minlash, shuningdek, ism va fuqarolikka bo‘lgan huquqni amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Rivojlanish huquqi esa bolaning ta’lim olish, dam olish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va madaniy hayotda ishtirok etish huquqini o‘z ichiga oladi.

Himoya huquqi bolaning e’tibori va g‘amho‘rlikka muhtojligini, shuningdek, ekspluatatsiya va haqoratlardan himoya qilinishi zarurligini anglatadi. Bu konvensiyada nogiron bolalar, qochqinlar, ota – onasidan ajatilgan hamda qonunbuzarlik sodir etgan bolalarga nisbatan alohida g‘amxo‘rlik choaralarini nazarda tutadi. Jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqi esa so‘z erkinligi, vijdon va din erkinligini qamrab oladi. Konvensiyada ota – onalarning tegishli majburiyatlarini ham belgilab qo‘yilgan.

Oila instituti Yevropa mamlakatlarining ayrimlari kabi, chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar ostonasida turibdi. Ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar hamda bolalarani parvarish qilish imkoniyatlarining cheklanaganligi yoki moliyaviy vositalarning yetishmasligi kabi turli to‘siqlar natijasida yoshlar orasida o‘z oilasini barpo etish orzusini amalga oshirayotganlar soni kamaymoqda.Bu holat mamlakat uchun jiddiy demografik oqibatlariga olib kelmoqda, chunki aholi qarib bormoqda. Uy bekaligi ona haqidagi an’anaviy tasavvur o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. O‘ziga ishongan va bilimli ayollar ham farzandli bo‘lishni, ham kasbiy o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lishni istaydi. Shu bilan birga, oila siyosati siyosiy doiralar va

ommaviy axborot vositalarida dolzarb mavzularidan biriga aylanmoqda.

Davlatning fuqarolarga bolalarni parvarish qilishda koʻmaklashish imkoniyatlari koʻp hollarda cheklangan boʻladi. Tugʻilish darajasi, odatda, ota – onalarga bolalarni parvarish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan mamlakatlarda yuqoriroq kuzatiladi. Masalan, Skandinaviya davlatlari yoki Fransiya shular jumlasidandir. Fransiyada bolalarni bollar bogʻchasidan boshlab, maktabni tamomlash bosqichigacha kun boʻyi parvarish qilish tizimi kafolatlangan. Natijada 25-49 yoshdagi ayollarning 79 foizi megʻnat faoliyati bilan band.

Germaniyada esa jamiyatning “bolasiz jamiyat”ga aylanib borish xavfi yuzasidan jiddiy xavotirlar mavjud. Mamlakatda faol demografik siyosat yuritilayotganiga qaramasdan, er – xotin juftliklarining yarmidan koʻpi umuman farzandli emas.

Koʻplab siyosatchilarning fikricha, ayollar uchun onalikni mehant faoliyati bilan uygʻunlashtirishga qulay sharoitlar yaratish zarur. Chunki, bolalarni jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga jalb etish jarayonidir. Oila bolalarni kelgusidagi oilaviy rollarga tayyorlaydi, ijtimoiy jihatdan yetuk va mas’uliyatli shaxs shakllanishiga ta’sir koʻrsatadi. Bolaning oilaviy moslashuvida oilaviy ehtiyojlarning shakllanishiga hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Oiladagi umumiy muhit bolalarning oilaviy rollarni qanday qabul qilishiga va kelajakda oʻz oilasini barpo etish istagiga bevosita ta’sir qiladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash har qanday boshqa faoliyatga tayyorlash kabi puxta va tizimli boʻlishi kerak. Bu vazifani eng samarali tarzda aynan oilaning oʻzi badjara oladi. Davlatnnig vazifasi esa bu jarayon uchun munosib huquqiy, iqtsodiy va ijtimoiy shart – sharoitlarni yaratishdan iborat. Shunigdek, oilalar oʻz farzandlarining ertangi kuniga ishonch bilan qarash, oʻz huquqlarnii hamda oilaga nisbatan davlat tomonidan koʻrilayotgan chora – tadbirlar haqida yetarli axborotga ega boʻlishi muhimdir.

Koʻp asrlar davomida oila jamiyatda uchta eng muhim funksiyani bajarib kelmoqda:reproduktiv, tarbiyaviy va xoʻjalik – iqtisodiy funksiyalar. Ushbu yagona tizim zanjiridagi har qanday boʻgʻinning

susayishi qolgan ikki funksiyaning ham samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda yosh oila mamlakat aholisining kenagytirilgan takror ishlab chiqarishini ta’minlash imkoniyatiga ko‘p jihatdan ega emas. Bu holat, ayniqsa, bir nafrdan ortiq farzandga ega bo‘lgan oilalarning aksariyatida iqtisodiy sharoitning qoniqarsizligi bilan izohlanadi.

Ota – onalar ola ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida har ikkalasi ham mehnat faoliyati bilan to‘liq band bo‘lishga majbur bo‘lgan sharoitda, iqtisodiy mulohazalar tufayli ikkinchsi va uchinchi farzandni dunyoga kelitrishdan voz kechish holatlarini kuzatiladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning jamoat ishlab chiqarishidagi ishtiroki qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakatda tug‘ilish ko‘rsatkichlari shunchalik past bo‘ladi.

Sharq mamlakatlarida esa erkakning nechta xotini borligidan qat’iy nazar, ayollar farzand tug‘ish, oila o‘chog‘ini asrash va uy xo‘jaligini yuritish bilan shug‘ullanadilar. Natijada tug‘ilish ko‘rsatkichlari Yevropa mamlakatlariga nisbatan ancha yuqori. Bu yerda an’analarga muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, demografik muammolarni barcha omillarni inobatga olgan holda kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqish zarur.

13.2.Uy-joy siyosati oilani rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida.

Uy – joy va kommunal sohalar – bu ko‘p tarmoqli majmualar bo‘lib, ularda uy – joy kommunal xizmatlarini iste’molchilarga ko‘rsatish bilan bog‘liq ijtimoiy – iqtisodiy, tashkiliy va texnik munosabatlar mujasamlashgan. Bunda iste’molchilarning eng muhim toifasi aholi hisoblanadi.

Davlatning uy – joy siyosati samarali iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Zero, uy – joy inson hayoti uchun eng muhim va birinchi darajali ehtiyojlaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga qurilish sohasining barqaror rivojlanishi milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishii ta’minlovchi muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Aholining uy – joy sharoitini yaxshilash O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan va hozirgi kunda turli xildagi chora va tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu vazifaning samarali amalga oshirilayotganini quyilagi ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin:

- uy – joyga bo‘lgan mulkchilik tuzilmasining tubdan o‘zgarganligi. Hozirgi kunda uy – joy fondining qariyb 98 foizi xususiy mulk hisoblanadi;
- uy – joy qurilishini moliyalashtirishning yangi modeli joriy etilganligi. Bunda davlat tomonidan uy – joyga bo‘lgan huquqni kafolatlash modeli bosqichma – bosqich bozor tamoyillariga asoslangan uy – joy siyosati modeliga o‘tdi. Ushbu modelda har bir oilaning iqtisodiy imkoniyatlari uy – joyga bo‘lgan ehtiyojni qondirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi;
- uy – joy qurilishini ipoteka kreditlash tizim, shuningdek, uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlar shakllantirilgan.

O‘zbekistonda uy – joy qurilishini, ayniqsa, qishloq joylarda rivojlantirish uchun qulay shart – sharoitlar yaratishga qaratilgan zarur qonunchilik – huquqiy baza, institutsional asoslar, imtiyoz va preferensiyalar tizimi shakllantirilgan. Umuman olganda, O‘zbekistonda uy – joy qurilishining milliy modeli quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- uzoq muddatli strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qishloq joylarda uy – joy qurilishini jadal sur’atlarda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilish;
- uy – joy qurilishida aholining mintaqaviy an’analari va ko‘pincha shaxsiy uy – joyga ega bo‘lishiga intilishini aks ettiruvchi mentalitetini inobatga olish;
- uy – joy fondi tarkibida hamda foydalanishga topshirilayotgan uy – joylar hajmida yakka tartibdagi uy – joy qurilishining ulushi yuqori ekanligi;

- uy – joyga bo‘lgan talab shakllanishida deomgrafik omilning sezilarli ta’siri (aholi soni va yosh oilalar sonining o‘sishi, uy xo‘jaliklarining tarkibi va tuzilishi);
- uy – joy qurilishining barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida, avvalo qshloq joylarda keng ko‘lamli imtiyoz va preferenyiyalar tizimining mavjudiligi.

Hozirgi kunda uy – joy muammosini hal etish yo‘llarini izlash, uy – joy qurilishini prognozlash, shuningdek, mavjud uy – joy fondini samarali foydalanish va uni rekonstruksiya qilish masalalariga katta e’tibor qraratilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatdkiki, bunda uy – joy fondi tuzilmasini va uy – joy qurilishini optimallashtirish, shuningdek, bozor omillarining ta’sirini hisobga olish masalalari yetarlicha inobatga olinmayapti.

Natijada turli oilalarni uy – joy bilan ta’minlash darajasi va umumiy yashash maydoni bo‘yicha nomutanosibliklar yuzaga kelmoqda, ayrim turdagi kvartiralar qurilishida tanqislik, boshqalarida esa ortiqchalik kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida uy – joy fondidan smaarasiz foydalanishga olib kelmoqda.

O‘zbekistonda uy - joy muammosi boshqa ijtimoiy - iqtisodiy muammolar qatorida eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, mazkur muammo doirasida muhim ijtimoiy – iqtisodiy o‘zaro bog‘liqliklar, urf - odatlar, an’analar hamda madaniy - etnik omillar mujassamlashgan. Shu sababli ushbu masala ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Xususan, Yu.V.Chugunovaning ilmiy maqolasida ta’kidlanishicha, aholi uchun qulay va arzon uy – joy qurilishi masalasi hozirgi kunda ham eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, uy – joy qurilishini moliyalashtirishning tashkiliy – huquqiy shakllarini takomillashtirish, shuningdek, yosh oilalarni kichik maydonli kqartira – studiyalar qurish orqali uy – joy bilan ta’minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy – joy bilan ta’minlanganlik muammosini hal etish, avvalo, uy – joy qurilishi hajmlarini sezilarli darajada oshirishni,shu bilan birga O‘zbekiston shaharlari va aholi punktlari infratuzilmasining barcha elementlarini rivojlantirishni talab etadi. Bunda uy – joy qurilishi

tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan ilg‘or yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega[24].

O‘zekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016-yil 21 oktyabrda qabul qilingan “2017 – 2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar asosida uy – joylar qurish dasturi to‘g‘risida”ni qaror, shuningdek, 2019-yil 28 noyabrdagi PF-5886-son “Ipoteka kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020-yil 27 avgustdagi 521-son “Mamlakat ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotgan yosh oilalar sy – joy bilan tta’minlashni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq, respublikada yangi namunaviy loyihalar asosida zamonaviy va qulay turar – joy binolarni barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyihalar aholining milli mentaliteti, shunigdek, qishloq joylaridagi yashash sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, imtiyozli kreditlashning eng qulay shartlarini joriy etish, energiya tejovchi yangi turdagi qurilish materiallari va uskunalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish choralari ham amalga oshirilmoqda. Bu esa yangi qurilayotgan uy – joylarning tannarxini kamaytirishga xizmat qiladi va natijada aholining turli qatlamlarini uchun maqbul narxlarda uy – joy taklif etilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11 martdagi PF-6186-son “Aholini bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari orqali uy – joy bilan ta’minlashga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq respublikada uy- joy qurilishi hajmini keng ko‘lamda oshirish nazarda tutilgan. Ushbu farmon prezident tomonidan amalga oshirilayotgan uy – joy siyostida yangi bosqichni boshlab berdi hamda aholini zamonaviy, qulay va arzon uy – joylar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, O‘zbekiston –

[24] Зияев М.К., Давлетов И.Х. Методический подход к оценке социальноэкономической эффективности жилья на стадии его проектирования // Научные чтения, посвященные 100-летию Ю.Б. Монфреда: Сборник материалов международной конференции. Москва, 2013. – с. 45-49

2030 Strategiyasining 6 – maqsadida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va uy – joy qurilishini kengaytirishga qaratilgan qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan:

- mamlakatda urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizgacha yetkazish;
- Samarqand va Namangan shaharlarini “million aholili shaharalar” darajasiga olib chiqish;
- aholisi 300 ming nafardan ortiq bo‘lgan shahar va tumanlar sonini 28taga yetkazish;
- barcha aholi punktlari uchun bosh rejalar ishlab chiqish.

Shuningdek, hududlarda 1 million kvartiradan iborat turar – joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” turar – joy massivlari sonini 100 taga yetkazish, qo‘shimcha ravishda 200 ming oila uchun uy – joy barpo etish hamda respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uy – joylarni qurish vazifalari belgilangan. Mazkur chora – tadbirlar aholining uy – joyiga ehtiyojini qondirish, shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatda barqaror urbanizatsiya jarayonlarini ta’minlashga xizmat qiladi[25]. Urbanizatsiya jarayonidagi asosiy vazifalardan biri aholini munosib va zamonaviy uy – joy bilan ta’minlashdan iborat. 2017-yildan boshlab mamlakatimizda aholini nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarida ham arzon va qulay uy – joylar bilan ta’minlashga qaratilgan faol davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

Ipoteka O‘zbekiston fuqarolar uchun uy – joy sotib olishning asosiy instrumentlaridan biriga aylanib ulgurdi. Biroq ko‘p oillar uchun yuqori foiz stavkalar va katta dastlabki to‘lovni to‘lash zaruriyati bu instrumentni amalda qiyin qilib quyadi. Shu sababli hukumat fuqarolarning xarajatlarini qisman qoplaydigan va moliyaviy yukni yengillashtiradigan subsidiya dasturini yo‘lga qo‘ydi. Subsidiya ikki shaklda taqdim etilishi mumkin:

[25] Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030». https://lex.uz/docs/6600404 14. Доступное жилье - фактор экономический. https://www.cer.uz/en/- post/publication/dostupnoe-zile-faktor-ekonomiceskij

1.Foiz stavkasining bir qismini qoplash – davlat ipoteka krediti bo‘yicha foizlardan bir qismini to‘laydi, bu esa oylik to‘lovlarni kamaytiradi.

2.Dastlabki to‘lov bo‘yicha yordam – agar oila dastlabki to‘lov uchun zarur summani to‘play olmasa, davlat ushbu summasining bir qismini qoplaydi.

Shu tariqa, subsidiyalar yosh oilalarga o‘z uy – joyiga ega bo‘lishda birinchi qadamni tashlash imkonini beradi. O‘zbekistonda yosh oilalar uchun imtiyozli ipoteka orqali davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab – quvvatlash uy – joy muammosini yechishni yanada amaliy qilib beradi. Bu jarayonda subsidiya dasturlari va banklar tomonidan taklif etiladigan qulay shartlar amal qiladi. Ipoteka subsidiyalar O‘zbekistonda uy – joy siyosati rivojida muhim qadam hisoblanadi. Bu jarayonda subsidiya dasturlari va bankalar tomonidan taklif etiladigan qulay shartlar amal qiladi. Ipoteka subsidiyalari O‘zbekistonda uy – joy siyosati rivojida muhim qadam hisoblanadi. Minglab oilalar uchun bu eng asosiy hayotiy masalalardan biri – shaxsiy uy – joy sotib olish imkoniyati yaratilishi demakdir. Subsidiyalar ipotekani yanada munosib va erishib bo‘ladigan holatga keltiradi, yosh oilalar va mutaxassislar uchun to‘siqlarni kamaytiradi, qurilish va umumiy iqtisodiyotni rag‘batlantiradi. Albatta, dastur ba’zi muammmolar va cheklovlardan xoli emas, ammo uning yo‘lga qo‘yilishi davlatning aholini uy – joy xarid qilish kabi mushim masalada qo‘llab – quvvatlashga intilayotganini ko‘rsatadi. Subsidiyalar – bu davlat byudjetidanajratilgan mablag‘lar bo‘lib, kam daromadli shaxslarga dastlabki to‘lov yoki kredit bo‘yicha foiz to‘lovlarini qoplash uchun bepul tarzda taqdim etiladi, shu orqali ipoteka krediti asosida uy – joy sotib olish imkoniyatini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ipoteka shartlari jahon amaliyotidan biroz farq qiladi. Amaldagi qonunchilikk ko‘ra, qurilish bosqichidagi xonadon bank tomonidan ajratilgan mablag‘ni kafolat sifatida ro‘yxatga olish mumkin emas, chunki u hali kadastrda ro‘yxatdan o‘tmagan.Shu bilan bir qatorda, ipoteka qimmatli qog‘ozlar bozorida uy – joy sotib olish uchun ham mavjud.

Biroq amaliyot bosqichma – bosqich takomillashmoqda va o‘zgarmoqda. Bu jarayonda davlat tomonidan qabul qilinayotgan dasturlar ham muhim rol o‘ynagan.Jumladan, shunday dasturlardan biri yosh oilalarga ko‘mak berishga qaratilgan.

Ma’lum bir yosh oila uchun ipotekadan foydalanish imkoniyatiga hali ham bir qator omillar ta’sir qiladi:daromad darajasi, u – joyning yuqori qiymati,katta oylik foiz va asosiy to‘lovlar hamda dastlabki to‘lovning mavjudligi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ko‘rigan chora – tadbirlar kreditlash sharitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bozor tamoyillari asosida aholini ipoteka kreditlari orqali uy – joy bilan ta’minlash dasturi doirasida subsidiya olish uchun fuqarolarning ijtimoiy kriteriylarga mosligi baholash jarayoni subsidiya.idm.uz tizimi orqali to‘liq avtomatlashtiriladi va inson omilining ta’siri istisno qilinadi. Shuningdek, yangi ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash chorasi e’lon qilindi, uning maqsadi uy – joyning erishish imkoniyatini oshirishdir. E’lon qilingan chora – tadbirlarga ko‘ra, agar yosh oilalar uchun ipoteka krediti bo‘yicha foiz stavkasi 14%dan oshsa, davlat byudjetidan ushbu foizdan bir qismini qoplaydi.Ushbu mexanizm bank resurslari bozor narxlarida shakllanadigan sharoitda oilaviy byudjetga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirishga qaratilgan. Bunday imtiyozni joriy etishga mamlakatdagi demografik ko‘rsatkichlar asosiy sabab bo‘ldt. Har-yili O‘zbekistonda o‘rtacha 270 mingga yaqin yangi nikoh rasmag ro‘yxatdan o‘lkaziladi. Yangi turmush qurgan yosh oilalarda o‘z uy – joyoiga bo‘lgan ehtiyojning yuqori ekani esa ipoteka kreditlarin qo‘llab – quvvatlash dasturini ishlab chiqishga turtki berdi. Endilikda yosh oilalar ipoteka krediti olganda amalda 14 foizlik belgilangan stavka bo‘yicha to‘lov qiladi. Bank tomonidan belgilangan bozor stavkasi bilan ushbu foiz o‘rtasidagi farqni esa davlat subsidiya tariqasida qoplab beradi. Mazkur tashabbus yoshlar siyosati doirasida amlaga orilayotgan chora – tadbirlarnnig davomi bo‘lib, u oila institutini mustahkmlash va yoshlarga hayotni boshlash uchun zarur ijtimoiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

13.3.Oilaviy hayotning infratuzilmasi.

Oilaviy hayotning infratuzilmasi – bu oilaning barqaror faoliyat yuritishi, farzandlarni tarbiyalash va umumiy farovonlikn ta’minlashga xizmat qiladigan moddiy, ijtimoiy, madaniy shart – sharoitlar majmuasidir. U bolalar bog‘chalari va maktablar, tibbiy xizmat, uy – joy, transport kabi imkoniyatlardan foydalanish, shuningdek, maishiy turmushni ashkil etish, moliyaviy rejalashtirish va madaniy dam olish imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

Oilaviy hayotning infratuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ijtimoiy – pedagogik infratuzilma – ta’lim musassasalar (bollar bog‘chalari, maktablar), rivojlantirish markazlari va bolalar o‘yin maydonchalarini o‘z ichiga olib, bolalarni tarbiyalash va ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.
- maishiy va uy – joy infratuzilmasi – uy-joy sifati, muhandislik tarmoqlari (suv, gaz,elektr) shuningdek, do‘konlar va maishiy xizmatlardan foydalanish imkonyaitlarini qamrab oladi.
- iqtisodiy tuzilma – oilaviy byudjetni boshqarish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish kabi moliyaviy masalalarni qamrab oladi.
- transport qulayligi – transport yo‘llari, yo‘l aylanmalari va jamoat transporti bekatlariga yaqinlik kabi omillarni o‘z ichiga oladi;
- madaniy muhit – madaniyat muassasalari, bog‘lar va dam olish maskanlari orqali oilaning madaniy va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Oila juda murakkab ijtimoiy organizm bo‘lib, uning me’yoriy foliyat yuritishi qator davlat muassasalari xizmatlariga bog‘liq. Bandlik darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda oilaning katta yoshdagi a’zolari bolalar bog‘chalari va maktablar xizmatlariga tayanadi, chunki bolalar kun davomida kattalar nazorati istida bo‘ladi. Ushbu muassasalarnig holati va xizmat sifati nafaqat bolalarnig ta’lim darajasi va salomatligiga, balki ayrim hollarda ularning hayotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Koʻp hollarda oila xizmatlarni narx jihatidan qulay boʻlgan muasasalar orasidan tanlashga majbur boʻladi, biroq bunday xizmatlarning sifati har doim ham talab darajasida emas. Statistik maʼlumotlarga koʻra, maktabgacha va maktab taʼlim muassasalari soni ham ularda tahsil olayotgan bolallar soni ham izchil ravishda qisqarib bormoqda.

Koʻp hollarda baʼzi mamlakatlarda umumtaʼlim muassasalari soni ham, ularda tahsil olayotgan oʻquvchilar soni ham qisqarib bormoqda. Chunki oila uchun ish vaqtida bolani qaerga qoldirish jiddiy muammoga aylanmoqda. Ayol koʻpincha, tanlov oldida qoladi:farzand yoki kasbiy faoliyat? Yoki agar oilada yagona boquvchi – ota boʻlsa, qimmatchilik sharoitida bolalarni qanday taʼminlash mumkin? Natijada oila bolalar tarbiyasi va salomatligi sifatini xavf ostida qoʻyishoʻga majbur boʻladi. Yosh avlod tarbiyasida bobo va buvilarning ishtiroki ham kamayib bormoqda. Chunki pensiya miqdorinning pastligi ularni ham mehnat faoliyatini davom ettirishga majbur qiladi, ona esa ish bilan band boʻladi. Shu sababli aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tasarrufidagi faoliyat yuritayotgan oila va bolalarga xizmat koʻrsatuvchi ijtimoiy muassasalar soni mamlakatlarda xizma koʻrsatilgan fuqarolar soni, ijtimoiy soni, ijtimoiy xizmatlar hajmi va turlari kengaymoqda.

Bolalarning nazoratsizligining asosiy sabablari quyidagilar bilan izohlanadi:ogʻir ijtimoiy – iqtisodiy ahqol, oilalarning tarqalishi, alkogolizm va narkotik moddalardan zararlanish, ioʻsizlik hamda kam taʼminlangan oilalarga yetarli ijtimoiy qoʻllab quvatlashning yoʻqligi.

Mamlakatlarda nazoratsiz bolalar va oʻsmirlar soni boʻyicha maʼlumotlar ancha taxminiy hisobalandi. Turli baholarga koʻra, ularning soni mamlakatda 2mlndan 5 mlngacha ekanligi taxmin qilinmoqda.

Oʻzbekistonning energetika tizimi – markaziy Osiyo elektr sistemasi (SAES) ichida eng yirik hisoblanadi, oʻrnatilgan quvvati taxminan 14140 mVT va hozirda modernizatsiya jarayoni faol olib borilmoqda, asosiy eʼtibor qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh va shamol) hamda atom energetikasida qaratilgan, bu esa aholi va sanoat talabini qoplashga xizmat qiladi. Energiya ishlab chiqarish

asosini (85%dan ortiq) tabiiy gaz tashkil etadi, biroq quyosh va shamol generatsiyasi tez sur’at bilan rivojlanmoqda.

13.1-jadval

O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Ta’lim sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd so‘m	648,8	986,3	1 125,5	1 842,3	2 499,1
Umumta’lim muassasalar soni	10289,0	10522,0	10750,0	10943,0	10 170
Umumta’lim muassasalarida tahsil oluvchilar soni	6304586,0	6461741,0	6645119,0	6776333,0	6776300,0
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagog xodimlar soni	106814,0	115980,0	131679,0	167570,0	174557,0
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining umumiy soni	17997	29178	29088	35973,0	38058,0
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim – tarbiya olayotgan bolalar soni	1443300	1779000	2009800	2169500,0	2349994,0

Elektr energiyasi uchun qadamli tarif amal qiladi:200 kVt soatgacha – 600 so‘m/kVt soat, undan yuqori iste’mol uchun narx yuqorilaydi. Hozirda O‘zbekistonda 148 ta elektr stansiyalari faoliyat yuritadi, ularning umumiy quvvati 25797 mVt:issiqlik elektr stansiyalari va TES – 17551mVt,gidroelektrostansiyalar – 2441 mVt, quyosh fotoelektr stansiyalari – 3930 mVt, shamol elektr stansiyalari – 1652 mVt, blok-stansiyalar – 223 mVt. Bu ma’lumotlar energetika

sektoridagi rivojlanish tendensiyalari, quvvvat taqsimoti va qayta tiklanadigan energiya manbalari rolini yoritishda muhim ahamiyatga ega. 2025-yilda yalpi quvvati 4647 mVT bo‘lgan 42ta generatsiya loyihasi foydalanishga topshirildi.Ularning tarkibi quyidagicha: quyosh elektr stansiyalari - 5ta, umumiy quvvati 1413 - mVt, shamol elektr stansiyalari - 4ta, umumiy quvvati - 752 mVt, akkumulyatorli energiya tizmlari - 10ta, umumiy quvvati 1245 mVt, issiqlik elektr stansiyalari - 1ta, quvvati 1065 mVt, gidroelektrostansiyalar - 5ta, umumiy quvvati 168 mVt, kogeneratsiya ob’ektlari - 2ta, quvvati 102 mVt.

Shuningdek, umumiy quvvati 1614 MVA (megavolt-amper) bo‘lgan 11ta yangi podstansiya hamda 420 km elektr tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, umumiy quvvati 3508 mVT bo‘lgan 21 ta yangi loyiha qurilishi boshlandi. Ushbu loyoihalar tarkibiga quyosh va shamol elektr stansiyalari, akkumulyatorli energiya tizimlari, kogeneratsiya ob’ektlari, shuningdek, podstansiyalar, elektr va gaz tarmoqlarini barpo etish ishlari kiradi. Shu bilan birga, mazkur ayrim sohada muammolar ham mavjud. Jumladan, avariya holatlarida ishlaydigan brigadalr yetishmasligi, asbob – uskunalarning ma’nan va jismonan eskirgai, shuningdek, kadrlar almashinuvining yuqoriligi shular jumlasidandir. Suo‘nggi uch-yil ichida tizimdan xodimlarning qariyb 30 foizi, jumlada espluatatsiya xizmatlari mutaxassislari ishdan ketgan.

Bu holat ayrim vaqtlarda elektr energiyasi ta’minotda uzilishlar yuzaga kelishiga va ayniqsa, yuqori iste’mol davrlarida shahar infratuzilmasining barqarorligi pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim elektr tarmoqlari avariya holatida bo‘lib, podstansiyalarning bir qismi esa modernizatsiya qilish yoki quvvatini kengaytirishni talab qiladi[26]. O‘zbekiston aholisi uchun suv ta’minoti bilan bog‘liq muammolar tobora sezilarli bo‘lib bormoqda. Mutaxassislar baholashicha, shaharlardagi suv ta’minoti tarmoqlarining taxminan 60 foizi eskirgan. Quvurlarning katta qismi 40 - 50-yildan ortiq vaqt davomida

[26] Доклад Всемирного банка «Uzbekistan Infrastructure Assessment» Governance https://thedocs.worldbank.org/en/doc/9a1b20251d1688c5883ce8d3baa250f-0080012023/original/Uzbekistan-InfraGov-Report.pdf?utm_source=chatgpt.com

foydalanib kelinmoqda[27]. Suv resurslarning salmoqli qismi tarmoqlardagi texnik nosozliklar, noqonuniy ulanishlar hamda hisobga olish tizimining yetarli darajada rivojlanmagani sababli yo‘qotilmoqda. Suv ta’minoti tarmoqlarini saqlash va yangilash uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi esa avariya holatlari ehtimolini oshirib, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, qaytarib bo‘lmaydigan suv yo‘qotishlar – ya’ni quvurlardan oqishlar, bosimning pastligi va boshqaruv tizimining samarasizligi kabi omillar suv ta’minoti tizimlarining barqaror faoliyatiga qo‘shimcha xavf tug‘diradi. Bu holatlar majmuasi aholining asosiy kommunal xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab, jamoat salomatligi uchun muayyan xavflarni yuzaga keltiradi[28]. Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimi hozirgi kunda yetarli darajada rivojlanmagan holda kolmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda qattiq maishiy, suyuq hamda qurilish chiqindilari hajmi ortib borgan. Bu esa ularni yig‘ish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash bo‘yicha mavjud quvvatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Chiqindilar tarkibida plastik ulushi tahminan 10 foizga yaqinlashgani, biroq qayta ishlash korxonalarining quvvati bu hajmni to‘liq qayta ishlash uchun yetarli emas. 2024-yilda mamlakatda 14,8 mln tonna chiqindi hosil bo‘lsa, shundan atigi 900,5 ming tonna, ya’ni 6,1 foizi qayta ishlangan. Maishiy chiqindilarning qariyb chorak qismini qog‘oz, plastik, rezina, shisha va to‘qimachilik qoldiqlari tashkil etadi. Shuningdek, chiqindilarni alohida yig‘ish tizimi ham hozircha past darajada rivojlangan. Bu esa ikkilamchi xomashyodan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklab, chiqindilar poligonlariga tushadigan yuklamani yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston shaharlari bugungi kunda1q infratuzilma yetishmoqchiligi, iqlim va ekologik xavflar, shuningdek, sifatli shahar xizmatlarining cheklanganligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

[27] Доклад Всемирного банка «Uzbekistan Infrastructure Assessment» Governance https://thedocs.worldbank.org/en/doc/9a1b20251d1688c58b83ce8d3baa250f-0080012023/original/Uzbekistan-InfraGov-Report.pdf?utm_source=chatgpt.com

[28] Доклад Всемирного банка «Uzbekistan Infrastructure Assessment» Governance https://thedocs.worldbank.org/en/doc/9a1b20251d1688c58b83ce8d3baa250f-0080012023/original/Uzbekistan-InfraGov-Report.pdf?utm_source=chatgpt.com

Ayniqsa, bu holat kichik va o‘rta shaharlarda yaqqol namoyon bo‘lib, shahar infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi aholi uchun zarur xizmatlardan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Mazkur muammolar ayrim jihatlari bilan poytaxt shahrida ham kuzatiladi, ya’ni shahar infratuzilmasiga tushayotgan yuklamalarning ortishi, ekologik bosim va xizmatlar sifati bilan bog‘liq qiyinchiliklar Toshkent shahri uchun ham dolzarb hisoblanadi[29].

13.2-jadval

O‘zbekistonda maishiy va uy – joy infratuzilmasi ko‘rsatkichlari %

Ko‘rsatkichlar	yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Uy – joylarning tabiiy gaz bilan ta’minlanganlik darajasi	55,5	55,4	55,5	55,5	56,7
Uy – joylarning quvurlar tizimi bilan ta’minlanganlik darajasi	37,3	43,6	48,2	49,2	50,1
Uy – joylarning ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi	67,4	68,3	71,6	75,0	77,1
Asosiy ichimlik suvi xizmatlaridan foydalanuvchi uy xo‘jaliklari ulushi	87,9	94,7	97,8	98,7	99,6

Ijtimoiy va tibbiy infratuzilma – bu aholining sog‘ligi, turmush sifati va barqaror ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan moddiy – texnik ob’ektlar (binolar, tibbiy jihozlar) hamda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari majmuasidir. Ushbu infratuzilmaning mohiyati aholining mehnat salohiyatini qayta tiklash uchun sharoit yaratish, hayot sifati darajasini oshirish va jamiyada ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdan iborat.

Xalqaro baholashlarga ko‘ra, sog‘liqni saqlash tizimi sifati bo‘iycha CEOWORLD Magazine tomonidan tuzilgan reytingda O‘zbekiston 110ta mamlakat orasida 64 o‘rinni egallagan va 36,26 indeks bilan baholangan. Ushbu indeks 100 ga qanchalik yaqin bo‘lsa, Ukraina 76 o‘rin, Qozog‘iston 78 o‘rin va Turkmaniston 95 o‘rinda

[29] Доклад Всемирного банка «Uzbekistan Infrastructure Assessment» Governance https://thedocs.worldbank.org/en/doc/9a1b20251d1688c5883ce8d3baa250f-0080012023/original/Uzbekistan-InfraGov-Report.pdf?utm_source=chatgpt.com

qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar mintaqada sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanish darajasini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Tayvan, Janubiy Koreya va Avstraliya sog‘liqni saqlash tizimlari eng yuqori baholangan bo‘lsa, Salvador, Gonduras va Nepal eng past kshrsatkichlarga ega deb topligan. Sog‘liqni saqlash tizimi indeksi - bu sog‘liqni saqlash tizimining umumiy sifatini kompleks statistik tahlil qilishga qaratilgan ko‘rsatkichdir. U quyidagi omillarni qamrab oladi:sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, tibbiyot mutaxassislarining (shifokorlar,hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari) kasbiy salohiyati, tibbiy xizmatlar qiymati (aholi jon boshiga AQSh dollarida), sifatli dori – darmonlardan foydalanish imkoniyati hamda davlatning tayyorgarlik darajasi. Shuningdek, indeks ekologik sharoitlar, tozo‘a ichimlik suvidan foydalanish, sanitariya holati, hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar – masalan, tamaki chekish va semirish bilan bog‘liq xavf – xataralarga qarshi davlat tomonidan jazo choralarnii qo‘llashga tayyorgarlik kabi qo‘shimcha jihatlarini ham inobatga oladi. Ushbu reyting dunyo bo‘ylab 110 ta mamlakatni sog‘liq bilan bog‘liq beshta asosiy ko‘rsatkich asosida baholaydi[30].

13.3-jadval

Sog‘liqni saqlash indeksi bo‘yicha mamlakatlar indeksi

O‘rin	Mamlakat	Tibbiy infratuzilma va mutaxassislar	Dori vositalari (mavjudlik va qiymat)	Hukumat tayyorgarligi	Umumiy indeks
1	Tayvan	87,16	83,59	82,30	78,72
2	Janubiy Koreya	79,05	78,39	78,99	77,70
3	Avstraliya	90,75	82,59	92,06	74,11
4	Kanada	86,18	78,99	88,23	71,32
5	Shvesiya	78,77	74,88	74,18	70,73
6	Irlandiya	92,58	96,22	67,51	67,99
7	Niderlandiya	77,86	71,82	55,10	65,38
8	Germaniya	86,28	75,81	83,82	64,66
9	Norvegiya	72,48	68,68	64,78	64,63

30

10	Isroil	88,63	75,61	90,25	61,73
42	Rossiya	88,12	72,84	91,25	42,31
57	Ozarbayjon	70,93	54,96	64,10	37,94
61	Belarus	71,76	54,98	73,65	37,08
64	O‘zbekiston	64,57	50,87	59,31	36,26
76	Ukraina	72,31	54,06	58,37	34,61
78	Qozog‘iston	73,69	54,62	59,64	34,28

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinin g 2025-yil 27 dekabrdagi №393-son qaroriga muvofiq 2026 – 2028-yillarga mo‘ljallangan mamlakatning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks dastur tasdiqlandi.



13.1-rasm. O‘zbekistonning 2026-2028-yillardagi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi

“O‘zbekiston -2020” strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish, atrof – muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga qaratilgan. Dastur doirasida qurilish ob’ektlarini loyihalash jarayonida “yashil” texnologiyalarni qo‘llash, energiya samaradorligi standratlariga rioya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish majburiy tartibda belgilangan. Shu

bilan birga energiya tejamkor va ekologik jihatdan xavfsiz qurilish materiallari qo‘llanilmagan taqdirda, loyiha – smeta hujjatlari ekspertiza ko‘rigidan o‘tkazish uchun qabul qilinmaydi.



13.2-rasm. Davlat investitsiyalarini boshqarishni takomillashtirish

Ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlash maqsadida bir qator ustuvor yo‘nalishlarga yirik moliyaviy resurslar ajratilishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, ilg‘or kabiy mahoratiga ixtisoslashgan texnikumlarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun 150 mlrd so‘m yo‘naltiriladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2 trln so‘m ajratilib, ijtimoiy soha ob’ektlarida qo‘shimcha quvvatlar yaratish rejalashtirilgan. Umumta’lim maktablarini jihozlash uchun ajratiladgina mablag‘lar hajmi 1,6 baravariga oshiriladi.

Turizm salohiyatini yuksaltirish maqsadida o‘arur infratuzilmani barpo etish uchun ajratiladigan moliyalashtirish 1,7 baravarga ko‘paytirilib, 700 mlrd so‘mga yetkaziladi. Issiqlik ta’minoti ob’ektlarining energiya samaradorligini oshirish uchun 70 mlrd so‘m yo‘naltiriladi. Shu bilan birga avtomobil yo‘llarida piyodalar xavfsizligini ta’minlash maqsadida yerosti piyodalar o‘tish yo‘laklarini qurish uchun 100 mlrd so‘m ajaratilishi belgilangan.



13.3-rasm. 2026-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini amalga oshirish

O‘zbekistonda oilaviy byudjetni boshqarishning iqtisodiy tuzilmasi – bu oilannig moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida daromadlar (ish haqi, pensiya, nafaqalar, dehqon xo‘jaliklaridan tushumlar) va xarajatlarni (uy-joy, oziq – ovqat, ta’lim, jamg‘armalar) tizimli hisobga olish va rejalashtirish mexnazimdir. Ushub tizim xarajatlarni maqbullashtirish va jamg‘arish samaradorligini oshirish uchun mobil ilovalar, bank instrumentlari hamda moliyaviy savodxonlik tamoyillaridan foydalanishni qamrab oladi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oila a’zolaridan biri kun davomida o‘rtacha 3 soatni uy mehnatiga sarflaydi. Shu asosda hisoblngan, O‘zbekiston oilalari bir kunda taxminan 15 million soat vaqtni uy mehnatiga yo‘naltiradi. Agar mazkur mehnat viymati 1-razryad ish haqi (oyiga 1 271 000 so‘m) asosida baholansa, bir soat mehnat taxminan 7 715 so‘mni tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida, oilalar tomonidan xar kuni taxminan 115,7 mlrd so‘mlik ish bajarilishini anglatadi. Umuman olganda, oilaviy ishlab chiqarish qaysi shaklda amalag oshirilishidan qat’iy nazar, jamiyat boyligini oshirishga xizmat qiladi va aholi farovonligini yuksaltirishga sezilarli hissa qo‘shadi.

Oila uchun xarajatlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni mablag‘larni insonning jismoniy va aqliy rivojdlanishiga, shuningdek, ma’naiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tovar va xizmatlarga yo‘naltirish zarur. Shu bilan birga, oila ijtimoiy jihatdan zararli bo‘lgan mahsulotlar, jumladan, alkogol va tamaki mahsulotlari iste’moliga sarflanadigan xarajatlarni kesin qisqartirish lozxim. Ushub xarajatlarni ikki baravar kamaytirish-yillik hisobda 700 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ni tejash imkonin beradi. Agar ushbu mablag‘lar ta’oim sohasiga yo‘naltirilsa, mazkur yo‘nalishdagi xarajatlar hajmini taxminan 39 fozga oshirish mumkin bo‘ladi. Oilaviy byudjetni mustahkamlash zamonaviy iste’mol madaniyatiga rioya etishni taqog‘o qiladi. Bunda ortiqcha va maqsadsiz xarajatlardan, ayniqsa, ayrim oilalarning moddiy imkoniyatlarini namoyish etishga qaratilgan sarf – xarajatlardan voz kechish muhimdir. Shu bilan birga, ortiqcha daromadlarni xayriya io‘lariga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu nafaqat jamiyat, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham ijobiy ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekistonda infratuzilmaning ayrim yo‘nalishlarini rivojlantirish borasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotganini ko‘rsatkioqda. Xususan, ta’lim muassasalari sonining ortishi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar sonining ko‘payishi, shuningdek, ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari hajmining kengayishi qayd etilmoqda. Parrallel arvishda mamlakatning energetika tizimi modernizatsiya qilinmoqda va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘oami kengaytirilmoqda. Davlat tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, ob’ektlarning energiya samaradorligini oshirish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ayni vaqtda bir qator muammoli jihatlar ham saqlanib qolmoqda. Ular qatoriga kommunal tarmoqlarning .qori darajada eskirganligi, suv ta’minoti va elektr tarmoqlarini modjernizatsiya qilish zarurati, maishiy chiqindilarni qayta ishlash tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi,

shuningdek, mamlakat hududlari o‘rtasida infratuzilmaviy ta’minlanganlik darajasidagi tafovutlar kiradi. Ushub omillar shahar muhitining barqarorligini pasaytirishi va oilalar uchun qo‘shimcha qiyinchililkarni yuzaga kelitirilishi mumkin. Oilaviy hayot barqarorligi uchun aholi moliyaviy savodxonligini oishirish hamda oilaviy byudjetni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Daroad va xarajatlarni oqilona taqsimlash, ortiqcha iste’moldan vozk yechish hamda xarajatlarni oila a’zolarining ta’lim, sog‘liqni saqlash va shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirish orqali uy xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va ularning farovonlik darajasini oshirish mumkin.

O‘zbekistonda oilaviy hayott infratuzilmasini yanada takomillashtirish kommunal xo‘jalikni modernizatsiya qilish, aholi uchun sifatli ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatdarini kengaytirish, innovatsion va ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni joriy etish hamda ijtimoiy sohada davlat siyosatining samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida oilaning barqaror rivojlanishi uchun qulay shart – sharoitlar yaratishga xizma qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Farovonlik demografik rivojlanishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Bandlilik oilaviy barqarorlikka qanday ta’sir qiladi?
3. Uy-joylashuv demografik holatni qanday o‘zgartiradi?
4. Sog‘lomlashtirish aholi turmush sifatiga qanday ta’sir qiladi?
5. Ta’minot darajasining tug‘ilish holatiga bog‘liqligi nimada?
6. Iste’mol imkoniyatlari oilalar soniga qanday bog‘liq?
7. Infratuzilma demografik rivojlanishda qanday o‘rin tutadi?
8. Savodxonlik oilaviy qarorlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Ijtimoiylashuv demografik xulqqa qanday ta’sir qiladi?
10. Reproduktivlik qaysi omillar bilan belgilanadi?

XIV BOB. IJTIMOIY-DEMOGRAFIK PROGNOZLASHNING MOHIYATI VA MAQSADLAR

14.1.Demografik prognoz.

14.2. Demografik prognozlashni o‘tkazish metodikasi.

Tayanch so‘zlar: prognozlash, bashorat, ko‘rsatkich, dinamika, tendensiya, modellash, tahliliy yondashuv, rejalashtirish, demografik holat, ijtimoiy jarayon, istiqbollash, baholash, ehtimollilik.

14.1.Demografik prognoz.

Demogarfik prognoz – bu aholi harakati jaaryonlari va kelajakdagi demografik holatning asosiy ko‘rsatkichlarini ilmiy metodologiya asosida oldindan baholashdir. U aholi umumiy soni, yosh va jins tarkibi, oilaviy strukturasi, tug‘ilish va o‘lim darajalari, migratsiya jarayonlari hamda aholinnig ayrim sifat ko‘rsatkichlarini qamrab oladi.

Hozirgi davrda aholi tuzilishi va dinamikasini prognozlashga urinilmagan mamlakat deyarli mavjud emas. Bunday hisob – kitoblar xalqaro miqyosda ham amalga oshiriladi, jumladan, BMT tomonidan butun dunyo va uning alohida mintaqalri kesimida istiqbolli demografik baholashlar tayyorlanadi.

Aholi soni va tarkibi bo‘yicha uzoq muddatli hisob – kitoblar demografiya uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Demografiya prognozlar mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonini,asosiy mehnat resurslarining hajmini, alohida yosh – jins guruhlarining istiqboldagi ulushini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Aholi soni va tarkibi bilan bir qatorda oilalarning istiqboldagi soni va tarkibini prognozlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oilalarning bolalar soniga ko‘ra taqsimlanishi bo‘yicha kelgusi tendensiyalarni baholash amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Mamlakat miqyosida ham, uning alohida huddulari kesimida ham maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar kontingentining istiqboldagi o‘zgarishlarini hisobga olish muhim vazifadir. Ijtimoiy ta’minot organlari kutilayotgan pensionerlar soni haqida aniq ma’lumotlarga muhtoj.

Aholiga tibbiy xizmat koʻrsatish tizimini rivojlantirish uchun esa kelajakdagi yosh – jins tarkibi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar zarur, chunki tibbiyot kadrlarni tayyorlash yoʻnalishlari va sogʻliqni saqlash muassasalari qurish hajmi koʻp jihatdan shu omilga bogʻliq. Shuningdek, keng isteʼmol tovarlariga, ayniqsa, kiyim – kechakka boʻlgan talab xarakteri ham aholining yosh – jins tarkibi, oilalar soni va tarkibi bilan bevosita bogʻliqdir. Deyarli barcha iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy hayot sohalarida bemografik prognoz maʼlumotlaridan muayyan darajada foydadalaniladi. Biroq, deiografik prognozlar faqat aholining kelajakdagi koʻrsatkichlarini aniqlash usuli emas. Ularni jamiyat uchun eng maqbul hisoblangan koʻrsatkichlar bilan qiyoslash orqali mavjud demografik tendensiyalar asosida ehtimoliy (real) va maqsadli (istalgan) koʻrsatkichlar oʻrtasidagi farqni aniqlash mumkin. Shu tariqa, demografik prognozlar nafaqat bashorat vositasi, balki strategik rejalashtirish va ijtimoiy – iqtisodiy siyosat samaradorligini baholashning muhim analitik instrument sifatida ham xizmat qiladi.

Shuni qayd etish lozimki, ayrim hollarda nisbatan qisqa muddat – taxminan bir yoki ikki besh-yillik davr uchun tuzilgan demografik prognozlar yetarli darajada aniq natijalar bergan. Biroq uzoq istiqbolga moʻljallangan aholi prognozlari koʻp hollarda kutilgan darajada tasdiqlanmagan. Hatto mavjud aholi sonini baholashda ham maʼlum xatolik darajasi saqlanib qoladi:odatda taxminan 1 foiz, eng yaxshi hollarda 0,5 foizgacha, ayrim vaziyatlarda esa bundan ham kattaroq tafovutlar kuzatiladi. Bu holat demografik jarayonlarning koʻp omilli va dinamik xususiyati bilan izohlnadi. Shu bois, uzoq muddatli demografik prognozlar ehtimoliy xarakterga ega boʻlib, ularni ishlab chiqishda muqobil ssenariylardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prognoz qamrab oladigan davr muddatiga koʻra demografik prognozlar quyidagi turlarga ajratiladi: qisqa muddatli (5-yilgacha), oʻrta muddatli (30-yilgacha) va uzoq muddatli (30 – 60-yillik) davrga moʻljallangan.

Demografik prognozning aniqlik darajasi, avvalo, boshlang‘ich statistik ma’lumotlar bazasining ishonchliligiga hamda demografik jarayonlar tendensiyalarini istiqbolda to‘g‘ri aniqlash darajasiga bog‘liq. Shuning uchun prognozlash jarayonida ma’lumotlar sifatini ta’minash va demografik dinamikaning ehtimoliy yshnalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta’sirida demografik jarayonlar sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Bu, xususan, ko‘p bolali oila modelidan kam bolali oila shakliga bosqichmp - bosqich o‘tish, o‘lim ko‘rsaktichlarining o‘sishi va migratsiya intensivligining kuchayishi orqali namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy sharoitda deomgrafik prognozlarni ishlab chiqishda demografik jaaryonlar intensivligining istiqboldagi darajasini aniqlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hisob – kitoblar,odatda, demografik jarayonlarning kelgusi rivojlanish tenjdensiyalari haqida turli gipotezalarga asoslangan holda uchta varaint – optimistik, inersion (yoki o‘rta) va pessimistik ssenariylar bo‘yicha amlaga oshiriladi. Bu yondashuv demografik o‘zgarishlarni har tomonlama baholash imkonini beradi.

O‘rta muddatli demografik prognozlar, odatda, bir necha variantda ishalb chiqiladi. Ular tug‘ilish, o‘lim va migratsiya jarayonlarinnig istiqboldagi dinamikasi bo‘yicha turli taxminlarga asoslanadi, hamda mamlakat amalga oshirilayotgan demografik siyosat chora – tadbirlarini inobatga oladi. Prognozlash jarayonida, qoida tariqasida, demografik rivojlanishning shartli ravishda uchta ehtimoliy ssenariysi ko‘rib chiqiladi:pessimistik (past ko‘rsatkichli), optimistik (yuqori ko‘rsatkichli) va o‘rtacha variant. Bunday ko‘p ssenariyli yondashuv deiografik jarayonlarning ehtimoliy kompleks baholash va ijtimoiy – iqtisodiy rejalashtirish uchun muqobil qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Pessimistik (past ko‘rsatkichli) prognoz varianti mamlakatdagi umumiy demogarfik inqiroz davom etgan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan rivojlanish ssenariysi ifodalaydi. Bunday holatda 30-yil davomida aholi soni 20 million nafargacha qichqarishi ehtimoli

mavjud. Aholining umumiy o‘sishida migratsiya hissasi tobora ustuvor ahamiyat kasb etadi, biroq vaqt o‘tishi bilan migratsion o‘sish sur’ati ham pasayib borishi kutilmoqda. Ushbu ssenariy demogarfik jarayonlardagi salbiy tendensiyalar saqlanib qolishi natijasida aholi soni va tarkibida jiddiy nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Prognoz natijalari O‘zbekiston Respublikasi aholisining takror ishlab chiqarish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat avvalo, aholining yosh tarkibi nisbatan yosh ekanligi hamda reproduktiv yoshdagi ayollar ulushining kattaligi bilan izohlanadi. Shu sababli, umumiy tug‘ilish koeffitsientining kutilgan ko‘rsaktichlari avlodlarni oddiy almashtirish darajasidan ancha yuqori bo‘lishi taxmin qilinmoqda.

Prognozlarga ko‘ra tahlil qilinayotgan davr oxiriga kelib mamlakat aholisi moni 50 million kishidan oshib ketishi ehtimoli yuqori. O‘rtacha ssenariyga muvofiq, 2050-yilga borib O‘zbekiston aholisi taxminan 50,8 million nafarni tashkil etishi kutilmoqda.

Aholi soni prognozidagi noaniqlik darajasini baholash uchun past va yuqori ssenariylardan foydalaniladi. Past ssenariy 2050-yilga kelib aholi soni 47,8 million atrofida bo‘lishi mumkin bo‘lsa, yuqori ssenariyda bu ko‘rsatkich 53,9 million nafardan ortiqni tashkil etishi ehtimol qilinmoqda.

O‘zbekiston aholisi sonining kutilgan nisbiy o‘sishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘rtacha prognoz variantiga ko‘ra 2022-yil (2021-yil 31 dekabr holatiga)dan 2050--yilgacha bo‘lgan davoda bu ko‘rsatkich taxminan 44%ni tashkil etadi. Past va yuqori ssenariylar bo‘yicha esa mos ravishda 35% va 53% darajasida bo‘liish kutilmoqda.

Shuni ta’kidlash kerakki, prognoz davri mobaynida aholi o‘sish sur’atlari bir xil bo‘lmaydi. Dastlabki sakkiz-yil ichida-yillik o‘sish sur’atlari 1,6%dan 1,0%gacha pasayishi, so‘ngra ma’lum muddat barqarorlashishi, 2040-yildan keyin esa yana pasayish bosqichi kuzatilishi taxmin qilinmoqda. Bunday notekis aholining boshlang‘ich

yosh tarkibining xususiyatlari, shuningdek, tug‘ilish, o‘lim va migratsiya jarayolaridagi o‘zgarshlar bilan izohlanadi.



14.1-rasm. O‘zbekistonda aholining jami soni (31 dekabr holatiga ko‘ra), 2021–2050-yillar, o‘rtacha prognoz varianti (amaldagi va kutilgan ko‘rsatkichlar)

Aholining tabiiy harakati O‘zbekiston demografik rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi.Biroq uning hissasi kamayib borishi kutilmoqda:masalan, tabiiy o‘sish 2022-yilda taxminan 748 ming kishini takshil etgan bo‘lsa, 2050-yilga kelib 525 mingnafargacha kamayishi mumkin. Shunga qaramasdan, tabiiy o‘sishning saqlanib qolishi prognoz davri davomida manfiy migratsiya saldosini (ya’ni aholi chiqib ketishi ustunligini) qoplab boradi. O‘rtacha varaint bo‘yicha bu migratsion kamayish-yiliga taxminan 40 ming kishini tashkil etishi kutilmoqda.



14.2-rasm. O‘zbekistonda aholi o‘sish dinamikasi (31 dekabr holatiga ko‘ra), 2021–2050-yillar, o‘rtacha prognoz varianti (amaldagi va kutilgan ko‘rsatkichlar)

O‘zbekiston aholisining umumiy sonining dinamik o‘sishi mamlakatning barcha hududlarida kuzatiladi. Bu jarayonda nafaqat absolyut, balki nisbiy o‘sish ham hududlar bo‘yicha farq qiladi. Bu esa aholining jins – yosh tuzilishi va yosh bo‘yicha tug‘ilish sur’atlarining mintaqaviy differensiatsiyasi bilan bog‘liq. 2021 – 2035-yillarda mamlakat hududlarining (Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Namangan va Andijon viloyatlari), shuningdek, Toshkent shahrida aholi soni o‘rtacha o‘sishdan yuqori (25%dan ortiq) tempda o‘sishi kutilmoqda. Bunga qarshi Buxoro va Toshkent viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida nisbiy aholi o‘sishi shu davrda 17 – 19%dan oshmaydi.



14.3-rasm: O‘zbekistonda aholi balansi prognoz ko‘rsatkichlari, 2022–2050-yillar, o‘rtacha variant

Prognoz davomida eng yuqori nisbiy aholi o‘sishi mamlakatning janubiy va janubiy sharqiy hududlari hamda Toshkent shahrida kuzatiladi. Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hamda Toshkent shahrida aholi soni 2050-yilda 2021-yil bilan solishtirganda 50%dan ortiq o‘sishi kutilmoqda. Shuningdek, Farg‘ona vodiysidagi ikki viloyat (Namangan va Andijon) hamda Markaziy hududdagi Samarqand viloyatida nisbiy aholi o‘sishi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori (44%) bo‘ladi.

Aholi jamiyatda ro‘y berayotgan barcha jarayonlarning asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi. Aholining dinamikasi va takribini o‘rganish ushbu jarayonlarni nazorat qilish va prognozlashtirish uchun zarurdir. Aholi keng qamrovli tadqiqot ob’ekti sifatida qaraladi, chunki u ishlab chiqarish jarayonining to‘g‘ridan – to‘g‘ri ishtirokchisi va uning natijalarini iste’mol qiluvchisidir. Aholi statistikasida kuzatuv ob’ekti turli tuzilmalar bo‘lishi mumkin:umumiy aholi (doimiy va mavjud), alohida guruhlar (me’yordagi yoshdagi aholi , pensionerlar, shahar va qishloq aholisi, erkaklar yoki ayollar), yosh oilalar yoki

aksincha, qariganlar, beliglangan davrda tug‘ilganlar yoki vafot etganlar va h.k.

Aholi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarnig asosiy manbalari – joriy hisobotlar va yagoa kuzatuvlar bo‘lib, ular umumiy yoki tanlab olinadigan aholi sanoqlari shaklida amalga oshiriladi. Aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ilk va eng to‘liq manbai aholi sanoqlidir. Ular aholi soni haqida eng aniq va to‘liq ma’lumotlarni maqdim etadi. Joriy hisobotlar orqali-yil davomida tug‘ilganlar, vafot etganlar, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib ketganlar va ketganlar qayd etilib, oxirgi aholi sanog‘i natijalari asosida har-yilda aholi soni aniqlanishi mumkin.

Kutilgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlashda rejalashtirilayotgan davrda aholi sonini bilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois aholi statistikasining asosiy vazifalaridan biri – perspektiv aholi sonini aniqlashdan iborat. Perspektiv aholi soni turli usullar asosida hisoblanadi, bu esa tadqiqot ob’ektiga kiruvchi aholi kontigentlari va alohida hududlar aholisining qamrovi bilan bog‘liq. Perspektiv aholi soni beliglangan davrda aholining tabiiy va mexanik o‘sishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda aniqlangan tendensiyaning prognoz davrida ham saqlanishi mumkinligi haqidagi taxminlar asosida hisoblanadi. Aholi sanoqlari orasida esa alohida aholi punktlarining aholi soni oxirgi snaoq ma’lumotlari va joriy satitsik hisobotlardan foydalangan holda, aholi tabiiy va mexanik harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida balans sxemasi orqali hisoblanadi:-yil oxiriga aholi soni =-yil boshidagi aholi soni +-yil davomida tug‘ilganlar soni +-yil davomida kelganlar soni −-yil davomida vafot etganlar soni −-yil davomida ketganlar soni.[31]

Ko‘plab xalq xo‘jaligi ko‘rsatkichlarini rejalashtirishda beliglangan davr uchun aholi sonini aniq bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusidagi aholi soni muaayyan vaqt oralig‘idagi tabiiy (tug‘ilish va o‘lim) hamda mexanik (ko‘chib kelish va ketish) o‘sish ko‘rsatkichlari asosida hisoblab chiqiladi. Bunda aniqlangan tendensiyalar prognoz davrida ham saqdanib qoladi, degan ilmiy taxminga tayaniladi.

[31] Robert N. Lussier. Human Resource Management: Functions, Applications, and Skill Development, Sage Publications, Inc, Year: 2018. 1919 p.

Aholi umumiy o‘sish koeffitsienti (Kop) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Kop = (Tabiiy o‘sish + Mexanik o‘sish) / O‘rtacha aholi soni × 1000

Bu yerda:

- **Tabiiy o‘sish** — tug‘ilish va o‘lim o‘rtasidagi farq;
- **Mexanik o‘sish** — ko‘chib kelish va ko‘chib ketish o‘rtasidagi farq;
- **O‘rtacha aholi soni** — hisob davridagi o‘rtacha aholi miqdori.

Ushbu koeffitsient, odatda, 1000 aholiga nisbatan (promille) ifodalanadi.

Faol aholi soni quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$H_{t+n} = H_n \cdot \left(1 + \frac{K_{O.П}}{1000}\right)^t \qquad (1)$$

Hn — rejalashtirilayotgan davr boshidagi aholi soni;

t — hisob-kitob amalga oshiriladigan prognoz davri (yillar soni);

Ko.p — aholining umumiy o‘sish koeffitsienti. Tartibga soling

14.2. Demografik prognozlashni o‘tkazish metodikasi

Demografik prognozlashning asosini aholining kelgusi davr uchun hisob – kitoblarini amalga oshirish tashkil etadi. Bunday hisob – kitoblar, odatda, matematik statistika usullariga tayanadi. Xususan, o‘tgan davrda kuzatilgan o‘sish sur’atlarini kelajakka tatbiq etishda eksponensial silliqlashtirish, nostatsionar vaqt qatoralarini statsionar holatga keltirish kabi metodlardan foydalaniladi. Mazkur usullarni qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri – prognozni ishlab chiqish uchun tanlanadigan bazaviy davrni iqtisodiy va demografik jihatdan ilmiy asoslab berish zarurati hisoblanadi.

Zamonaviy prognozlash usullarining asosini deomgrafik muvozanatning sodda tenglamasi tashkil etadi.

$$H_1 = H_0 + P - Y + P_m - V_m \qquad (2)$$

H_0 va H_1 – vaqtning muayyan boshlang‘ich va yakuniy davrlaridagi aholi soni;

P – mazkur boshlang‘ich va yakuniy vaqt oralig‘ida tug‘ilganlar soni;

Y – shu davr mobaynida vafot etganlar soni;

P_m – ushbu hududga kelib joylashganlar soni;

V_m – ushbu hududdan ko‘chib ketganlar soni.

Aholi soni o‘sishining eng modeli. Aholi sonining o‘sishi bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilar ekan. Thomas Robert Malthus shuni ta’kilab o‘tdiki, cheklovchi omillar mavjud bo‘lmagan sharoitda aholi sonining o‘sish tezligi $\frac{dN}{dt}$ aholi umumiy soni N ga proporsional bo‘ladi. Bu yerda t – vaqtni ifodalaydi. Mazkur faraz aholi o‘sishini ifodalovchi quyidagi sodda matematik modelni keltirib chiqaradi.

$$\frac{dN}{dt} = \alpha N, \;\; N(0) = N_0, \alpha = const > 0 \qquad (3)$$

Bu yerda: N_0-vaqtning boshlang‘iya paytidagi aholi soninin bildiradi, α esa proporsionallik koeffitsienti bo‘lib, u tug‘ilish koeffitsienti va o‘lim koeffitsientining doimiy qiymatlari o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Ushbu tenglamaning yechimi quyidagicha ifodalanadi:

Mazkur ifodaga ko‘ra $N(t) = N_0 e^{\alpha t}$, ma’lum vaqt oralig‘idan so‘ng aholi soni ikki baravarga ortadi va bu vaqt $ln2/\alpha$ ga teng bo‘ladi. Modelning matematik yechimi shuni ko‘rsatdiki, vaqt bu vaqt $t \to \infty$ bo‘lganda $N(t)$ qiymati cheksiz ortib boradi. Bu esa modelning qo‘llanish sohasi cheklanganligini anglatadi. Ya’ni, aholi soni juda katta qiymatlarga yetganda tizimga ta’sir qiluvchi turli cheklovchi omillarni ham hisobga olish zarur bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, tenglamaning yechimi populyatsiya sonining eesponensial tarzda bashorat qiladi. Agar $\alpha > 0$ bo‘lsa (ya’ni tug‘ilish koeffitsienti o‘lim koeffitsientidan yuqori bo‘lsa), populyatsiya Maltuscha o‘sish deb ataluvchi eksponensial ko‘payish jarayonini namoyon etadi. Aksincha agar $\alpha < 0$ bo‘lsa, (o‘lim darajasi tug‘ilish darajasidan yuqori bo‘lsa), populyatsiya soni eksponensial ravishda kamayib boradi. Ammo real sharoitlarda bunday jarayonlar to‘liq darajada kuzatilmaydi.

1838-yilda Ferxyulst ko‘payish dinamikasini yanada aniqroq ifodalovchi logistik modelni taklif qilgan. Ushbu model ko‘payish o‘sish jarayonini real sharoitlarga yaqinroq tarzda tavsiflaydi. Mazkur modelga mos keluvchi matematik tenglama quyidagi ko‘rinishga ega;

$$\frac{dN}{dt} = \alpha N\ (K - N) \qquad (4)$$

Bu yerda K – atrof – muhitning sig‘imi (ko‘payishi mumkin bo‘lgan maksimal soni).Agar ko‘payish soni kichik bo‘lsa, $N \ll K$, tenglama modeli bilan mos keladi va ko‘payish soni eksponensial tarzda (agar $\alpha > 0\ bo'lsa$) oshadi. N oshgani sari cheklovchi omillar ta’siri sezilarli boshlaydi, ko‘payish o‘sish sur’ati kamayadi va vaqt $t \to \infty$ bo‘lganda ko‘payish soni $N\ bevosita\ K$ ga yaqinlashadi, o‘sish sur’ati $\frac{dN}{dt}$ esa nolga intiladi.

Tenglama quyidagi ikki barqaror holati mavjud: $N = 0 - barqaror\ emas, N = K - barqaror$.

Barqaror holatda har qanday paytda tug‘ilishlar soni o‘limlar soniga teng bo‘ladi. Tabiiyki, vaqt o‘tishi bilan model ko‘rsatkichlari ham o‘zgarishi mumkin.

Vaqt qatorlari ekstropolyatsiya qilishga asoslangan demografik prognozlash usullari har doim ishonchli bo‘lmaydi. Demografik jarayonlarda buzilishlarga sabab bo‘luvchi turli ijtimoiy va iqtisodiy hodisalarni hisobga olish uchun, ko‘payish harakatining quyidagi xususiyatlarini o‘zgarishini inobatg aoladigan modellarga ehtiyoj bor: tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, yosh, jins tuzilmasi va boshqalar.

Ko‘pchilik demografik prognozlarda, ko‘payish sonining dtnamikasini belgilovchi asosiy jarayonlar – tug‘ilish,o‘lim va migratsiya ko‘rsatkiyalaridagi o‘zgarishlardir. Shu kabi modellarga xos mantiqiy bog‘lanishlar chizmasi chizmda ko‘rsatilgan.

Tug‘ilish koeffitsienti odatda 15 – 49 yoshdagi ayollarga yuzaga kelgan tug‘ishlar sonining 1000 ayolga nisbatati sifatida ifodalandi. Ba’zi modellarda ko‘payishning yosh va jins bo‘yicha ajratilgan guruhlari uchun tug‘ilish va o‘lim koeffitsientlaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, hisob – kitoblarni amalga oshirish ma’lum bir sanadagi ko‘payish yosh va jins bo‘yicha soni hamda kelajakdagi

reproduktiv rejim ko‘rsatkichlari kerak bo‘ladi. Asosiy hisoblash usuli yoshlarni surish metodi (g‘arb adabiyotlarida uni ko‘pincha komponentlar metodi – Cohort Compjnent method) deb ataladi.



14.4-rasm. Demografik prognoz modellari uchun xos mantiqiy bog‘lanishlar tizimi.

Boshlang‘ich ma’lumotlar to‘liqligi va gipotezalar murakkabligiga qarab, quyidagi turdagi deiografik prognozlash hisob – kitoblar mavjud:

- doimiy reproduktiv rejim bilan;
- o‘zgaruvchan reproduktiv rejim bilan;
- migratsiyasi hisobga olgan holda;
- o‘lim sabablarini hisobga olgan holda:
- tug‘ishlarni kohortlar bo‘yicha hisoblash;
- barqaror ko‘payish modeli asosida va boshqalar.

Ma’lumotlar nafaqat bir yoshli guruhlar bo‘yicha, balki besh yoki o‘n-yillik yosh guruhlari bo‘yicha ham olinishi mumkin. Zamonaviy prognozlarning aniqligi, ayniqsa uzoq muddatli prognozlarning, nazariy va amaliy demografiyaning rivojlanish darajasi, jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini ilmiy prognozlashning umumiy darajasi, shuningdek, kompyuter usullari yordamida taqdim etiladigan yangi prognoz – analitik imkoniyatlar bilan belgilanadi.

1980-yillarnig oxiridan boshlab demografik prognozlashda standart ilovaviy dastur paketlaridan foydalaniladi. Ular prognoz hisob –

kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vaqtni sezilarli darajada tejaydi va aholi sonining turli imkoniyatlaridagi dinasmikasi ssenariyalarini hisoblash imkonini beradi va shuningdek, boshlang‘ich ma’lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki nuqsonli bo‘lsa, ham hisob – kitoblaonni bajarish imkoniyatini yaratadi.

“DemProj” dasturi 1987-yilda The Futures Group amerikalik kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Prognoz qilish uchun (prognoz muddati - 50-yil) besh-yillik yosh guruhlari bo‘yicha erkak va ayol aholinnig boshlang‘ich soni hamda kelajakdagi tug‘ilish va o‘lim dinamikasiga oid prognoz gipetazalari talab etiladi. Natijalar faqat yosh va jins bo‘yicha guruhlarning soni bilan cheklanmay, balki tug‘ilish, o‘lim va ko‘payish o‘sish koeffitsientlarini ham o‘z ichiga oladi. Dasturdan foydalanish oson bo‘lib, prognoz natijalari ham jadval, ham grafik ko‘rinishda o‘sish imkonini beradi.

“MortPak” dasturi 1980-yillar oxirida BMTning Aholi bo‘limi tomonidan ishalb chiqilgan. U 17ta kichik dasturdan iborat bo‘lib, ular orqali qisqacha o‘lim – jon statistikasi jadvallarini tuzish, barqaror aholi hisob – kitoblarini olish, besh yoshlik yosh gurug‘lari bo‘yicha ma’lumotlarni yakka yoshga interpolyatsiya qilish, bolalar va reproduktiv yoshdagi ayollar o‘limini baholash, tug‘ilish koeffitsientlarini to‘g‘irlash va hokazo amaliyotlar bajarilishi mumkin. Dasturning so‘nggi ko‘rinishi aholi yosh tuzilmasini yakka yosh intervallari bo‘yicha prognoz qilish imkonini beradi.

Aholi dinamikasi va uning asosiy harakat ko‘rsatkichlari – tug‘ilish, o‘lim, immigratsiya va emigratsiya – bo‘yicha prognoz xulosalarini shaklalnitrishda asosiy e’tibor demografik tendensiyalarni tahlil qilish va ilmiy jihatdan izohlashga qaratildi.

Mamlakatning alohida hududlarida aholi rivojlanishiga oid olingan ma’lumotlar o‘tgan asrning ikkinchi yarmida demografik o‘tish jarayoni boshlangan davlatlarda shakllangan nazariy qarashlar hamda ushbu yo‘nalishlardagi empirik tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslanadi. Shu bilan birga O‘zbekistonga o‘xshash ijtimoi – iqtisodiy rivojlanish yo‘li va darajasiga ega mamlakatlarda aholining qayta ishlab

chiqarilishi va uning asosiy tarkibiy qismlari dinamikasi alohida tahlil qilindi. Bundan tashqari prognoz xulosalarida O‘zbekistonda kechayotgan transformatsiya jarayonlarining sur’atlari va ko‘lami, shuningdek, jahon iqtisodiyoti rivojlanish istiqbollari xamda mintaqadagi havfsizlik holatiga oid omillar ham inobatga olindi.

Tug‘ilishning kelgusidagi dinamikasini baholashda tanlanma kuzatuvlar asosida olingan ma’lumotlardan foydalanildi. Ushub ma’lumotlar so‘nggi-yillarda O‘zbekistonda tug‘ilish darajasininng o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar hamda o‘zbek ayollarining reproduktiv xulq – atvori (reproduktiv qarashlar, rejalar va ularning amalga oshirilishi) haqida muhim axborot beradi. Jumladan, olingan natijalar tayanilgan holda O‘zbekistonning barcha hududlarida tug‘ilish darajasi yaqin-yillarda o‘zining .ng yuqori nuqtasiga yetishi mumkin degan xulosa bildirildi. Boshqacha qlib aytganda, umumiy tug‘ilish koeffitsientinnig o‘sishi vaqtinchalik holat sifatida baholanishi lozim. Chunki, jamiyatda modernizatsiya jarayonlari davom etayotgan sharoitda yuqori reproduktiv qarashlarning uzoq muddat saqlanib qolishi ehtimoli past deb hisoblanadi. Shu bilan birga ayrim o‘zbek mutaxassislarnig fikrlariga qaramasdan, prognoz davrida tug‘ilishlarning oanlar yoshi bo‘yicha taqsimotida muayyan o‘zgarishlar yuz berishi kutilmoqda. Bu taxmin, avvalo, ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi va unga kirish imkoniyatining osonlashuvi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda yoshlarning kasbiy tayyorgarlik osonlashuvi bilan izohlanadi. Bunday sharoitda yoshlarning kasbiy tayyorgarlik davri uzayadi, mehnat faoliyatiga kirishish kechikishi mumkin. Natijada ota – ona oilasidan ajralib chiqish va iqtisodiy mustaqillikka erishish yoshi ham ortib boradi. Bu esa o‘z navbatida nikohga kirishish yoshining oshishiga va tug‘ilishlarning yosh tarkibida siljishlar yuz berish ehtimoliga olib keladi.

Nikohga kirishish o‘rtacha yoshining oshishi, o‘z navbatida, nafaqat tug‘ilishning yoshga oid modelida, balki uning umumiy darajasida ham o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bunday rivojlanish ehtimoli tanlanma kuzatuv natijalari bilan ham tasdiqlanadi. Unda

reproduktiv yoshga yetgan eng yosh ayollar guruhida reproduktiv niyatlar (ideal yoki istalgan farzandlar soni) o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlangan.

Yuqorida qayd etilgan omillarni hisobga olgan holda prognoz davri yakuniga kelib tug‘ilishning umumiy koeffitsienti aholining oddiy takror barqarorlanishi darajasiga yaqinlashishi kutilmoqda. Shu bilan birga hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan hududiy farqlar ham mutlaq, ham nisbiy ifodada qisqarishi prognoz qilinadi. O‘lim darajasining istiqboldagi rivodjlanishiga kelsak, pandemiya natijasida keskin oshgan umumiy o‘lim ko‘rsatkichi KOVID-19 ta’sirirning pasayishi hisobiga 2022-yilga kelib 2017-2019-yillar darajasiga qaytishi taxmin qilinmoqda.

Keyingi-yillarda esa erkaklar va ayollar uchun o‘rtacha umr davomiyligi barqaror o‘sishi, dastlab sekin, so‘ngra tezlashgan sur’xatlarda ortishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichning o‘rtacha o‘sish sur’atlari umumiy hisobda 2001-2019-yillarda kuzatilgan tendensiyalarga mos keladi. Shu bilan birga ayrim hududlar rivojlanishining notekisligi tufayli hududlararo umr davomiyligidagi farqlar yanada sezilarli bo‘lishi mumkin. Biroq jinslar bo‘yicha farq, aksincha, erkaklar umr davomiyligining nisbatan tezroq o‘sishi hisobiga qisqaradi. Migratsiya jarayonlarining kelgusidagi yo‘nalishlarini belgilashda 2001 – 2019-yillardagi tendensiyalarni tahlil qilishda qo‘llanilgan omillar asos qilib olindi. Xususan, ichki va tashqi chegaralar orqali aholi harakaini qayd etuvchi rasmiy migratsiya statistikasi ushbu sohadagi real holatni umumiy jihg‘atdan aks ettiradi deb hisoblandi. Shuni ta’kidlash joizki, davlat chegaralari orqali aholi harakatini to‘liq qamrab olishdagi cheklovlar faqat O‘zbekistonga xos emas, balki boshqa davlatlarda ham uchraydi. Shu sababli, tug‘ilish va zlim ko‘rsaktichlarida bo‘lgani kabi ma’lumotlarning to‘liqlgi va ishonchliligi bo‘yicha ayrim shubhalar mavjud bo‘lsada, prognozlarni ishlab chiqishda asosan rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanildi.

Ichki va tashqi migratsiya dinamikasiga oid prognoz taxminlari O‘zbekistondagi ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan xolis va

nisbatan ehtiyotkor baholarga asoslanadi. Bunda iqtisodiyotning ochiqligi ortishi hamda xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok darajasi muhim omil sifatida inobatga olingan. Prognozlarga koʻra, migratsiya saldosi natijasi yana soʻnggi ikki oʻn-yil davomida kuzatilgan oʻrtacha koʻrsatkichlarga yaqinlashadi. Bu asosan mamlakatdan chiqib ketuvchilar (emigrantlar) sonining oʻsishi mamlakatga keluvchilar (immigrantalar) soni ortishini ancha darajada qoplashi hisobiga yuz beradi. Mamlakatni tark etayotgan migrantlar orasida asosan mehnatga layoqatli yoshdagi yoshlar ustunlik qiladi. Ushub guruh yuqori migratsion faollik bilan ajralib turadi va ular soni prognoz davri djavomida izchil ravishda oʻsib borishi kutilmoqda. Immigrantlar va emmigratnlarning jins va yosh tarkibidagi kutilgan oʻzgarishlarni baholashda esa KOVID-19 pandemiyasi boshlanishidan oldingi nisbatan uzoq davr uchun shakllangan oʻrtacha koʻrsatkichlar asos qilib olindi.

Tugʻilishni oʻrganish sohasida toʻplangan nazariy va empirik bilimlarga, shu jumladan Oʻzbekistonda yoshga oid va umumiy tugʻilish darajasidagi zamonaviy tendensiyalarga tayana olganda, 2050-yilga yelib umumiy tugʻilish darajasi ehtimolan aholi oddiy takrorlanishi uchun zarur darajagacha pasayadi, deb taxmin qilishi mumkin. Shu bilan birga, umumiy tugʻilish koeffitsientidagi hududlararo farq ham kamayaji. Ushbu koʻrsatkichning ehtimoliy qiymatlari eng pasti – Qoraqalpogʻiston Respublikasida bir ayolga 1,80 nafar farzand, eng yuqori qiymat esa Surxondaryo qiloyatida bir ayolga 2,28 nafar farzand darajasida boʻlishi mumkin. Rasmda maʼlum vaqt intervallarida barcha hududlarda umumiy tugʻilish darajasining izchil va barqaror ravishda pasayishini aniq koʻrsatadi. U tendensiya kelgusi taxminan uch oy oʻn-yillikda Oʻzbekistonning alohida hududlarida ham davom etadi.

Agar umumiy tugʻilish koeffitsienti prognoz davri boshlangandan keyin ham ikki yoki hatto besh-yil davomida oʻsishini davom ettirsa, tugʻilish darjasining kamayishi prognoz davrining birinchi yarmida ikkinchi yarmiga isbatan koʻproq dinamikadi boʻlishi kutilmoqda.

Traditsion ravishda tuhilish darajasi past bo‘lgan hududlarda prognoz davrining ikkinchiya rmida umumiy tug‘ilish koeffitsienti bar ayolgan butun reproduktiv davr uchun taxminan 2,1 nafar farzand darajasiga kamayadi, bu esa avlodlarni oddiy almashtirishga yaqin qiymatdir.



14.5-rasm. 14bda 2035-yil uchun O‘zbekiston va uning hududlaridagi kutilgan umumiy tug‘ilish koeffitsienti



14.6-rasm. 4cda 2050-yil uchun O‘zbekiston va uning hududlarida kutilgan umumiy tug‘ilish koeffitsienti

Qoraqlpog‘iston Respublikasida prognoz davri oxiriga kelib umumiy tug‘ilish koeffitsienti 1,8 nafar farzand bir ayolga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, past tug‘ilishga ega hududlar qatoriga mamalakatning g‘arbiagi xorazm viloyati, Buxoro viloyati va Navoiy viloyati hamda yirik aglomeratsiya – Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Sirdaryo vilotini o‘z ichiga oluvchi zona kirishi ehimol qilinadi. Aksincha, yuqori umumiy tug‘ilish darajasi markaziy hududlarda kuzatiladi:Jizzax viloyati, Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati v Surxondaryo viloyatida, shuningdek, Farg‘ona vodiysidagi uch hudud – Andijon viloyati, Farg‘ona viloyati va Namangan viloyatida ham yuqori tug‘ilish darajasi saqlanadi.

Holbuki o‘zbek ayollarining tug‘ilishda sezilarli “qariyishi” ehtimoli hali ham past deb hisoblansada, tug‘ilishning yosh tarkibida muayyan o‘zgarishlar yuz berishi mumkin, deb taxmin qilish mumkin.Bir tomondan, yuqorida qayd etilgan omillar – xususan, ta’lim olish muddatlarining uzayishi va shuning natijasida mehnat faoliyatining keyingi yoshda boshlanishi – tug‘ilishning yuqori nuqtasi yoshroq guruhdan kattaroq yoshdagi ayollarga ko‘chishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, umumiy tug‘ilish darajasining pasayishi kutilgan sharoitda, yuqori tartibdagi farzandlar soni kamayadi. Bu esa kattaroq yoshdagi ayollr orasida tug‘ilish darajasining ham pasayishiga sabab bo‘ladi. Umuman olganda, prognoz davri yakuniga kelib tug‘ilishning eng yuqori ko‘rsatkichi 25-29 yoshdagi ayollar guruhida jamlanishi kutilmoqda, hozirgi vaqtda esa bu yuqori nuqta 22 – 24 yoshdagi guruhda kuzatilmoqda.

So‘nggi-yillar prognozlari asosida o‘lim darajasi bo‘yicha asosiy taxmin shundan iboratki, prognoz davri davomida o‘lim darajasi avsayadi va natijada tug‘ilish vaqtida o‘rtacha umr davomiyligi ham erkaklar,ham ayollar uchun ortishi kutilmoqdja. Shu bilan birga,erkaklar o‘lim darajasini kamaytirish sur’atlari yuqori bo‘ladi, chunki ularning ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatlari ayollarga nisbatan ancha katta bo‘ladi. Garchi O‘zbekistonda erkaklar o‘lim darajasi qo‘shni mamlakatlar bilan solishtirganda nisbatan past bo‘lsada, erkaklar orasida kutilgan umr davomiyligi va rivojlangan

davlatlar koʻrsatkichlari oʻrtasidagi farq ayollar bilan solshtirganda sezilarli darajada katta boʻladi. Shunga asosan taxmin qilinadiki, erkaklar va ayollar orasidagi tugʻilish vaqtida kutilgan oʻrtacha umr davomiyligi farqi oʻrtacha 0,5-yilga kamayadi. Eng muhim oʻlim darajasining kamayishi 60gʻ79 yoshdagi yosh guruhi kutilmoqda:erkaklar orasida taxminan 45%, ayollar orasida esa 40% ulushda. Shuningdek, erkaklar orasida 40-59 yoshdagi guruh umr davomiyligiga hissa qoʻshadi – bu taxminan 20% kamayishni tashkil qiladi.Ayollar orasida eng katta ikkinchi hissa (taxminan 35%) 80 yosh va undan katta guruhga toʻgʻri keladi. Qolgan yosh guruhlarining hissasi esa 1%dan oshmaydi.

Kelgusi oʻn-yililklarda erkaklar va ayollar umr davomiyligi mamlakatning barcha hududlarida ortishi kutilmoqda. Prognoz davrida oxiriga kelib eng past oʻlim darajasi bilan ajralib turadigan erkaklar hududlarida Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati, Navoiiy viloyati, Fargʻona viloyatlari kiradi. Bu hududlarda erkaklar uchun oʻrtacha umr davomiyligi t79 va undan ortiq-yilga yetadi, ayollar uchun esa 82 va undan yuqori-yillar. Shuningdek, yuqori umr davomiyligi ayollar orasida Toshkent shahri va Jizzax viloyatida ham kuzatiladi. Biroq Mirdaryo vilotyaida erkaklar (76-yil) va ayollar (79-yil) umr davomiyligi nisbatan past boʻlib qolishi kutilmoqda. Shuningdek, Toshkent viloyati, Andijon viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasida erkaklar uchun umr davomiyligi 77-yildan oshmaydi. Ayollar uchun eng past umr davomiyligi (taxminan 80-yil) Andijon viloyati, Namangan viloyati, Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasi kuzatiladi.



14.7-rasm. 5bda 2035-yil uchun O‘zbekiston va uning hududlarida erkaklar uchun tug‘ilish vaqtida kutilgan o‘rtacha umr davomiyligi



14.8-rasm. 5cda 2050-yil uchun O‘zbekiston va uning hududlarida erkaklar uchun tug‘ilish vaqtida kutilgan o‘rtacha umr davomiyligi

Erkaklar o‘limi ayollarnikiga nisbatan tezroq kamayishi natijasida tug‘ilish vaqtida kutilgan o‘rtacha umr davomiyligidagi jinslar o‘rtasidagi farq qisqarishi kutilmoqda.

Prognoz davri oxiriga kelib, erkaklar va ayollar umr davomiyligi o‘rtasidagi eng kichik farq (2,5-yildan kam) Buxoro viloyati va Namangan viloyatida kuzatilishi taxmin qilinmoqda.

Aksincha, eng katta farq Toshkent shahrida (taxminan 6-yil) va Jizzax viloyatida (5-yildan ortiq) saqlanib qolishi kutilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Prognozlash qanday ilmiy jarayon hisoblanadi?
2. Koʻrsatkichlar prognozlashda qanday ahamiyat kasb eradi?
3. Dinamika odatda qanday oʻzgarishlarni ifodalaydi?
4. Modellash qanday usullar asosida amalga oshiriladi?
5. Tahliliy yondashuv nimaga xizmat qiladi?
6. Rejalashtirish prognozlash bilan qanday bogʻlanadi?
7. Ijtimoiy jarayonlar nimaga qarab oʻzgaradi?
8. Istiqbollash odatda qanday maqsadlarda qoʻllaniladi?
9. Strategiyalash qanday ustuvor yoʻnalishlarni belgilaydi?
10. Monitoring prognoz natijasini qanday tekshiradi?

XV BOB. HUDUDNING BARQAROR RIVOJLANISHINING DEMOGRAFIK O‘LCHOVI

15.1.Barqaror rivojlanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

15.2. Xalqaro tashkilotlar ko'rsatkichlari tizimidagi demografik ko'rsatkichlar.

Tayanch so‘zlar: barqaror rivojlanish, demografik o‘lchov, hududiy rivojlanish, aholi sig‘imi, demografik salohiyat, aholi joylashuvi, tabiiy o‘sish, migratsion harakat, mehnat salohiyati, aholi yuklamasi, resurs ta’minoti.

15.1.Barqaror rivojlanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar

Hududlarning demografik barqarorligi mahalliy aholi punktlarinnig xususiyati bo‘lib, demografik ko‘rsatkichlar dinamikasining barqarorligi bilan tavsiflanadi va aholining yashash muhitiga yuqori darajada moslashuvchanligini aks etadi. Hududda rivojlanishning barqarorligi sifati aholining boshqa joyga ko‘chib ketish istagining pastligi bilan tasdiqlanadi. Demografik barqarorlik xususiyati maskanning rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli va kompleks dasturlarni shakllantirish uchun konseptual rivojlantirish bo‘yicha o‘zoq muddatli va kompleks dasturlarni shakllantirish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi hamda uning atrof – muhit tahdidlariga nisbatan chidamliligi va rivojlanishiga tayyorgarligini ko‘rsatadi.

Demografik barqarorlik holati mahalliy jamoaning o‘z tuzilmasini saqlab qolish, uni tashkil etuvchi bog‘lanishlarnnig kompleksli qayta yaratilishini ta’minlash hamda tashki tahdidlarni neytrallashtirish imkoniyatini aks ettiradi. Shuningdek, bu holat jamoaning doimiy o‘zgarib turuvchi atrof – muhit sharoitlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Demografik barqaror hudduda nafaqat mahalliy aholi uchun, balki boshqa hududdan keluvchilar uchun ham jozibador bo‘lib, mavjud makonni samarali va ratsional ravishda tashkil etishni namoyon etadi va atrof – muhit sifatining yuqori ma’yorlarini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlarda turli turdagi hududiy birliklarga nisbatan barqarorlik ko‘rsatkichlarini aniqlagna qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar

mavjud. Tadqiqotchilarning e’tibori, avvalo, aholinnig 70%dan ortiq qismi yashaydigan shaharlarga qaratilgan.

Shunday qilib, barqarorlik ko‘rsatkichlari turli ierarxik darajalardagi hududiy taksonomiyalarga talluqli bo‘lib, aholi punktidan tortib, butun huddugacha tatbiq qilinadi. Taksonomik birlik darajasi qachon past bo‘lsa, demografik o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi omillar ham shunchalik tasodifiy xususiyatga ega bo‘ladi. Hududning demografik barqarorligini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlar tabiiy va migratsion o‘sishdir. Tabiiy o‘sish aholining barqarorligini ichki manbadan ta’minlab, rejali reproduktiv siyosat va tug‘ishni qshllab - quvvatlash orqali amalga oshiriladi;migratsion o‘sig esa iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar orqali hududni inson resurslari bilan ta’minlash imkonini beradi.

Demografik barqaror hudud – bu davlat hokimiyati organi tomonidan belgilangan ma’muriy – territorial birlik bo‘lib, bir necha-yil davomida ijobiy demografik tendensiyalarga ega bo‘lgan. Bu tendensiyalar, asosan, hududning jamoat mehnat taqsimoti strukturasiadig o‘rni va mahalliy davlat ijtmioiy siyosati xususiyatlari asosida shakllanadi. Ijobiy demografik tendensiyalar, shu yerda to‘plangan inson kapitali va uni qshllab – quvvatlovchi infratuzilma tartibli o‘sish sur’ati bilan belgilanadi. Shunday qilib, demografik barqaror hudud – bu ijobiy deomgrafik ko‘rsatkichlariga ega, yaxshi rivojlangan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga ega, shunigdek, mavjud tabiiy va ijtimoiy kapitaldan foydalanib, ijtimoiy – iqtisodiy va makonli rivojlanish imkoniyatlarini yaratishga qodir hudud hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda demografik jarayonlarning dastlabki tahlili turli hildagi ichki tafovutlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Ayrim hududlarda aholi soni keskin qisqarayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda, aksincha, barqaror o‘sish kuzatilmoqda.

Hududning demografik barqarorligini ichki tahlil qilish natijalari shuni anglatadiki, aholinnig mazkur hududga nisbatan ijobiy munosabatnini shakllantiruvchi, shuningdek, salohiyatli migrantlar uchun jozibadorlikni ta’minlovchi bir qator muhim omillar mavjud. Ular qatoriga hududning ma’muriy maqomi, iqlim sharoiti, transport

jihatidan uzoq yoki yaqinligi, yirik va barqaror sanoat korxonalarining mavjudligini hamda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi kiradi. Biroq masalaga chuqurroq yondashuv shuni koʻrsatadiki, demografik holatga taʼsir etuvchi boshqa omillar ham mavjud bshlib, ayrim omillarning ahamiyati amalda ortiqcha baholanayotgan boʻlishi mumkin. Demak, hududiy deomgrafik jarayonlarni kompleks va koʻp omilli tahlil qilish zarurati mavjud.

Har qanday hududiy tuzilma tashqi va ichki omillarning muayyan taʼsiri ostida shakllanadi hamda ularga javob tariqasida aholi soninnig ortishi yoki kamayishi bilan namoyon boʻladi.

Insonning yashash sharoitlaridan qoniqish darajasi eng aniq tarzda aholi soni dinamikasida oʻz aksini topadi. Mazkur koʻrsatkichni tegishli hududiy birliklarda shakllangan funksional muhitlar doirasida tahlil qilish demografik jarayonlarning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Hududning deomgrafik barqarorligi murakkab ilmiy tushuncha boʻlib, u muayyan ijtimoiy institular majmuini ifodalaydi. Mazkur institutlar lokal hududning jozibadorligini taʼminlaydi hamda uning asosiy tarmoqlarini uzoq muddatli strategik maqsadlarga yoʻnaltiradi. Demogarfik barqarorlik aholi sonini koʻpaytirishga qaratilgan, uzoq istiqbolga moʻljallangan qoʻllab - quvvatlash tizimining shakllanganligini aks ettiradi.

Hududning demografik barqarorligi murakkab ilmiy tushuncha boʻlib, u muayyan ijtimoiy institutlar majmui ifodalaydi. Mazkur institutlar lokal hudduning jozibadorligini taʼminlaydi hamda uning asosiy tarmoqlarini uzoq muddatli strategik maqsadlarga yoʻnaltiradi. Demografik barqarorlik aholi sonini koʻpaytirishga qaratilgan, uzoq istiqbolga moʻljallangan qoʻllab – quvvatlash tizimining shakllanganligini aks ettiradi.

Hudud demografik barqarorligi maʼlum maʼnoda hudud demografik mobilligiga teskari nisbatda boʻladi. Demografik mobiilik qoʻshni huddularga nisbatan migratsiya faolligining keskinroq tebranishlari bilan tavsiflanadi. Bunday faollik ichki yoʻnalishda - aholi

oqimining kirib kelishi yoki tashqi yo‘nalishda - aholinnig chiqib ketishi ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ichki migratsiya oqimlarinin ijobiy saldosi ko‘pincha hudud sifati nisbatan yuqoriligining belgisi sifatida baholanadi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda bu holat muayyan salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi ehtimolidan xoli emas. Chunki hududiy tuzilma aholi sonining o‘sishini strategik jihatdan samarali o‘zlashtirishga tayyor bo‘lmasligi mumkin. Bu esa ijtimoiy infratuzilmaning ortiqcha yuklanishiga, mavjud resurslar va xizmat ko‘rsatish tiziminnig yangi talab hajmiga moslasha olmasligiga olib keladi.

Hududning demografik barqarorligi hudduni demografik jihatdan “muzlatib qo‘yish”, ya’ni aholinnig yashash joyi va ish o‘rniga mutlaq bog‘lanib qolishini anglatmaydi. Aksincha, u fuqarolar uchun beliglangan muayyon huquqlar majmui hamda mahalliy hokimiyat va biznes sub’ektlari tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar tizimining mavduligini ifodlaalydi. Inson o‘z “kichik vatani” fuqarosi sifatida mazkur imkoniyatlardan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

Aynan shu imkoniyatlarning hudduga institutsional jihatdan biriktirilganligi migratsion almashinuvlarni rag‘batlantiradi va huddunnig aholi uchun jozibador xususiyatlarini izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday huquqlar paketi boshqa huddularda istiqomat qilayotgan fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni tahmminlashi lozim. Ular qatoriga sog‘lom va toza tabiiy muhitda yashash huquqi, sifatli va ommaviy ta’lim imkoniyati, malakali tibbiy xizmatidan foydalanish, rivojlangan transport infratuzilmasi hamda shu kabi ijtimoiy kafolatlar kiradi.

Hududning demografik barqarorligi (DUT HDB) jihatidan anglashda uni o‘lchash masaalsi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demogarfik adabiyotlarda unga eng yaqin tushuncha sifatida **demografik keskinlik indeksi** (IDN DKI) qo‘llaniladi. U hududning qurilish bilan bandlik darajasi, turar joy zichligi, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, umumiy-yillik kasallanish darajasi kabi qator indiktaorlarni o‘z ichiga oladi.

Demografik keskinlik indeksi asosan, hudud ichidagi demografik jarayonlar dinamikasini aks ettiradi va tashqi omillarni hisobga olmaydi. Zamonaviy jamiyatda aynan tashqi omillar konsepsion mexanizmlarnnig sezilarli qismini ta’minlab bormoqda. Bunday tashqi omillar ichida migratsion almashinuv ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy farovonlik darajasi ortishi va hududiy bozorlar faollashuvi bilan migratsion jarayonlari yanada kuchayib, demografik holatga ta’sir kengayib bormoqda.

Hudud barqarorligining muayyan beligilaridan biri aholi takror barpo etilishinning netto-koeffitsientlari (R_0 , NRR - Net Reproduction Rate) hisoblanadi. U ma’lum tug‘ilish va o‘lim darajalari sharoitida reproduktiv davr oxirigacha yashagan bir ayol hayoti davomida o‘rtacha necha nafar qiz farzand tug‘ilishini ifodalaydi. Mazkur koeffitsient orqali ona avlodining qizlar avlodi bilan almashininsh sur’atini baholash hamda muayyan hududda aholi soni saqlanib qolishining uzoq muddatli prognozini tuzish mumkin.

Shu bilan birga ushbu ko‘rsatkich hudduning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini hisobga olmaydi. Demak, u demografik jarayonlarning faqat tabiiy takror barpo bo‘lish jihatini aks ettiradi.

DKN va NRRdan farqli ravishda HDB kompleks va integral ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. U demografik rivojlanish jarayonining statik hamda dinamik qirralarini uyg‘unlashtiradi va hududning fuqarolar ehtiyojlarini izchil ravishda qondirish salohiyatini ifodalovchi baholash mezonlari majmuini qamrab oladi.

HDB ikki o‘lchov darajasiga ega: tarkibiy va dinamik.

Tarkibiy daraja hududiy tizimning yaxlitligini hamda lokal huddularning butun mintaqa bo‘ylab iqtisodiy ta’sirining mutanosibligini aks ettiradi. Agar hududning iqtisodiy salohiyati doimiy aholi soniga bevosita bog‘liq, deb hisoblansa, bunday holatni aniqlashda sezgir indikator sifatida Zipf's law qonuniyatidan foydalanish ummkin. U lokal hududning aholi soniga ko‘ra belgilangan rangi bilan uning boshqa hududlar ierarxiyasidagi o‘rni o‘rtasidagi matematik bog‘liqlikni ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan, tarkibiy jihatidan demografik barqaror huddular deb aholi sonida keskin nomutanosibliklar kuzatilmaydigan mintaqalarni aytish mumkin. Bunda ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi o‘rindagi tuman yoki shahar markazlarining aholisi eng katta mintaqaviy markaz aholisiga nisbatan taxminan 2-3-4 barobar kam bo‘lishi tabiiy qonuniyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarkibiy o‘lchov, shuningdek, mintaqaning fazoviy tuzilishini, uning mintaqalararo tarmoqlariga integratsiyalashganlik darajasini hamda mavjud ma’muriy – hududiy tuzilmaning amaliy vazifalariga mosligini baholashni ham qamrab oladi. Aholi sonining ranjirlangan manzilgohlar bo‘yicha izchil kamayib borishi demografik va ijtimoiy – iqtisodiy salohiyatning huddu bo‘ylab nisbatan teng taqsimlanishini ta’minlasdi. Bu esa kam o‘zlashtirilgan huddularga xos markazga intiluvchi tendensiyalarning kuchayishini cheklaydi.

Dinamik o‘lchov hududiy jamoalarnig tabiiy evolyusiyasi jarayonida shakllanadi. U aholi sonining izchil o‘sishi, malakali ishchi kuchining barqaror kirib kelishi, uy – joy qurilishi va sotuvi yuqori sur’atlarda rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Demogarfik barqarorlikning dinamik qirrasi yana shu bilan namoyon bo‘ladiki, mazkur hudduda yashovchi fuqarolar hayotlarining turli bosqichlarida – ta’lim olish, ish izlash, shahar airofidan uy xarid qilish yoki nafaqaga chiqish davrida – o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqara olishlariga ishonch hosil qiladilar.Bunday sharoitda ularda yashash joyini o‘zgartirish ehtiyoji yuzaga kelmaydi.

Amaliyotda esa davlatlarda hatto yirik shaharlar orasida ham shunday huddular borki, ularda aholi o‘z niyatlarini mahalliy darajada amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Masalan, orzu qilingan mutaxassislik bo‘yicha davlat granti asosida ta’lim olish yoki muayyan kasallik profili bo‘yicha sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda, hatto kvazidavlat (federal) maqomiga ega bo‘lgan hudud ham fuqarolarning eng faol va mehnatga layoqatli qatlami ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lmay qoladi. Natijada ular boshqa huddularga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladilar, bu esa demografik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dinamik o‘lchovning konseptual asosi sifatida fuqaroning hayot yo‘lida yuzaga keladigan va uning ehtimoliy migratsion tanloviga ta’sir etuvchi “burilish nuqtalari” majmuini ko‘rsatish mumkin. Aynan shu bosqichlarda shaxs ta’lim olish, kasb tanlash, oila qurish, turar joyni o‘zgaritirsh yoki kasbiy faoliyat yo‘nalishini almashtirish kabi strategik qarorlar qabul qiladi.

Migratsion tanlovnnig salbiy varianti, ya’ni fuqaroning yashash joyini tark etmaslik haqida qaror qabul qilish, bir qator omillar bilan beligalnadi. Bininchidan, boshqa hududlarga nisbatan yashash joyini o‘zgartirish qiymatining yuqorilig (moliyaviy, ijtimoiy va institutsional xarajatlar) muhim ahamiyatga ega.Ikiknchidan, shaxsning kundalik ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarining mavjudligi va ularning nisbatan yuqori darajada ta’minlanganligi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa dinamik demografik barqarorlik fuqarolarning hayotiy traektoriyasi doirasida hududda qolishni maqbsl va ratsional tanlov sifatida baholashiga zamin yaratadi.

Bizning fikrimizcha, demografik o‘zgarishlar dinamikasiga asos bo‘luvchi eng muhim “hayotiy burilish nuqtalari” quyidagilardan iborat:

5. Ta’limga oid burilish nuqtasi – bu fuqarolarga to‘liq va talabga mos ta’lim olish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning kasbiy va karera ustuvorliklarini ro‘yobga chiqarish niyati bilan uyg‘unlashadi. U asosan o‘rta maktabni tugatgan talabaning oliy ta’lim muassasasiga kirishi va magistraturada ta’lim joyini tanlashi davrida yuzaga keladi. Barcha turdagi ta’lim muassasalari mavjudligi, byudjet joylarining mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘lishi, hududning faol qatlamini ko‘chib ketishidan saqlash uchun asosiy shart hisoblanadi.

6. Turar joyga oid burilish nuqtasi – bu shaxsning turar joy muammosini hal qilish imkoniyati bilan bog‘liq. U asosan 18 – 28 yoshli fuqarolarning hayot bosqichida paydo bo‘ladi va davlat ijtimoiy dastaklari hamda bozor instittulari orqali qo‘llab – quvvatlanadi. Mavjud qurilish va kreditlash instrumentlari, sifatli ijara uy bozori yoki

foydali ipoteka va kredit sharoitlari yoshlarning hududda qolishiga va turli hududlardan malakali ishchi kuchini jalb qililshga xizmat qiladi.

7. Mehnatga oid burilish nuqtasi – bu shaxsning meg‘natga joylashish imkoniyatlari va ish vazifalaridan qoniqish darajasi bilan bog‘liq. U asosiy ta’lim sikllarini tugatish davrida yuzaga keladi va mahalliy korxonalardagi mehnat haqi hamda ish o‘rinlari soni orqali beligalanadi.

8. Agar mahalliy hududdagi maosh boshqa huddularga nisatan past bo‘lsa, bu malakali ishchi kuchini jalb qilishda mahalliy kompaniyalar uchun katta to‘siq sifatida xizmat qiladi. Bu holat, demografik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki faol aholi qoniqarsiz ish sharoitlari tufayli boshqa hududlarga ko‘chib ketishi mumkin.

Har bir burilish nuqtasi maxsus koeffitsient orqali ifodalanishi mumkin. Bu koeffitsientlar hosilasining ko‘paytmasi hududning demografik barqarorligining dinamik statusini miqdoriy jihatdan aks ettirish imkonini beradi.

Hududiy tuzilmaning barqarorligini buzishga olib kelishi mumkin bo‘lgan bir qator holatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1.Aholi soni asosan migratsiya hisobiga ortishi, biroq tabiiy ko‘payish pasayishi;

2.Yuqori migratsion kirib kelish davrida eng katta qismini malakali bo‘lmagan ishchi kuchi tashkil qilish;

3. Mazkur hududda istiqomat qilayotgan aholining katta qismi o‘z hududdian tashqarida ishlashi;

4.Aholi kirib kelish va chiqib ketishi yuqori aylanma ko‘rsaktichlari;

5.Aholi o‘sishi yuqori sur’atlarda ro‘y berishi, biroq bu o‘sishga muvofiq muhandislik va ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish bo‘yicha davlat oranlari harakatlari yetarli bo‘lmasligi;

6. Migratsiya saldosi va tabiiy o‘sish dinamikasining o‘zgaruvchanliig;

7.Birgalikdagi ierarxik tizimga kiruvchi qo‘shni manzilgohlar orasida aholi o‘sishining noteng taqsimlanishi.

Barqaror rivojlanish koʻrsatkichlari deb muayyan hudud (shahar, mamlakat, mintaqa, qitʼa yoki butun jahon hamjamiyati) rivojlanish darajasini baholovchi mezonlar va indikatorlarga aytiladi. Ularning yordamida kelgusidagi holat – iqtisodiy, siyosiy, ekologik, demografik v boshqa jihatlar boʻyicha prognoz qilinadi hamda ushbu holatning barqarorligi toʻgʻrisida xulosalar chiqariladi. Mazkur koʻrsatkichlar barqaror rivojlanishni taʼminlashga qaratilgan faoliyatni rejalashtirish, shu sohada samarali siyosat ishlab chiqish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

BMT oʻzining har-yilgi "Inson taraqqiyoti toʻgʻrisidagi hisobot"larida inson rivojlanishi indeksi ((Human Development Index)dan foydalaniladi. Ushbu indeks quyidagi asosiy koʻrsatkichlarni oʻz ichiga oladi:tugʻilish vaqtida kutilgan umr davomiyligi, katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi hamda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan real yalpi ichk mahsulot.

Ekologik indikatorlar suv, yer, atmosfera, tabiiy resurslar va chiqindilar holati kabi koʻrsatkichlarni qamrab oladi. Institutsional indikatorlar esa siyosatni rejalashtirish va dasturlash, ilmiy tadqiqotlar,xalqaro huquqiy mexanizmlar, axborot taʼminoti hamda aholining turli guruhlari ishtirokini kuchaytirish kabi jihatlarni oʻz ichiga oladi. Maqsadga yoʻnaltirilganligiga koʻra, ushbu koʻrsatkichlar uchta toifaga ajratiladi:kirish (taʼsir etuvchi) koʻrsatkichlar; holat (joriy vaziyatni aks ettiruvchi) koʻrsatkichlar; boshqaruv (tartibga solish va nazorat qilishga oid) koʻrsatkichlar. Ushbu tasnif barqaror rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchi guruh koʻrsatkichlari inson faoliyati, jarayonlar va xususiyatlarni ifodalab, ular barqaror rivojlanishga qanday taʼsir koʻrsatishni tavsiflaydi. Ikkinchi guruh esa barqaror rivojlanishning turli jihatlari boʻyicha joriy holatni aks ettiradi. Uchinchi guruh – bu javob indikatorlari boʻlib, ular orqali siyosiy qarorlarni qabul qilish yoki mavjud holatni oʻzgartirishga qaratilgan boshqa chora – tadbirlarni belgilash mumkin. Shu bilan birga, indikatorlarni bahoash ham miqdoriy, ham sifat jihatidan amalga oshirilishi mumkin. Miqdoriy

baholashda barqarorlik “Besiot ko‘rsatkichlari” orqali aniqlanadi, ya’ni tizimning xavfga nisbatan javob berish tezligi bilan ushbu xavfning tarqalish tezligi o‘rtasidagi nisbat sifatida baholanadi. Har bir tizimning hayotiyligi esa X.Bossel tomonidan “Barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari:nazariya, metod, amaliy qo‘llash” asarida taklif etilgan asosiy mezonlar orqali belgilanadi. Unga ko‘ra tizim 9 ta asosiy yo‘nalish bilan tavsiflanadi:mavjudlik, samaradorlik, harakat erkinligi, xavfsizlik, moslashuvchanlik, hamjihatlikda yashash, qayta tiklanish, psixologik ehtiyojlar, mas’uliyat. Ushbu yondashuv barqaror rivojlanishni har tomonlama va tahlil qilish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

15.1-jadval

Barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari ro‘yxati

Barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari	Kirish ta’siri ko‘rsatkichlari	Holat ko‘rsatkichlari	Boshqaruv ko‘rsatkichlari
IJTIMOIY TOIFA			
Qashshoqlikka qarshi kurash	- Ishsizlik darajasi	- Aholi qamrovi bo‘yicha qashshoqlik indeksi; - Qashshoqlik chuqurligi indeksi; - O‘ta qashshoqlik indeksi; - Daromadlar taqsimotidagi tengsizlik indeksi (Jini indeksi, Lorens egri chizig‘i); - Erkaklar va ayollarning o‘rtacha ish haqi nisbati	
Demografik dinamika va barqarorlik	- Aholi o‘sish koeffitsienti; - Sof migratsiya koeffitsienti; - Jami tug‘ilish koeffitsienti	- Aholi zichligi	
Aholi yashash punktlarining barqaror	- Shahar aholisi o‘sish koeffitsienti;	- Shahar aholisi ulushi; - Shahardagi rasmiy va norasmiy qurilishlar	Infratuzilmani rivojlantirish xarajatlari jon

rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash	- Avtotransport yoqilg‘isi iste’moli jon boshiga; - Tabiiy ofatlar natijasidagi insoniy va iqtisodiy yo‘qotishlar	maydoni hamda aholisi; - Bir kishiga to‘g‘ri keladigan umumiy uy-joy maydoni; - Uy-joy narxining daromad darajasiga nisbati	boshiga
IQTISODIY TOIFA			
Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan xalqaro hamkorlik va u bilan bog‘liq ichki siyosat	- Jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YIM); - YIMdagi sof kapital qo‘yilmalar ulushi; - Eksport va import yig‘indisining YIMga nisbati	- Ekologik xarajatlar inobatga olingan sof ichki mahsulot; - Tovar eksportining umumiy hajmida ishlab chiqarish ahamiyatidagi tovarlar ulushi	
Iste’mol tarkibining o‘zgarishi	- Jon boshiga-yillik energiya iste’moli; - Shartli sof mahsulot ishlab chiqarishda tabiiy resurslardan intensiv foydalanadigan sanoat tarmoqlari ulushi	- Aniqlangan mineral zaxiralar; - Aniqlangan yoqilg‘i-energetika zaxiralari; - Aniqlangan energetika zaxiralarini o‘zlashtirish davri; - Xomashyo iste’moli intensivligi; - Qayta ishlovchi sanoat ishlab chiqargan shartli sof mahsulotning YIMdagi ulushi; - Qayta tiklanuvchi energetika resurslari iste’moli ulushi	
Moliyaviy resurslar va mexanizmlar	- Sof pul mablag‘lari tushumi / yalpi milliy mahsulot (YMM); - Taqdim etilgan yoki olingan rasmiy	- Tashqi qarzdorlik / yalpi milliy mahsulot; - Tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish / eksport	- Atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlarining YIMdagi ulushi; - Barqaror rivojlanish

	rivojlanish yordami umumiy hajmining YMMga nisbati		ehtiyojlari uchun yangi yoki qo‘shimcha moliyalashtirish hajmi
Ekologik jihatdan maqbul texnologiyalar transferi, hamkorlik va iqtisodiy salohiyatni oshirish	- Ishlab chiqarish ahamiyatidagi tovarlar importi; - To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	- Ekologik jihatdan maqbul ishlab chiqarish tovarlari importi ulushi	- Texnik hamkorlik doirasida texnologiyalarni beg‘araz berish
EKOLOGIK TOIFA			
Chuchuk suv sifatini muhofaza qilish va chuchuk suv resurslari bilan ta’minlash	- Yer osti va yer usti suvlardan-yillik suv olish hajmi; - Jon boshiga maishiy suv iste’moli	- Yer osti suvlari zaxiralari; - Chuchuk suvdagi ichak tayoqchasi konsentratsiyasi; - Suv obyektlarida biokimyoviy kislorodga ehtiyoj	- Oqova suvlarni tozalash; - Gidrologik tarmoqlar zichligi
Okeanlar, barcha turdagi dengizlar va qirg‘oqbo‘yi hududlarini muhofaza qilish	- Qirg‘oqbo‘yi hududlarda aholi o‘sishi; - Qirg‘oqbo‘yi suvlariga neft tashlamalari; - Qirg‘oqbo‘yi suvlariga azot va fosfor tashlamalari	- Baliqchilik uchun maksimal sanoat zaxirasi; - Suvo‘tlar massasi koeffitsienti	
Yer resurslarini rejalashtirish va boshqarishga kompleks yondashuv	- Yerdan foydalanishdagi o‘zgarish	- Yer sharoitlarining o‘zgarishi	- Tabiiy resurslarni mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish

Milliy darajada (alohida mamlakat miqyosida) barqaror rivojlanish indikatorlari odatda, uchta sosiy guruhga ajratiladi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko‘rsatkichlarga. Milliy indikatorlar mamlakatning barqaror rivodlanish bo‘yicha strategik maqsadlari bilan muvofiq

bo‘lishi, shuningdek, uning o‘ziga hos hususiyatlarini hisobga olishi lozim. Shu bilan birga quyidagi jihatlarni aks ettiruvchi mezonlar hm muhim ahamiyatga ega:

- milliy madaniyat va an’analar holati;
- madaniy va axloqiy qadriyatlar darajasi;
- iqtisodiyotning mustaqilligi va barqarorligi;
- demokratik jarayonlar rivoji va umumiy demokratiya darajasi (milliy mentalitetni hisobga olgan holda);
- aholining ma’naviy saviyasi va huquqiy madaniyati.

Shu tariqa, indikatorlarni tanlash masalasi bir tomondan soddalashsa, ikkinchi tomondan ko‘p qirrali va murakkab tus oladi. Shuning uchun davlat darajasida indikatorlarni belgilash jarayoni ochiq muhokama orqali, keng jamoatchilik ishtirokida va demokratik tamoyillar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

15.2.Xalqaro tashkilotlar ko'rsatkichlari tizimidagi demografik ko'rsatkichlar

Zamonaviy demografik jarayonlar tobora chiziqli talqinga bo‘ysunmay bormoqda va ularning musrakkablashuvi prognozlashda qo‘llaniladigan uslubiy vositalarga qo‘shimcha talablarni yuklamoqda. Demografik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va prognozlashga ixtisoslashgan nufuzli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan an’anaviy usul va modellar bugungi kun talabalarini to‘liq qondirmayapti. Shuningdek, aholi soni yoki tug‘ilish darajasini oddiy taqqoslash mamlakatning haqiqiy salohiyatini to‘liq aks ettirmaydi. Shu munosabat bilan aholining ham miqdoriy,ham sifat jihatlarini hisobga oluvchi integral baholash zarurati yuzaga kelmoqda. Alohida davlat yoki davlatlar guruhining demografik sohasini kompleks baholash alohida ko‘rsatkichlarni (aholi soni, tug‘ilish, o‘lim darajasi va boshqalar) tahlil qilishdan ko‘p o‘lchovli va ko‘p qirrali indikatorlarni shakllantirishga o‘tishni taqozo etadi. Bunday indikatorlar sifatida ijtimoiy tizim rivojlanishining turli jihatlarini mujassam etuvchi, nafaqat joriy holatni, balki uning kelgusidagi dinamikasini ham baholash imkonini beruvchi integral indekslar tushuniladi. Bunday

indekslarni shakllantirish metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tegishli va ahamiyatli ko‘rsatkichlarni tanlash;
2. Ularni normallashtirish, vaznlash va agregatlash;
3. Olingannatijaning barqarorligini baholash.

Demografik tarkibiy qismga ega bo‘lgan eng mashhur global integral ko‘rsatkichlardan biri – BMT tomonidan ishlab chiqiladigan Inson rivojlanishi indeksi hisoblanadi[32]. Ushbu indeks uchta asosiy komponetni birlashtiradi:

1.Kutilgan umr davomiyligi;

2.Ta’lim darajasi;

3.Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot.

Bu esa uni muayyan mamlakat demografik tizimining umumiy rivojlanish darajasini taxminiy baholash vositasi sifatida qo‘llash imkonini beradi. Biroq, keng tan olinganiga qaramasdan, bizningcha, inson rivojlanishi indeksi o‘rganilayotgan ijtimoiy tizimlarning ichki tuzilmasini to‘liq aks ettirmaydi. Xususan, u migratsiya jarayonlari, yosh – jins tarkibi, urbanizatsiya darajasi, mehnatga layoqatli aholi ulushi kabi muhim omillarni hisobga olmaydi. Shu sababli, mazkur indeks davlatning demografik rivojlanishini to‘liq ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qila olmaydi va ijtimoiy sohaning barqarorligini ishonchli baholash imkonini cheklaydi. Shuningdek, uni demografik salohiyatni baholashda proksi-ko‘rsatkich sifatida qo‘llash soddalashtirilgan xulosalarga olib kelishi mumkin hamda inson kapitaliga xos asosiy tarkibiy qismlarni inkor etadi.

BMTning aholishunoslik jamg‘armasi tomonidan arab mamlakatlari va MENA mintaqasida Population Development Composite Index (PDCI) deb nomlangan integral ko‘rsatkich ishlab chiqilgan bo‘lib, u sog‘liq, mobillik, tenglik, boshqaruv va barqarorlik kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu indiktaor, jumladan, mazkur makroregion davlatlarining Barqaror rivojlanio‘ maqsadlarini amalga oshirishga tayyorgarlik darajasini baholashda qo‘llanilgan va

[32] UNDP (United Nations Development Programme). 2025. Human Development Report 2025: A matter of choice: People and possibilities in the age of AI. New York.

demografik hamda ijtimoiy koʻrsatkichlarni yagona tahliliy tizimga integratsiya qilish imkoniyatini namoyon etgan. Uni hisoblash metodologiyasi ikki bosqichdan iborat:

1. Yuqorida qayd etilgan beshta sohaning har biri doirasida standartlashtirilgan indikatorlarni arifmetik oʻrta qiymat asosida hisoblash;
2. Hosil qilingan subindekslarni geometrik oʻrta orqali integratsiya qilish. Bu esa indeksning chekka qiymatlarga (ekstremal oʻzgarishlarga) nisbatan sezgirligini pasaytiradi.

Shunday qilib, mazkur integral koʻrsatkich mamlakatlarni hisoblangan maqsadli qiymatlar asosida (juda yuqori, yuqori, oʻrta past) tasniflash hamda ularning dinamikasini milliy va mintaqaviy kuzatish imkonini beradi.

Gʻarbiy Afrika mamlakatlari uchun Demographic Dividend Monitoring Index (DDMI) ishlab chiqilgan boʻlib, u demografik dividendni amalga oshirish bilan bogʻliq boshqaruv qarorlarini baholashga qaratilgan. Mazkur indeks ikki asosiy komponetdan iborat:

1. Davlat sa'y – harakatlarini qabul qilish subindeksi – aholi va ekspertlarning hukumat faoliyatiga bergan bahosini aks ettiradi;
2. Amaliy natijalar subindeksi – real statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida shakllantiriladi.

Bunday yondashuv nafaqat joriy statistik koʻrsatkichlarni, balki ijtimoiy tizim rivojlanishining dinamikasini ham kompleks baholash imkonini beradi. Metodologiya besh bosqichni oʻz ichiga oladi:yoʻnalishlarni tanlash (sogʻliqni saqlash, ta'lim, bandlik, yoshlarning ishtirok darajasi, boshqaruv), indikatorlarni saralash, ma'lumotlar sifatini tahlil qilish, vaznlar inobatga olingan holda qiymatlarni hisoblash va natijalarni dashbordlar orqali vizuallashtiradi. Natijada DDMI demografik sohada davlat siyosatini monitoring qilish va uni takomillashtirishda samarali tahliliy vosita sifatida qoʻllaniladi[33].

Umuman olganda, jahon tajribasi global hamda mintaqaviy darajalarda integral demografik indekslarni ishlab chiqish va

[33] Olasehinde, Noah and Awodumi, Olabanji Benjamin and Odufuwa, Oyeteju and Olalude, Temitope and OLANIYAN, Olanrewaju and Dasogot, Andat

cho‘llashga nisbatan barqaror qiziqish mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bunday vositalar demografik jarayonlarning ko‘p qirrali tabiatini hisobga olish imkonini bersada, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri tanlash, boshlang‘ich ma’lumotlar sifati, normallashtirish usullari va agregatlash jarayonlarining aniqligiga bog‘liq. Ayniqsa, omillarni vaznlash metodologiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u indeksning yakuniy tuzilmasiga va turli mamlakatlar o‘rtasidagi taqqoslashlarnnig ishonchligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida aytilgandek, demografiyaga bag‘ishlangan tahliliy materiallarda odatda miqdoriy ko‘rsatkichlar (aholi soni, tug‘ilish darajasi va hokazo) ustunlik qiladi. Biroq bunday yondashuv aholining takrbiy barqarorligi, qayta ishlab chiqarish salohiyatini to‘liq baholash, shunnigdek, ko‘p qirrali mamlakatlararo taqqoslashlarni amalga oshirish imkonini cheklaydi.

Demografik salohiyat mamlakat aholisining o‘z sonini barqaror qayta tiklash qobiliyatini, shu bilan birga inson resursining asosiy xususiyatlarini (mehnat zahiralari, ta’lim darajai va boshqalar) saqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi integral ko‘rsatkich sifatida talqin etiladi.U aholining sog‘lig‘i, yosh tarkibi va mobilligini ham qamrab oladi. Demografik salohiyatni unga yaqin tushunchalardan farqlash muhim. Inson kapitali tushunchasi asosan aholining ta’lim va kasbiy darajasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, demografik salohiyat ancha keng qamrovga ega bo‘lib, u aholi soni va uning tarkibiy xususiyatlaridan tortib, savodxonlik darajasi hamda barqaror qayta ishlab chiqarish qobiliyatigacha bo‘lgan omillarni o‘z ichiga oladi. Uni baholash uchun demografik barqarorlikning asosiy o‘lchamlarini qamrab oluvchi quyilagi muhim indikatorlardan foydalaniladi:

- Aholining umumiy soni – jami demografik resurs hajmini aks ettiradi;
- Mehnatga layoqatli aholi ulushi – ishlab chiqarish salohiyatini beliglaydigan faol aholining eng muhim qismi;
- 15 yoshgacha bo‘lgan aholi ulushi – reproduktiv zahira va kelgusi ishchi kuchi salohiyatining ko‘rsatkichi;

- Jami tug‘ilish koeffitsienti – aholinnig tabiiy qayta ishlab chiqarilish darajasini ifodalaydi;
- kutilgan umr davomiyligi – aholi sog‘lig‘i va umumiy farovonlik holatining muhim indikatori;
- umumiy aholi tarkibida migrantlar ulushi – demografik tizimning ochiqligi va harakatchanligini tavsiflaydi;
- katta yoshdagi aholi savodxonligi darajasi – intellektual salohiyatini ifodalaydi va keeyingi rivojlanish uchun asos yaratadi;
- shahar aholisi ulushi – urbanizatsiya darajasi va infratuzilmaga yetib borish imkoniyatlarini aks ettiradi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni tanlash ularning dunyo mamlakatlari aholisining barqrorligi va rivojlanishini tahlil qilishdagi ahamiyati bilan izohlanadi. Ular muayyan davlat nafaqat aholi sonini saqlab qolish, balki uni sifat jihatidan – mehnat, intellektual va ijtimoiy nuqtai nazardan qayta ishlab chiqarish imkoniyatiga qay darajada ega ekanini baholash imkonini beradi. Demografik salohiyat indeksi demografiyaga “panoramali yondashuv”ni ta’minlaydi, ya’ni uning asosiy jihatlarini yagona tizimda birlashtiradi. Bunday kompleks yondashuv ijtimoiy tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, mamlakatlarni demografik salohiyat darajasi bo‘yicha o‘zaro taqqoslash imkonini yaratadi. Shu ma’noda mazkur indeks monitoring vositasi sifatida xizmat qiladi va uning natijalari qo‘shimcha tahlil hamda chuqur interpretatsiyani talab etadi.

Ayrim komponentlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, ko‘plab mamlakatlar ichki demografik muammolarga duch kelmoqda, bu esa uzoq muddatli istiqbolda ularning slohiyatini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreya dunyodagi eng past tug‘ilish darajalaridan biri hamda aholining qarish darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu tendensiyalar asr oxirigacha saqlanib qolishi kutilmoqda:BMT prognozlariga ko‘ra, 65 yoshdan yuqori aholi ulushi Janubiy Koreyada taxminan 48 foizni, Yaponiyada esa qariyb 37 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar jahondagi eng yuqori darajalardan bo‘ladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lishiga

qaramasdan, bunday salbiy demografik inersiya nafaqat aholi sonining qisqarishiga, balki iqtisodiyot va ijtimoiy tizimga tushadigan yukning sezilarli ortishiga ham olib keladi. Yevropaning qator mamlakatlarida,jumladan, Bolgariya, Ruminiya, Latviya, Litvada yuqori emigratsiya, past tug‘ilish va aholining qarishi kabi omillar uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Bu holat “demografik qisqarish” xavfini ezaga keltiradi, ya’ni aholi soni va sifatining barqaror hamda deyarli qaytarilmas kamayishiga olib kelishi mumkin.

Xitoy umumiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyo yetakchilari qatorila bo‘lsada, allaqachon tug‘ilish darajasining keskin pasayishi, qariyb aholi ulushinnig ortishii va jins balansi buzilishi kabi muammolarga duch kelmoqda, bu holat uzoq muddatli tug‘ilishni cheklovchi siyosat natijasidir. Shu bilan bog‘liq holda Xitoy 65 yoshdan yuqori aholi lushi bo‘yicha dunyodagi anti-liderlardan biri bo‘ladi. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasining ikki maxsus ma’muriy hududi – Gonkong va Makaoda bu ko‘rsatkich asr oxiriga kelib dunyodagi barcha mamlakatlar orasida eng yuqori bo‘lib, tegishincha qariyb 62% va 50%ni tashkil etadi. Asosiy Xitoy hududida esa bu ko‘rsatkich taxminan 48%ni tashkil qiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar kelasi o‘n-yilliklarda aholi o‘sishini to‘sib, demografik yukni sezilarli darajada kuchaytiradi.

O‘zbekiston integral reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallaydi, bu asosan aholining nisbatan katat soni bilan bog‘liq bo‘lsada, katta darajada dunyo mamlakatlari orasida aholi ta’lim darajasi yuqori bo‘lishi hisobiga shakllanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra O‘zekistonda aholining savodxonlik darajasi 100%ni tashkil qiladi, AQSh va Xitoyda esa bu ko‘rsatkich tegishli 86%/ va 97%ni tashkil qiladi. Integral indeks 193 mamlakat uchun “demografik salohiyat”ni shakllantiradi va ob’ektli hamda o‘z samaradorligini isbotlagan vaznlash sxemasi asosida hisobalandi. U “eng yaxshi” mamlakatlar reytingi sifatida qaraladi. Asosan bu indeks monitoring vositasi bo‘lib, demografik profillarni tezkor aniqlash va taqqoslash imkonini beradi. Biroq davlatlar xususiyatini inobatga olgan qo‘shimcha tahlil va interpretatsiyani talab qiladi. Indeksning vazifasi – o‘xshash

xususiyatlariga ega mamlakatlar uchun umumiy demogarfik konfiguratsiyalarni aniqlash, mavjud ijtimoiy tuzilmadagi zaifliklar va rivojlanish uchun salohiyatli xavflarni ko‘rsatishdan iborat.

Mintaqaviy darajaga moslashtirilganda, indeks ssenariy modellashtirish, demografik siyosat samaradorligini kuzatish va o‘rta va uzoq muddatli davr uchun strategik rejalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Bu ayniqsa, masalan, Fors ko‘rfazi davlatlaridagi ommaviy mehnat migratsiyasi kabi vaqtinchalik va barqaror bo‘lmagn omillar hisobiga yuqori o‘ringa erishgan davlatlar uchun muhimdir.

21 asrda demografik siyosat nafaqat oli o‘sishiga, balki avvalo uning sifatiga, tuzilmaning barqarorligiga va mehnat hamda intellektual resurslarning qayta ishlab chiqarilishi qobiliyatiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, integral indeks tahlil, rejalashtirish va muvofiqlashtirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydali vosita sifatida xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Demografik rivojlanishning demografik o‘lchovi nima?
2. Hududiy rivojlanishda aholi omili qanday?
3. Demografik salohiyat nimani ifodalaydi?
4. Aholi sig‘imi qanday aniqlanadi?
5. Demografik muvozanat qanday shakllanadi?
6. Tabiiy o‘sish hududga qanday ta’sir qiladi?
7. Migratsion harakat hududni qanday o‘zgartiradi?
8. Mehnat salohiyati nimaga bog‘liq bo‘ladi?
9. Ijtimoiy infratuzilma nima uchun muhim?
10. Hudud barqarorligi qanday ko‘rsatkichlarda baholanadi?

XVI BOB. IQTISODIY VA SIYOSIY JARAYONLARNI SOTSIOLOGIK TADQIQ QILISH

16.1. Jamiyat sotsiologik tadqiqot mavzusi sifatida.
16.2. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning shakllanish tarixi.

Tayanch so‘zlar: sotsiologik tadqiqot, ijtimoiy jarayon, iqtisodiy munosabat, soyosiy tizim, so‘rovnoma, kuzatuv, intervyu, tahlil, empirik ma’lumot, ijtimoiy institut, siyosiy faollik, iqtisodiy xulq.

16.1. Jamiyat sotsiologik tadqiqot mavzusi sifatida

Jamiyatda ijtimoiy hodisalar ilmiy ravishda tushunish va natijalarini qayd etish jihatidan tabiiy fanlarga nisbatan anch amurakkabdir. Shu bilan birga, jamiyatda rivojlanayotgan jarayonlarni tadqiq qilish ehtiyoji ortib bormoqda va bu aniq ilmiy – tadqiqot metodologiyasini tashkil etishni talab qiladi. Bu esa keng qamrovli ijtimoiy fanlaornig asosini tashkil qiladi. Bu ehtiyojni anglash turli hududlarda funlamental institutlar yaratilagn tufayli mumkin bo‘ladi. Ular jamiyatlardarga samarali ijtimoiy rivojlanish usullarini shakllantirishda maqsadli ta’sir ko‘rsatish mexanizmalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ijtimoiy jarayonlar - jamiyatda yuz beradigan o‘zgarishlarni ifodalovchi asosiy nazariy tushunchalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tizm doirasida jarayon deganda, muayyan vaqt davomida ijtimoiy voqe’likning harakati, buning shakllanishi, qayta qurilishi, bosqichma – bosqich rivojlanishi yoki bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi tushuniladi. Bu o‘zgarishlar ob’ektning makondagi o‘rni almashinishid, tuzilmaviy qata tashkil etilishida, shuningdek, uning sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridagi yangilanishlarda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy jamiyat muayyan xususiyatlar, ichki tuzilma va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘lgan, turli bosqichlar orqali taraqiy etadigan murakkab dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.Uning barqaror faoliyat yuritishi va uzluksiz rivojlanishi o‘zaro bog‘liq hamda bir – birini taqozo etuvchi quyidagi uch asosiy kichik tizimga tayanadi:

- Ijtimoiy kichik tizim – insonlarning o‘zaro ijtimoiy munosabatlarni va mehnat faoliyatiga asoslangan hayot kechirish shaklini ifodalaydi. U jamiyat a’zolarining o‘zaro ta’siri, hamkorligi va ijtmoiy rollari orqali namoyon bo‘ladi.
- Iqtisodiy kichik tizim – ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash hamda tovar va xizmatlar iste’moli kabi jarayonlarni o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. Shuningdek, u mehnat bozoridagi munosabatlar, resurslar harakati va xo‘jalik yuritish shakllarini ham qamrab oladi.
- Siyosiy kichik tizim – jamiyatdagi shaxslar va ijtiomiy guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy – siyosiy munosabatlar majmuasini, davlat tuzilishi, hokimiyatni amalga oshirish usullari va siyosiy rejim shakllarini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy jarayon – moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy – iqtisodiy hodisadir. U ishlab chiqarish kuchlarining taarqqiyotini, ya’ni bevosita ishlab chiqaruvchilarni, ularnig bilim, malaka va ko‘nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarishning moddiy sharoit omillarini qamrab oladi.

Ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy jarayonlar – jamiyat hayotida sodir bo‘ladigan, uning farovonligi, siyosiy va iqtisodiy barqarorligi hamda xavfsizlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatkuvchi o‘zgarishlar majmuasidir. Bu jarayonlar uchun ahamiyatli bo‘lgan sifat va miqdor o‘zgarishlarini ifodalaydi.Ular turli ijtimoiy guruhlarning mavjud ijtimoiy muhit va munosabatlar tizimiga ta’sir o‘tkazishga intilishi natijasida yuzaga keladi. Bunday intilishlar muayyan manfaatlarni amalga oshirish, resurslar taqsimotiga ta’sir qilish va jamiyatdagi mavve’ini mustahkamlash maqsadlariga qaratilgan bo‘ladi.

Ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tadqiq etish – boshqaruv sohasiga oid ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u mazkur jaaryonlarning tur va shakllari, o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy belgilarini hamda ularni tizimlashtirish va tasniflash masalalarini o‘rganadi.Hamda jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish, ularning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish nazariy asos yaratadi.

“Ijtimoiy” tushunchasi (lotincha socialis – jamiyatga oid) adabiyotlarda, kamida, ikki xil ma’noda – keng va tor mazmmunda qo‘llaniladi.

Keng ma’noda “ijtimoiy” atamasi “jamiyatga tegishli” ma’noni anglatadi, ya’ni tabiatga emas, balki jamiyatga xos bo‘lgan hodisa va jarayonlarni ifodalaydi. Bunday mazmunda ushbu tushuncha sotsiologiya va boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlarda, shuningdek, publitsistik hamda badiiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladi.

Tor ma’noda esa “ijtimoiy” tushunchasi jamiyat hayotinnig faqat ijtimoiy sohasida yuz beradigan jarayonlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Bu holda u iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki ma’naviy sohalardagi hodisalarni emas, balki aynan ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tuzilmalar doirasida kechadigan o‘zgarishlarni anglatadi.

Ijtimoiy soha – jamiyatda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar maydonidir. Unga sinflar (tadbirkorlar, yollanma xodimlar va boshqalar), kasbiy hamda ijtimoiy – demografik qatlamlar, shuningdek milliy birliklar o‘rtasidagi aloqalar kiradi.

Mazkur soha ularning hat faoliyati va faoliyat yuritish uchun zarur shart – sharoitlar bilan bog‘liq munosabatlarni qamrab oladi. Jumladan:

- ishlab chiqarish faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar;
- aholining moddiy farovonlik darajasi;
- sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy ta’minot muammolarini hal etish;
- har bir shaxsning mehnat qilish huquqini amalga oshirishda ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etish;
- jamiyatda yaratilgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni taqsimlash hamda iste’mol qilish jarayonlari;
- jamiyatning boy va kam ta’minlangan qatlamlarga ajralishi natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etish;
- aholining ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish chora – tadbirlari.

Mazkur omillar va ular bilan bog‘liq muammolar zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “ijtiomiy” tushunchasining tor ixtisoslashgan ma’nosida talqin etiladi. Ularni hal etish mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyot

darajasiga, yaratilgan jamiyat boyligi hajmiga hamda insonlar o‘rtasidashakllangan iqtisodiy munosabatlar xususiyatiga bog‘liqdir. Shu sababli ijtimoiy sohada kechadigan, yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan darayonlar ko‘pincha faqat “ijtimoiy” emas, balki “ijtimoiy – iqtisodiy” jarayonlar deb yuritiladi. Bu atama ijtimoiy sohada ro‘y beradigan hodisalar bilan iqtisodiy sohada amal qiladigan jarayonlar o‘rtasidagi uzviy va ichki bog‘liqlikni ifodalaydi.

16.1-jadval

Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning tasnifi

Tasnif mezoni	Turlari (ko‘rinishlari)
Boshqariluvchanlik darajasiga ko‘ra	Stixiyali (o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan); Boshqariladigan
Tarqalish yo‘nalishiga ko‘ra	Tashqi iqtisodiy; Ichki iqtisodiy (xalqaro integratsiya, kooperatsiya, hamkorlik jarayonlari)
Jamiyat hayot faoliyatiga ta’sir ko‘lamiga ko‘ra	Makroiqtisodiy; Mintaqaviy; Mahalliy; Mikroiqtisodiy
Funksional namoyon bo‘lish tuzilmasiga ko‘ra	Ishlab chiqarish; Mehnat; Tashkiliy; Texnologik; Axborot jarayonlari

Iqtisodiy va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik barqarorligi nuqtai nazaridan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar barfaror va beqaror turlarga ajratilishi mumkin.

Barqaror jarayonlar ijtimoiy – iqtisodiy tizimning mustahkamligi, fuqarolaratti – harakatining nisbatan izchilligi hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilishning shakllangan va smarali mexanizmalri mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Beqaror jarayonlar esa odatda, inqiroz davrlarida yuzaga keladigan va mavjud ijtimoiy – iqtisodiy holatni o‘zgartirish zaruratining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday sharoitda tizimning ichki muvozanati buziladi, iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy xulq – atvorla keskin o‘zgarishlar kuzatiladi.

Jamiyatda kechayotgan jarayonlar faol ishtirokchilar hisoblangan shaxslar va ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga qarab ma’lum darajada

tartibga solinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ularni nazorat qfilinadigan va nazorat qilinmaydigan jarayonlarga ajratish mumkin.

Nazorat qilinadigan jarayonlar – ularning mohiyati, ichki mexanizmlari, ta’sir etuvchi omillari va amal qilish sharoitlari chuqur o‘rganilgan bo‘lib, amalda ularnig kuchayishi yoki susayishini maqsadli ravishda boshqarish imkoni mavjud bo‘ladi. Bunday jarayonlarni nazoratqilish turli shakllarda namoyon bo‘ladi:ta’sir ko‘rsatish, ayrim elementlarning rolini kuchaytirish, muayyan vaziyatlarni modellashtirish va boshqalar. Nazoratning aossiy vositalari sifatida jamiyatni boshqarishning muayyan modelini shakllantiruvchi institutlar va tashkiliy tuzilmalarni yaratish, shuningdek, jarayon ishtirokchilariga tegishli ijtimoiy rollar va funksiyalarni qo‘llab – quvvatlash xizmat qiladi.

Nazorat qilinmaydigan jarayonlar esa stixiyali tarzda rivojlanadi hamda ularga mustaqil va maqsadli ta’sir ko‘rsata oladigan aniq ijtimoiy sub’ekt yoki guruh mavjudligini nazarda tutmaydi. Bunday holatda jarayonlarning tashabbuskorlari va yo‘nalishini aniq belgilash mushkul bo‘ladi, chunki ular ko‘plab ishtirokchilar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi. Jamiyatda kechayotgan jarayonlar kstidan nazoratning yo‘qolishi, odatda ularning manbalari va rivojlanish yo‘nalishida noaniqlikning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy – iqtisodiy jaaryonlarni boshqarish – iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning holatida maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni ta’milashga qaratilgan tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarga tizimli va rejali ta’sir ko‘rsatishni anglatadi. Bundday faoliyatning samaradadorligi bir qator makro va mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasida namoyon bo‘ladi. Jumladan:sotilgan mahsulot hajmi (eksport ulushi bilan), mahsulot yangilanish sur’atlari, foyda va to‘lov qobiliyati darajasi, ishlab chiqarish quvvatlari hamda boshqa resurslardan foydalanish samaradorligi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) va unda aholining mehnat va investitsiya daromadlari ulushi, aholi jon boshiga va bir ishloqchiga to‘g‘ri keladigan YaIM miqdori, ish haqi jamg‘armasi, iste’mol narxlari indeksi (inflyatsiya), yashash minimumi

(o‘rtacha jon boshiga) yashash minimumidan past daromadga ega aholi soni, ishsizlik darajasi va boshqalar.

Iqtisodiyot hamda ijtmioiy mehnat sohasining amaldagi holatini tahlil qilish va baholash aossida, ilmiy – texnologik va ijtimoiy omillar inobatga olingan holda, ularning extimolli o‘zgarishlari prognoz qilinadi. Bunday prognozlar boshqaruvning strategik maqsadlarini amalag oishirsh nuqtai nazaidan ham qisqa, muddatli (taktik) vazifalar doirasida ilab chiqiladi.

Amalda shakklanayotgan ijtimoiy – iqtisodiy tendensiyalar tahlili natijalariga tayangan holda, tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Shu tariqa, boshqaruv jarayoni jamiyat taraqqiyotini ilmiy asoslangan ravishda yo‘naltirish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni boshqarish bir qator o‘zaro bog‘liq funksiyalarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi:

1.Tahlil va baholash funksiyasi.Ushbu funksiya mohiyati belgilangan ijobiy va salbiy mezonlar asosida iqtisodiy tizimning (korxonalar guruhi, ftrmalar,tarmoq yoki mintaqa) haqiqy holatni aniqlashdan iborat. Tahlil natijalari boshqaruvning maqsadi yo‘nalishlargia mos ravishda iqtisodiy tizimning kuchli va zaif tomonlarini belgilash imkonini beradi.

2.Prognozlash funksiyasi. Bu funksiya tahlil va baholash natijalariga, shuningdek, jarayonlar dinmikasining retrospektiv ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi empirik ma’lumotlariga tayanadi. Uning vazifasi – boqarilayotgan iqtsodiy va ijtimoiy jarayolanning rivojlanish tendensiyalarini oldindan belgilash va ehtimolli o‘zgarishlarni aniqlashdir.

3.Strategik funksiyalar.Mazkur funksiya ijobiy dinamikani ta’minlaydigan ustuvor yo‘nalishlarni tanlash, asoslash va amlaga osho‘irish uchun optimal qarorlar ishlab chiqishga qaratilgan. U qaror qabul qiluvchi shaxslarga asoslangan loyihalar, rejalar va inqirozga qarshi chora – tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi hamda prognoz qilingan davrda iqtisodiy o‘sishni ta’xminlashga xizmat qiladi.

4.Iqtisodiy tartibga solishni tashkil etish funksiyasi.Bu funksiya qabul qilingan strategik rejalashtirish yo‘nalishlari va mamlakat

iqtisodiyotining real holatiga muvofiq amaldagii xo‘jalik yuritish amaliyotini maqsadli ravishda o‘zgartirishga xizmat qiladigan iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirishni nazarda tutadi.

5.Loyiha va me’yoriy qarorlarni amalga oshirish funksiyasi.Uning asosiy shakli – yangi iqtisodiy mexanizmalarni joriy etish (yoki amaladagilarini takomilashtirish) dasturlarini ishlab chiqish va atdiqlash, shuningdek, ular bilan bog‘liq iqtisodiy tartibga solish jarayonlarini me’yoriy yoki mp’yorlar mavjud bo‘lmagan hollarda tahliliy usullar asosida amalga oshirishdan iborat.

Mazkur funksiyalar o‘zaro uyg‘unlikda amal qilib, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning barqaror va maqsadli rivojlanishini ta’minlaydi.

16.2-jadval

Siyosiy tushunchalarnig ta’rifi

№	Tushuncha	Ta’rif
1	Siyosiy munosabatlar (tor ma’noda)	Siyosat sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar shakli bo‘lib, kelishuv, hamkorlik, munozara, ziddiyat, hukmronlik va bo‘ysunuv kabi munosabatlarda namoyon bo‘ladi.
2	Siyosiy jarayon	O‘zaro bog‘liq siyosiy voqea va hodisalar zanjiri hamda siyosiy hokimiyatni egallash, saqlash va amalga oshirishga qaratilgan sub’ektlar harakatlari majmuasi.
3	Siyosiy prognozlash	Siyosiy voqealar rivojining ehtimoliy yo‘nalishlari, muqobil yo‘llari va muddatlari haqida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish jarayoni.
4	Siyosiy vaziyat	Muayyan vaqt davomida siyosiy tizim holati va uning sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar majmuasi.
5	Siyosiy munosabatlar (keng ma’noda)	Hokimiyatni qo‘lga kiritish, taqsimlash va amalga oshirish jarayonida siyosiy sub’ektlar va ob’ektlar o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar turi.

Siyosiy jarayonga konseptual yondashuv uni ikki asosiy jihatdan talqin etishni nazarada tutadi. Birinchidan, u siyosiy hodisalarning rivojlanish yo‘li, ya’ni siyosiy tizimda yuz beradigan o‘zgarishlar dinamikasi sifatida tushuniladi. Ikkinchidan, siyosiy jarayon siyosat sub’ektlarining turli faoliyat shakllari, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hamda ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadigan o‘zaro aloqalar majmuasi sifatida qaraladi.

Tuzilmaviy jihatidan siyosiy jaaryon bir nechta asosiy elementlardan iborat. Uning sub'ekti – siyosiy faoliyatni amalag oshiruvch shaxslar,ijtimoiy guruhlar yoki institutlaridir. Ob'ekt esa erishilishi lozim bo‘lgan siyosiy maqsadni anglatadi. Shuningdek, maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan vositalar, usullar va resurslar hamda qarorlarni amalga oshiruvchi ijrochilar siyosiy jarayonnnig muhim tarkibiy qismlarini tshkil etadi.

Siyosiy jarayon ayrim olimlar toomnidan "siyosiy tizim holatlarining almashinuvi, uning vaqt mobaynida faoliyat ko‘rsatishi" sifatida ta'riflanadi.Ushbu tushuncha vaqt davomida kechadigan turli siyosiy voqealar yoki izchil ravishda bir – birini almashtirib boruvchi siyosiy hodisalalr majmuasini ifodalaydi.

Siyosiy jarayonning mazmuni quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- siyosiy jarayonnnig vujuduga kelishi v amal qilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy – siyosiy shart – sharoitlar;
- siyosiy harakat sub'ektlari, ularning ta'sir ko‘rsatish vositalari, shuningdek, ta'sir yo‘naltiriladigan ob'ektlar;
- siyosiy o‘zaro munosabatlarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning manfaatlari, hati-harakat motivlari va ko‘zlangan maqsadlari;
- subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirnin gkurash va hamkorlik shakllaridan namoyon bo‘lishi.

Har qanday murakkab hodisa singari siyosiy jarayonlar ham turli mezonlar asosida guruhlanishi mumkin. Jamiyatga nisbatan munosabtiga ko‘ra ular ichki siyosiy va tashqi siyosiy xlqaro jaaryonlarga ajratiladi.

Ichki siyosiy jarayon muayyan jamiyat,odatda davlat doirasida kechadi hamda ushbu jamiyat siyosat sub'ektlari – partiyalar,jamoat tashkilotlari, millatlar va boshqa ijtimoiy birilklar, siyosiy yetakchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni qamrab oladi. Ularning faoliyatining markazida siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirish masalasi turadi. Ichki siyosiy jarayon jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarin qamrab oladi:siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtiomiy, ekologik,demografik,madaniy,harbiy va boshqa

o‘alishlar. Ichki siyosiy maqsadlarga erishish usullari turlicha bo‘lishi mumkin.Ular amaldagi huquqiy – me’riy tizim doirasida qonuniy va tinch vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga ayrim holatlarda noqonuniy va zo‘ravonlikka asosalangan usullardan ham foydalanishi ehtimoldan holi emas.

Tashqi siyosiy jarayon davlatning boshqa dalatlar bilan munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Uning maqsad va mazmuni, shakl va usullari muayyan jamiyatnnig ijtimoiy – siyosiy tuzum, davlat qurilishi hamda ustuvor iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi. Tashqi siyosiy jarayonning asosiy mohiyati davlatning halqaro maydondagi strategik manfaaltlarini ta’minlash va himoya qilishdan iborat. Bu jarayonnnig samaradorligiga turli cheklovlar ta’sir ko‘rsatadi. Chunki jahonda manfaatlari va dasturlari turlicha bo‘lgan ko‘plab davlatlar mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro hamjihatlikda yashashi va hamkorlik qilishi zaruriyati tashqi siyosatni murakkablashtiradi.

Zamonaviy sharoitda tashqi siyosiy jarayon tobora muzokaralar san’atiga, oqilona va o‘zaro maqbul siyosiy kelishuvlarga erishish qobiliyatiga tayanadigan jarayonga aylanib bormoqda. Shu bois, diplomatiya, muloqot va kompromiss tashqi siyosatning utuvor vositalari sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

16.2.Empirik sotsiologik tadqiqotlarning shakllanish tarixi.

“Empirik” atamasi ingliz tilidan tarjima qilganda “tajriba orqali olingan” degan ma’noni anglatadi. Demak, empirik tadqiqotlar nazariy mulohazalardan ko‘ra, bevosita tajriba va real kuzatishlarga asoslanishi bilan ajralib turadi.

Empirik usullar qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot – bu xuloslalr faqatk uzatish, eksperiment, taqqoslash, o‘lchash, so‘rov, hujjatlar tahlili va boshqa ma’lumot to‘plash usullari orqali olingan dalillarga asoslangan hholda chiqariladigan izlanishdir. Tajriba va kuzatuv tayanadigaan tadqiqotlar zamonaviy jamiyatda muhim ahamyatga ega,chunki ko‘pchlilk insonlar o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani, eshitgani yoki bevosita his etgan ma’lumotlarga ko‘proq ishonadi. Shu bilan birga, empirik usullar

ilmiy tadqiqotda aniqlik, reallik va xolislikni ta’minlasada, ular katta vaqt va moliyaviy resusrlarini talab qilishi mumkin.Ayrim lyu’ekt va hodisalarni o‘lchash yoki ular bo‘yicha olingan ma’lumotlarni tahlil qilish esa murakkab jaaryon bo‘lishi mumkin. Ma’lumot to‘plash usuliga qarab empirik metodlar shartli ravishda ikki guruhga ajratiladi:miqdoriy va sifatli.

Miqdoriy usullar orqali o‘rganilayotgan hodisaning sonli ifodasi aks ettirilgan ma’lumotlar to‘planadi, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Bunday tahlil natijasida tadqiqot boshiida ilgari surilgan gipotezani tasdiqlash yoki inkor etish imkoni yaratiladi.

Miqdoriy empirik usullarga quyidagilar kiradi:

- so‘rov – ma’lum bir yopiq saqollar to‘plami asosida og‘zaki yoki 1zma anketa orqali katta hajmdagi ma’ulmotlarni yig‘ish usuli;
- eksperiment – eng umumiy empirik bilish usuli bo‘lib, kuzatish va o‘lchashni qamrab oladi, shuningdek, tadqiqot ob’ektini o‘zgaritirsh,sharoitlarini almashtirish orqali uningyangi xsusiyatlarini ani qlash yoki nazariy qoidalarini tekshirishga xizmat qiladi. Eksperiment tabiiy yoki sun’iy sharoitlarda o‘tkazilishi mumkin.
- Korrelyatsion tahlil – ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar oo‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash usuli. Ya’ni, bir o‘zgaruvchidagi o‘zgarish boshqasina qay darajada ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Bog‘liqlik zichligi korrelyatsiya koeffitsienti orqali belgilanadi.
- Longityud (uzoq muddatli) tadqiqot – ma’lum bir vatq davomida ma’ulamotlarni muntazo‘am yig‘ish va tahlil qilish orqali o‘zgarishlar dinamikasini hamda vaqt omilining ta’sirini o‘rganish usuli;
- Kesimli (kross-seksion) tadqiqot – muayyan vaqt nuqtasida ob’ekt yoki hodisalarning o‘zro bog‘liqligi va xususiyatlarini aniqlash maqsadida ma’lumot yoig‘ish va tahlil qilish usuli;
- Taqqoslash tadqiqoti – turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishitirish, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda qiyosiy tahlil o‘tkazish usuli;

-Faktorli tahlil – ko‘p o‘lchamli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy beliglar asosida aniqlash imkonini beruvchi ilmiy tadqiqot metodikasi.

Ayrim hollarda miqdoriy usullar ma’lumotlarni tzliq tahlil qilish uchun yetarli bo‘lmaydi. Bunday vaziyatda sifat usullari qo‘llaniladi. Ularning natijalari tavsifiy shaklda ifodalanadi va tadqiqotchiga ilgari surilgan gipoteza yoki nazariyalarni tasdiqlash yoki inkor etishda yordam beradi.

Sifat tadqiqot usullarida sonli bo‘lmagan ma’lumotlardan foydalaniladi. Ular o‘rganilayotgan hodisalarning yashirin mazmuni, ichki sabablari va qonuniyatlari aniqlashga xizmat qiladi.

Sifat empirik usullariga quyidagilar kiradi:

-Keys stadi – mavjud alohida holatlarni chuqur va har toomnlama tahlil qilish orqali qo‘shimcha ma’lumot olish usuli. Ushbu metod kontekstual tushunish, individual yondashuv, interpretatsiya va tahlilni qamrab oladi.

-Kuzatish – tadqiqot ob’ekti yoki hodisalalrni tizimli ravishda o‘rganish va baholash orqali yangi o‘zaro bog‘liqliklar hamda qonuniyatlarni aniqlash usuli.

-Yakka tartibdagi intervyu – tadqiqotchi bilan respondent o‘rtasidagi chuqur va tuzilgan suhbat bo‘lib, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha sifatli va batafsil ma’lumot to‘plashga qaratilgan.

-Fokus – gruppa – kichik guruh ishtirokchilari bilan muayyan mavzu yuzasidan o‘tkaziladigan suhbat usuli. U orqali ishtirokchilarning fikrlari, qarashlari, tajribalari va munosabatlari o‘rganilib, turli nuqtai nazarlar chuqurroq tahlil qilinadi.

-Matn tahlili – matnli manbalarni tizimli o‘rganish orqali ulaning tuzilmaviy jihatlari, mazmuniy qonuniyatlari va ahamiyatli axborotini aniqlash usuli. Ushbu metodning asosiy xususiyatlari – tizimlilik, strukturalashtirish, interpretatsiya, kategoriyalarashtirish va sifatli ma’lumotlarini yig‘ishdan iborat.

-Implikatsion shkalalar usuli – abstrakt hodisalarni o‘lchash mumikn bo‘lgan qiyomatlarga aylantirish va keyinchalik ularni tahlil

hamda interpretatsiya qilish imkonini beruvchiu sul. U shkala tuzish, nisbiy baholash va miqdoriy tahlil elementlarini o‘z ichiga oladi.

Ba’zi empirik usular tadqiqot xususiyatlariga qarab ham miqdriy, ham sifatli usullar qatoriga kiritilishi mumkin:

- O‘lchash – adqiqot ob’ekti yoki hodisaning miqdoriy xususiyatlarini baholash va tahlil qilish uchun standartlashtirilgan asboblar yoki shkalalardan foydalaniladigan uchullar.
- Testlash – standartlashtirilgan va tuzilgan topshshiriqlar sosida tadqiqot ob’ekti, hodisa yoki jaaryonning muhim xususiyat va belgilarini anqlashga xizmat qiluvchi usul.
- Ekspert baholash – muayyan sohada yuqori bilim va tajribaga ega mutaxassislar fikriga tayanish orqali muhim ma’lumotlar olish usuli. Ekspertlar zulosalari umumlashtiriladi, tahlil qilinadi va shu asosda tadqiqotchi yakuniy xulosa chiqaradi.
- Kontent tahlil – katta hajmdagi ma’lumotlarni (raqamlar, matnalar,tasvirlar,audio va video materiallar) tizimli va strukturalangan tarzda o‘rganish hamda tahlil qilish usuli. U orqali qonuniyatlar, o‘zaro bog‘liqliklar, tendensiyalar va bsho‘qa muhim xususiyatlar aniqlanadi.



16.1-rasm. Empirik sotsiologik tadqiqotning tuzilishi.

Yuqoridagi rasmdan kelib chiqib quyidagi xulosa chiqvarish mumkin:empirik sotsiologik tadqiqot – bu ilmiy – amaliy izlanish bo‘lib, unda tadqiqotchi respondentlar bilan bevosita muloqot qiladi va “birinchi qshldan” ma’lumot to‘playdi, shuningdek, ularga ta’sir etuvchi omillar va holatlar inobatga olinadi. Bunday turdagi ilmiy tadqiqot amalga oshirish – keng ko‘lamli va murakkab, diqqatli va puxta rejalashtirilgan jarayondir. Uning asosiy prinsipi – “ishon, lekin tekshir” degan maqolga muvofiq ravishda amal qilishdir, chunki tadqiqotchi to‘plangan ma’lumotlarni bir necha marta tekshirib,

ularning aniqligini ta’minlashi va to‘g‘ri xulosa (kerak bo‘lsa tavsiyalar) ishlab chiqishi zarur.

Empirik sotsiologik tadqiqotning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1.Eksperiment o‘tkazish – tadqiqotchi (intervyuer) va nazorat guruhi (respondentlar,jamiyat va boshqalar) o‘rtasida bevosita muloqotga asoslangan tajriba talab etiladi.

2.Sotsiologik tadqiqot dasturini rejalashtirish – tadqiqot davrini aniqlash, savollar ro‘yxatini tuzish (formulirovkalar aniqligi,javob variantlari,baholash mezonlari) kabi tayyorgarlik o‘z ichiga oladi.

3.Ko‘p bosqichli tahliliy jarayon – to‘plangan ma’lumotlar, faktlar va tendensiyalar bir necha marta tekshirilib, ularning aniqligi ta’minlanadi.

4.Xulosalarning ma’lumotlarga asoslanishi – barcha natijalar faqat to‘plangan empirik ma’lumotlardan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Shu tariqa empirik tadvivot – bu puxta rejalashtirilgan, diqqat bilan amalga oshiriladigan va aniq faktlar asosida natija chiqarishni talab qiladigan ilmiy – amaliy faoliyatdir.

Empirik tadqiqotlar sotsiologiyasida – ilmiy va amaliy yondashuvlarni muvaffaqiyatli birlashtiruvchi kompleks jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda tadqiqotchi faqat nazariy bilimlarga tayanadigan emas, balki bevosita respondentlar bilan muloqot va kuzatuv orqali to‘plangan ma’lumotlarga asoslangan amaliy natijalarni ham qo‘llaydi. Shu tariqa , empirik tadqiqotlar nazariy tahlil va real hayot tajribasini uyg‘unlashtirit, ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq va ishonchli ravishda o‘rganish imkonini beradi.

16.3-jadval

Sotsiologik tadqiqotlarnig klassifikatsiyasi

Ilmiy bilish darajasiga ko‘ra	Maqsad va natijaga ko‘ra
• Empirik tadqiqotlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadqiqot ob’ektiga murojaat qilish bilan)	• Fundamental tadqiqotlar (ijtimoiy qonun-qoidalar, tendensiyalar tahlili; ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun strategiya ishlab chiqishga yo‘naltirilgan yangi bilimlar asosida)
• Nazariy tadqiqotlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadqiqot ob’ektiga murojaat qilmasdan)	• Amaliy tadqiqotlar (aniq ijtimoiy muammolarni o‘rganish va hal qilish)

Tahlilning muhimligi va bholanayotgan voqea hamda hodisalarning ko‘lamiga qarab quyidagi turldagi sotsiologik ilmiy – tadqiqot ishlari ajaratiladi:

1. Sinovli sotsiologik ilmiy – tadqiqot (NIR). Bu turdagi tadqiqot avval bor bo‘lmagan yoki kam ma’lumot mavjud bo‘lgan hodisani birinchi marta baholash imkonini beradi. Odatda, bunday hodisa haqida kam ma’lumotlar va faktlar bo‘ladi, shu bois tadqiqotchi katta miqdoridagi adabiyot, faktlargarni qayta ko‘rib chiqishi, ularni qayta tekshirishi, kuzatuv yoki eksperiment o‘tkazish kabi ishlar bilan shug‘ullanadi.
2. Tasviriy tadqiqot. Uning asosiy vazifasi – aktual tendensiyalar va jarayonlarni tasvirlash hamda natijalarni (oqibtalarni) o‘rganishdan iborat.
3. Tahliliy tadqiqot.Bu turdagi tadqiqot o‘rganilayotgan hodisaning sabab va oqibatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Shunday qilib, bu turli bosqichlardagi tadqiqotlar ijtimoiy voqea va hodisalarni chuqurroq va tizimli o‘rganish imkonini beradi.

Empirik sotsiologik tadvivotlar ma’lumot to‘plash usullariga ko‘ra ham klassifikatsiya qilinadi. Tanlangan va qo‘llanilayotgan asbob – uskunalarga qarab quyidagi tadqiqot turlari ajratiladi:

1.So‘rovnomalar – asosan yozma yoki og‘zaki formatda amalga oshiriladi. Bu jarayonda respondentlar savolnomalarni to‘ldiradi yoki berilgan savollarga og‘zaki javob beradi.

2.Kuzatuvlar yoki esperimentlar – tadqiqotchi ijtimoiy hodisalalrni bevosita kuzatadi yoki nazorat qilingan sharoitlarda tajriba ztkazadi.

3.Hujjatlarni tahlil qilish – bu usul nazariy jihatdan koʻproq ahamiyatga ega boʻlib, tadqiqotda jarayonlarnnig xususiyati, ularnig oʻzgarishlari va boshqa jihatlarini aniqlashga qaratilgan.

Shu tarzda, empirik tadqiqotlar turli metodlar yordamida maʼlumot toʻplab, ijtimoiy jarayonlarni chuqur va tizimli oʻrganish imkonini beradi.

Oʻtkazilayotgan tadbirlar va tadqiqotlar takrorlanish jihatiga koʻra quyidagilar ajratiladi:

1.Yakka tarmoqli sotsiologik tadqiqotlar - muayyan masalani aniq bir sanada yoki belgilangan davr mobaynida oʻrganadi. Bu tur tadqiqotlar asosan konkret vaqt nuqtasidagi holatni tahlil qilishga qaratilgan.

2.Takroriy tadqiqotlar - avvalgi olingan dastlabki maʼlumotlarni maʼlum vaqt oʻtgach qayta tekshirish, tajribani takrorlash va shu kabi ishlar orqali maʼlumotlarnig ishonchliligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Bu klassifikatsiya tadqiqotlarning takrorlanish darajasi va ularning davomiyligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Mavjud boʻlgan masala hajmi va koʻlami hamda tadqiqotda ishtirok etadigan respondentlar soniga qarab, tadqiqotchi quyidagi turdagi izlanishlarni tashkil qilish mumkin:

1. Hamma ishtirok etuvchilarni qamrab oluvchi tadqiqot – bu usulda hech qanday cheklovsiz, barcha hohlovchilar tadqiqotga jalb qilinadi. Bunday yondashuv jamiyatning umumiy fikrini aniq bir masalaga nisbatan bilish imkonini beradi.

2. Tanlangan guruhga asosalangan tadqiqot – tadqiqot muayyan bir belgining asosida birlashgan aniq guruhning fikrini oʻrganishga qaratilgan.

Empirik sotsiologik tadqiqot koʻpincha bir nechta turlarning kombinatsiyasi sifatida amlaga oshiriladi va har bir tur beliglangan mavzu va maqsaddan kelib chiqib muayyan vazifani bajaradi:

- Mavjud muammoni diagnostika qilish va tasvirlash;
- Sabab – oqibat munosabatlarini aniqlash;

-Jamiyat yoki tanlangan guruhning muammoga, hodisalarga bo‘lgan munosabatini baholash;

-Muammoni hal qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va natijalarni prognoz qilish imkonini berish.

Tadqiqot mavzusi va maqsadidan kelib chiqib, turli usullar va yondashuvlar birlashtiriladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari (NIR)dan samarali va ijobiy natija olish uchun har bir qadamni puxta rejalashtirish, tadqiqot dasturini tuzish juda muhimdir. Beliglangan rejalar va qoidalardan chetlash tavsiya etilmaydi, ammo juda zarur va asosli sabablar mavjud bo‘lsa, bunda istisno qilish mumkin. Shu bilan tadqiqot jarayoni rejaoashtirish va metodologik intizomga qat’iy rioya qilish orqali aniq va ishonchli natijalarga erishish imkonini beradi.

Empirik sotsiologik tadqiqot dasturi quyidagi bosqichlarni o‘z ichichg oladi:

1-bosqich.NIR maqsadini aniqlash.Tadqiqot mavzusi tasdiqlangandan so‘ng, tadqiqotchi nima o‘rganilayotganini va nima uchun o‘rganilishini tushunish kerak. Bu savollarga beriladigan javoblar asosida maqsad aniqlanadi va u tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

2-bosqich. Muammoni qo‘yish. Mavzu va mavjud tushunchalardan kelib chiqib, tadqiqotchi orasida bahs va savollar tug‘diradigan, shubha yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan ziddiyatni aniqlanishi lozim. Muammoni qo‘yish mavzuga, maqsadga va sohadagi amaldagi tendensiyalarga asoslanadi.

3-bosqich. Gipoteza ishlab chiqish. Yuqoridagi yo‘nalishlardan kelib chiqib, tadqiqotchi tekshirilishi lozim bo‘lgan taxminni ishlab chiqadi. Bu taxmin jamiyat fikri (holat tahlili) yoki muammoni hal qilishning mumkin bo‘lgan natijasi bo‘lishi mumkin.

4-bosqich.Metodologiyani belgilash.Tadqiqotchi muammoni o‘rganish va tahlil qilish uchun usul va asboblarni tanlaydi. Empirik sotsiologik tadqiqotlarda asosiy usulalr:so‘rovnoma,anketa,kuzatuv yoki eksperimentdir. Shuningdek, ma’lumotlarni aniqlash va

tendensiyalarni koʻrish maqsadida tadqiqotning koʻp bosqichli (takroriy) olib borilishi tavsiya qilinadi.

5-bosqich. Metodik taʼminlash. Bu bosqichda tadqiqotchi oʻzaro aloqalar usulalrini ishlab chiqadi:savollarni formulirovka qilish,anketa yoki soʻrovnoma qogʻozlarini tayyorlash, maʼlumotlarni qayta ishlash usullari va baholash mezonlarini aniqlash kabi ishlar amalga oshiriladi.

6-bosqich. Ekspertni amalga oshiirsh. Ushbu bosqichda tadqiqot dasturida nazarda tutilgan barcha tadbirlar bevosita amalga oshiriladi.Birlamchi maʼlumotlar toʻplanadi, zarurat boʻlsa ular qayta tekshiriladi (takroriy tadqiqot oʻtkaziladi) va maʼlumotlarning ishonchliligi taʼminlanadi.

7-bosqich. Maʼlumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish.Bu bosqichda tadqiqotchi yigʻilgan materiallarni puxta oʻrganib, ularni muayyan mezonlar asosida guruhlaydi:ovozlar soniga koʻra, jins, yosh,kasb, tajriba kabi beliglari boʻyicha. Birlamchi maʼlumotlar qayta ishlanganadan soʻng tahlil jaaryoni boshlanadi: muammoni diagnostika qilish, tendensiyalarni aniqlash, sabab – oqibat bogʻliqliklarini belgilash, jamoatchilik fikrini baholash va tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosa chiqarish.

8-bosqich.Hisobotni rasmiylashtirish.Empirik sotsiologik tadqiqot natijalari boʻyicha hisobot tayyorlanadi.Agar tadqiqot muayyan buyurtmachi (shaxs yoki tashkilot) topshirigʻi asosida oʻtkazilgan boʻlsa, uning talablariga rioya qilish zarur.Shuningdek, amaldagi standartlar va meʼyoriy talablarga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Barcha birlamchi manbalar tadqiqotga “Ilovalar” qismida dalil sifatida ilova qilinishi kerak.

Ilmiy ish muallifi matnli yoki sifatli maʼlumotlarni statistik koʻrinishga, yaʼni sonli koʻrsatkichlariga aylantirilishi lozim. Bu maʼlumotlarni aniq hisob – kitob qilish, taqqoslash va umumlashtirish imkonini beradi. Aniqlangan tendensiyalar esa grafik shaklda – grafiklar, diagrammalar, jadvallar yoki sxemalar orqali ifodlanishi maqsadga muvofiq. Bunday vizual taqdimot maʼlumotlarning mazmunini yanada ravshan va tushunarli koʻrsatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir grafik yoki diagramma ostida ilmiy jihatdan

asoslangan va dalillarga tayangan tahliliy izoh berilishi shart. Bu izohlar natijalarning mazmunini ochib berish, ularning ahamiyatini ko‘rsatish va tadqiqot xulosalarini asoslash uchun muhim hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Sotsiologik tadqiqot nimani o‘rganadi?
2. Ijtimoiy jarayonlar qanday tahlil qilinadi?
3. Iqtisodiy munosabatlar nimani ifodalaydi?
4. So‘rovnoma usuli nima uchun qo‘llaniladi?
5. Kuzatuv usuli qanday natija beradi?
6. Tahlil jarayoni nimaga xizmat qiladi?
7. Empiric ma’lumot qanday yig‘iladi?
8. Ijtimoiy institut nimani anglatadi?
9. Siyosiy faollik qanday namoyon bo‘ladi?
10. Iqtisodiy xulq nimaga bog‘liq?

Nazorat testlari

1. Demografiya fanining asosiy o‘rganish obyekti nima?

A) Korxona foydasi va xarajati

B) Davlat budjeti va soliqlar

C) Tabiiy resurslar zaxirasi

D) Aholining soni, tarkibi va harakati

2. Demografiya atamasi qaysi ma’noni anglatadi?

A) Sanoat tarmoqlarini o‘rganuvchi fan

B) Iqlim o‘zgarishini o‘rganuvchi fan

C) Aholi haqidagi fan

D) Yer tuzilishini o‘rganuvchi fan

3. Aholining tabiiy harakati tarkibiga qaysi ko‘rsatkichlar kiradi?

A) Import, eksport va bojxona

B) Investitsiya va kredit

C) Ishlab chiqarish va iste’mol

D) Tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish

4. Migratsiya deganda nima tushuniladi?

A) Tug‘ilish sonining ortishi

B) O‘lim darajasining kamayishi

C) Aholining hududiy ko‘chib yurishi

D) Aholi daromadining o‘sishi

5. Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti odatda nimaga nisbatan hisoblanadi?

A) 100 aholiga

B) 10 000 oilaga

C) 1 million aholiga

D) 1000 aholiga

6. O‘limning umumiy koeffitsiyenti nimani bildiradi?

A) Nikohlar sonini

B) Ishsizlar ulushini

C) Migratsiya hajmini

D) Muayyan davrda 1000 aholiga to‘g‘ri kelgan o‘limlar sonini

7. Aholi ro‘yxatga olishning asosiy vazifasi nima?

A) Korxonalar foydasini baholash

B) Soliq qarzlarini aniqlash

C) Aholi haqidagi to‘liq va tizimli ma’lumotlarni yig‘ish

D) Narxlar indeksini hisoblash

8. Demografik portlash nima?

A) Aholi sonining keskin kamayishi

B) Urbanizatsiyaning pasayishi

C) Aholi sonining juda tez sur’atda o‘sishi

D) Migratsiyaning to‘xtashi

9. Urbanizatsiya nimani anglatadi?

A) Shahar aholisi ulushining ortishi

B) Tug‘ilish darajasining pasayishi

C) Qishloq xo‘jaligi ulushining ortishi

D) O‘lim darajasining ortishi

10. Immigratsiya bu —

A) Qishloqdan shaharga ko‘chish

B) Tabiiy o‘sishning kamayishi

C) Aholining mamlakatga kirib kelishi

D) Aholining mamlakatdan chiqib ketishi

11. Emigratsiya bu —

A) Tug‘ilishning oshishi

B) Aholining mamlakatga kelib joylashishi

C) Aholi zichligining ortishi

D) Aholining mamlakatdan chiqib ketishi

12. Tabiiy o‘sish qanday aniqlanadi?

A) Shahar aholisidan qishloq aholisini ayirish orqali

B) Nikohlar sonidan ajralishlarni ayirish orqali

C) Ko‘chib kelganlardan ketganlarni ayirish orqali

D) Tug‘ilganlar sonidan o‘lganlar sonini ayirish orqali

13. Aholining mexanik o‘sishi asosan nima bilan bog‘liq?

A) Nikoh bilan

B) Tug‘ilish bilan

C) Migratsiya bilan

D) O‘lim bilan

14. Demografik siyosatning maqsadi nima?

A) Sanoat ishlab chiqarishini ko‘paytirish

B) Yer soliqlarini kamaytirish

C) Valyuta kursini belgilash

D) Aholi rivojlanish jarayonlarini tartibga solish

15. Aholi zichligi qanday ko‘rsatkich?

A) Bir kvadrat kilometrga to‘g‘ri keladigan aholi soni

B) 1000 aholiga tug‘ilish soni

C) Bir oiladagi farzandlar soni

D) 1000 aholiga o‘lim soni

16. Reproduktiv yoshdagi ayollar odatda qaysi yosh oralig‘ida olinadi?

A) 18–65 yosh

B) 15–49 yosh

C) 20–60 yosh

D) 0–14 yosh

17. Jinsiy tarkib ko‘rsatkichi nimani ifodalaydi?

A) Bolalar va qariyalar nisbatini

B) Shahar va qishloq nisbatini

C) Nikoh va ajralish nisbatini

D) Erkaklar va ayollar nisbatini

18. Aholining yosh tarkibi nimani tavsiflaydi?

A) Hududlar bo‘yicha joylashuvini

B) Daromadlar bo‘yicha farqini

C) Aholining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishini

D) Kasblar bo‘yicha taqsimlanishini

19. Demografik yuklama koeffitsiyenti nimani ko‘rsatadi?

A) Shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatini

B) Koʻchib kelganlarning ketganlarga nisbatini

C) Tugʻilishning oʻlimga nisbatini

D) Mehnat yoshidan tashqari aholining mehnat yoshidagilarga nisbatini

20. Nikohning umumiy koeffitsiyenti nimaga nisbatan hisoblanadi?

A) 1000 aholiga

B) 100 oilaga

C) 1000 ayolga

D) 1 km² ga

21. Ajralishning umumiy koeffitsiyenti nimani bildiradi?

A) 1000 aholiga toʻgʻri kelgan ajralishlar sonini

B) 100 oilaga toʻgʻri kelgan farzandlar sonini

C) Qishloqdan shaharga koʻchganlar sonini

D) 1000 nikohga toʻgʻri kelgan tugʻilishlar sonini

22. Aholi roʻyxatga olish odatda qaysi tamoyil asosida oʻtkaziladi?

A) Muayyan sanadagi holat boʻyicha

B) Faqat mehnat resurslari boʻyicha

C) Faqat shahar aholisi boʻyicha

D) Faqat-yillik oʻrtacha koʻrsatkich boʻyicha

23. Demografik jarayonlarning asosiy manbalaridan biri qaysi?

A) Valyuta birjasi ma’lumotlari

B) Sanoat omborlari roʻyxati

C) Tovar birjasi hisobotlari

D) Fuqarolik holati dalolatnomalari ma’lumotlari

24. Kohorta deganda nima tushuniladi?

A) Faqat mehnatga layoqatli erkaklar

B) Bir oiladagi shaxslar

C) Bir davrda tugʻilgan yoki bir xil hodisani boshdan kechirgan avlod guruhi

D) Bir hududda yashovchi barcha aholi

25. Hayot davomiyligi koʻrsatkichi nimani bildiradi?

A) Migratsiyaning davom etish muddatini

B) Odamning yashashi kutilayotgan oʻrtacha yoshni

C) Nikohning oʻrtacha davom etishini

D) Aholi sonining ikki baravar boʻlish vaqtini

26. Goʻdaklar oʻlimi koeffitsiyenti qaysi guruhga taalluqli?

A) 5 yoshgacha boʻlgan bolalarga

B) Yangi nikoh qurganlarga

C) 1 yoshga toʻlmagan bolalarga

D) 15 yoshgacha boʻlganlarga

27. Depopulyatsiya nima?

A) Migratsiyaning kuchayishi

B) Shaharlar sonining koʻpayishi

C) Aholining tez oʻsishi

D) Aholi sonining uzoq muddat kamayishi

28. Netto migratsiya qanday aniqlanadi?

A) Tugʻilganlar va oʻlganlar yigʻindisi bilan

B) Shahar va qishloq aholisi farqi bilan

C) Koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar farqi bilan

D) Nikoh va ajralishlar farqi bilan

29. Demografik oʻtish nazariyasi nimani tushuntiradi?

A) Iqlim mintaqalarining oʻzgarishini

B) Faoliyat turlarining almashishini

C) Tugʻilish va oʻlim darajalarining tarixiy oʻzgarishini

D) Siyosiy tizimlarning almashuvini

30. Aholining oddiy takror barpo boʻlishi nimani bildiradi?

A) Avlodlar son jihatdan deyarli bir xil almashinuvini

B) Aholining juda tez koʻpayishini

C) Migratsiyaning ustunligini

D) Shahar aholisining ikki baravar oʻsishini

31. Kengaygan takror barpo boʻlish sharoitida nima kuzatiladi?

A) Migratsiya to‘liq to‘xtaydi
B) Yangi avlod soni oldingi avloddan ko‘p bo‘ladi
C) Nikohlar soni nolga tenglashadi
D) O‘lim tug‘ilishdan yuqori bo‘ladi

32. Qisqargan takror barpo bo‘lish sharoitida nima kuzatiladi?
A) Yangi avlod soni oldingi avloddan kam bo‘ladi
B) Shahar aholisi kamaymaydi
C) Migratsiya kuchayadi
D) Tug‘ilish va o‘lim teng bo‘ladi

33. Aholining doimiy aholisi tushunchasi nimani anglatadi?
A) Mazkur hududda doimiy yashovchi shaxslarni
B) Faqat vaqtincha kelganlarni
C) Faqat ish bilan kelganlarni
D) Faqat ro‘yxatdan o‘tmaganlarni

34. Vaqtinchalik aholi kategoriyasiga kimlar kiradi?
A) Doimiy propiskaga ega fuqarolar
B) Faqat pensionerlar
C) Hududda qisqa muddat yashab turgan shaxslar
D) Faqat yangi tug‘ilganlar

35. Demografik prognoz nima uchun tuziladi?
A) Soliq stavkalarini belgilash uchun
B) Faol korxonalar sonini aniqlash uchun
C) Kelajakdagi aholi soni va tarkibini oldindan baholash uchun
D) Yer maydonini o‘lchash uchun

36. Aholining iqtisodiy faol qismi kimlardan iborat?
A) Faqat talabalar va o‘quvchilardan
B) Faqat nafaqaxo‘rlardan
C) Faqat bolalardan
D) Mehnat bozorida qatnashayotgan shaxslardan

37. Demografik dividend qachon yuzaga keladi?
A) Qariyalar ulushi keskin oshganda

B) Mehnat yoshidagi aholi ulushi yuqori bo‘lganda
C) Tug‘ilish nihoyatda kamayganda
D) Migratsiya to‘xtaganda

38. Aholi piramidasi nimani ko‘rsatadi?

A) Yosh va jins tarkibining grafik ifodasini
B) Hududning relyef xaritasini
C) Korxona boshqaruv tuzilmasini
D) Narxlar indeksining dinamikasini

39. Tug‘ilishning maxsus koeffitsiyenti kimlarga nisbatan hisoblanadi?

A) Barcha erkaklarga
B) Reproduktiv yoshdagi ayollarga
C) Faqat qariyalarga
D) Faqat bolalarga

40. Aholining qarishi nima degani?

A) Nikohlar sonining ortishi
B) Bolalar ulushining ortishi
C) Migratsiya darajasining ko‘payishi
D) Keksa yoshdagilar ulushining ortishi

41. Ichki migratsiya qaysi ko‘chishni bildiradi?

A) Faqat chet eldan kelishni
B) Davlatlararo ko‘chishni
C) Mamlakat hududi ichidagi ko‘chishni
D) Qit’alararo ko‘chishni

42. Tashqi migratsiya qaysi ko‘chishni bildiradi?

A) Bir tumandan boshqasiga ko‘chishni
B) Bir viloyatdan boshqasiga ko‘chishni
C) Davlat chegarasidan o‘tib ko‘chishni
D) Shahar ichidagi ko‘chishni

43. Aholining o‘rtacha-yillik soni nima uchun kerak bo‘ladi?

A) Valyuta kursini belgilash uchun

B) Hudud maydonini aniqlash uchun

C) Iqlim xaritasini tuzish uchun

D) Nisbiy demografik koʻrsatkichlarni aniq hisoblash uchun

44. Demografik tahlilda absolut koʻrsatkichga misol qaysi?

A) Aholi zichligi

B) Tugʻilganlar soni

C) Oʻlim koeffitsiyenti

D) Tugʻilish koeffitsiyenti

45. Demografik tahlilda nisbiy koʻrsatkichga misol qaysi?

A) Aholining jami soni

B) Tugʻilish koeffitsiyenti

C) Nikohlar soni

D) Koʻchib kelganlar jami

46. Aholining hududiy joylashuvi nimani tavsiflaydi?

A) Aholining jins tarkibini

B) Aholining makonda taqsimlanishini

C) Aholining daromad darajasini

D) Aholining yosh tarkibini

47. Roʻyxatga olishda ‘kritik moment’ nima?

A) Migratsiya boshlangan davr

B) Natijalar e’lon qilinadigan kun

C) Hisobot yoziladigan sana

D) Aholi holati qayd etiladigan aniq sana va vaqt

48. Demografik xavf omillaridan biri qaysi?

A) Texnologik modernizatsiya

B) Mehnat unumdorligining oshishi

C) Oʻlimning yuqori darajasi

D) Transport tezligining ortishi

49. Aholi sonining oʻsish sur’ati nimani ifodalaydi?

A) Faqat nikohlar sonini

B) Aholi sonidagi oʻzgarish tezligini

C) Faqat tug‘ilishlar sonini

D) Faqat o‘limlar sonini

50. Demografik siyosatning pronatalistik yo‘nalishi nimaga qaratiladi?

A) Migratsiyani cheklashga

B) O‘limni statistik qayd etishga

C) Shaharlarni qisqartirishga

D) Tug‘ilishni rag‘batlantirishga

GLOSSARIY

	Atama	Qisqa ilmiy izoh
1	**Demografiya**	Aholining soni, tarkibi, joylashuvi va takror barpo bo‘lish jarayonlarini o‘rganuvchi fan.
2	**Aholi**	Muayyan hududda doimiy yoki vaqtincha yashayotgan insonlar yig‘indisi.
3	**Aholi soni**	Ma’lum vaqt va hudud doirasida qayd etilgan jami aholi miqdori.
4	**Tug‘ilish**	Aholi tarkibida yangi tug‘ilganlar soni bilan ifodalanadigan demografik hodisa.
5	**O‘lim**	Aholi tarkibidan vafot etganlar chiqishi bilan bog‘liq demografik jarayon.
6	**Tabiiy o‘sish**	Tug‘ilganlar soni o‘lganlar sonidan ortiq bo‘lganda yuzaga keladigan aholi ko‘payishi.
7	**Tabiiy kamayish**	O‘lganlar soni tug‘ilganlar sonidan ko‘p bo‘lganda kuzatiladigan demografik holat.
8	**Fertillik**	Ayollarning farzand ko‘rish faolligi va biologik-demografik tug‘ilish qobiliyati darajasi.
9	**Tug‘ilish koeffitsiyenti**	Har 1000 nafar aholi hisobiga to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlar soni.
10	**O‘lim koeffitsiyenti**	Har 1000 nafar aholi hisobiga to‘g‘ri keladigan o‘limlar soni.
11	**Chaqaloqlar o‘limi**	Bir yoshga to‘lmagan bolalar orasida qayd etiladigan o‘lim holatlari ko‘rsatkichi.
12	**Onalar o‘limi**	Homiladorlik, tug‘ruq yoki undan keyingi davr bilan bog‘liq ayollar o‘limi holatlari.
13	**Kutilayotgan umr davomiyligi**	Muayyan sharoit saqlansa, inson yashashi mumkin bo‘lgan o‘rtacha-yillar soni.
14	**Nikohlilik**	Aholi orasida nikoh tuzish intensivligi va nikoh jarayonlarining darajasi.
15	**Ajralishlilik**	Nikohlarning bekor bo‘lishi bilan bog‘liq demografik ko‘rsatkichlar majmui.
16	**Migratsiya**	Aholining hududlar yoki davlatlar o‘rtasida ko‘chib yurish jarayoni.

	Atama	Qisqa ilmiy izoh
17	**Immigratsiya**	Boshqa hudud yoki davlatdan muayyan mamlakatga doimiy yoki uzoq muddatli koʻchib kelish.
18	**Emigratsiya**	Muayyan mamlakat yoki hududdan boshqa joyga koʻchib ketish jarayoni.
19	**Ichki migratsiya**	Bir mamlakat hududi ichida aholi yashash joyining oʻzgarishi.
20	**Tashqi migratsiya**	Davlat chegaralarini kesib oʻtish bilan bogʻliq aholi koʻchishi.
21	**Migratsion saldo**	Koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni oʻrtasidagi farq.
22	**Urbanizatsiya**	Shaharlar soni, shaharliklar ulushi va shahar turmush tarzining ortib borishi jarayoni.
23	**Shahar aholisi**	Shahar maqomiga ega hududlarda yashovchi aholi qatlami.
24	**Qishloq aholisi**	Qishloq hududlarida yashovchi va qishloq turmush tarziga mansub aholi.
25	**Aholi zichligi**	Hudud birligiga, odatda 1 km² ga toʻgʻri keladigan aholi soni.
26	**Yosh tarkibi**	Aholining yosh guruhlari boʻyicha taqsimlanish holati.
27	**Jins tarkibi**	Aholining erkaklar va ayollar ulushi boʻyicha shakllangan tuzilmasi.
28	**Mehnatga layoqatli yosh**	Iqtisodiy faoliyatda qatnashishga mos deb qabul qilingan yosh oraligʻi.
29	**Reproduktiv yosh**	Farzand koʻrish imkoniyati eng yuqori boʻlgan yosh davri.
30	**Demografik yuklama**	Mehnatga layoqatsiz aholi sonining mehnatga layoqatli aholi soniga nisbati.
31	**Demografik siyosat**	Aholi jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari tizimi.
32	**Demografik jarayon**	Tugʻilish, oʻlim, nikoh, ajralish va migratsiya kabi aholi hodisalari majmui.
33	**Depopulyatsiya**	Aholi sonining uzoq muddat davomida kamayib borishi holati.

	Atama	Qisqa ilmiy izoh
34	**Demografik portlash**	Qisqa davrda tug‘ilishning keskin ortishi natijasida aholi sonining tez o‘sishi.
35	**Aholining takror barpo bo‘lishi**	Avlodlar almashinuvi orqali aholining muntazam yangilanib borish jarayoni.
36	**Oddiy takror barpo bo‘lish**	Avlodlar soni deyarli teng almashganda yuz beradigan demografik holat.
37	**Kengaygan takror barpo bo‘lish**	Keyingi avlod soni oldingi avloddan ko‘p bo‘lganda kuzatiladigan holat.
38	**Qisqarayotgan takror barpo bo‘lish**	Keyingi avlod soni oldingi avlodga nisbatan kam bo‘lganda yuzaga keladigan jarayon.
39	**Avlodlar almashinuvi**	Bir avlod o‘rnini keyingi avlod egallashi bilan kechadigan demografik hodisa.
40	**Kohorta**	Bir davrda tug‘ilgan yoki bir xil hodisani boshdan kechirgan kishilar guruhi.
41	**Aholi ro‘yxati**	Aholi haqidagi ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayd etish tadbiri.
42	**Tanlanma kuzatuv**	Bosh to‘plamning bir qismini o‘rganish orqali umumiy xulosa chiqarish usuli.
43	**Demografik prognoz**	Kelajakdagi aholi soni va tarkibini ilmiy usullar asosida oldindan baholash.
44	**Demografik o‘tish**	Yuqori tug‘ilish va o‘limdan past tug‘ilish va o‘lim darajasiga o‘tish jarayoni.
45	**Median yosh**	Aholini ikki teng qismga ajratuvchi markaziy yosh ko‘rsatkichi.
46	**Aholining qarishi**	Keksalar ulushining ortishi natijasida yosh tarkibining yuqori yoshlar tomon siljishi.
47	**Oilaviy tarkib**	Oila a’zolarining soni, yoshi, jinsi va qarindoshlik aloqalari bo‘yicha tuzilishi.
48	**Uy xo‘jaligi**	Birgalikda yashab, umumiy byudjet va iste’molni yurituvchi shaxslar guruhi.
49	**Mexanik o‘sish**	Aholi sonining asosan migratsiya hisobiga ortishi.
50	**Demografik ko‘rsatkich**	Aholi jarayonlarini son jihatdan ifodalovchi statistik mezon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Farhat Yusuf, Jo. M. Martins, David A. Swanson. Methods of Demographic Analysis. Springer Netherlands. 2014. 330.
2. Abduraxmonov Q.H. va boshqalar./ Zokirova N.K., Shoyusupova N.T., Gabzalilova V.T., Abduramanov X.X., Abduraxmanova G.K., Shakarov Z.G. Demografiya. Darslik. – T.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 364 b.
3. Abdurahmanov X.X., A.B.Xayitov. Demografik tahlil. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 268 b.
4. Антонова Н. Л. Демография : учеб.-метод. пособие - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2014. – 154 с.
5. Щербаков А.И., М.Г. Мдинарадзе, А.Д. Назаров, Е.А. Назарова Демография: учеб. пособие - М. : ИНФРА-М, 2017. - 216 с.
6. Медков В.М. Введение в демографию. – М.: ИНФРА-М, 2006. С320.
7. Robert N. Lussier. Human Resource Management: Functions, Applications, and Skill Development, Sage Publications, Inc, Year: 2018. 1919 p.

Axborot manbaalari:

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.mehnat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy sayti.
4. www.Ilo.org – Xalqaro mehnat tashkiloti veb-sayti

Mundarija

KIRISH 3
I BOB. DEMOGRAFIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA USULLARI 5
1.1. “Demografiya” fanining premeti va tadqiqot usullari. 5
1.2. Aholi soni va ularning tuzilmasini o‘rganish. 12
1.3.Iqtisodiy rivojlanish va aholi takror ishlab chiqarilishining o‘zaro bog‘liqligi. 18
II BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNI O'RGANISH UCHUN STATISTIK VA SOTSIOLOGIK MA'LUMOTLAR. 26
2.1.Aholini ro‘yxatga olish tarixi haqida. 26
2.2.Aholining tabiiy harakatiga oid statistik ma’lumotlarning ta’rifi, konsepsiyalari va qo‘llanilishi 34
III BOB. DEMOGRAFIK VAZIYATNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI 44
3.1.Demografik jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan statistik usullar 44
3.2. Tabiiy tug‘ilishning gipotetik minimal darajasi indeksi. 53
3.3.Demografik koeffitsientlarni standartlashtirish usullari. 56
IV BOB. AHOLI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR MANBALARINI TIZIMLASHTIRISH 69
4.1. Demografik hodisalarning joriy statistik hisobi. 69
4.2.Tanlangan va maxsus tekshiruvlar. 74
V BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNING INTENSIVLIGINI O‘LCHASH 84
5.1. Demografik jarayonlarning o‘zgarish tezligining koeffitsientlari .84
5.2.Demografik jarayonlarning intensivlik koeffitsientlari. 89
VI BOB. JAMIYAT TARKIBIDA NIKOH VA OILA TAHLILI 102
6.1. Aholining nikoh tarkibini tahlili. 102
6.2.Oilaviy tuzilmaning rivojlanish tarixi 107
VII BOB. O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI. . 118
7.1.Aholining soni va yosh tarkibi dinamikasi. 118
7.2. Migratsiya jarayonlarining asosiy tushunchalari va zamonaviy tendentsiyalari. 123
VIII BOB. INSON TARAQQIYOTINING IJTIMOIY VA DEMOGRAFIK XAVFLARI 134
8.1. Inson salohiyati va inson kapitali. 134

8.2.Demografik muhitni shakllantirishdagi xatarlar. 145
IX BOB. DEMOGRAFIK SIYOSAT: TASHQI VA ICHKI TAJRIBA 152
9.1. Demografik va oilaviy siyosatning xorijiy tajribasi. 152
9.2. O'zbekistonda demografik siyosat. 164
X BOB. IQTISODIY DEMOGRAFIYA 171
10.1.Demografik omillarning iqtisodiyotga ta'siri, iqtisodiyotning demografik jarayonlarga ta'siri. 171
10.2.Demografiya va biznes. 176
XI BOB. ETNIK DEMOGRAFIYA 184
11.1.Etnik guruhlar demografik o'rganish ob'ekti sifatida. 184
11.2. Demografik jarayonlarning etnik jihatlari. 189
XII BOB. IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MIGRATSIYA SIYOSATINING XUSUSIYATLARI 197
12.1.Chet elda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning ijtimoiy-huquqiy asoslari. 197
12.2.Yevropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida migratsiya siyosatini modernizatsiya qilish tajribasi. 204
XIII BOB. DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY SHART-SHAROITLARI 209
13.1.Onalik va bolalikni himoya qilish. 209
13.2.Uy-joy siyosati oilani rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida. . 214
13.3.Oilaviy hayotning infratuzilmasi. 221
XIV BOB. IJTIMOIY-DEMOGRAFIK PROGNOZLASHNING MOHIYATI VA MAQSADLAR 233
14.1.Demografik prognoz. 233
14.2. Demografik prognozlashni o'tkazish metodikasi 241
XV BOB. HUDUDNING BARQAROR RIVOJLANISHINING DEMOGRAFIK O'LCHOVI 254
15.1.Barqaror rivojlanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar 254
15.2.Xalqaro tashkilotlar ko'rsatkichlari tizimidagi demografik ko'rsatkichlar 266
XVI BOB. IQTISODIY VA SIYOSIY JARAYONLARNI SOTSIOLOGIK TADQIQ QILISH 273
16.1. Jamiyat sotsiologik tadqiqot mavzusi sifatida 273
16.2.Empirik sotsiologik tadqiqotlarning shakllanish tarixi. 281
Nazorat testlari 291
GLOSSARIY 300
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 303

R.J. KURBANOVA, M.E. ERDONOV,
M.A. ABDIVOXIDOV

DEMOGRAFIYA ASOSLARI

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2026-yil 02-iyundagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (10-sonli majlis bayoni, Ro‘xatga olish raqami 376-02/06).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2026

1971

ISBN: 978-9910-5306-8-5

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 15.06. 2026 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2026 y.

2026-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 19.12
Buyurtma № 0117A/25. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy